9. Матренин Д.И., Харитонова И.В. Эмоциональный интеллект как ресурс социально-психологической адаптации // Universum: психология и образование: электрон. научн. журн. 2018. № 1 (55).

10. Нарзикулова Ф. Б. Формирование профессионального имиджа и мотивации педагогов в условиях взаимодействия с искусственным интеллектом: вызовы и перспективы. // Сборник материалов международной научно-практической конференции. «Искусственный интеллект и современные тенденции обучения». — 2025. — 863 с. — С. 376–381.

11. Нарзикулова Ф.Б. Использование инструментов анализа текста на основе искусственного интеллекта для определения эмоционального и социального интеллекта человека. // Международная конференция по контенту, созданному с помощью ИИ (AIGC 2024) том 13649 - 7 июля 2025 г. https://doi.org/10.1117/12.3065908

12. Нарзикулова Ф.Б. Совершенствование социально-психологических условий развития профессионально-имиджевого потенциала педагога. Монография. – Самарканд: Издательство «СамГИИЯ», 2025. – 164 с.

13. Рахмонов А. (2024). Интеграция ИИ в образовательный процесс: подготовка учителей-промпт-инженеров. Interpretation and Researches. https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/3255

UDK: 159.9.072

Sattarova Gulnora Ikromovna,
Qarshi davlat universiteti,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Isroilova Gavharshodbegim O'ktam qizi,
Qarshi davlat universiteti psixologiya yo'nalishi magistranti

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'SMIRLARDA HISSIY-IRODAVIY SOHANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan o'smirlarda hissiy-irodaviy sohaning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Ularning psixologik xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Hissiy beqarorlik va irodaviy sifatlarning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Rivojlanishga ta'sir etuvchi ijtimoiy va pedagogik omillar aniqlanadi. Shuningdek, samarali psixologik-pedagogik yondashuvlar tavsiya etiladi. Natijada, o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivoji muhim ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan o'smirlar, hissiy rivojlanish, irodaviy sifatlar, psixologik rivojlanish, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv

ФОРМИРОВАНИЕ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОЙ СФЕРЫ У ПОДРОСТКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. В статье рассматривается процесс формирования эмоционально-волевой сферы у подростков с ограниченными возможностями. Освещаются их психологические особенности и этапы развития. Анализируются проявления эмоциональной неустойчивости и волевых качеств. Определяются социальные и педагогические факторы, влияющие на развитие. Предлагаются эффективные психолого-педагогические подходы. Подчеркивается значение социальной адаптации и личностного развития подростков.

Ключевые: подростки с ограниченными возможностями, эмоционально-волевая сфера, эмоциональное развитие, волевые качества, инклюзивное образование, социальная адаптация.

FORMATION AND FACTORS OF DEVELOPMENT OF THE EMOTIONAL-VOLITIONAL SPHERE IN ADOLESCENTS WITH DISABILITIES

Annotation. This article examines the formation of the emotional-volitional sphere in adolescents with disabilities. Their psychological characteristics and stages of development are described. Features of emotional instability and volitional qualities are analyzed. Social and pedagogical factors influencing development are

identified. Effective psychological and educational approaches are proposed. The importance of social adaptation and personal development is emphasized.

Keywords: adolescents with disabilities, emotional-volitional sphere, emotional development, volitional qualities, inclusive education, social adaptation.

Hissiy-irodaviy sifatlar psixologiya sohasida o‘rganilishi jihatdan eng murakkab sanalgan psixik protsesslardan biridir. Shu boisdan, hissiyot va iroda ilmiy manbalardan mustaqil psixik hodisalarning tarkibiy qismi sifatida narsa va voqeiylikni aks ettirish jarayonida insonda tug‘iladigan ichki kechinmalar, munosabatlar, shaxsiy tashabbusi bilan, ongli zaruratdan kelib chiqqan holda, oldindan rejaga solingan yo‘nalishda va oldindan nazarda tutilgan kuch-g‘ayrat bilan tegishli ish harakatlarni bajarish, shuningdek, xatti-harakatlarni mustaqil asosda nazorat qilishning o‘ziga xos qobiliyati sifatida ham talqin etiladi. E.A.Kedyarova iroda fenomenini tushuntirishda uch muhim jihat mazmuniga alohida to‘xtalib o‘tadi [2]. Ya’ni harakatni tanlash, harakatni boshlash va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish. T.A.Trifonovaning fikricha, hissiy-irodaviy sifatlar bu - motivatsiya kuchi bilan belgilanadigan, xohish va istaklar bilan xarakterlanadigan mustaqil kuchdir [4]. Mazkur yondashuvlarga muvofiq, ta’sir qilish kuchi –irodani harakatga keltirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, hissiy-irodaviy kechinmalar tashqi ta’sirlar ostida paydo bo‘lib, keyinchalik irodaviy sifatlar tomonidan nazorat qilinadi. Shu bois, zaif istaklar uchun kuch sarf qilinmaydi va ular muddat o‘tib o‘z-o‘zidan unutilib ketadi.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Toshkent shaxar Olmazor tumani 100-sonli tayanch harakat a’zolari shikastlangan o‘quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 126 nafar o‘smir yoshidagi tarbiyalanuvchilari jalb etildi.

Tadqiqotimizda asosiy metodikalar sifatida muvaffaqiyatli aprabatsiyadan o’tgan M.Chumakovning “Shaxs irodaviy sifatlarini o’rganish” testi va Nikiforov tomonidan yaratilgan “Emotsional holatlarda o’zini nazorat qilish” so’rovnomasidan;, yordamchi metodika sifatida Jeymsom Amirxon tomonidan ishlab chiqilgan “Koping-indikator” testi, Panteleyev va Stolinning “Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari” so’rovnomalaridan foydalandik. Tadqiqotimiz uchun tanlangan metodikalarning aksariyati noparametrik mezonlarga (o’zaro bog’liq bo’lmagan tanlamanlar uchun Man-Uitni, Spirmen) mos kelganligi bois, biz mazkur mezonlar asosid ma’lumotlarni statistic tahlili qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ko‘p yillik izlanishlarimiz, olib borgan tadqiqotlarimiz imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlanishi, shakllanishining determinantlarini korrelyatsion tadqiqot asosida aniqlashga harakat qildik. Dastlabki 1-jadvalda imkoniyati cheklangan o‘smirlardan “Shaxs irodaviy sifatlari” va “Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish” metodikalari bo‘yicha korrelyatsiyon tadqiqot asosida olingan natijalar taqdim etiladi.

1-jadval

SHIS hamda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish komponentlari o‘rtasida aloqadorlik.

(Spirmen mezoni bo‘yicha, n=126)

Shkalalar	Emotsional holatlarda ozini nazorat qilish	Faolyatda ozini nazorat qilish	Ijtimoiylashuvda ozini nazorat qilish
Masuliyatlilik	0,084	0,130	-0,002
Tashabbuskorlik	0,000	0,164	0,100
Qatiyatlilik	0,092	0,157	0,089
Mustaqillik	**-0,266(**)**	0,085	**-0,139(*)**
Matonatlilik	**-0,275(**)**	-0,075	-0,034
Tirishqoqlik	0,099	0,093	-0,007
Gayratlilik	0,079	0,111	0,006
Ziyraklar	**0,190(**)**	-0,020	**0,214(**)**
Sobitqadamlik	**0,167(*)**	0.145	0,093

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

Tahlillariga ko‘ra, har ikkala metodika shkalalari o‘rtasida o‘zaro ahamiyatlilikka ega 6 ta korrelyatsiya koeffitsiyenti aniqlandi. Ko‘rinib turibdiki, shkalalari o‘rtasida aloqadorlik biroz tarqoq. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning irodaviy sifatlari bilan emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish xususiyatlari uyg‘un holda rivojlanyapti deb bo‘lmaydi. “Mustaqillik” shkalasi “Emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilish” shkalasi bilan (r_s =-0,266;p<0,01) va “Ijtimoiylashuvda o‘z o‘zini nazorat” qilish(r_s =-0,139;p<0,01) shkalalari bilan ijobiy ahamiyatli aloqadorlik hosil qilgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda mustaqillik zaiflashuvi bilan emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish suratida pasayish holati sodir bo‘lmoqda. Natijalarga ko‘ra, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish quyilashsa maqsadni amalga oshirish va harakat ijrosini tanlashda ularda regress holati vujudga kelmoqda. Maqsadga erishmaslikning juda kichik yoki katta ehtimoli imkoniyati cheklangan o‘smirlarda hissiy beqarorlikning ortishi o‘ziga ishonchning pasayishiga olib kelgan. Boshqa tomondan esa, hissiy barqarorlikning yuqorilashuvi kichik muvaffaqiyatdan ruhlanish, maqsadga erishishga bo‘lgan ishonchni va mustaqillikni orttirgan. Mustaqillik sur’atida o‘sish ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilishda progressiyani vujudga keltirmoqda. Imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilarda mustaqillik hissi ortib borgani sayin ularda, atrofdagilar bilan munosabatda o‘zini nazorat qilish suratida ham ijobiy siljish kuzatilgan, lekin mustaqillikning zaif respondentlarda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilishning zaifligi, odamovilik, stressiv holatlarga moyillik va xavotirli his tuyg‘ular rivojlanishini kuzatish mumkin.

“Matonatlilik” bilan “Emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilish” shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r_s =-0,275; p<0,01); Matonatlilikning pasayishi emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qila olmaslikning ortishiga olib kelmoqda. Aksar imkoniyati cheklangan o‘smirlar emotsional holatlarda o‘zlarini nazorat qila olmaydilar, tez yig‘lab yuboradilar, qizaradilar, asabiylashadilar yoki quvonchdan baqirib yuboradilar. Ko‘zlagan maqsadiga erishishga matonatsizlik, sobitqadamlik

sur'atini pasaytirgan. Imkoniyati cheklangan o'smirlar matonatli bo'lib borganlari sayin ularda tirishqoqlik sifati unga mutanosib tarzda o'sib boradi. Imkoniyati cheklangan katta o'smirlik yoshidagi o'quvchilar irodasining kuchi va qat'iyati, ular fe'l-atvorning qaysi xislatlarida ifodalangan bo'lsa o'sha xislatlar eng yorqin irodaviy xislatlardan hisoblanadi. Matonatli bo'lmagan o'smirlarda tirishqoqlik sifati ham kamol topmaydi. Chunki, tirishqoqlik insondan chidam matonat talab etadi. Shu bois, imkoniyati cheklangan o'smirlarda matonatlilik sifatini tarkib toptira borish nihoyatda muhim vazifalar sirasiga kiradi. Imkoniyati cheklanganlikda matonat bilan maqsadga erishish, maqsadi yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengish, hayotda o'z o'rnini topishga harakat qilish matonatlilik sifatisiz mushkuldir.

"Ziyraklik" shkalasi bilan "Emotsional holatlarda o'z- o'zini nazorat qilish" (r_s =0.190;p<0,01); va "Ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat" (r_s =0,214;p<0,01) qilish shkalalari o'rtasida musbat ahamiyatli aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o'smirlarda ziyraklik ortib borgani sayin ularda emotsional holatlar va ijtimoiylashuvda o'z o'zini nazorat qilish ko'nikmalari tarkib topa boradi. Ziyraklik – biror qarorni amalga oshirishga xalaqit beradigan xatti-harakatlar, his-tuyg'ular hamda fikrlarni o'z vaqtida sekinlashtirishga, ularni doimiy nazorat qilishga yordam beruvchi sifatdir. Mazkur masalada V.E.Fishenkoning aytishicha, ziyrak va aqlli odam har doim, sharoitga mos keladigan faoliyat turini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi [5].

Aslida, imkoniyati cheklangan o'smirlarning o'zini tutish qobiliyatini rivojlantirish uchun, ularda ichki sokinlik, qiyin hayotiy vaziyatlarda oqilona va muvozanatli harakat qilishni mashqlantirib borish lozim. Imkoniyati cheklangan o'smirlarning psixologik xususiyatlarni o'rganar ekanmiz, ular shaxsining shakllanishida, rivojlanib, kamolotga erishuvida unga bevosita ta'sir etuvchi pubertat rivojlanish jarayoni bilan bog'liq omillar ta'sirini tushunish mumkin. Biroq, nuqsoni bo'lgan o'smirlarning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni hamma vaqt ham jismoniy o'sish va jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Kuzatishlarimizcha, bu davrga kelib ularda o'z tana tuzilishidan qanoatlanmaslik va mayiblik hissi ustuvor o'ringa chiqadi. Tushkunlik, fatal holat, o'ziga past baho berish, ularda ba'zida so'zga kirmaslik, o'jarlik, beqarorlik, tajanglik kabi harakatlar bilan namoyon bo'ladi. Mana shunday psixofiziologik nomutanosiblik o'smirning psixik o'sishiga uzluksiz ta'sir etib, unda doimiy noxush hislarni paydo qilib turadi.

"Sobitqadamlik" shkalasi "Emotsional holatlarda o'z- o'zini nazorat qilish" (r_s =0,167;p<0,05); shkalasi o'rtasida ham musbat zaif aloqadorlik aniqlandi. Sobitqadamlik imkoniyati cheklangan o'smirlarda shakllantirilishi o'ta muhim bo'lgan irodaviy sifatlar sirasiga kiradi. Ularda sobitqadamlik sifatining shakllanishi emotsional holatlarda o'z o'zini nazorat qilishda me'yoriy bosqichlarga ko'cha borgan. Imkoniyati cheklangan o'rta o'smir yoshidagi o'quvchilar uchun irodaviy sifatlarga egalik muhimdir, ammo irodaviy sifatlarning emotsional holatlar bilan uyg'unlashuvi yanada ahamiyatlidir. Hissiy-irodaviy sifatlarni o'rganishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni shaxsning bilimlari, afzalliklari, e'tiqodi, ehtiyojlari va qaror qabul qilish qobiliyati va boshqalar.

Chunki, inson biror ishni amalga oshirishni niyat qilsa, ana shu vazifani amalga oshirishga kirishishning o‘zi, ixtiyoriy harakatlarga o‘tishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bir so‘z bilan ta’riflaganda, irodaviy sifatlar niyatlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi, uni tartibga soluvchi va ishning davomiyligini ta’minlovchi psixologik jarayondir [3].

Navbatda (2-jadval) respondentlarning shaxsning irodaviy sifatlari koping-indikator hamda subyektiv lokus nazorat metodikalari komponentlari bo‘yicha korrelyatsion aloqadorligi natijalari taqdim etiladi.

Shaxsning irodaviy sifatlari so‘rovnomasining “Mas’uliyatlik” shkalasi bilan “Muammolardan qochish” (r_s =-0,196;p<0,05); shkalasi o‘rtasida zaif manfiy aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda mas’uliyatlikning tarkib topib borayotganligi ularning muammolardan qochish sur’atida pasayishni yuzaga keltirmoqda.

“Qat’iyatlilik” shkalasi “Muammolarni hal qilish” shkalasi bilan zaif aloqadorlik (r_s =-0, 164;p<0,05);, “Muammolardan qochish” shkalasi bilan ahamiyatli manfiy aloqadorlik (r_s =-0.195;p<0,01); hosil qilgan. Respondentlarda qat’iyatlilik ular hayotida uchraydigan ba’zi xarakterologik muammolarni hal qilishda ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, muammolardan qochish darajasini pasaytirgan. Aksariyat o‘smirlarda muammoni yechish oldidagi holat qiyinchiliklarga taslim bo‘lishi, qat’iyatlilikni namoyon eta olmaslik, o‘zini tuta bilmaslik, xatti-harakatlar va faoliyatning yuqori bosqichlarida boshqara olmaslik bilan ifodalanadi. Qat’iyatlilikning ortishi muammolarni hal qilish sur’atida o‘sishni muammolardan qochish sur’atida pasayishni vujudga keltirgan. Bu ijobiy natija. E.Ilinning ta’kidlashicha, zaif irodaning namoyon bo‘lish doirasi kuchli irodaning xarakterli fazilatlari kabi katta ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Zaif irodaning haddan tashqari darajasi psixikaning buzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bularga, masalan, abuliya va appraksiya kiradi [1].

2-jadval

Shaxsning irodaviy sifatlari, koping-indikator hamda subyektiv lokus nazorat komponentlari aloqadorligi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar kesimida (Spirmen mezoni bo‘yicha, n=126)

Shkalalar	Muammolarni hal qilish shkalasi	Ijtimoiy yordam sorash shkalasi	Muammolardan qochish shkalasi	Internal lokus	Eksternal lokus
Masuliyatlilik	0,110	0,159	**-0,196(*)**	0,067	0,112
Tashabbuskorlik	0,076	0,129	-0,001	-0,022	-0,066
Qatiyatlilik	**0,164(*)**	0,013	**0,195(*)**	0,142	-0,031
Mustaqillik	0,049	**-0,224(*)**	**-0,285(*)**	0,221	0,028
Matonatlilik	-0,160	0,036	-0,009	-0,051	0,028
Tirishqoqlik	0,035	0,065	0,047	0,043	0,058
Gayratlilik	0,030	**0,186(*)**	-0,052	-0,077	-0,011

Ziyraklar	0,126	**0,175(*)**	-0,022	**0,131(*)**	0,172
Sobitqadamlik	0,117	0,360(**)	-0,128(*)	0,032	**0,378(**)**

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

Mustaqillik shkalasi bilan "Ijtimoiy yordam so'rash" (r_s =-0,224;p<0,01); "Muammolardan qochish" shkalasi o'rtasida (r_s =-0.285;p<0,01); ahamiyatli manfiy aloqadorlik aniqlandi. Metodika bo'icha olingan natijalar, ba'zan imkoniyati cheklanganlikda bu holat ba'zan kishida normal jarayondek tasavvurni uyg'otadi. Aslida, bu normal jarayon emas albatta. Ayniqsa, maxsus maktab o'qituvchi murabbiylari hamda ko'pgina ota-onalarda "Istaymizmi, yo'qmi, ular jismonan mayib, imkoniyati cheklangan, shuning uchun ularni asrab avaylash, ko'ngillariga qarash kerak" degan tushuncha ustuvorlik qiladi. Ota-onalar nogiron farzandiga ko'proq g'amxo'rlik ko'rsatishi, o'smirning qiliqlari o'zini tutishi va istaklariga xayrixohlik bildirishi, farzandiga uchun qo'lidan kelgan ish harakatni amalga oshirishga urinishi kuzatiladi. Ko'pchilik ota-onalar nogiron farzandining turli faoliyatdagi kichik muammolarni ham o'zlari hal qilishga harakat qiladilar. Bolaning saqlangan imkoniyatlarini ishga tushirishga imkon bermaydilar. Go'yoki, bu harakatlari bilan farzandiga yordam berayotgandek, mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatayotgandek bo'ladilar. Tarbiyada bunday yondashuv xato bo'lib, nogiron bola emotsional irodaviy sferasining zaiflashuviga, hissiy- irodaviy o'sishini kechikishiga, ijtimoiy qo'llab quvvatlashni qidirish va tobelikni oshishiga olib keladi. Shuning uchun, maxsus maktablarda pedagoglar, psixologlar imkoniyati cheklangan o'smirlar tarbiyasiga bag'ishlangan mavzularda ota-onalar uchun maxsus seminar treninglar, davra suhbatlari tashkil etishlari zarur bo'ladi.

"G'ayratlilik" sifati va "Ijtimoiy yordam so'rash shkalasi" komponenti orasida ahamiyatli bog'lanish aniqlandi (r_s =0,186;p<0,01); imkoniyati cheklangan o'smirlar g'ayratli bo'lib borganlari sayin ularda emotsional holatlarda o'z o'zini boshqarish uquvi ham o'sib borgan. Imkoniyati cheklangan o'smirlar mustaqil bo'lib borganlari sayin ularda atrofdagilarga qaramlik, ijtimoiy yordam so'rash kamaygan va muammolarni o'zlari yechishga harakat qila boshlaganlar.

"Ziyraklik" shkalasi bilan "Ijtimoiy yordam so'rash" shkalasi o'rtasida manfiy (r_s =-0,186;p<0,05); aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ziyraklikning rivojlanishi boshqalardan yordam kutish, atrofdagilarga qaramlik holatlarini pasaytiradi. Irodaviy sifatlar bilan koping xulq atvor xususiyatlarining tarkib topganligi jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smirlarda shakllantirilishi muhim bo'lgan xulq atvor xususiyatlari sirasiga kiradi. Bunday xulq atvor normalari tarkib topgan o'smirlar kelajakda o'z o'rnini topishga intiladi. Aksincha iroda va koping xulq atvor xos xususiyatlarning zaifligi tayanch harakati a'zolarida nuqsoni bor o'smirlarda muammolardan qochish, o'z-o'zini izolyatsiyalash, xavotirli hislarga berilish kabi qator salbiy holatlarni keltirib chiqargan.

Aslida, hissiy-irodaviy sifatlar tashqi muhitga, ichki jarayonlar va o'ziga-o'zi ta'sir ko'rsatishga yo'naltirishda barqaror va individual ko'rinish oladi. O'smirlarning hissiy-irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan mana shu unsurlar bilan bog'langandir. Hissiy-irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy

harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog‘liq ravishda irodaviy harakatlar odam to‘la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Hissiy-irodaviy faoliyat tufayli o‘smir ko‘p jihatdan o‘zini ma’lum sharoitda anglaydi, o‘z hayot yo‘li va taqdirini o‘zi belgilashi mumkin.

Shaxsning irodaviy sifatlari bilan subyektiv lokus nazorat so‘rovnomasi komponentlari o‘rtasida quyidagi aloqadorlik aniqlandi. “Ziyraklik shkalasi “Internal lokus” shkalasi bilan zaif aloqadorlik namoyon qilgan (r_s =0,131;p<0,01). Demak ichki internallikka ega imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ma’lum darajada ziyraklik mavjud. Natijalardan ba’zi (kam sonli) imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda introvertlikka xos xususiyatlar kuzatildi. Bu ijobiy holat. Agarda, o‘smir barcha harakatlarining natijalarini ichki muhitdan ya’ni o‘zidan qidirsa, unda bunday o‘smirlar har qanday vaziyatda mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oluvchi o‘quvchilar hisoblanishadi.

“Sobitqadamlik” “Ijtimoiy yordam so‘rash” shkalasi (r_s=0,360;p<0,01);. “Muammolardan qochish” (r_s =0,128;p<0,05);. Va “Eksternal lokus nazorat” shkalasi bilan (r_s =0,378;p<0,01);. ahamiyatli aloqadorlik hosil qilgan. Eksternallik imkoniyati cheklangan o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda yuqoriroq ko‘rsatkich bilan tafovutlandi. Eksternal tipga xos imkoniyati cheklangan o‘smirlar tashqi holatga yo‘naltirilgan, qiyinchiliklardan cho‘chiydilar, muayyan topshiriqni bajarishda turli vaj-bahonalar izlaydilar, o‘z mas’uliyatsizligi, erinchoqligi sababini tashqi omillar bilan bog‘lash kuzatilgan. Bunday tipdagi o‘smirlar psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, ular tomonidan qo‘lga kiritilgan har bir yutuq, yoki natija kattalar, murabbiylari tomonidan e’tirof etilib, qo‘llab-quvvatlanmasa ularda o‘z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o‘z niyatlarini ro‘yobga chiqarishni yana va yana paysalga solish kabi holatlar yuqorilashuvi mumkin. Bundan tashqari, xulq atvori eksternallikka xos o‘smir o‘quvchilar hayotdagi ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan sezgir hisoblanadilar. Shikastlantiruvchi tashqi omillarni his etgan o‘smir ularni takrorlanishidan xavotirlanadi,o‘z-o‘zini izolyatsiya qila boshlaydi, atrofdagilarga qo‘shilmaslikka va yolg‘iz bo‘lishga intiladi. Bu o‘z navbatida salbiy emotsional kechinmalarni uzluksiz paydo qiladi. Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda kechayotgan kechinmalar tashqi omillar xarakteriga bog‘liq bo‘lib, bu omillar destruktiv kechinmalar ta’sirida shakllangan o‘smirning “men”i bir tomondan kompensator- ya’ni himoya mexanizmi sifatida inqirozli vaziyatdan chiqib ketish vazifasini o‘tasa, ikkinchi tomondan, o‘smirning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beradi. Ushbu qarama– qarshilikni bartaraf etish uchun o‘smir shaxsining ichki imkoniyatlarini faollashtirish zarur bo‘ladi. Ammo, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hayoti va faoliyatida ba’zan shunday hollar ham bo‘ladiki, o‘smir o‘z oldiga qo‘ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yengib bo‘lmaydigan yoki o‘ziga shunday bo‘lib tuyuladigan to‘sqinliklarga duch keladi. Bunday vaziyatlarda, ba’zan ular qabul qilgan qarorni o‘zgartiradi, bekor qiladi, yoki, ular, qiyinchiliklardan qo‘rqishi tufayli o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan butunlay voz kechishi ham mumkin. Hissiy-irodaviy sifatlar bu – tasodifiy tabiatning tuhfasi emas, u rejalashtirilgan harakatlar uchun ishtiyoq etishmasligini

bartaraf etadigan, murakkab sharoitlarda muqobil variantlardan birini tanlashni ta'minlaydigan, ayrim muammolarni hal qilish uchun qo'llanadigan ongning mahsulidir[3]. Hissiy-irodaviy jarayonlar ta'sirida inson qiyinchiliklarni yengish sharoitida o'z harakatlarini faollashtirish va ularning muvaffaqiyatli yakunlanishiga erishish uchun harakat qilishi muhim.

Hissiy va irodaviy sohani bir-biridan tubdan ajratib o'rganish mumkin emas. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o'smirlarga xos ixtiyoriy harakatlar shakli va atrof – muhitga bo'lgan hissiy munosabat kabilar yuqorida bildirilgan mulohazalarga aniq ilmiy dalil hisoblanadi. Mustaqillik, ziyraklik, emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish, o'z his tuyg'ularini anglash va boshqarish, ijtimoiy yetuklik imkoniyati cheklangan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirishda yetakchi sifat tariqasida maydonga keladi. Mazkur sifatlarni ular xulq atvorida shakllantirishni muhim birinchi navbatdagi vazifalar qatoriga kiritish zarur. Chunki emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish, ijtimoiylikda va faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish uquviga egalik imkoniyati cheklangan o'smirlarning ichki umumiy holatiga ijobiy ta'sir etib, psixik jarayonlarning rivojlanish sifatini, psixologik xususiyatlarning shakllanishi darajasini hamda o'z o'zini nazorat qilish funksiyasini ishlash samaradorligini ta'minlaydi, ularda hissiy barqarorlik, axloqiy me'yoriylik, ishonchlilik, kreativlik, xushmuomalalik kabi yuksak hislarning tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

Shunday qilib, tadqiqotimizda belgilagan vazifalarimizdan kelib chiqib, mazkur paragrafda imkoniyati cheklangan o'smirlarning hissiy irodaviy sifatlarining o'zaro aloqadorlik jihatlari (biz tadqiqotda tatbiq etgan barcha metodikalar natijalari asosida) aniqlandi va tadqiqotimiz uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni qo'lga kiritishga erishdik. Imkoniyati cheklangan o'smirlarning hissiy-irodaviy shakllanishini quvvatlovchi shaxslilikning yordamchi vositalari aniqlandi. Ular faoliyatida "Emotsional konsonanslik", "O'z his tuyg'ularini anglash va boshqarish", "Emotsional simpatiya", "Muloqotda hamda ijtimoiylashuv jarayonlarida o'zini boshqarish" stimulyatsion vosita sifatida xizmat qilishida "Matonat", "Qat'iyat", "Mustaqillik", "Sabr-toqatlilik" kabi irodaviy sifatlar ustuvor psixodinamik regulyatorlar ekanligi dalillandi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Ильин Е.П. Психология воли. 2-е изд. -СПб.: Питер:- 2009. – 368 с.
2. Кедярова Е.А. Волевая регуляция как фактор деятельности студентов // Известия Иркутского Государственного Университета. Серия: психология. 2012. № 1. С.40 - 46.
3. SattarovaG.I. Jismoniy rivojanishida nuqsoni bo'lgan bolalar hissiy-irodaviy sohalarining rivojlanishi" Monografiya "Qarshi davlat universiteti" nashriyoti" Qarshi sh. 2023 160b.
4. Трифонова Т. А. Особенности волевого компонента Я-концепции при целенаправленном развитии способности к самоуправлению: Автореф. дис.канд. психол. наук. –Казань:- 2004.-21 с.
5. Фещенко Е.К. Возрастно-половые особенности самооценки волевых качеств. – СПб., 1999. – С.32.

UDK 159.942:159.955-057.875

TALABALARNING HISSIY-INTELLEKTUAL RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHDA TANQIDNING O‘RNI

Sagindikova Nargiza,
QDU professori v.v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc)
Tolibayeva Farida,
QDU psixologiya magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning hissiy-intellektual resurslarini rivojlantirishda tanqidning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda tanqidning shaxs rivojiga ta’siri, uning konstruktiv va destruktiv shakllari hamda talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va hissiy barqarorligiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, tanqidni to‘g‘ri qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali talabalarning ichki resurslarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: hissiy-intellektual resurslar, tanqid, konstruktiv tanqid, o‘ziga bo‘lgan ishonch, hissiy intellekt, psixologik rivojlanish, motivatsiya, chidamlilik, ijtimoiy moslashuv

РОЛЬ КРИТИКИ В РАЗВИТИИ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируется роль критики в развитии эмоционально-интеллектуальных ресурсов студентов. Рассматривается влияние критики на развитие личности, её конструктивные и деструктивные формы, а также влияние на уверенность в себе и эмоциональную устойчивость студентов. Обосновываются возможности развития внутренних ресурсов студентов через формирование навыков правильного восприятия критики.

Ключевые слова: эмоционально-интеллектуальные ресурсы, критика, конструктивная критика, уверенность в себе, эмоциональный интеллект, психологическое развитие, мотивация, устойчивость, социальная адаптация

THE ROLE OF CRITICISM IN DEVELOPING STUDENTS' EMOTIONAL AND INTELLECTUAL RESOURCES

Abstract. This article analyzes the role of criticism in the development of students’ emotional and intellectual resources. It examines the impact of criticism on personal development, its constructive and destructive forms, and its influence on students’ self-confidence and emotional stability. The study also highlights the importance of developing students’ internal resources through the formation of skills for properly perceiving criticism.

Keywords: emotional-intellectual resources, criticism, constructive criticism, self-confidence, emotional intelligence, psychological development, motivation, resilience, social adaptation.

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning nafaqat akademik bilimlari, balki ularning hissiy-intellektual resurslarini rivojlantirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida shaxsdan faqat bilim emas, balki o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, ijtimoiy muhitga moslashish hamda mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, hissiy-intellektual resurslar talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalarning hissiy-intellektual rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida tanqid alohida o'rin egallaydi. Odatda tanqid salbiy hodisa sifatida qabul qilinadi va u ko'pincha shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiruvchi omil sifatida baholanadi. Biroq ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tashkil etilgan va konstruktiv shaklda berilgan tanqid talabaning o'z ustida ishlashi, kamchiliklarini anglash va ularni bartaraf etishga intilishida muhim turtki bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tanqidni qabul qilish darajasi har bir talabada turlicha bo'lib, bu ularning hissiy barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy tajribasiga bog'liq. Tanqidni to'g'ri qabul qila oladigan talabalar unda rivojlanish imkoniyatini ko'ra oladi, aksincha, uni salbiy qabul qiluvchi talabalar esa psixologik noqulaylik, ishonchsizlik va passivlikka duch kelishi mumkin. Shu sababli, ta'lim jarayonida tanqiddan samarali foydalanish va talabalarni uni to'g'ri qabul qilishga o'rgatish muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – talabalarning hissiy-intellektual resurslarini rivojlantirishda tanqidning o'rnini aniqlash hamda uning psixologik ta'sir mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar tanqidning nafaqat baholash vositasi, balki shaxs rivojlanishining muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

O'ziga bo'lgan ishonch – bu shaxs qobiliyati ham qobiliyatiga bo'lgan munosabat. Bu insonning o'zini qabul qilishi ham o'ziga bo'lgan ishonch va o'z hayotini boshqarishni anglatadi. O'ziga bo'lgan ishonch bu odamlarning har qanday narsaga qodir bo'lishini anglatmaydi. O'ziga ishonadigan odamlar ham haqiqiy bo'lmagan umidlarga ega bo'lishi mumkin. Lekin, ba'zi umidlar amalga oshmasa-da, ular pozitiv bo'lib, o'ziga ishonishni davom ettiradilar.

Tanqid ko'pincha yoqimsiz kuch sifatida qaraladi, bu bizning o'zimizni qadrlashimizni yo'qotadi va biz o'zimizni yetarli emasdek his qilishimizga sabab bo'ladi. Lekin, to'g'ri fikrlash bilan yondashilganda, tanqid o'ziga ishonchni shakllantirish va mustahkamlashda asosiy rolni o'ynashi mumkin. Tanqid konstruktiv fikr-mulohazalardan tortib, yoqimsiz taraflarga ta'sir qilishi mumkin. Asosan, tanqid insonning ish-harakatlari yoki faoliyatlarini baholashni o'z ichiga oladi, ko'pincha yaxshilanishi kerak bo'lgan taraflarni ko'rsatish niyatida. Ba'zi tanqidlar yaxshi niyatli va hurmat tarzida yetkazilishi mumkin bo'lsa-da, boshqa formalari qattiq va ruhiy tushkunlikka tushirishi mumkin.

Tanqidni qanday qilib qabul qilishimiz va uni o‘zimizga qanday qilib anglashimiz insonlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Ba'zilar uchun hatto eng kichik tanqid ham o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik va tushkunlik holatlarini uyg‘otadi. Bu reaksiya tabiiy, chunki odamlar boshqalardan ma'qullash va tasdiqlashni izlashga moyil. Lekin, doimiy tarzda tashqi manbalardan ma'qullashni izlash bizni boshqalarning fikrining cheklovlariga qarshi himoyasiz qoldirishi mumkin, bu esa o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchning kuchsiz tarafiga olib keladi. O‘zlariga ishonadigan odamlar o‘zlarining ideal emasligini tushunadi. Ular buni yaxshi qabul qiladi va o‘zlarining munosib ekanligini biladi. Ular har doim qo‘lidan kelganini qiladi va harakat qiladi. Amalga oshirilgan ishlarining yetarli emasligini tushunganda uni to‘g‘rilaydi va o‘zgartirishga urunadi. Ular bunday holatlarni tajriba sifatida biladi va natijada bu ularning o‘ziga nisbatan munosabatining tushib ketmasiga sabab bo‘ladi.

O‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishda tanqiddan foydalanishda fikr va takliflarni qanday qabul qilishimiz va ularga javob reaksiyalarini qayta ko‘rib chiqish kerak. O‘sish fikrlashini tanlash orqali tanqidga qiziqish va ochiqlik bilan yondashish mumkin va shu asosda uni rivojlanishimizga yordam beradigan qimmatli ma'lumot asosida ko‘rishimiz mumkin. Bu konstruktiv tanqid deb atalib, bizning kuchli va kuchsiz taraflarimiz haqida qimmatli ma'lumot beradigan sabab bo‘lib xizmat qiladi. Bu shaxsning dastlabki sezimlik munosabatlardan chekinish va fikrlarning to‘g‘riligini ob'ektiv baholashni o‘z ichiga oladi.

Tanqidni natijali hal qilishni o‘rganish, shuningdek, o‘ziga ishonchning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi. Chidamlilik – bu muvaffaqiyatsizlik va qiyinchiliklardan qaytish qobiliyati hisoblanadi va tanqid bu qobiliyatni rivojlantirishda qimmatli imkoniyat bo‘lib xizmat qiladi. Tanqidga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshi turish va undan chidamlilik va o‘sish uchun motivatsiya sifatida foydalanish orqali inson o‘zida ichki kuch va ishonch tuyg‘usini rivojlantirishi mumkin.

Albert Banduraning o‘z-o‘zini natijaviylik nazariyasi shaxsning muayyan bir holatlarda muvaffaqiyatga erishish qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi va ish-harakatlari uning natijasiga ta'sir qiladi deb aytib o‘tadi. Konstruktiv tanqid odamlarni ma'lum bir sohada muvaffaqiyatga erishish va qoniqishni oshirishda katalizator bo‘lib xizmat qiladi.

Karol Deweck o‘zining fikrlash nazariyasi orqali doimiy o‘sish va fikrlash orasidagi bog‘liqlikni aniqladi. Uning aytishicha, tanqid qanday qabul qilinishiga qarab doimiylikni kuchaytirish yoki o‘zgarishlar kiritish imkoniga ega. O‘z-o‘ziga ishonch bilan fikr yuritish fikrlash darajasini oshiradi va shaxsning aqliy o‘sishiga sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, Jon Xettinning ta'lim sohasida tanqidni o‘ziga ishonch bilan bog‘liqligini o‘rganadi. Bunda o‘quvchilarda fikrlash ularning o‘z qobiliyatiga ishonishi va akademik o‘sishga undovchi asosiy turtki ekanligini ko‘rsatib beradi.

Biz chuqurroq kirib borar ekanmiz, Shelli Gabelning izlanishlari natijali fikr - jumboqlarning anatomiyasini ochib beradi. Kontent, kontekst va yetkazish bir-biri bilan bog‘lanib, konstruktiv tanqidning asosini tashkil qiladi. O‘ziga xos,

konstruktiv va qo‘llab-quvvatlovchi fikr takliflari o‘z-o‘ziga ishonchni rivojlantiradigan, odamlarni qiyinchiliklarni qabul qilish va o‘zishga intilish uchun mardlik uyg‘otadigan eliksir sifatida paydo bo‘ladi.

Biz bu olimlarning izlanishlari va nazariyalari orqali fikr va takliflar shu asosda tanqid o‘sish va rivojlanish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni qurish va mustahkamlashda yetakchi o‘rinni egallashini bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari, tanqidning o‘ziga bo‘lgan ishonchga ta’siri shaxslarda turli ilmiy test, metodikalar yordamida aniqlangan. Faqat tanqid va o‘ziga ishonchga qaratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri testlar bo‘lmasa-da, psixologlar va olimlar aloqador tuzilmalar yoki omillarni bevosita o‘lchaydigan bir qator baholash va shkalalarni ishlab chiqdilar. Masalan, o‘z-o‘zini samaradorlik shkalasi (GSES) va Akademik samaradorlik shkalasi (ASES) kabi qurilmalar tadqiqotchilar va amaliyotchilarga shaxslarning o‘z imkoniyatlarini idrok etishda yetakchi kompas bo‘lib xizmat qiladi. Yuqori samaradorlik ko‘pincha qiyinchiliklarga, shu asosda tanqidga qarshi chidam va qat’iyat bilan bog‘liq. Chidamlilik, qiyinchilik va omadsizliklarda o‘zini boshqara olish qobiliyati, tanqid oldida o‘ziga bo‘lgan ishonchni saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Konnor-Devidson chidamlilik shkalasi (CD-RISC) va qisqa chidamlilik shkalasi (BRS) kabi metodikalar odamlarning turmush bo‘ronlariga bardosh berish qobiliyati haqida tushuncha beradi. Chidamli kishilar tanqidni o‘ziga hujum emas, balki konstruktiv fikr - taklif sifatida qabul qiladilar.

Shaxslarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini siz tanqidga qanday munosabatda bo‘lasiz metodikasi orqali aniqlashimiz mumkin. Metodika 10 ta ishonchli javobdan iborat va so‘rovnomani o‘smirlik davridagi o‘quvchilarda o‘tkazdik. Respondentlar soni 100. Tanqidga bo‘lgan munosabat quyidagi mezon asosida hisoblanadi:

Ha: 1, 2, 3, 4, 5, 8, 9, 10.

Yo‘q: 6, 7

Kalitdagi javobga ohangdosh kelgan har bir javob 1 ball bilan baholanadi.

Natijalar tahlili.

8-10 ball. Tanqid sizning yordamchingiz. Tanqid sizni xafa qilmaydi, unga nisbatan o‘z emotsiyalaringizni boshqara olasiz, uni to‘g‘ri qabul qilasiz. O‘zingizga ishonchingiz kuchli

4-7 ball. Tanqid ozgina jahlingizni chiqaradi. Tanqidni ko‘tara olmasligingiz mumkin, lekin bu ko‘proq tanqid kim tomonidan aytilayotganiga va sizda qanday kayfiyat ustunligiga bog‘liq.

0-3 ball. Tanqid ko‘nglingizga og‘ir botadi. Tanqid sizni juda qattiq ranjitishi mumkin. Odamlarni chin yurakdan tushunishga intilsangiz ularning sizga harakati ko‘nglingizni jarohatlamaydi.

O‘tkazilgan "Tanqidga munosabatni aniqlash" metodik tadqiqotimizning natijasi jadval shaklida (1-jadval) quyidagicha ko‘rsatilgan:

1-jadval


“Tanqidga munosabatni aniqlash” metodikasi natijasi

Tanqidga munosabati yaxshi	Tanqidga munosabati o‘rtacha	Tanqidga munosabati yomon

47%	50%	3%

O‘z-o‘ziga ishonchni aniqlash maqsadida biz tanqidga munosabatni aniqlash metodikasini o‘tkazdik. 10 ta ma’qullash savolidan iborat ushbu metodika yordamida ularning tashqi muhit bilan aloqa darajasi va o‘z fikr va qarorlariga sobitqadamligi qanday ekanini ko‘rishimiz mumkin. Natijalarni tahlil qilib, ularni uch guruhga ajratdik. Bunda tanqidga munosabati yaxshi, o‘rtacha va yomon degan shkalalar bo‘yicha ularning tanqidga munosabati bilan o‘ziga ishonchini va boshqa psixologik xususiyatlarini o‘rganib chiqdik.

Endi o‘sib, dunyoga bo‘lgan qarashlari o‘zgara boshlagan katta deb katta emas boshqa tomondan endi yosh kichkina bolada emas o‘tish yoshidagi o‘smirlarda ko‘pincha ota-onalari, o‘qituvchilari hamda o‘z tengdosh o‘rtoqlari bilan turli kelishmovchiliklar paydo bo‘lib turadi. Bunga sabab oddiy holatlar yoki tanqidiy fikrlarni, tanqidlarni to‘g‘ri qabul qila olmaslik turtki bo‘ladi. Bolalarning o‘zidan so‘rasang masala nimada ekanini bilish qiyin, chunki ularda turli qochish reaksiyalari, jamiyatdan uzilish inqirozlari uchrab turadi. Shuning uchun bu yerda psixologlar xizmati talab etiladi. Turli metodikalar, so‘rovnomalar va trening dasturlari orqali masala mohiyati yoritilib beriladi. Bizning olgan metodikamizda ham savollar tuzilishi oson va tushunarli, samaradorligi esa yuqori. Misol uchun "Siz zo‘r qilib bajaradigan ishlar bormi?" yoki "Sizga tanish bo‘lgan hamma narsani yoqtirasizmi?" kabi savollarni olsak bo‘ladi. Bu bizga tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarimizning o‘ziga bo‘lgan munosabatini shu bilan birga, ijtimoiy muhit bilan munosabatini ham o‘rganishga imkon yaratdi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, biz o‘rgangan o‘smirlarning ko‘pchiligida tanqidga bo‘lgan munosabat past darajada emas.



2-rasm. “Tanqidga munosabatni aniqlash” bo‘yicha natijalar

Olingan natijalar xulosasi quyidagicha, qatnashgan jami 100 respondentimizning 47% ida tanqidga nisbatan munosabat yaxshi. Ular buni o‘sish va taraqqiyotning asosi deb biladi. O‘zining iroda kuchi mustahkam, shuning uchun har qanday tanqidlar ularning kayfiyatini tushirishga sabab bo‘lmaydi. Bizda keyingi daraja tanqidga bo‘lgan munosabati o‘rtacha insonlar. Bular umumiy eksperimentda qatnashgan o‘quvchilarning teng yarmini, ya’ni 50% ini tashkil etadi. Bu 50 nafar o‘quvchimizning tanqidga munosabati o‘zgaruvchan. Asosan bu tanqidiy fikrlarning kim tomonidan aytilayotganiga bog‘liq. Ba’zi o‘quvchilardan

so‘rovnomadan so‘ng oddiy suhbat qilib so‘raganimizda ular o‘zlariga yaqin insonlarning tanqidiy fikrlarini ko‘tara olmasliklarini, ba’zida bu ularning qaror qabul qilishlarida qiyinchiliklar tug‘dirishini aytib o‘tishdi. Tanqidga bo‘lgan munosabatni aniqlash metodikamizning so‘nggi shkalasi tanqidga munosabati yomon o‘quvchilarni o‘z ichiga oldi. Umumiy ishtirok etgan 100 nafar respondentimizdan 3 nafarida tanqidga nisbatan munosabati past bo‘lib chiqdi. Bu o‘quvchilar haqida sinf rahbaridan so‘raganimizda ular bularni gap ko‘tarolmaydigan, ba’zan urishqoq deb ta’rifladi. Va psixolog sifatida biz ularga boshqalarni ham chin yurakdan tushunib ko‘rishni, ularning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring bu fikr va tavsiyalar sizga kelajakda yaxshi foyda keltirishi mumkin degan kabi o‘z maslahatlarimizni berdik.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning hissiy-intellektual resurslarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda tanqid alohida ahamiyat kasb etib, u to‘g‘ri yondashilganda shaxs rivojlanishining samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konstruktiv tanqid talabalarning o‘zini anglashiga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashiga hamda o‘z ustida ishlashiga yordam beradi. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, hissiy barqarorligini oshirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Aksincha, noo‘rin yoki keskin tanqid talabalarda salbiy emotsiyalarni keltirib chiqarib, ularning ichki resurslarini susaytirishi mumkin.

Shu sababli, ta’lim jarayonida tanqidni berish va qabul qilish madaniyatini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Talabalarda tanqidni to‘g‘ri qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning chidamliligi, moslashuvchanligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, ularning nafaqat akademik, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, tanqidni samarali boshqarish va undan rivojlanish vositasi sifatida foydalanish talabalarning hissiy-intellektual salohiyatini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura, Self-efficacy : Toward a unifying theory of behavioral change. Psychological review, 191-215 pages. 1977.
2. Dweck, C.S. Mindest: The new psychology of success. 41-41 p. 2006.
3. Hattie, J. Visible lerarning: A synthesis of over 800 meta-analysis relating to achievement. Routledge. 150p. 2009.
4. Gable, S.L. & Haidt, J. What (and why) is positive psychology? Review of General Psychology, 9(2), 103 – 110. 2005.
5. Connor, K.M. , & Davidson, J.R. Development of a new resilience scale: The Connor-Davidson Resilience Scale (CD-RISC). Depression and Anxiety, 76-82 p. 2003.
6. https://psychology/fandom/com/wiki/Self_confidence.

UDK 316.6:37.013.43:28

Qodirova A.B.,
Termiz davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

ALLOMALAR TA'LIMOTINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda milliy va diniy qadriyatlarni tiklash, buyuk allomalar merosini o'rganish va targ'ib qilish, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash hamda yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda tashkil etilgan ilmiy-ma'rifiy markazlar, ziyorat turizmini rivojlantirish, islom sivilizatsiyasiga qo'shilgan ulkan hissalar va ajdodlarimizning boy ilmiy merosining bugungi taraqqiyotdagi o'rni tahlil qilingan. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda tarixiy-ma'naviy meros hamda zamonaviy bilimlarning uyg'unligi muhim omil ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, milliy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik, islom sivilizatsiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, ziyorat turizmi, ma'rifat, yoshlar tarbiyasi, ilm-fan, allomalar merosi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, islom madaniyati.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЧЕНИЯ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы восстановления национальных и религиозных ценностей в Узбекистане, изучения и популяризации наследия великих мыслителей, укрепления религиозной толерантности, а также духовно-нравственного воспитания молодежи. Также проанализированы деятельность научно-просветительских центров, созданных в нашей стране, развитие паломнического туризма, огромный вклад в исламскую цивилизацию и значение богатого научного наследия наших предков в современном развитии общества. Обосновано, что гармоничное сочетание историко-духовного наследия и современных знаний является важным фактором воспитания всесторонне развитого молодого поколения.

Ключевые слова: духовность, национальные ценности, религиозная толерантность, исламская цивилизация, Имам Бухари, Имам Термизи, Абу Мансур Матуриди, Абу Муин Насафи, паломнический туризм, просвещение, воспитание молодежи, наука, наследие мыслителей, духовно-нравственное воспитание, исламская культура.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE TEACHINGS OF GREAT SCHOLARS

Abstract. This article highlights the issues of restoring national and religious values in Uzbekistan, studying and promoting the heritage of great scholars,

strengthening religious tolerance, and educating young people in the spirit of moral and spiritual values. The study also analyzes the activities of scientific and educational centers established in the country, the development of pilgrimage tourism, the significant contribution to Islamic civilization, and the role of the rich scientific heritage of our ancestors in modern development. It is substantiated that the harmonious combination of historical-spiritual heritage and modern knowledge is an important factor in educating a harmoniously developed younger generation.

Keywords: spirituality, national values, religious tolerance, Islamic civilization, Imam Bukhari, Imam Tirmidhi, Abu Mansur al-Maturidi, Abu Muin al-Nasafi, pilgrimage tourism, enlightenment, youth education, science, scholars' heritage, spiritual and moral education, Islamic culture.

Mamlakatimizda milliy va diniy qadriyatlarni tiklash, asrab–avaylash, buyuk allomalarning boy ilmiy–ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib qilish, jamiyatda diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlash maqsadida o'ziga xos amaliy mexanizmlar – O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomidagi xalqaro ilmiy–tadqiqot markazlari, Hadisshunoslik oliy maktabi, hadis, kalom, tasavvuf, aqida, fiqh ilmiy maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Asosiy maqsad Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi alloma ajdodlarimiz merosini ilmiy o'rganishni yanada faollashtirish, muqaddas dinimizni turli tahdidlardan himoya qilish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarni insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir.

Diniy allomalar bilan bog'liq ziyoratgohlarni obodonlashtirishga katta e'tibor qaratilayotgani xalqimizga xos azaliy an'analarni ifoda etadi. Jumladan, Buxoroda Yetti pir, Qarshida Abu Muin Nasafiy, Termizda Sulton Saodat va boshqa qadamjolar ta'mirlanib, ularga kelayotgan mahalliy va xorijiy mehmonlar uchun qulay sharoitlar yaratildi. O'zbekiston tarixida ilk bor xalqaro «Ziyorat turizmi» forumi hamda «Naqshbandiy turizm festivali 2019» xalqaro tadbiri tashkil etilgani quvonarli, albatta.

O'zbekistonning islom sivilizatsiyasidagi alohida o'rni hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan diniy–ma'rifiy sohaga oid islohotlarning e'tirofi sifatida Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti – AYSESKO tomonidan Buxoro shahri «2020-yilda islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda qator xalqaro anjumanlar, ko'rgazmalar, taqdimotlar va boshqa madaniy–ma'rifiy tadbirlar, ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilib kelinmoqda[75;8-9].

O'zbekiston zamini buyuk allomalarni yetishtirgan va dunyo tamadduniga bebaho ma'naviy xazina tuhfa etgan zamindir. Bu zamindan islom ilmi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk muhaddisu faqihlar, mutasavviflar, ijodkorlar yetishib chiqqan. Chunonchi, mintaqamizda yuksak tamaddun IX–XI asrlarda yuqori bosqichga yetgan bo'lsa–da, ma'rifiy takomil ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Ajdodlarimizning ma'rifiy intilishlarini qadimgi «Avesto», O'rxun –

Enasoy bitiktoshlari, Behustin qoyatosh yozuvlari va xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblangan qo‘shiqlar, marsiyalar, qahramonlik va marosim qo‘shiqlaridan bilib olish mumkin[141;25].

Har qanday davlatning vujudga kelishi, mustaqillikni qo‘lga kiritishi va uni barqaror rivojlantirib mustahkamlashi asoslarida albatta o‘sha xalq va millatning bilim darajasi, harakati va tarixi yotadi. Insoniyatning tajribasi va necha ming yillardan buyon xalqlar va davlatlar orasida davom etib kelayotgan siyosiy–mafkuraviy va ma’naviy-axloqiy kurashlar Imom al-Buxoriy so‘zi bilan aytganda Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmasligini isbotladi.

Shunga ko‘ra aholimizning tinch–osuda hayotini ta’minlash, uning farovonligini oshirish, iqtisodiyotimizni izchil rivojlantirish, O‘zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini va o‘rnini yuksaltirish, mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash bo‘yicha o‘z oldimizga qo‘yayotgan maqsadlar miqyosi va ko‘lamiga ko‘ra, xalqimizning ezgu umidlari bilan hamohangdir.

Shuning uchun barkamol sog‘lom fikrli va e’tiqodli, oila, jamiyat va davlat oldidagi burchi, mas’uliyatini anglab yetadigan, har tomonlama kamol topgan, vatanim deb, elim deb yonib yashaydigan va mehnat qiladigan yuksak ma’naviy-axloqiy, avlodni tarbiyalashni davr–zamon taqozo etmoqda. Shu maqsadda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida o‘zbek xalqining allomalari tomonidan necha ming yillik ijod natijasida tarix zarvaraqlarida qoldirgan moddiy, ma’naviy-axloqiy merosdan foydalanish va shu asosda zamonaviy bilimlarni berish zarurligi talab etmoqda.

Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan, hayotiy–milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizida shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora va goh pinhona ko‘rinishidagi ta’siriga bardosh berishi amri mahol. Buni kundalik hayotda dunyoning ko‘p davlatlarining yoshlari hayotiga va kerak bo‘lsa yoshi katta insonlarga ham uchrab turadigan ko‘plab voqealar misolida ham kuzatish mumkin.

Hozirgi globallashuv jarayonda ma’naviyatimizni tub ma’noda asrab avaylash va unga tahdid soladigan xurujlarga qarshi kurashish uchun avvalambor shu muqaddas yurtda yashayotgan har qaysi inson u yosh bola bo‘ladi yo yoshi katta bo‘lishidan qat’i nazar o‘zligini anglashi, qadimiy va notakror tariximiz va dunyo ma’naviyatini boyitishga hissasini qo‘shgan madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan tengi yo‘q ma’naviy-axloqiy va madaniy merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligini ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha ijobiy o‘zgarishlar faxr va g‘urur uyg‘otishi hamda vatanparvarlik, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashasa o‘z maqsadiga yetadi.

Barkamol avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladigan omillardan biri bu Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karim, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning Hadislari va shu qatorda buyuk vatandoshlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va al-Hakim–at–Termiziy va boshqa muhaddis allomalarning hadislar to‘plamlarida va buyuk Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi yaratgan asarlaridir.

Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida O‘zbekistonda Hadis ilmini rivojlantirish maktabi hamda Hadisshunoslik institutlari ochilishi fikrimizning isbotidir.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «Muhaddislar sultoni» deb ulkan shuhrat qozongan muborak diyorimiz zaminidan yetishib chiqqan Imom Buxoriy va u kishining Hadislar to‘plami «Al-Jome’ as–Sahih» kitobini tilga olamiz va bu kitob Islom dinida Qur’oni karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi va Odob axloqqa oid «Al-adab al-Mufrad» asari ham ma’naviy-axloqiy tarbiya qaratilgan katta bebaho asardir.

Keyingi o‘rinda yurtdoshimiz dunyoning Imomi Abu Iso Muhammad ibn Iso at–Termiziy va u kishining «Sunani Termiziy» asarini, keyin esa, Avliyolar Hakimi-Hazrat Muhamad ibn Ali Hakim at-Termiziy va u kishining «Navodir al-usul fi ma’rifati ahodis ar-Rasul» asarini, Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning «Maorif» asarini faxr va iftixor ila tilga olamiz va o‘rganamiz. Ana shu vatandoshlarimiz muhaddislari tomonidan bayon qilingan hadislar va yaratilgan kitoblar payg‘ambarmiz Muhammad (s.a.v) ning hayot ekanlarida aytgan so‘zlari, bajargan amallari va ko‘rsatmalarini sharhlaydi, targ‘ib qiladi, qiymatini oshiradi, ahamiyatli va muhim tomonlarini tahlil qilgan holda uni ommalashtirish vazifasini bajaradi.

Bu yo‘lda buyuk mutafakkirlarimizning mazmunga boy, keng qamrovga ega bo‘lgan tarbiyaviy merosidan to‘g‘ri hamda oqilona foydalanish, undan namuna olish maqsadida turli yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish ilmiy ahamiyatga egadir.

Shu nuqtai nazardan biz ham tadqiqotimizda termiziy allomalar asarlarini o‘rganish jarayonida shaxsning hissiy jabhalari va bilish jarayoniga urg‘u berilganini va har bir holatga alohida ahamiyat berilib asoslab berilgani o‘rganib chiqdik

Imom at-Termiziy, al-Hakim atTermiziy va Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlarida aql, nafs, ilm, qalb va hasad kabi tushunchalarning har biri inson ruhiyati va uning ichki dunyosiga aloqador, shuningdek, ular o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikning muhim o‘rni bor. Bu tushunchalarni bir-biriga bog‘lab tushuntirish, insonning ma’naviy va ruhiy holatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Shu tarzda, aql, nafs, ilm, qalb va hasad bir-biri bilan murakkab psixologik aloqalarga ega. Aql insonga halol yo‘lni ko‘rsatsa, nafs uni to‘sib qo‘yishi mumkin. Ammo ilm, qalbni poklab, nafsni yengishga yordam beradi. Qalbning pokligi va aqlning to‘g‘ri ishlashini ta’minlash, nafsning jaholatidan xoli bo‘lishni, xususan hasaddan saqlanishni nazarda tutadi. Insonning ichki olami o‘rtasidagi bu dinamik aloqalarning to‘g‘ri yo‘nalishi ma’naviy rivojlanish va yaxshilikka olib keladi.

3.1-jadval

Allomalar asarlarida shaxsning bilish jarayonlari va hissiy irodaviy holatlari kontent tahlil natijalari (n=3479so‘z)

Al-Hakim at-Termiziy	ch	Imom Termiziy	ch	Sayyid Burhoniddin Termiziy	ch
Aql	0,19	Ilm	0,12	Aql	0,12
Nafs	0,14	Aql	0,11	Ilm	0,11
Ilm	0,12	Nafs	0,10	Nafs	0,10
Qalb	0,10	Qalb	0,08	Hasad	0,10
Kibr	0,08	Kibr	0,08	Qalb	0,09
G‘azab	0,07	Fahm	0,07	G‘azab	0,08
Hasad	0,06	Shahvat	0,07	Kibr	0,08
Hayo	0,05	Qo‘rquv	0,07	Idrok	0,08
Idrok	0,04	G‘azab	0,06	Shahvat	0,06
Shahvat	0,04	Hasad	0,06	Qo‘rquv	0,04
Qo‘rquv	0,03	Hoyu havas	0,06	Fahm	0,04
Fahm	0,03	Hayo	0,05	Iroda	0,04
Iroda	0,03	Iroda	0,04	Hayo	0,03
Hoyu havas	0,02	Idrok	0,03	Hoyu-havas	0,03

Al-Hakim at-Termiziy asarlaridagi asosiy g‘oya aql, nafs, ilm, qalb masalasini yoritishga qaratilgan bo‘lib, bu yuqoridagi jadvalda ham o‘z aksini topgan va ular quyidagicha izohlangan:

Biz ularning har birini qiskacha tavsiflashga harakat qilamiz. Chunki, bugungi kunda ham talabalar ma’naviy-ruhiy tarbiyasini shakllantirishda mazkur tushunchalar muhim ahamiyatga ega.

Al-Hakim at-Termiziyning «Hakim Termiziy risolalari» asarida aql tuhsunchasining takrorlanish chastotasi 0,19 ga teng, nafs tushunchasining takrorlanish chastotasi 0,14 ga teng. Imom at-Termiziyning «Al-Jomi’ as-Sahih» asarini o‘rganishda ko‘proq tilga olingan ilm tuhsunchasining takrorlanish chastotasi 0,12 ga teng, aql tuhsunchasining takrorlanish chastotasi 0,11 ga teng. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning «Maorif» asarini o‘rganish jarayonida aql tuhsunchasining takrorlanish chastotasi 0,12 ga, ilm tuhsunchasining takrorlanish chastotasi 0,11 ga tengligi aniqlandi. Alloma asarlaridagi asosiy g‘oyalar ham quyidagi jadvalda o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin.

Aql tushunchasi 0,19 ga teng va u quyidagicha izohlangan. Aql – insonni yaxshi ishlarga boshlaydi va uni yaxshi amallar qilishga dalolat qiladi. Insonning ko‘zi orqali ko‘rishi bu aqlning ko‘rishidir. Ko‘z a’zodir. Ko‘rish ruhdadir. Ranglarni idrok qilish ikkisi ila bo‘ladi. Qachon aql va ruh nafsning mashg‘ulotidan forig‘ bo‘lsa, ruh ko‘radi va aql idrok qiladi hamda ilm hosil bo‘ladi.

Nafs tushunchasi 0,14 ga teng va u quyidagicha izohlangandir . Nafsu havoni shahvatlarni qo‘zg‘atuvchi ekanligini ko‘rdik, aqlni esa, ilmu ma’rifatni qo‘zg‘atuvchi ekanligini bildik. Nafsda huzurlanish istagi bordir. Ko‘ksda esa, yoqtirmaslik bordir. Nafslarda o‘zini hurmatlaganga muhabbat qilish tabiati bordir.

Bandani ikkilantirib chalg‘itadigan mana shu istaklar qalb ko‘zi bilan mulohaza qilinadigan masiyatlardir. Keyin ikkilantirgan xayolotlarni tark qiladi. Xayolotlar tark qilinsa fikrga aylanadi. Fikrlar esa, qalbdagi, tomirlardagi halovatga aylanadi. Tomirlar nafsu havoning istaklarini simiradi. Ruhning maskani boshdadir, keyinchalik esa u butun tanaga tarqab ketgandir. Nafs esa qorinda yashaydi u ham butun tanani qamrab olgan.

Ilm 0,12 ga teng va u quyidagicha tavsiflangan. Batahqiq, u qalbning ichidagi narsani ko‘ksda yuzaga chiqaradi. U egasining xalilidir. Chunki o‘sha ilm uni iymonga qo‘shgandir. Ilm yuzaga chiqqanda u hidoyatlanadi va qaytarganlaridan qaytishga moyil bo‘ladi.

Qalb 0,10 ga teng va quyidagicha tavsiflangan. Qalb – inson tafakkurida aks etgan haqiqatdir. Voqea hodisalarni idrok qilish, tasavvur qilish, bilim olish, ma’rifatga intilish, xitob qilish ham qalbga xosdir. Inson qalb yordamida har bir narsa va hodisaning asl mohiyatini anglab yetadi. Qalb inson xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir.

Imom at-Termiziy asarlaridagi asarlarini o‘rganishda ko‘proq tilga olingan tushunchalar ilm, aql, nafs, qalb va boshqalardan iborat ekanligini o‘rganib chiqdik va ular quyidagicha izohlangandir:

Ilm so‘zi chastotasi 0,12 ga teng. Imom at-Termiziyning bu masalada quyidagi hadislarini keltirish mumkin: Rasulullоh aytdilar: «Kimki ilm axtarib uyidan chiqsa, u uyiga qaytib kelgunga qadar Alloh yo‘lida yurgan hisoblanadi».

Imom at-Termiziy hadislarni yig‘ishda ilm ahliga qarata shunday xulosa qilganlar: «Ilmga berilgan kishilar qanchalik ko‘p o‘qishsa, shunchalik kam bilishini his etadilar, ilmsiz kishilar esa, o‘zlarini dono sanashadi. Lekin o‘zlarini qaysi ilmda dono sanashlarini hattoki ta’riflab bera olmaydilar».

Aql so‘zi chastotasi 0,11 ga teng. Odamlar orasidagi ajoyib yuksak fazilat, sifat bo‘lgan, baho– o‘lchov kalima ham – «aql»dir. U kimda namoyon bo‘lsa u inson taniqli, hurmatli o‘z davri uchun eng qadrli inson hisoblangan. Aql – insonni biror harakatga undovchi yoki undan qaytaruvchi, ko‘zga ko‘rinmas, ammo mavjud bo‘lgan – fe’liy bir quvvatdir.

Nafs tushunchasi chastotasi 0,10 ga teng. Nafs – bu insonning o‘zligi, «men»i demakdir. Nafs faqatgina yeb ichish, kiyinishga bo‘lgan intilishdan iborat emas, u jaholat, ilmsizlik, manmanlik, dunyoparastlik, o‘g‘rilik, tamagirlik, poraxo‘rlik, hasad, baxillik, mansabparastlik, shahvat, g‘azab, xasislik, riyokorlik, zolimlik, rahmsizlikka hirs qo‘yishdir. Nafs muntazam rivojlanib boruvchi holatdir. U insonning dunyo lazzatlariga bo‘lgan ehtiyoji tufayli o‘sib rivojlanib boradi. Nafs har doim insonni yomonlikka, gunoh ishlarni qilishga undaydi. Inson o‘z nafsini qanchalik qondirsa, u shunchalik kuchayib, kengayib boradi.

Qalb tushunchasi chastotasi 0,08 ga teng. Qalb – yurak, dil – ilohiyot va tasavvuf tushunchasi. Al-Hakim at-Termiziy, Imom Termiziy, Sayyid Burhoniddin Termiziy, G‘azzoliy kabi allomalar fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo‘lib, shu tufayli u hatto mavjudotlardan ham yuqori turadi. Qalb pokiza bo‘lsa, insonning butun tanasi poklanib, sayqal topadi. Aksincha u nopok bo‘lsa, inson hoyu–havas va dunyo lazzatiga berilib, ruhul xabis, ya’ni yomon ruh egasi bo‘ladi.

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy asarlarini o‘rganish jarayonida aql, ilm, nafs, hasad va boshqa tushunchalarga ko‘proq urg‘u berib, ularni sharhlashga e’tibor qaratganlar.

Aql so‘zi chastotasi 0,12 ga teng. Aql – ilm, ma’rifat, fahm va ziyraklik kabilarning barchasi qalbning askarlaridir. Shahvatlarni sevish, nafsning shodligi–yu, ziynatlari esa, uning askarlaridir. Kimki mujohadani tark qilsa, qalbi nafsi

tomonga ketib asir bo‘ladi. Bunday bandaning ichki olami dushman shaharlaridan bir shaharga aylanadi.

Ilm tushunchasi chastotasi 0,11 ga teng. Ilm – insonni hayvonlardan ajratib turadigan asosiy xususiyati ham ilmdir. Inson nima bilan sharafli bo‘lsa, o‘sha narsa bilan insondir. Uning afzalligi jismoniy quvvatida emas. Zero, tuya insondan ancha baquvvatdir. Jismning kattaligi bilan ham afzal emas, zero, fil undan kattaroqdir. Afzallik shijoat bilan ham o‘lchanmaydi, chunki yirtqich hayvon undan ko‘ra, shijoatliroqdir. Demak, inson faqat ilm uchun yaratilgan.

Nafs tushunchasi chastotasi 0,10 ga teng. Nafs – o‘z shahvatlari ila kelib qalbdan g‘olib chiqib a’zolarni qaytarilgan narsalarga ishlatsa, sabr ketadi. Bu esa, azmu qarorning ketishidir. Shunda qalb nafsning asiri bo‘lib qoladi. Nafs qalbni egallab oladi. Shunda aql, hilm, ilm, mehr, yumshoqlik va uning barcha lashkarlari yengiladilar.

Hasad so‘zi chastotasi 0,10 ga teng. Hasad – barcha insoniy xatoliklarning boshi. U sog‘lom qalbni kemiradi. Saodatli hayotni musibatli hayotga aylantiradi. Bu fikrlar – hushyorlikka da’vat. Hasad bo‘lgan joyda havas bo‘lmaydi. Hasad qalbni shiladi, kemiradi. Aslida, hasad – birovga yetgan ne’matga rashk bilan qarash va uning sohibidan ketib, hasadchiga yetishini qattiq xohlashdir. Hasad – illat. U qalbga o‘rnashsa, ezgulik o‘rnini qabohat, savob o‘rnini gunoh egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan ma’naviy – axloqiy ta’lim-tarbiyaga oid ko‘plab bebaho tarixiy asarlar yaratilgan. Xususan, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini va qadr–qimmatini oshirib borayotgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Al-Hakim at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Farg‘oniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy va shu kabi boshqa ko‘plab allomalar tomonidan yaratilgan asarlarni alohida ta’kidlash joiz. Chunki bu asarlarda inson hayotiga bog‘liq turli muammolarga obyektiv yondashish, ilm olishga va ilm ahliga diqqat va e’tibor qaratish, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va axloqni asosiy maqsad qilib qo‘yilishi kabi muhim masalalar alohida o‘rin egallaydi.

Algebra fani shu allomaning nomi bilan bog‘liq va dunyo amaliy fanlar tizimi yo‘nalishiga hissa qo‘shgan Muhammad al –Xorazmiy, Tibbiyot sohasida butun dunyo e’tirof etgan Abu Ali ibn Sinoning yaratilgan asarlaridan eng rivojlangan davlatlar AQSh, Germaniya, Angliya va boshqa davlatlarda hozirgi kunda ham tibbiyot sohasida foydalanib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» nomli risolasida ta’kidlaganidek: «Yurtimizda vijdon va e’tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag‘rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda. Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o‘zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda»[15;2].

Eng nozik va murakkab bo‘lgan bu sohada, avvalo, din ma’naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g‘oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg‘un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o‘z mohiyatiga ko‘ra, poklik, mehr–oqibat kabi ezgu tuyg‘ular orqali milliy istiqlol

mafkurasining g‘oyalarini yosh avlodning qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimizga sog‘lom va mo‘tadil munosabatni shakllantirish – bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir.

Xalqimiz ma’naviy-axloqiy tarbiyasining tarixiy ildizlaridan yana biri Islom dini va uning muqaddas manbalari Qur’oni Karim va Hadisi Sharifda o‘z ifodasini topgan. Islom dini Alloh taolo tomonidan nozil etilgan eng so‘nggi dinlardan hisoblanadi. U arabcha so‘z bo‘lib «o‘zini Alloh ixtiyoriga baxshida etib, tinchlik (osoyish) topish» degan ma’noni anglatadi. Alloh tomonidan Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallamga nozil qilingan Qur’oni karimning Moida surasida bunday deyiladi: «...Bugun Men sizlar uchun diningizni komil qildim, (sizlarni dinsizlik zulmatlaridan iymon nuriga chiqarish bilan) Men sizlarga ne’matimni to‘kis qilib berdim va sizlar uchun Islomni din qilib tanladim». (Moida surasi, 3–oyat)[163;11], [174;14].

Demak, Islom barcha musulmonlar (o‘zini Alloh taologa Baxshida etganlar) dinining nomidir. U Turkiston hududiga arab istilosidan so‘ng kirib keldi. Unga qadar yerli mahalliy xalq otashparastlik, shomoniylik, buddaviylik, moniylik, musoviylik, nasroniylik kabi o‘ndan ortiq dinga e’tiqod qilgan. Garchi Islom dini xalqimizga majburan qabul qildirilgan bo‘lsa-da, u Turkiston xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi asosini ifodalab, poklik, xushxulqlik, insof, diyonat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlikka da’vat etadi. Shuning uchun ham u xalqning, Vatanning, jamiyatning ertangi istiqboli va taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qila oladi. Payg‘ambarmiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamga din qilib yuborilgan Islom – halollik va poklik dinidir[118;28].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чориев З., Аннаев Т., Муртазаев Б., Аннаев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 149 б.

2. Омонтурдиев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий таълимоти. – Тошкент: Университет, 2000. – 95 б.

3. Ал-Ҳаким ат-Термизий, Қайтарилган амаллар (ал-Манҳийёт). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи М.Исмоилов. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро маркази”, 2019. – 256 б.

4. Термизий алломалар / С.Турсунов ва бошқ. – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – 272 б.

5. Ал-Ҳаким ат-Термизий, “Яширин масалалар” (“ал-Масоил ал-макнуна”). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи М.Исмоилов. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро маркази”, 2019. – 216 б.

6. Термизий, Ал-Ҳаким. Нодир масалалар /араб тилидан таржима/. Муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи И.С.Усмонов. – Т.: Мовароуннаҳр, 2007. – 88 б.

7. Жамаҳматов К. Бурҳониддин Термизийнинг «Маориф» асари — Термиз: 2024. – 110 б.

UDK 37.015.31

Narbasheva Mexri Achilovna,
Termiz davlat pedagogika instituti "Amaliy psixologiya" kafedrasi professori,
psixologiya fanlari nomzodi

TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlay zamonaviy shaxs kompetensiyasi ekanligi, bu kompetensiyani rivojlantirish kelajak mutaxassislari uchun ahamiyati hamda talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik usullari, vositalari xususida bayon etilgan. Maqolada mustaqil ta'lim topshiriqlarini yaratishda turli usullar yordamida bajarishni ko'zda tutuvchi vazifalar talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi ko'rsatib o'tilgan va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, kompetensiya, Maykl Skriven, Richard Paul, ma'lumotlar oqimi, aniqlik, mantiqiylik, keng qamrovlilik, innovatsionlik, mustaqillik, muammoli o'qitish, munozara va bahslar, loyiha usuli, keys-stadi, interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar, mustaqil ta'lim.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКИХ МЫШЛЕНИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье говорится о том, что критическое мышление является компетентностью современного человека, о важности развития данной компетентности у будущих специалистов, а также о педагогико-психологических методах и средствах формирования у студентов навыков и компетенций принятия правильных решений посредством развития критического мышления. В статье показано формирование у студентов навыков принятия правильных решений посредством критического мышления, даны практические рекомендации.

Ключевые слова: критическое мышление, компетентность, Майкл Скривен, Ричард Пол, информационный поток, точность, логика, полнота, инновации, независимость, проблемно-ориентированное обучение, обсуждение и дебаты, метод проектов, исследование случая, интерактивные игры и симуляции, самостоятельное обучение.

DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS IN STUDENTS

Abstract. The article discusses the fact that critical thinking is a competence of a modern person, the importance of developing this competence in future specialists, as well as pedagogical and psychological methods and means of

developing students' skills and competencies for making the right decisions through the development of critical thinking. The article shows the development of students' skills for making the right decisions through critical thinking, and provides practical recommendations.

Keywords: critical thinking, competence, Michael Scriven, Richard Paul, information flow, accuracy, logic, comprehensiveness, innovation, independence, problem-based learning, discussion and debate, project method, case study, interactive games and simulations, independent learning.

Inson jamiyat va tabiat hodisalarining ishtirokchisi bo‘lib ularni anglashi, tahlil qila bilishi, zarur hollarda tegishli qaror qabul qilishi lozim. Bugungi globallashuv sharoitida tanqidiy fikrlay olish qobiliyati juda muhim kompetensiya sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimi juda tez o‘smoqda. Bu esa insondan har qanday ma’lumotni tanqidiy baholay olishni talab qiladi. Tanqidiy fikrlash — bu shaxsning ma’lumotni tahlil qilish, solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. U nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Tanqidiy fikrlash — bu axborotni passiv qabul qilish emas, balki uni faol ravishda qayta ishlash jarayonidir. Tanqidiy fikrlash tahlil qilish, baholash, dalillar bilan ishlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda turli ilmiy modellar mavjud bo‘lib, ular mazmuni va yondashuvi jihatidan farq qiladi. Jumladan, Benjamin Bloom(1956), Robert H. Ennis (1985), Richard Paul, Linda Elder (2006) va Diane F. Halpern(1998) tomonidan taklif etilgan modellar ilmiy jihatdan keng qo‘llaniladi.

Blum taksonomiyasi tanqidiy fikrlashni bilish jarayonining yuqori bosqichi sifatida talqin qiladi. Ushbu modelda tahlil, sintez va baholash kabi jarayonlar asosiy o‘rin tutadi. Bu yondashuv ta’lim tizimida o‘quv maqsadlarini aniq belgilashda samarali hisoblanadi.

Ennis modeli esa tanqidiy fikrlashni amaliy ko‘nikmalar tizimi sifatida ko‘radi. Unda shaxsning dalillarni tahlil qilish, savol berish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Pol va Elder modeli tanqidiy fikrlashni yanada keng qamrovli tarzda izohlaydi. Unda fikrlash elementlari, intellektual standartlar va shaxsiy sifatlar o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Bu model tanqidiy fikrlashni chuqur va tizimli shakllantirish imkonini beradi.

Xalpern modeli esa psixologik yondashuvga asoslangan bo‘lib, u kognitiv va metakognitiv jarayonlarni birlashtiradi. Ushbu model insonning fikrlash jarayonini nazorat qilish va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, zamonaviy baholash tizimlarida qo‘llaniladigan RED modeli (Watson-Glaser) tanqidiy fikrlashni sodda va amaliy bosqichlar orqali ifodalaydi. Bu model ayniqsa test sinovlari va kompetensiyalarni baholashda samarali hisoblanadi.

Ushbu modellarning taqqoslama tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular bir-birini to‘ldiradi va tanqidiy fikrlashni har tomonlama rivojlantirish imkonini yaratadi.

Tanqidiy fikrlash modellarining taqqoslama tahlili

Модel	Asoschisi	Asosiy g‘oya	Afzalliklari	Kamchiliklari
Blum taksonomiyasi (1956)	Benjamin Bloom	Bilish bosqichlari	Tushunarli, ta’limda keng qo‘llaniladi	Amaliy jihat kam
Ennis modeli (1985)	Robert H. Ennis	Ko‘nikmalarga asoslangan	Amaliy, baholashda qulay	Tizimlilik kam
Pol–Elder modeli (2006)	Richard Paul, Linda Elder	Tizimli fikrlash	Chuqur va kompleks	O‘rganish qiyinroq
Xalpern modeli (1998)	Diane F. Halpern	Psixologik yondashuv	Ilmiy asoslangan	Amalda qo‘llash qiyin
RED modeli-II (2010)	Pearson Education	3 bosqichli jarayon	Sodda va amaliy	Chuqur tahlil kam

Tanqidiy fikrlash masalasiga oid turli mualliflar va sohalarda bir qancha ta’riflar berilgan, jumladan Maykl Skriven va Richard Paul: “Tanqidiy fikrlash – bu biror narsa haqida nimaga ishonish yoki nima qilish kerakligi haqida asoslangan qaror qabul qilish maqsadida kuzatish, tajriba, mulohaza, muloqot kabi ma’lumotlarni faol va mohirona konseptualizatsiya qilish, qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash va baholash jarayonidir” – deb ko‘rsatdilar. Edvard Gleyzer: “Tanqidiy fikrlash – bu muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va yangi g‘oyalarni yaratish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va tashkillashtirish qobiliyatidir” – deya fikr bildirsa, amerikalik psixolog Dayana Xalpern: “Tanqidiy fikrlash – bu ma’lum maqsadga erishish uchun fikrlash jarayonidan foydalanishdir. Bunday fikrlash mantiqiy, asosli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi” – deydi o‘zining “Tanqidiy fikrlash psixologiyasi” asarida. Umuman olganda, tanqidiy fikrlash – bu aqliy faoliyatning murakkab shakli bo‘lib, u ma’lumotni tanqidiy baholash va asoslangan xulosalarga kelishni o‘z ichiga oladi.

Hozirda hayotning jadallashuvi insondan tezkor qaror qabul qilishni taqozo qilmoqda. Buning bir qancha sabablari bo‘lib quyida bularga to‘xtalib o‘tishni joiz topdik:

1. Ma’lumotlar oqimining ko‘payishi: Globallashuv tufayli insonlar har qachongidan ham ko‘proq ma’lumotga duch kelmoqdalar. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali turli xil manbalardan ma’lumot oqimi tinmay yog‘ilib turadi. Bunday sharoitda tanqidiy fikrlay olish qobiliyati yolg‘on, chalg‘ituvchi va asossiz ma’lumotlarni aniqlash va ulardan himoyalanish uchun zarurdir.

2. Kompleks muammolarning ko‘payishi: Globallashuv iqlim o‘zgarishi, iqtisodiy notenglik, terrorizm, pandemiyalar kabi kompleks va o‘zaro bog‘liq

muammolarni keltirib chiqardi. Bunday muammolarni yechish uchun tanqidiy fikrlash, ya'ni ma'lumotni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ko'rib chiqish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyati talab etiladi.

3. Raqobatning kuchayishi: Globallashuv mehnat bozorida raqobatni kuchaytirdi. Ish beruvchilar nafaqat mutaxassislik bo'yicha bilimga ega, balki tanqidiy fikrlay oladigan, muammolarni yecha oladigan va yangi sharoitlarga moslasha oladigan xodimlarni qidirmoqdalar.

4. Fuqarolik mas'uliyatining ortishi: Demokratik jamiyatlarda fuqarolar muhim ijtimoiy va siyosiy masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda ishtirok etadilar. Tanqidiy fikrlay olish qobiliyati fuqarolarga ma'lumot asosida qaror qabul qilishga, siyosatchilarga tanqidiy baho berishga va jamiyat rivojiga hissa qo'shishga yordam beradi.

5. Texnologiyalarning rivojlanishi: Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish kabi texnologiyalarning rivojlanishi ko'plab ish o'rinlarini yo'q qilishi mumkin. Biroq, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash va muammolarni yechish kabi qobiliyatlarni talab qiladigan yangi ish o'rinlari ham yaratiladi.

Tanqidiy fikrlash — bu zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Uni rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, bu orqali mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan shaxs tarbiyalanadi.

Fikrimizcha, globallashuv sharoitida tanqidiy fikrlay olish qobiliyati nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, ta'lim tizimi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Talabalarning qaror qabul qilish jarayonidagi qiyinchiliklari va tanqidiy fikrlashning yetishmasligi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda hamda malakaviy amaliyotlar davrida muammoli vaziyatlardan chiqishda xalaqit bermoqda. Muammoli vaziyatlar orqali talabalar mustaqil fikrlashga majbur bo'ladi. Bu usul ularda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugun uchun juda muhim hisoblanadi. Talabalarni axborot manbalarini tekshirishga o'rgatish ma'lumotlarni ishonchlilik, xolislik va dolzarblik jihatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirsa, o'z fikrlarini tahlil qilish orqali inson xatolarini tushunadi va fikrlashini yanada takomillashtiradi.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishning pedagogik usullarini bilish muhim sanaladi. Avvalo, tanqidiy fikrlashning quyidagicha asosiy xususiyatlarini o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir.

1. Aniqlik (Clarity): Fikrlarning aniq va tushunarli bo'lishi. Muammoni aniq ta'riflash va har qanday noaniqliklarni bartaraf etish.

2. Asoslilik (Relevance): Muhokama qilinayotgan mavzuga tegishli ma'lumotlardan foydalanish. Mavzuga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlarni chetga surish.

3. Mantiqiylik (Logic): Fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi va asoslanganligi. Xulosalarning dalillarga asoslanganligi.

4. Chuqurlik (Depth): Muammoni har tomonlama ko‘rib chiqish, uning barcha jihatlarini tahlil qilish. Yengil fikrlardan qochish.

5. Keng qamrovlilik (Breadth): Muammoni turli nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqish. Muqobil yechimlarni izlash.

6. Adolatlilik (Fairness): Shaxsiy qarashlar va e’tiqodlardan xoli bo‘lish. Barcha dalillarni xolisona baholash.

7. Savol berish (Questioning): Doimiy ravishda ma’lumotlarning to‘g‘riligini so‘roq ostiga olish. Yangi ma’lumotlarni qidirish.

8. Mulohazakorlik (Reflection): O‘z fikrlarini va qarorlarini qayta ko‘rib chiqish. Xatolarni tan olish va ulardan saboq chiqarish.

9. Innovatsionlik (Innovation): Yangi g‘oyalarni yaratish va muammolarni yechishning yangi usullarini topish.

10. Mustaqillik (Independence): O‘z fikriga ega bo‘lish va boshqalarning fikriga ko‘r-ko‘rona ergashmaslik.

Oliy ta’limda talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga pedagogik-psixologik yondashib quyidagi amaliy usullarini o‘qitish jarayonida qo‘llash samara bermoqda:

Muammoli o‘qitish: Talabalarni muammoli vaziyatlarga duchor qilish va ularni yechish yo‘llarini qidirishga undash.

Munozara va bahslar: Talabalarni turli nuqtai nazarlarni muhokama qilishga va o‘z fikrlarini himoya qilishga o‘rgatish.

Loyiha usuli: Talabalarga mustaqil tadqiqot loyihalarini bajarish va o‘z xulosalarini taqdim etish imkoniyatini berish.

Keys-stadi: Amaliy vaziyatlarni tahlil qilish va ular bo‘yicha qaror qabul qilish.

Interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘yinlar va simulyatsiyalardan foydalanish.

Albatta, mustaqil ta’lim topshiriqlarini yuqoridagi usullar yordamida bajarishni ko‘zda tutuvchi vazifalar talabalarning tanqidiy fikrlash orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bir fan doirasida berilgan topshiriqlarni bajarish barobarida har bir talabaning tanqidiy fikrlash orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish darajasini baholash imkonini beradi. Bunda tanqidiy fikrlashni baholash usullari (testlar, so‘rovnomalar, kuzatishlar), talabalarning qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholash, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish talabaning ko‘nikmalari darajasini ko‘rsata oladi.

Bugun oliy ta’lim oldiga raqobatbardosh, xalqaro standartlarga mos mutaxassislarni tayyorlash vazifasi har qachongidanda muhim vazifa sifatida qo‘yilgan. Professor-o‘qituvchilar talabalar bilan ishlash jarayonida ko‘proq mustaqil bilim olish, fan doirasida loyiha ishlarini bajarish, keys-stadilarni yechish, amaliyotda zarur ko‘nikma va malakalarni egallashga yo‘naltirish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni muammolarni yechishda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Eng muhimi talabalar o‘qish va o‘rganish mobaynida tanqidiy fikrlab ma’lumotni samarali qabul qilish va o‘zlashtirishni hamda o‘z fikrlarini aniq va ishonarli tarzda ifoda etishni o‘rganadilar. Bu usullarning barchasi talabalarda

tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar bu usullarni o‘z darslariga integratsiya qilishlari va talabalarni faol ishtirok etishga, fikrlashga va o‘z bilimlarini shakllantirishga undashlari kerak.

Tanqidiy fikrlash insonga mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi, yolg‘on va manipulyativ axborotdan himoya qiladi, muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida u talabalarning faolligini oshiradi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лебедева, Н. В. Критическое мышление у студентов на разных этапах обучения в вузе / Н. В. Лебедева // Известия Балтийской государственной академии рыбопромыслового флота: Психолого-педагогические науки. – 2022 – № 3 – С. 12-18.

2. Богданова, С. Ю. Самостоятельное обучение в контексте развития критического мышления / С. Ю. Богданова, О. А. Каверина //Преподаватель XXI век. – 2019 – № 1-1. – С. 112-120.

3. Watson, G., & Glaser, E. M. (2010). *Watson–Glaser Critical Thinking Appraisal* . London: Pearson Education.

4. https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.82fe3ea8-68183578-54347ae6-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/Michael_Scriven

5. https://skepdic.ru/wp-content/uploads/2013/05/Diane-Halpern_-_Psixologiya-kriticheskogo-myshleniya_Skepdic.ru_.pdf

UDK: 378:37.013:316.4

Сманова А.А.,
PhD, қауымдастырылған профессор, М.Х.Дулати атындағы Тараз университеті, Тараз қаласы, Қазақстан Республикасы

БОЛАШАҚ ПЕДАГОГТАРДЫ ДАЯРЛАУДАҒЫ КОЛЛАБОРАЦИЯЛЫҚ ОРТАНЫҢ РӨЛІ МЕН МАҢЫЗЫ

Аңдатпа. Мақалада шетелдік және отандық ғылыми әдебиеттердегі болашақ педагогті кәсіби даярлауда коллаборациялық ортаны ұйымдастырудың мәні мен маңызы қарастырылады. Яғни, ПОҚ-оқытушы, оқытушы-топ, топ-ұжым, топ-студент, студент-студент арасында екіжақты «тең» және мүдделер бойынша өзара әрекеттесуді жүзеге асырудың жолдары көрсетіледі. Сондай-ақ, коллаборациялық ортаны құру студенттерге ұжымда (жұп-топ-аудитория стратегиясы) жұмыс істеуге, тақырыпқа ену сабаққа тез үйренуге, топ серіктесте рімен байланыс орнатуға және талқылау кезінде білім берудің жаңа идеяларын тез әзірлеуге және жариялауға көмектеседі, оларды терең қызығушылықпен, сыни тұрғыдан ойлана білуге, жаңа тәсілдерді қолдану туралы рефлексия мен қолданыстағы практикамен салыстырып, қорытынды жасауға ынталандырады. Жоғары білім беру жүйесіндегі коллаборациялық ортаны ұйымдастыру жаңа Қазақстанның болашақ мұғалімінің кәсіби даярлығына оң әсер ететін оның маңызды, ажырамас бөлігі болып табылады. Олай дейтініміз студенттердің топта, ұжымда бірлесіп ынтымақтастықта жұмыс істеуін күшейтуге және болашақ мұғалімнің кәсіби даярлығының сапасын арттыруға мүмкіндік беретініне, нәтижесінде мемлекеттің әлеуметтік-экономикалық дамуына ықпал ететініне сеніммен айтамыз.

Түйін сөздер: кәсіби құзыреттілік, практикаға бағдарлық оқыту, бірлескен іс-әрекет, кәсіби ынтымақтастық, коллаборациялық орта, топтық жұмыс.

СУЩНОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ КОЛЛАБОРАЦИОННОЙ СРЕДЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Аннотация. В исследовании рассматривается сущность и значение организации коллаборационной среды в профессиональной подготовке будущего педагога в зарубежной и отечественной научной литературе. То есть, указываются пути осуществления двустороннего «равноправного» и взаимодействия по интересам между ППС-преподавателем, преподавателем-группой, группой-коллективом, группой-студентом, студентом-студентом. Кроме того, создание коллаборационной среды помогает студентам работать в команде (стратегия "пара-группа-аудитория"), быстро учиться на уроках погружения в тему, общаться с партнерами по группе и быстро разрабатывать

и публиковать новые образовательные идеи во время обсуждения, побуждая их к глубокому интересу, критическому мышлению, размышлениям о применении новых подходов и существующей практике мотивирует сравнивать и делать выводы. Организация коллаборативной среды в системе высшего образования является ее важной, неотъемлемой частью, положительно влияющей на профессиональную подготовку будущего учителя нового Казахстана. Так, мы уверены, что это позволит усилить сотрудничество студентов в группе, коллективе и повысит качество профессиональной подготовки будущего учителя, что в конечном итоге будет способствовать социально-экономическому развитию государства.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, практико-ориентированное обучение, совместная деятельность, профессиональное сотрудничество, коллаборационная среда, командная работа.

THE ESSENCE AND SIGNIFICANCE OF THE ORGANIZATION OF A COLLABORATIVE ENVIRONMENT IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF A FUTURE TEACHER

Abstract. The study examines the essence and importance of the organization of the collaborative environment in the professional training of a future teacher in foreign and domestic scientific literature. That is, the ways of implementing bilateral "equal" and interest-based interaction between teaching staff-teacher, teacher-group, group-collective, group-student, student-student are indicated. In addition, the creation of a collaborative environment helps students to work in a team (the "pair-group-audience" strategy), quickly learn from immersion lessons, communicate with group partners and quickly develop and publish new educational ideas during the discussion, encouraging them to deep interest, critical thinking, reflections on the application of new approaches and existing practice motivate to compare and draw conclusions. The organization of a collaborative environment in the higher education system is an important, integral part of it, positively influencing the professional training of the future teacher of new Kazakhstan. So, we are sure that this will strengthen the cooperation of students in a group, team and improve the quality of professional training of future teachers, which will ultimately contribute to the socio-economic development of the state.

Keywords: professional competence, practice-oriented training, joint activity, professional cooperation, collaborative environment, teamwork.

Білім беру сапасы мемлекеттің бәсекеге қабілеттілігінің кепілі болып табылатындығы анық. Бүгінгі таңда қарқынды дамып келе жатқан қоғамға мобильді, серпінді, өз бетінше жауапты шешімдер қабылдауға, сындарлы мамандар болуға, елдің тағдыры үшін жауапкершілікті сезінуге қабілетті заманауи білімді, адамгершілік, іскер адамдар қажет.

Яғни, қоғамдағы барлық әлеуметтік-экономикалық өзгерістер әсіресе жоғары кәсіби білімге арналған, оның сапасы мемлекеттің бәсекеге

қабілеттілігінің кепілі болып табылады. Кәсіптік-педагогикалық білім берудің мазмұнын қайта қараусыз білім беруді жетілдіру тиімді бола алмайды, өйткені мұғалімдер мен педагог қызметкерлердің өздері бұған дайын болмаса, білім беру саласындағы ешқандай теориялар, тұжырымдамалар, стандарттар сәтті іске асырылмайды.

Сондықтан біздің зерттеуіміз үшін педагогикалық кәсіптің әлеуметтік сипатын білетін, табысты тұлғалық және кәсіби әлеуметтенуге бағытталған педагогикалық жоғары оқу орындарының түлектері тұлғасында кәсіптік-педагогикалық білім берудің нәтижесі қызықты.

Отандық ғылымда жоғары педагогикалық білім беруді дамыту (Н.Д.Хмель, К.К.Жампеисова, А.А.Бейсенбаева, Ж.И.Намазбаева) жан-жақты қарастырылып, ондағы идеялар теориялық тұрғыдан зерделеніп, практикалық жүзеге асырылуда. 2015 жылдан бастап отандық ғылымда осы бағытта жасалып жатқан мемлекеттік ғылыми жобалар (С.А.Жолдасбекова, К.Ж.Бұзаубақова, Ұ.М.Әбдіғапбарова, Г.К.Исаева) мен диссертациялық зерттеулер (Ж.О.Нұржанбаева, Ж.Е.Алшынбаева, А.А.Сманова, Э.А.Айтенова) бүгінгі таңда жоғары педагогикалық білім беру үдерісіне теория мен практиканы ұштастыратын дуальді оқыту элементтерін ендіру мүмкіндіктерін теориялық-практикалық тұрғыдан негіздейді [1,2].

Осы айтылғандар болашақ мұғалімнің кәсіби даярлығын жетілдіруде ҚР ЖОО жүйесіне *коллаборациялық ортаны* құрудың ерекшеліктері, оны тиімді нәтижеге бағыттап ұйымдастыру мәселесі толықтай қарастырылмағанын байқатты.

Олай дейтініміз, қазіргі заманғы кәсіптік білім беру тәжірибесінде қоғамдағы динамикалық процестер мен университетте мамандар даярлау сапасы арасындағы айтарлықтай алшақтық байқалады. ЖОО-да пәндік оқытудың басым сипаты студенттердің білімінің жиі шашыраңқы болуына, тым теориялық сипатқа ие болуына әкеледі, нәтижесінде алған білімдерін практикада қолдануда және ұйымдастырушылық, басқарушылық, жобалау іс-әрекетін жүзеге асыруда университет түлектерінің қиындықтары туындайды. Осындай оқу-танымдық іс-әрекеттің нәтижесінде тұлғаның терең ішкі жан дүниесіне әсер етпейді, мұндай оқытудан алынған білім қажетті нәтиже бермейді.

Болашақ педагогті кәсіби даярлауда коллаборациялық ортаны ұйымдастырудың мәні мен маңызын анықтауда философиялық, психологиялық-педагогикалық әдебиеттерге, ғылыми еңбектерге, диссертациялық зерттеулерге теориялық талдау жасау; озық тәжірибелерге контент-талдау және т.б. әдістер қолданылады.

Зерттеуде шетелдік және отандық жұмыстарға талдау жасалып, онда *«коллаборация», «ынтымақтастық», «бірлескен, ортақ»* мәселесі *«коллаборациялық орта»* тұжырымдамасының негізі ретінде қарастырылды.

Біз осы аталған және жоғарыда көрсетілген еңбектерде берілген *«коллаборация» «ынтымақтастық», «бірлескен орта» түсініктерінің арақатынасын айқындауға мән бердік.*

Жасалған теориялық талдау шұғыл зерттеуге қажет проблемалық бағыттардың теориялық-практикалық тұрғыдан шешімін таппағандығын анықтауға мүмкіндік берді:

- коллаборациялық орта негізінде болашақ педагогтің кәсіби даярлығының теориялық-әдіснамалық базасы анықталмаған;
- коллаборациялық орта негізінде болашақ педагогті ЖОО-ң өзара әрекеттестігінде кәсіби даярлығын жүзеге асыру механизмі жасалмаған;
- коллаборациялық орта негізінде дербестендірілген оқытуын ұйымдастырушылық-әдістемелік қамтамасыздандырудың ғылыми-практикалық нұсқаулары әзірленбеген.

Алайда жоғары білім беру саласына инновацияларды белсенді енгізу, педагогикалық жоғары оқу орындарының білім беру қызметін оңтайландыру педагогтердің кәсіби саладағы өзараәрекеттестікті жақсарту негізінде олардың кәсіби дамуы үшін мүмкіндіктерді кеңейтеді. Еліміздегі білім беруді дамытудың экономикалық логикасы жаңа, жоғары нәтижелерге қол жеткізу үшін білім беру ұйымдарының ресурстарын (білім, өнімдер, идеялар, технологиялар, кадрларды) біріктіру болып табылады. Осыған байланысты білім беру тәжірибесінде желілік өзараәрекеттестік, әлеуметтік серіктестік және кәсіби ынтымақтастық (коллобарация) қалыптастыру маңызды.

«Коллаборация» сөзінің этимологиясы француздың «ынтымақтастық» сөзінен шыққан, ол «бірлескен іс-әрекет, ынтымақтастық, бірге жұмыс істеу» дегенді білдіреді. Сөздіктерде коллаборация білім алмасу, оқыту және келісімге (консенсусқа) қол жеткізу орын алатын ортақ мақсаттарға жету үшін екі немесе одан да көп адамның немесе ұйымдардың бірлескен іс-әрекеті (процесі) ретінде анықталады [3].

Тұлғаның коллаборациялық оқу ортасына енуі студенттің өзін адами қарым-қатынастардың ерекшеліктерін игеруге белсенді қосуды, практикалық, ғылыми және теориялық іс-әрекеттің дағдылары мен біліктерін игеруді, белгілі бір әлеуметтік нормалар мен функцияларды қалыптастыруды, қоғамда өзін-өзі кәсіби білікті, табысты маман ретінде жүзеге асыруды қамтиды.

Осылайша, студенттің белсенді іс-әрекеті, оның тұтас педагогикалық үдеріске қатысушылармен өзара әрекеттесуі оның кәсіби табысты тұлғасын қалыптастырудың шешуші шарттарының бірі болып табылады.

Жоба идеясының қолданыстағы аналогтардан түбегейлі айырмашылығы

Бүгінгі таңда ғылыми әдебиеттерде коллобарацияның ерекше формасын білдіретін категория ретінде ынтымақтастық туралы белгілі бір түсінік қалыптасты:

1. «Жаһандық ортадағы кооперация» (О.В.Иншаков [4]);
2. «Бір мақсатқа жету үшін бірлескен еңбек» (Н.Ю.Самсонов [5]);
3. «Кәсіпкерліктің орталықтандырылған моделі» (С.Г.Якунаева, Ю.Е.Кошурникова [6]);
4. «Мақсаттар бірлігінде бірлескен жобалар құру» (О.Г.Тихомирова 7]);

5. «Өнімді жасау үшін зияткерлік еңбек нәтижелерін біріктіретін қауымдастық» (Н.В.Смородинская [8]);

6. Бірлескен жұмыс (Е.А.Антипин [9]);

7. Желілік өзара әрекеттесу (О.В.Иншаков [4, 12б.], Н.В.Смородинская [8, 21б.]);

8. Жобалық іс-әрекет (О.Г.Тихомирова [7, 19б.])

9. Модернизация жағдайындағы жоғары білім берудегі өзгерістер мұғалімнің кәсіби іс-әрекетінің қазіргі заманғы моделінің негізгі сипаттамаларына баса назар аударады: командалық рух, ынтымақтастық, автономия мен индивидуализмнің ұжымшылдық пен командалық жұмыспен үйлесуі. Педагогикалық білім беруді дамыту контекстінде ол «білім сапасы = өмір сапасы» қағидаты бойынша бағытталған жүйелі өзгерістерді жобалау қажеттігін көрсетеді (А.П.Тряпицына [10]).

Ғылыми еңбектерде коллобарация – «бәсекелестіктен ынтымақтастыққа» көшу идеясы білім беруді жаңғыртуға тырысады. Олай дейтініміз, педагогикалық серіктестік пен желілік өзараәрекеттестіктің жаңа формаларын іздеумен, академиялық ұтқырлықты ұйымдастырумен, педагогикалық үдерісті заманауи педагогикалық практика мәселелеріне қосумен байланысты. Зерттеудің теориялық-әдіснамалық негіздерін мынадай еңбектер құрайды:

- кәсіби білім беруде үздіксіз білім беру мәселелеріне шет елдік (J.Barzun, D.Bridges, т.б.), ресейлік (В.И.Байденко Б.С.Гершунский, т.б.) және қазақстандық (А.А.Жайтапова, А.Е.Есполова, Н.Р.Шаметов, С.З.Коканбаев, т.б.);

- оқытудағы құзыреттілік тәсіл тұжырымдамасы (И.А.Зимняя, А.П.Тряпицына, А.В.Хуторской, т б.);

- заманауи университеттік білім беру мәселесі (В. А.Анищенко, Е. И.Тихомирова, В.А.Якунин, т.б.);

- ЖОО жағдайында мамандар даярлаудың теориялық және технологиялық негіздері (С.Д.Қаракөзов, Г.З.Әділғазинов, Г.К.Нұрғалиева, т. б.);

- біртұтас педагогикалық процесс (Н.Д.Хмель), мұғалім мен оқушының ынтымақтастығы (Н.Н.Хан), субъкт-субектілік қарым-қатынас (Ж.Ы.Намазбаева) [11,12,13,14];

Алайда қазақстандық ғалымдар зерттеулерінде коллаборациялық оқу ортасы – арнайы зерттеу нысанына алынбаған. Әрине, болашақ мұғалімнің жеке басының жетістігін қалыптастыру құралы ретінде бірлескен оқу ортасын құру (А.Е.Берикханова); коллаборациялық ортаның сабақтың нәтижелілігіне әсері (В.Р.Даужанова) сияқты кейбір мақала, баяндамаларды жоққа шығаруға болмайды [15,16].

Коллаборациялық орта болашақ педагогтің кәсіби тұлғасын қалыптастыру мен педагогикалық процессте субъект-субъектілік өзара әрекеттесуінде оқыту, тәрбиелеу, әдістемелік, зерттеу, әлеуметтік-коммуникативтік функцияларын дамыту үшін басты бағыттаушы вектор студенттерді кәсіби-педагогикалық қарым-қатынас ерекшеліктеріне баулу

үшін жеке тұлғаның әлеуетті мүмкіндіктерін ашу үшін қолайлы жағдайлар қажеттілігін болжайтын коллаборация оқу ортасын құру керек дегенді білдіреді.

Бірлескен өзара әрекеттесуге қатысушының субъективтілігі оқытушының сабақта студенттердің топтық, командалық, жұптық іс-әрекетін ұйымдастыра білуімен қамтамасыз етіледі. Мұғалім фасилитатор рөлін атқарады, яғни топтық коммуникацияны қамтамасыз етеді, топтар арасындағы пікірталас үшін қолайлы орта құруға ықпал етеді. Коллаборацияда әр студент оқу үдерісінің тікелей қатысушысы болуы, танымдық іс-әрекеттің түрлерін саналы түрде таңдауы, рефлексиялық іс-әрекетпен айналысуы, өз ойын еркін білдіруді үйренуі, өз мүмкіндіктерін жүзеге асырады. Дәріс және семинар сабақтарында коллаборацияның әртүрлі әдістері мен стратегияларын қолдану олардың студенттердің тәуелсіздігін, ақыл-ой белсенділігін, өзін-өзі растауын және өзін-өзі жүзеге асыруын дамытуға ықпал ететіндігін көрсетеді. Бұл ретте ЖОО-ның тұтас педагогикалық үдерісінің оқу-тәрбие тетіктерінде тұрақты байланыстар мен тәуелділіктер қалыптасады, қарым-қатынастардың күрделі жүйесі пайда болады, белгілі бір интеллектуалдық шиеленіс өрісі мен ізгі ниет пен іскерлік ынтымақтастық атмосферасы қалыптасады.

Олай болса, коллаборациялық орта негізінде болашақ педагогтің кәсіби даярлығын қалыптастыру қазіргі педагогикалық практика, қоғамның инновациялық-индустриялық даму сұраныстарына ие екендігі сөзсіз.

Жоғарыда берілген зерттеу мәселеміз бойынша теориялық-әдіснамалық талдаудың нәтижесі ретінде ЖОО-да сабақтарды коллаборациялық орта негізінде топаралық жұмысты қолдану ерекшеліктеріне тоқталамыз. Мұндай жұмыс белгілі бір мәселелерді бірлесіп шешу үшін студенттерді топтарға уақытша бөлуді талап етеді. Микротоптар 4-6 адамнан тұрады, өйткені олар ең жоғары нәтижеге ие. Топтар, әдетте, оқыту деңгейінде гетерогенді болады. Мұндай топтарда оқыту әлсіз студенттерді орта деңгейге көтереді және күшті студенттердің жұмысын ынталандырады. Жоғары оқу мүмкіндіктері бар студенттер өз жолдастарына көмек көрсете алады, материалды бірлесіп талдайды және нәтижесінде барлығы жетістікке жетеді. Сабақтағы жұмыстың топтық формасын барлық дерлік негізгі дидактикалық мәселелерді шешу үшін қолдануға болады. Жұмыста оқу сабақтарын ұйымдастырудың топтық формасын қолдану кезінде үнемі жоғары сапалы үлгерім байқалады.

Топтық сабақтардың түрлері:

Топтық сауалнама – зерттелген тақырыпты немесе бағдарлама бөлімін қайталау және бекіту үшін жүргізіледі. Тақырыпты қайталау барысында күндер, фактілер, ұғымдар, себеп-салдарлық байланыстар, персонал туралы білімдерін жаңартып, нақтылаған жөн. Топтық сауалнама кезінде кеңесші сұрақтар тізіміне сәйкес өз тобының әрбір мүшесінен сұрайды. Кеңесшілер – бұл жақсы үлгерген және пәнге қызығушылық танытатын студенттер, олар өз жолдастарына оқуға көмектесуге ниет білдіреді. Студенттің жауаптары топтың барлық мүшелеріне түсініктеме береді, толықтырады және бірлесіп бағалайды. Мұндай сабаққа қойылатын сұрақтар тізімін оқытушы жасайды.

Сауалнама барлық топтарда бір уақытта жүргізіледі. Әңгіме бір-біріне кедергі келтірмеу үшін жарты дауыста өтеді. Білім алушылар материалды қайта қарастырады және жүйелейді.

«*Ми шабуылы*» бар тапсырмаларға негізделген топтық семинар. Семинар сабақтары студенттердің танымдық белсенділігін дамыту үшін үлкен мүмкіндіктерге ие. Студенттердің ақыл-ой әрекетін белсендіру, бұрыннан белгілі материалға деген қызығушылықты ояту үшін жаңа элемент үлкен маңызға ие: тұжырымдама бойынша жаңаларын мұқият таңдау және мағынасы бойынша жалпылау, жаңа фактілерді келтіру, оқытудың жаңа көрнекі құралдарын қолдану және т.б.

Дәстүрлі емес сабақтар. Оқу сабақтарын ұйымдастырудың топтық формаларына дәстүрлі емес сабақтар кіруі керек, онда топты микро топтарға бөлу орын алады.

Сабақ-саяхат. Мұндай сабақтарды үлкен тақырыптарды зерттеудің басында өткізген жөн. Материалдың көлемі өте үлкен. Топтарда жұмыс істеу оқытушыға тапсырманы айтарлықтай жеңілдетеді.

1. Топ «уақыт машинасында» сырттай саяхаттау үшін әрқайсысы 6 адамнан тұратын микро топтарға бөлінеді.

2. Топ ішінде рөлдер (картограф, тарихшы, экономист, демограф, әлеуметтанушы, саясаттанушы) және тапсырмалар бөлінеді (топ мүшелерінің әрқайсысы жеке тапсырма алады, ол жалпы нәтижеге жұмыс істеуі керек). Қатысушылардың әрқайсысына тапсырма жазбаша түрде беріледі. Бұл уақытты үнемдейді, оқытушыға топтармен, әр студентпен жеке жұмыс істеуге мүмкіндік береді.

Ғылыми зерттеулер сабақтарында топтық оқыту әдісін қолдану өте тиімді, егер оқушылардың әлеуметтік тәжірибесі аз болса да.

Ғылыми зерттеуде пікірталас диалогының әртүрлі формалары бар:

- дөңгелек үстел (әр түрлі позициялар-еркін пікір білдіру);
- сараптамалық топтар (микро топтарда талқылау, пікір білдіру);
- форум (топ аудиториямен пікір алмасады);
- симпозиум (осы мәселе бойынша дайындалған пікірлерді, хабарламаларды ресімделген ұсыну);
- пікірсайыс (мәселе бойынша екілік позицияларды ұсыну: дәлелдеу-теріске шығару);
- «сот отырысы» (сот талқылауын имитациялайтын талқылау-істі тыңдау);
- muomala madaniyati hamda o‘zaro hurmat meyorlarining katta ahamiyatga ega ekanligi, doimo bir-birining ko‘ngliga qarash oilaning mustahkamligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanishi;

- oilada o‘zaro sir saqlash, yashirin yoki xufyona harakatlarning oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar oila tadqiqotlarini olib boruvchi mutaxassislardan sof ijtimoiy guruhlarni o'rganishda qo'llaniladigan metodologik tamoyillardan qisman chekinishni talab qiladi. Chunki oila — o'zida murakkab insoniy munosabatlar mujassam bo'lgan noyob ijtimoiy maskandir.

Xulosa qilib aytganda, etnopsixologik tadqiqotlarda oilani asosiy ijtimoiy-psixologik muhit sifatida o'rganish milliy qadriyatlar, etnik ong, milliy xarakter va shaxslararo munosabatlarning shakllanish mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida milliy an'ana va qadriyatlarni saqlovchi, avlodlararo vorislikni ta'minlovchi hamda shaxsning milliy o'zligini shakllantiruvchi asosiy maskan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oila muhiti nafaqat shaxsning psixologik rivojlanishiga, balki uning dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bola shaxs sifatida aynan oilada shakllanadi, uning ilk ijtimoiy tajribasi, axloqiy me'yorlari va kommunikativ ko'nikmalari ham oilaviy muhitda rivojlanadi. Shu sababli oiladagi ijobiy yoki salbiy psixologik muhit keyingi hayot bosqichlarida shaxsning ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir qiladi.

Zero, bugungi globallashuv va madaniy transformatsiyalar sharoitida milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ortishi milliy mentalitetning ayrim jihatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda oilaning tarbiyaviy funksiyasi yanada muhimlashadi, chunki aynan oila orqali milliy qadriyatlar avloddan-avlodga uzatiladi va mustahkamlanadi.

Ayniqsa, o'zbek oilalarida saqlanib kelayotgan mehr-oqibat, hurmat, bag'rikenglik, hamjihatlik va ahillik kabi qadriyatlar jamiyat barqarorligi hamda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlar nafaqat oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, balki ijtimoiy totuvlik va milliy birlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, oilalarda etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlarning namoyon bo'lishini o'rganish, qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hamda milliy mentalitetni asrab-avaylashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham jamiyat rivojiga, yosh avlod tarbiyasini takomillashtirishga va milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoumarov G'.B., Rasulova Z.A. Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar //Oila barqarorligi: muammolar, tajribalar, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami– Toshkent,2012. –B.116- 118.

2. Turg'unboyeva Azizaxon G'ulomovna .O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida).Maktabgacha va maktab ta'limi. Toshkent 2026 . – B. 247.

https://zenodo.org/records/17113665/files/55.Turg%E2%80%98unboeva%20Azizaxon%20G%E2%80%98ulomovna.pdf?download=1

3. Turg‘unboyeva Azizaxon G‘ulomovna Психологические тренинги как средства здоровьесберегающих технологии Состояние здоровья: медицинские, социальные и психолого-педагогические …, 2017 Link View Article

4. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / G‘.B. Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. – 338 b.

5.Oila entsiklopediyasi. Tuzuvchilar: F.A.Akramova, Z.Bilolova, I.Jovliev. – T: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.

УДК: 376.36:373.2

Bekmanova Jamila Abdulayevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

ВОЗМОЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НЕКОТОРЫХ ПЕРСПЕКТИВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПОДГОТОВКИ ЛОГОПЕДОВ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Проблема коррекции и устранении речевых проблем дошкольников имеет большую социальную значимость и требует постоянного обновления и совершенствования логопедической помощи. Обращение к передовому и инновационному зарубежному опыту подготовки специалистов-логопедов является одним из направлений успешности данной деятельности.

Ключевы слова: дошкольная образовательная организация, коррекционная работа, логопедическая помощь, подготовка специалистов, совершенствование, зарубежный опыт, учебные программы, разносторонняя подготовка, комплексный подход.

O‘ZBEKISTONDAGI MAKTABGACHA TA’LIM SISTEMASIDA LOGOPEDLARGA TA’LIM BERISHDA XORJIY TAJRIBANING BA’ZI ISTIQBOLLI SOHALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATI

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq muammolarini tuzatish va bartaraf etish masalasi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, logopedik yordamni doimiy yangilash va takomillashtirishni talab etadi. Logopedlarni tayyorlashda ilg‘or va innovatsion xorijiy tajribaga murojaat qilish ushbu faoliyat muvaffaqiyati yo‘nalishlaridan biridir.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim muassasasi, tuzatish ishlari, nutq terapiyasi yordami, mutaxassislarni tayyorlash, takomillashtirish, xorijiy tajriba, ta’lim dasturlari, keng qamrovli tayyorgarlik, integratsiyalashgan yondashuv.

THE POSSIBILITY OF USING SOME PROMISING AREAS OF FOREIGN EXPERIENCE IN THE TRAINING OF SPEECH THERAPISTS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Abstract. The problem of correcting and eliminating speech problems in preschoolers is of great social importance and requires constant updating and improvement of speech therapy assistance. Turning to advanced and innovative foreign experience in training speech therapists is one of the directions for the success of this activity.

Keywords: preschool educational institution, corrective work, speech therapy assistance, training of specialists, improvement, foreign experience, educational programs, comprehensive training, integrated approach.

В Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности дошкольных образовательных организаций» от 13.05.2019 г. № 391 определены цели и задачи дошкольной образовательной организации, среди которых указывается на необходимость «…создания благоприятной среды, позволяющей детям, в том числе детям с особыми потребностями, получать индивидуальные образовательные программы, а также современное инклюзивное дошкольное образование и воспитание.

Также указывается на важность социальной адаптации ребенка и внедрения современных образовательных программ и технологий в образовательно-воспитательный процесс дошкольных организаций [1].

В настоящее время в Узбекистане функционируют различные типы государственных и частных дошкольных образовательных учреждений.

Уделяется большое внимание коррекционной (в том числе логопедической) работе с дошкольниками. Успешно функционируют центры по оказанию логопедической помощи детям-дошкольникам «Альмадея», «Umka», «Elena logocentr», «Logo olam», «Parus logo sentr», специальные дошкольные учреждения логопедической направленности – в частности в Ташкенте в каждом районе действуют логопедические детские сады - «Гунча дурдоналари», «Логопедический», «Leksika», «Говоруша", "Чарос","Кузмунчок" и др.

В республике происходит процесс совершенствования подготовки логопедических кадров в девяти педагогических вузах Ташкента, Нукуса, Андижана, Ферганы, Джизака, Коканда, Чирчика.

Подготовка специалистов в недавно открывшемся факультете «Специальная педагогика» в Международном Университете Кимё в городе Ташкенте направлена на формирование личности педагога, обладающего глубокими теоретическими и практическими знаниями, позволяющая выпускникам стать высококвалифицированными специалистами [3]

5 февраля 2026 г. был опубликован материал «Обязательная годичная подготовка к школе: что еще изменится в дошкольном образовании РУЗ», в котором содержатся предложения Президенту Ш.М. Мирзиееву по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования и воспитания [2].

Основная цель — тщательная подготовка детей к школьному образованию и обеспечение непрерывности учебного процесса.

В Узбекистане программы годичной подготовки к школе утверждаются в качестве первого этапа обязательного общего среднего образования.

Кроме того, планируется внедрить в систему дошкольного образования модель обучения, основанную на играх и на изучении и учете врожденных способностей и интересов ребенка. Особая роль отводится использованию передового зарубежного опыта.

Следовательно, необходимо изучать специфику такого опыта, касающегося подготовки логопедов и содержания их практической деятельности.

Логопедия известная как терапия речи и языка, - это область, сосредоточенная на диагностике и лечении нарушений коммуникации. Логопеды работают с людьми всех возрастов для улучшения речи, и правильного функционирования речевого аппарата. Специалисты логопедического профиля оказывают помощь детям в речевом общении, облегчают их вхождение в детский коллектив, приобщают к навыкам коммуникации.

Логопедия для дошкольников за рубежом осуществляется методами, во многом аналогичными методам логопедов Узбекистана. Это означает, что основным содержанием логопедической деятельности является развитие речевых навыков, внимания, способности к запоминанию, мышления через наглядные демонстрации и методы, словесные упражнения и выполнение практических заданий. Профессиональные логопеды уделяют особое внимание работе по формированию правильного звукового произношения, связности речи, постепенным и постоянным расширением словарного запаса. Особенностью зарубежной логопедии является различие в формах деятельности – наиболее распространенными, помимо государственных специальных образовательных учреждений или их отдельных кафедр являются профильные центры и частные практики.

Подготовка логопедов в каждой зарубежной стране имеет свою специфику. В области высшего образования это может быть курс общепедагогической направленности, но связанный с дефектологией, психологией или специальной (коррекционной) педагогикой. Учебные программы по логопедии и психологических особенностях детей и взрослых с речевыми нарушениями в разных странах, несмотря на общую направленность, различаются в названиях – например, в США они носят название "Speech-Language Pathology." Однако цели, задачи и этапы подготовки в разных государственных и частных учебных схожи по своему содержанию –овладение методами диагностики и коррекции различных логопедических проблем.

В частности, в University of Arizona (Университете Аризоны, США) существует Бакалавриат по Логопедии (Квалификация для профессии «Медицинский работник-логопед).

В Università degli Studi di Torino (Университете исследований в Турине, Италия) в подготовке логопедов акцентируется внимание на синтез медицины и логопедии, что выражается в названии специальности, ,получаемой выпускниками бакалавриата по окончании Университета - «Медицинский работник - логопед».

Содержание курса обучения включает углубленное обучение языку, способам коммуникации и коррекции речевых расстройств. Студентами изучаются анатомия и физиология звучания речи, особенности языка, а

также его фонематические, этнические, грамматические особенности языка, методика и способы диагностики и преодоление расстройств произношения, артикуляции, глотания и др. Практический опыт приобретается в процессе клинической стажировки, где студенты расширяют свой профессиональный опыт в области логопедической терапии в целях оказания результативной помощи разным возрастным, социальным и профессиональным категориям граждан в целях оказания им помощи по овладению речевыми и коммуникативныи навыками.

В частности, в Università di Pisa (Университете Пизы, Италия) студенты получают степень Бакалавр наук (BSc).

Содержание обучения заключается в подготовке специалистов, которые, помимо навыков диагностики и лечения коммуникативных сложностей, получают углубленные знания по анатомии и физиологии работы речевого аппарата, психологии клиентов с речевыми отклонениями, лингвистике и соответствующим терапевтическим методам логопедической помощи. Обязательным является прохождение практической части подготовки в клинических условиях. В этот период развиваются навыки оценки и лечения разных видов речевых нарушений (дисфония, дисфагия, дизартрия, алалия), умения исправления нарушений языкового обучения, допущенных в предшествующий период обучения и воспитания как у взрослых, так и у детей. Таким образом, содержание подготовки в данном вузе отличается синтезом логопедии с медициной, психотерапией и физиотерапией.

Более углубленную и разностороннюю подготовку получают Бакалавры логопедии в Edith Cowan University (Университет Эдит Коуэн, Австралия) где, помимо формирования навыков диагностики, определения этапов логопедического воздействия специалиста на детей, изучаются такие науки, как речелогия, общая психология, логопсихология, аудиология, лингвистика, медицина [4, 5].

Названные программы обучения при общей направленности различаются по своему содержанию и подходам к лекционным и практико-ориентированным занятиям.

Из всего сказанного делается вывод, что качество работы логопедов в дошкольных образовательных организациях Узбекистана необходимо совершенствовать по направлениям:

- комплексного подхода к обучению, в отличие от узкоспециального, включающего все необходимые компоненты - методологические, концептуальные (общепедагогические и личностные), медицинские, психологические и психотерапевтические, методико-технологические творческие.

При этом необходимо ориентироваться на методы, приемы и технологии, соответствующие возрасту и потребностям детей – преимущественно игровые, увлекательно-тренажерные, творческие – логопедические упражнения в форме загадок, сказок, пословиц, сценок, различные техники арт-терапии.

Литература:

1. Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности дошкольных образовательных организаций» от 13.05.2019 г. № 391 Обязательная годичная подготовка к школе: что еще изменится в дошкольном образовании РУЗ.

2. Главе Республики презентовали предложения по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования и воспитания**.** Ташкент, 5 фев — Sputnik.https://news.mail.ru/society/69691993

3. Международный Университет Кимё https://www.kiut.uz/ru/

4. Запасная Н. Использование зарубежного и отечественного опыта в практике работы учителя-логопеда с детьми ОВЗ.

https://www.maam.ru/detskijsad/ispolzovanie-zarubezhnogo-i-otechestvenogo-opyta-v-praktike-raboty-uchitelja-logopeda-s-detmi-ovz.html

5. https://www.google.com/search?client=opera&q=подготовка+логопедов+за+рубежом&sourceid=opera&ie=UTF-8&oe=UTF-8

UDK: 37.013:159.9:34:316.6

Kamilova Madina Xamidjanovna,
Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

OILADA HUQUQIY SAVODXONLIK SHAKLLANISHIDA MOTIVATSION OMILLARNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada huquqiy savodxonlik shakllanishida motivatsion omillarning o'rni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy savodxonlikning shakllanishi shaxsning kognitiv ehtiyoji, o'zini-o'zi kamol toptirish ehtiyoji, axloqiy ehtiyoji hamda huquqqa munosabati bilan uzviy bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muhitda huquqiy bilim, huquqiy ustanovka va huquqiy madaniyatning rivojlanishida motivatsion omillarning ta'siri ochib berilgan. Maqolada yosh, o'rta va yetuk yoshdagi oilalarda huquqiy savodxonlik shakllanishining o'ziga xos jihatlari, motivatsion ehtiyojlarning huquqiy ong rivojiga ta'siri hamda oilaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari oilada huquqiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oilada huquqiy savodxonlik, motivatsion omillar, kognitiv ehtiyoj, axloqiy ehtiyoj, o'zini-o'zi kamol toptirish ehtiyoji, huquqiy ong, huquqiy ustanovka, oilaviy munosabatlar, huquqiy madaniyat, ijtimoiy-psixologik omillar.

РОЛЬ МОТИВАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В СЕМЬЕ

Аннотация. В данной статье с социально-психологической точки зрения анализируется роль мотивационных факторов в формировании правовой грамотности в семье. В исследовании освещается взаимосвязь формирования правовой грамотности с когнитивными потребностями личности, потребностью в самосовершенствовании, нравственными потребностями, а также отношением к праву. Кроме того, раскрывается влияние мотивационных факторов на развитие правовых знаний, правовой установки и правовой культуры в семейной среде. В статье обосновываются особенности формирования правовой грамотности в молодых, средневозрастных и зрелых семьях, влияние мотивационных потребностей на развитие правового сознания, а также их значение в обеспечении устойчивости семейных отношений. Результаты исследования могут служить важной основой для разработки психологических и педагогических рекомендаций, направленных на развитие правовой грамотности в семье.

Ключевые слова: правовая грамотность в семье, мотивационные факторы, когнитивная потребность, нравственная потребность, потребность в

самосовершенствовании, правовое сознание, правовая установка, семейные отношения, правовая культура, социально-психологические факторы.

THE ROLE OF MOTIVATIONAL FACTORS IN THE FORMATION OF LEGAL LITERACY IN THE FAMILY

Abstract. This article analyzes the role of motivational factors in the formation of legal literacy in the family from a socio-psychological perspective. The study highlights the close relationship between the development of legal literacy and an individual's cognitive needs, need for self-improvement, moral needs, and attitude toward law. It also reveals the influence of motivational factors on the development of legal knowledge, legal attitudes, and legal culture within the family environment. The article substantiates the specific features of legal literacy formation in young, middle-aged, and mature families, the impact of motivational needs on the development of legal consciousness, and their importance in ensuring the stability of family relationships. The findings of the study serve as an important basis for developing psychological and pedagogical recommendations aimed at improving legal literacy in the family.

Keywords: legal literacy in the family, motivational factors, cognitive needs, moral needs, need for self-improvement, legal consciousness, legal attitude, family relations, legal culture, socio-psychological factors.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borayotgan davrda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni yuksaltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, oilada huquqiy savodxonlikni shakllantirish nafaqat shaxsning o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yetishida, balki sog‘lom oilaviy muhitni qaror toptirish, farzandlar tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Chunki oila shaxs kamolotining dastlabki ijtimoiy muhiti sifatida uning qadriyatlari, munosabatlari, mas'uliyat hissi va huquqiy tasavvurlarining shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, ayniqsa oila institutini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa oilaviy munosabatlar tizimida huquqiy savodxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy, pedagogik va psixologik asoslarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Zero, oilada shakllangan huquqiy bilim va ko‘nikmalar shaxsning keyingi ijtimoiy hayotida qonunlarga hurmat, huquqiy me'yorlarga rioya etish, mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi sifatlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Oilada huquqiy savodxonlikning shakllanishi ko‘plab ijtimoiy-psixologik omillar bilan belgilanadi. Ular orasida shaxsning huquqqa munosabati, huquqiy ustanovkasi, oiladagi muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlar tizimi, ijtimoiy rollarning anglanishi, shuningdek, motivatsion omillar alohida o‘rin egallaydi. Xususan, kognitiv ehtiyoj, o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji va axloqiy ehtiyoj

kabi motivatsion ko‘rsatkichlar shaxsning huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ichki intilishini kuchaytiradi, huquqiy tafakkurini boyitadi va oilaviy munosabatlarda huquqiy me’yorlarga ongli ravishda amal qilishga xizmat qiladi. Tadqiqot materiallarida yosh, o‘rta va yetuk yoshdagi oilalarda huquqiy savodxonlik darajasi va uning motivatsion asoslari o‘zaro farqlanishi ham qayd etilgan. Jumladan, yosh oilalarda kognitiv ehtiyoj va o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lishi, bu esa huquqiy bilimlarni izlash va o‘zlashtirishga kuchliroq intilish bilan bog‘liqligi asoslangan. Shu jihatdan qaraganda, motivatsion omillarni oilada huquqiy savodxonlikni shakllantirishning muhim psixologik mexanizmlaridan biri sifatida o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Huquqiy savodxonlik, huquqiy ong va huquqiy madaniyat masalalari zamonaviy psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar tizimida huquqiy savodxonlikni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Oila shaxs ijtimoiylashuvining birlamchi instituti sifatida unda huquqiy bilim, qadriyat va me’yorlarning shakllanish jarayoni uzluksiz davom etadi. Shu bois huquqiy savodxonlikning oilada qaror topishi masalasi turli fan vakillari tomonidan keng o‘rganilgan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan huquqiy ongni rivojlantirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlar va oilada huquqiy savodxonlikni shakllantirish masalalari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, G.Z. Abdullayeva, F.A. Akramova, Sh.R. Baratov, M.X. Fayziyeva, A.M. Jabborov, B. Jurayev, Z.M. Islomov, K. Najimov, V.M. Karimova, N. Saburov, G‘.B. Shoumarov, B.R. Qodirov, B.M. Umarov, B.T. To‘ychiyev, N.X. Xakimov, I.E. Xudoyberdiyev va boshqalar tomonidan huquqiy ong, huquqiy madaniyat, yoshlar tarbiyasi hamda oiladagi ijtimoiy-psixologik omillarning shaxs kamolotiga ta’siri turli jihatlarda tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy, tarbiyaviy va psixologik asoslari yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda esa huquqiy savodxonlik ko‘proq shaxsning huquqiy tafakkuri, qonunga bo‘lgan munosabati, huquqiy xulq-atvori va motivatsion xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Avtoreferatda S.K. Bondareva, B.S. Bratus, L.Y. Gozman, F.E. Vasilyuk, E. Fyornxem, K. Izard, R. Plutchik, V.K. Vilyunas, E.P. Ilin, K.V. Petrides, U. Peyn, L.Y. Subbotina, N.D. Ueksler va K. Shtayner kabi olimlarning ishlari tilga olinib, ularda huquqiy ongning shakllanishi, shaxsning emotsional, kognitiv va motivatsion xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlar yoritilgani qayd etiladi. Bu yondashuvlar huquqiy savodxonlikni faqat bilim darajasi emas, balki shaxsning ichki ehtiyojlari va qadriyatlari bilan bog‘liq murakkab psixologik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mavzuga oid tadqiqotlarni tahlil qilish davomida, huquqiy savodxonlikning shakllanishida motivatsion omillar alohida o‘rin tutadi. Xususan, kognitiv ehtiyoj shaxsning yangi huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ichki intilishini ifodalasa, o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji huquqiy bilimlarni muntazam ravishda boyitish va amaliyotda qo‘llashga undaydi. Axloqiy ehtiyoj esa shaxsning qonun va

me'yorlarga ongli ravishda rioya etishida ichki tayanch vazifasini bajaradi. Shu ma'noda motivatsion omillar huquqiy savodxonlikning psixologik asoslarini tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, huquqqa munosabat bilan kognitiv ehtiyoj hamda o'zini-o'zi kamol toptirish ehtiyoji o'rtasida, huquqiy ustanovka bilan esa axloqiy ehtiyoj o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'lanish mavjudligi aniqlangan. Bu esa motivatsion omillarning oilada huquqiy savodxonlik shakllanishida bevosita ta'sirga ega ekanini ko'rsatadi. Demak, oilaviy muhitda huquqiy bilimlarni shakllantirish jarayonida shaxsning bilimga intilishi, o'z ustida ishlashga tayyorligi va axloqiy qadriyatlarga sodiqligi hal qiluvchi psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning obyekti sifatida oilaviy munosabatlarda huquqiy savodxonlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari belgilangan. Tadqiqot predmetini esa oilada huquqiy savodxonlik shakllanishi va unda motivatsion omillarning namoyon bo'lish xususiyatlari tashkil etadi. Mazkur yondashuv maqola mavzusiga mos ravishda motivatsion ehtiyojlarning huquqiy savodxonlikka ta'sirini alohida tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi yosh, o'rta va yetuk yoshdagi oilalardan jami 345 nafar respondent ishtirok etgan. Bunday tanlanma oilalarda huquqiy savodxonlikning yosh xususiyatlari, oilaviy tajriba va motivatsion omillar bilan bog'liq jihatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini bergan. Respondentlarning turli yosh va oilaviy tajriba bosqichlariga mansubligi tadqiqot natijalarining qamrovini kengaytirgan. Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa va kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, psixodiagnostik vositalar sifatida P.P. Muslumovning «Huquq va huquqiy ustanovkalarga nisbatan munosabatni o'rganish» so'rovnomasi, R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omilli xususiyatlarini baholash» so'rovnomasi, D.S. Beznosovning «Huquqqa munosabat» metodikasi, D.V. Kashiriskiy va O.I. Motkovlarning «Motivatsion soha (ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi)» so'rovnomasidan foydalanilgan. Ushbu metodikalar orqali respondentlarning huquqqa munosabati, huquqiy ustanovkasi, shaxsiy sifatlari va motivatsion ehtiyojlari o'rganilgan.

Tadqiqot natijalari oilada huquqiy savodxonlik shakllanishida motivatsion omillarning muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Xususan, yosh, o'rta va yetuk yoshdagi oilalarda huquqqa munosabat hamda huquqiy ustanovka ko'rsatkichlarida sezilarli farqlar aniqlangan. Jumladan, «huquqqa munosabat» omili bo'yicha yosh oilalarda o'rtacha ko'rsatkich 15,7 ni, yetuk oilalarda 17,6 ni, o'rta yoshdagi oilalarda esa 17,8 ni tashkil etgan. «Huquqiy ustanovka» omili bo'yicha esa yosh oilalarda 16,4, yetuk oilalarda 16,8, o'rta yoshdagi oilalarda 18,9 ko'rsatkich qayd etilgan. Mazkur natijalar oilaviy tajriba, mas'uliyat va ijtimoiy rollarning barqarorlashuvi bilan huquqiy savodxonlik ham kuchayib borishini anglatadi.

Motivatsion omillar tahlili ham mavzu uchun muhim ilmiy dalillarni berdi. «Motivatsion soha darajasi» so'rovnomasi natijalariga ko'ra, «kognitiv ehtiyoj» omili yosh oilalarda yuqoriroq bo'lib, ularning o'rtacha ko'rsatkichi 8,3 ni tashkil etgan, yetuk oilalarda bu ko'rsatkich 6,7, o'rta yoshdagi oilalarda esa 6,5 bo'lgan. Shuningdek, «o'zini-o'zi kamol toptirish ehtiyoji» ham yosh oilalarda nisbatan yuqori natija ko'rsatgan: yosh oilalarda 8,6, yetuk oilalarda 6,5, o'rta yoshdagi

oilalarda 6,8. Aksincha, «axloqiy ehtiyoj» ko‘rsatkichi yetuk va o‘rta yoshdagi oilalarda yuqoriroq ekani aniqlangan. Bu holat yosh oilalarda yangi bilimlarni egallash va o‘zini rivojlantirishga kuchli ichki intilish mavjudligini, yetuk oilalarda esa axloqiy qadriyatlar va me’yorlarga tayanish kuchliroq ekanini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari motivatsion omillar bilan huquqiy savodxonlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqladi. Xususan, «huquqqa munosabat» bilan «kognitiv ehtiyoj» o‘rtasida r=0,37, «huquqqa munosabat» bilan «o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji» o‘rtasida r=0,35 darajasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan. Shuningdek, «huquqiy ustanovka» bilan «axloqiy ehtiyoj» o‘rtasida r=0,38 darajasidagi ijobiy bog‘lanish qayd etilgan. Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy bilimlarga ijobiy munosabat bildirish va o‘z ustida ishlashga intilish oilada huquqiy savodxonlikning shakllanishini kuchaytiradi, axloqiy qadriyatlarga tayanish esa huquqiy ustanovkaning barqarorlashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida ham motivatsion omillarning rivojlantirilishi huquqiy savodxonlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Rivojlantiruvchi treningdan keyin tajriba guruhida «kognitiv ehtiyoj» 7,6 dan 9,1 gacha, «estetik ehtiyoj» 7,3 dan 9,6 gacha, «axloqiy ehtiyoj» esa 8,3 dan 10,6 gacha oshgan. Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmagan. Bu esa motivatsion omillarni maqsadli rivojlantirish oilada huquqiy savodxonlikni oshirishda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tajriba guruhida «huquqqa munosabat» 16,3 dan 18,4 gacha, «huquqiy ustanovka» esa 14,5 dan 17,9 gacha oshgani kuzatilgan. Bu natijalar motivatsion va psixologik treninglar oilaviy muhitda huquqiy bilim, huquqiy ong va qonuniy me’yorlarga ongli munosabatni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Demak, oilada huquqiy savodxonlikni shakllantirish jarayoni bevosita motivatsion ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa kognitiv ehtiyoj, o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji va axloqiy ehtiyoj bu jarayonning asosiy psixologik tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda yosh, o‘rta va yetuk yoshdagi oilalarda huquqiy savodxonlik va motivatsion omillar turlicha namoyon bo‘lishi kuzatildi. Xususan, yosh oilalarda kognitiv ehtiyoj hamda o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji yuqoriroq bo‘lsa, yetuk va o‘rta yoshdagi oilalarda huquqqa munosabat, huquqiy ustanovka va axloqiy ehtiyoj nisbatan barqarorroq shakllangan. Bu esa oilaviy tajriba, ijtimoiy rollarning aniqlashuvi va axloqiy me’yorlarning mustahkamlanishi bilan huquqiy savodxonlik darajasi ham ortib borishini ko‘rsatadi. Korrelyatsion tahlil natijalari huquqqa munosabat bilan kognitiv ehtiyoj va o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji o‘rtasida, huquqiy ustanovka bilan esa axloqiy ehtiyoj o‘rtasida ijobiy bog‘lanish mavjudligini tasdiqladi. Mazkur bog‘lanishlar oilada huquqiy savodxonlikni shakllantirishda motivatsion omillarni kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, rivojlantiruvchi trening natijalari motivatsion ehtiyojlar va huquqiy savodxonlik ko‘rsatkichlarining oshishiga olib kelgani bu yo‘nalishdagi psixologik-pedagogik ishlarning samaradorligini ko‘rsatdi.

Xulosa qilganda oilada huquqiy savodxonlik shakllanishida motivatsion omillar muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot

natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxsning huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ichki intilishi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga tayyorligi va axloqiy qadriyatlarga sodiqligi oilaviy muhitda huquqiy ong va huquqiy ustanovkaning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, kognitiv ehtiyoj, o‘zini-o‘zi kamol toptirish ehtiyoji va axloqiy ehtiyoj kabi motivatsion ko‘rsatkichlar huquqiy savodxonlikning psixologik asoslarini belgilovchi yetakchi omillar ekanligi aniqlandi.

Demak, oilada huquqiy savodxonlikni shakllantirishda faqat huquqiy ma’lumot berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki shaxsning motivatsion sohasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Oilaviy tarbiya jarayonida huquqiy bilimlarni singdirish bilan bir qatorda, bilimga qiziqish, o‘z ustida ishlash va axloqiy mas’uliyatni kuchaytirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar huquqiy madaniyatni yuksaltirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda, oilada huquqiy savodxonlik shakllanishida motivatsion omillarning o‘rni ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-son Farmoni. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”. 2019-yil 9-yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 588-son qarori. “2024–2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2024-yil 18-sentabr.

3. Tyler T.R., Trinkner R. Why Children Follow Rules: Legal Socialization and the Development of Legitimacy. – Oxford: Oxford University Press, 2018.

4. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985.

5. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.

6. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.

7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

8. Kamilova M.X. Oilada huquqiy savodxonlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2025.

UDK: 81'33:004.738.5:316.77

Muqumova Dilafruz,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MULTIMODAL KOMMUNIKATSIYA: TIL VA VIZUAL ELEMENTLARNING IJTIMOIY TARMOQLARDAGI INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda multimodal kommunikatsiya xususida so'z yuritiladi, xususan, matn va vizual vositalarning ushbu jarayonida birgalikda qo'llanishi hamda ularning lingvistik xususiyatlari maqola davomida tahlil qilinadi. Global tarmoqlar xilma-xil semantika jihatlarni o'zida qamrab oluvchi kommunikativ muloqot maydonidir. Ushbu maydonda aks etgan multimodal matnlarning tarkibiy xususiyatlari, ularda aks etgan mazmuniy yondashuv, shuningdek, ularga xos pragmatik vazifa hamda foydalanuvchilarning multimodal kommunikatsion vositalardan foydalanishga nisbatan individual munosabatlari ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi. Maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad – ijtimoiy tarmoqlardagi multimodal kommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning mazmun va emotsiya ifodalashdagi roli hamda ularga lingvistik yondashuvdagi asosiy mezonlarni ochiqlashdir.

Kalit so'zlar: multimodal kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, til, matn, vizual effektlar, noverbal muloqot vositalari, emoji, GIF, pragmatik vazifa, semantika, kommunikativ yondashuv.

МУЛЬТИМОДАЛЬНАЯ КОММУНИКАЦИЯ: ИНТЕГРАЦИЯ ЯЗЫКОВЫХ И ВИЗУАЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности мультимодальной коммуникации в социальных сетях, в частности совместное использование текстовых и визуальных средств, а также их лингвистические характеристики. Глобальные сети представляют собой коммуникативное пространство, объединяющее разнообразные семантические аспекты. Анализируются структурные особенности мультимодальных текстов, отражаемые в них смысловые подходы, а также их прагматические функции и индивидуальное отношение пользователей к использованию мультимодальных средств коммуникации. Основная цель статьи — выявление специфических характеристик мультимодальной коммуникации в социальных сетях, определение их роли в передаче содержания и эмоций, а также раскрытие основных критериев лингвистического подхода к ним.

Ключевые слова: мультимодальная коммуникация, социальные сети, язык, текст, визуальные эффекты, невербальные средства общения, эмодзи, GIF, прагматическая функция, семантика, коммуникативный подход.

MULTIMODAL COMMUNICATION: INTEGRATION OF LINGUISTIC AND VISUAL ELEMENTS IN SOCIAL NETWORKS

Abstract. This article examines the features of multimodal communication in social networks, particularly the combined use of textual and visual elements and their linguistic characteristics. Global networks serve as communicative environments encompassing diverse semantic dimensions. The study analyzes the structural features of multimodal texts, their semantic approaches, as well as their pragmatic functions and users' individual attitudes toward the use of multimodal communication tools. The main objective of the article is to identify the specific characteristics of multimodal communication in social networks, determine their role in conveying meaning and emotions, and reveal the key criteria of the linguistic approach to their analysis.

Keywords: multimodal communication, social networks, language, text, visual effects, nonverbal communication tools, emoji, GIF, pragmatic function, semantics, communicative approach.

Hozirgi kunda internet kommunikatsion muloqotning yetakchi turlaridan biriga aylanib ulgurdi. Rasmiy va norasmiy muloqot ushbu doirada makon va zamonning ahamiyatisiz amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning faqatgina matn shaklidan foydalanish emas, balki uning vizual elementlar bilan ham boyib borishi global tarmoqlarning kommunikativ imkoniyati sifatida baholanishi bilan birgalikda shaxsiy emotsional holatlarimizni matn va vizual vositalar integratsiyasi yordamida ifoda etishimiz nutqiy muloqotimizning osonlashuviga xizmat qila boshladi. Ijtimoiy tarmoqlarning matnli xabar almashinuvi jarayoniga semiotik vositalarni integratsiya qilishi ma'no-mazmun ekspressiyasining kuchayishiga xizmat qildi va bu esa uning multimodal kommunikatsiya deb yuritilishiga zamin yarata oldi.

Multimodal kommunikatsiya – biror narsa bilan ishlash yoki muomala qilishning bir necha usullarini o'z ichiga oluvchi jarayon hisoblanadi (Cambridge Dictionary, *MULTIMODAL | English meaning*). Tahliliy yondashuvga asoslangan ushbu maqolada matn va vizual vositalar integratsiyasi tadqiqotning tarkibiy elementlari sanaladi. Multimodal kommunikatsiya nazariyasi ko'plab semiotik vositalarning birgalikda qanday ma'no yarata olish xususiyatini o'rganadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi multimodal kommunikatsiya murakkab jarayon bo'lib, u ikki jarayonni o'ziga qamrab oladi:

Matn ⟶ shaxsiy fikrlar ifodasi

Vizual vositalar ⟶ shaxsiy hissiyotlar ifodasi

Tarmoq foydalanuvchilari axborotni uzatishda shaxsiy fikrni ifodalash maqsadida, shuningdek, affektiv (hissiy) munosabatlarni aks ettiruvchi turli vizual vositalardan foydalanadilar. Ushbu jarayonda emoji va giflar hissiy munosabatni aks ettirish yoki matnni to'ldirish, kommunikativ jarayonning **fatiktik** yoki **rekreatsion** funksiyalarini ta'minlash kabi vazifalarni amalga oshiradi. Rasm hamda videolar esa

voqelikni tasvirlashda ko‘rgazmalilikni oshirish va tushunilishi murakkab holatlarning oson anglanilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, memlar ham semiotik vosita bo‘lib, vizual-matnli kombinatsiya sifatida ijtimoiy muloqot jarayonida muhimlikka ega. Ushbu tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayonlarida qo‘llanuvchi til va vizual vositalarning birgalikda qo‘llanilishi asosidagi kommunikativ xususiyatlarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, ularning lingvistik asoslarini aniqlash hisoblanadi, shuningdek, multimodal kommunikatsiyaning asosiy xususiyatlari, tarmoqlarda qaysi vizual elementlar matn bilan birgalikda foydalanilishi, ularning matn ma’nosiga qanday ta’sir o‘tkazishi, tarmoq foydalanuvchilari tomonidan ushbu vositalar qanday maqsadda qo‘llanishi hamda ijtimoiy tarmoq va multimodal kommunikatsiyaning o‘zaro ta’sir xususiyatlari borasidagi savollarga ham ushbu tadqiqot doirasida javob beriladi.

Multimodal kommunikatsiya ko‘plab tadqiqotlar uchun obyekt sifatida xizmat qilgan mavzu sanaladi. Avvalo, shuni qayd etish lozimki, multimodal kommunikatsiya ko‘plab fanlar integratsiyasi doirasida o‘rganiluvchi ko‘lamdor mavzudir. Ushbu tadqiqotda multimodal kommunikatsiya tilshunoslik doirasida tahlil qilinayotgan bo‘lsa, ayrim sohalar tarkibida ham multimodal kommunikatsiyaning o‘ziga xos ahamiyati mavjud. Xususan, kognitiv bilimlar tadqiqida ham multimodal aloqaning alohida roli bor. Louwerse va boshqalarning (2006) “Kompyuterdagi xaritaviy vazifalarda multimodal aloqa” (*Multimodal Communication in Computer-Mediated Map Task Scenarios*) nomli tadqiqotida ushbu jarayonning yuzaga kelishida inson nutqi, nigohi va yuz ifodalarining birgalikdagi roli tahlil qilinadi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda nutq tuzilishida namoyon bo‘lishi o‘rtasidagi aloqa xaritaviy marshrutga muvofiq o‘rganiladi. Nomi qayd etilgan tadqiqotning natijasi bevosita suhbatdoshning yuz harakatlarining amalga oshishida qilingan niyatiga asoslangan, ya’ni so‘zlash avvalidan inson ichki nutqi asosida amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishiga nisbatan qilgan niyati uning yuz tuzilishida ham nuqs etadi (Louwerse va boshqalar, 2006).

Bihevioral ekologiya va sotsiobiologiya fanlar uchun ham ushbu tushuncha muhim hisoblanadi. **Higham va Hebets**ning (2013) “Multimodal kommunikatsiyaga kirish” nomli tadqiqoti fikrimizning yaqqol dalilidir. Ushbu ishda hayvonlar tomonidan uzatiladigan turli-tuman signallarning retsipient tomonidan o‘rganilishi hamda yuborilgan signallarning qanday ma’no anglatishini ifoda etishga bag‘ishlangan (Higham & Hebets, 2013)

Multimodal kommunikatsiya tilshunoslik doirasida ham alohida o‘rganiladi. **Jens Allwood**ning (2002) “Inson multimodal aloqasi” nomli asarida multimodal kommunikatsiyaning o‘zaro aloqasi ilmiy jihatdan taftish etiladi. Shuningdek, shaxslarning yuzma-yuz muloqotida faol ishtirok etuvchi vositalar va ularning multimodal aloqadagi roli, muloqot jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy faollik, shaxsiyat hamda milliy-madaniy qadriyatlarning ahamiyati, bundan tashqari, uzatilgan axborotga nisbatan qabul qiluvchining xabardorlik darajasi va unga ko‘rsatgan reaksiyasi kabi omillar ushbu tadqiqot doirasida bevosita tahlil qilinadi (Allwood, 2002).

Potapova, Potapov va Komalovalarning (2020) **"Multimodal idrok etish: mono va polietnik aloqa"** nomli monografiyasida dominant multimodal mono va polietnik aloqa talqinining perseptiv diapazoni, axborotning eshitish va ko'rish sezgilari orqali idrok etilish shakli kabi masalalar **kompleks ravishda** tahlil qilingan.

Tomasz Dyrmo va **Ewa Olszewska** (2025) "Til, muloqot va ijtimoiy aloqalarga multimodal yondashuv" nomli maqolasida bevosita uning tilda namoyon bo'lish holatlari xususida so'z yuritganlar. Multimodal metafora va metonimiya, multimodallikka kommunikativ yondashuv, kross-modal ta'sirlar, semiotik belgilar, internet tarmog'idagi multimodal kommunikatsiya, shuningdek, multimodal siyosiy nutq tahlili, multimodallikning yuzaga kelishida mavjud uslub va metodologiyalar kabi ma'lumotlar aynan ushbu tadqiqot doirasida o'rganilgan (Dyrmo & Olszewska, 2025)

Matn va vizual elementlarning yonma-yon qo'llanishi multimodal aloqaning tarkibiy qismi ekanligi yuqorida qayd etib o'tildi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar, qayd etish joizki, keng qamrovli ekanligi bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tahlillarda o'ziga xos yondashuvlarning mavjudligi bilan ahamiyatga egadir. **Kerslake va Wegerif**ning (2017) "Emoji semiotikasi: internet asrida vizual tilning yuksalishi" nomli maqolasida bu borada keng mulohaza yuritilgan. Aytish lozimki, ushbu maqola Marsel Danesining emojilar semantikasi xususidagi asariga nisbatan sharh tarzida bitilgan bo'lib, internet tarmog'ida muloqot jarayonida faqatgina matn orqali aloqaga nisbatan matn va emojilar hamkorligidagi muloqot vositalaridan foydalanish samaradorroq ekanligi borasida tahlillar qayd etilgan (Kerslake & Wegerif, 2017).

Bundan tashqari, **Christa Dürscheid**ning "Alifbodan tashqari – emojilar bilan aloqa" (*Beyond the Alphabet – Communication with Emojis*) (n.d.), "Emojilar hamma joyda: qanday qilib emojilar yangi kontekstlarni zabt etadi?" (*Emojis Are Everywhere. How Emojis Conquer New Contexts*) (Dürscheid, 2021) kabi maqolalarida ham internet tarmog'ida qo'llanuvchi vizual vositalar va matnlarning o'zaro aloqasi hamda ustuvor xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi.

Ushbu tadqiqot ma'lum yig'ish va uning tahlili xususida bo'lib, unda asosan, *sifat tahlili metodlari*ga, asosan, murojaat qilindi. Xususan, *semiotic tahlil* internet tarmoqlaridagi multimodal kommunikatsion vositalari, ya'ni matn va vizual elementlar asosida olib borildi. Multimodal kommunikatsiyaga oid tadqiqotlar matn va vizual vositalarning birgalikda qo'llanishi orqali qanday ma'no ifoda etishi borasida tahlil qiladi (Kress & van Leeuwen, 2001; Forceville, 2020; Kress, 2010; Bateman, 2014; O'Halloran, 2005; van Leeuwen, 2005; Bezemer & Kress, 2008).

Pragmatik tahlil – internet tarmoqlaridagi har bir multimodal xabarda qanday kommunikativ maqsad mavjud, u qanday nutqiy aktni, masalan, tabrik, shikoyat, taklif, hazil, hurmat va shu kabilarni aks ettiradi, shuningdek, vizual elementlarning matn pragmatikasiga aloqasi qanday, u matn mazmuniga qanday o'zgartirish kiritishi mumkin, ushbu jarayonda so'zlovchining maqsadi nima kabi savollarga javoblar aynan ushbu tahlil asosida amalga oshirildi.

Kontent tahlili ham ushbu tadqiqot jarayonida murojaat etilgan tadqiq metodlaridan biri hisoblanadi. Internet tarmoqlaridagi tanlangan postlardagi asosiy tematika, undagi mavjud emotsional xususiyat hamda umumiy kommunikativ yondashuv borasidagi mulohazalarni aks ettirishda bevosita ushbu metodga murojaat qilindi.

Tadqiqot empirik tahlilga asoslangan bo‘lib, kontekst va vizual vositalar (emoji, gif, mem, surat) asosida yuzaga kelgan multimodal matnlarni qamrab oladi (Kress & van Leeuwen, 2006).

1. Ijtimoiy tarmoqlarda matn va vizual vositalarning qo‘llanishi.

Tilshunoslik doirasidagi multimodal yondashuvning ijtimoiy tarmoqdagi matn va vizual vositalarga asoslanishi bir-biridan ayrim jihatlariga ko‘ra farq qilishi mumkin (Papacharissi, 2002). Xususan, matn shaklidagi xabarlar birinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga yoki jamoaviy guruhga faqat harflar ketma-ketligidan tashkil topgan o‘ziga xos mazmunga ega matnlardan iborat ma’lumot asosida ifoda etilsa, vizual vositalar faqatgina matnning mazmunini aks ettiruvchi vositalar, xususan, GIF, emoji, rasm yoki video kabi vositalar asosida namoyon bo‘ladi. Ana shu jihatiga ko‘ra, kuzatuvlarimiz asosida, matn va emoji yordamida aks ettirilmoqchi bo‘lgan multimodal kommunikatsion xabarlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

a) Faqatgina matndan tashkil topgan xabarlar;

b) Faqatgina vizual vositalardan tashkil topgan xabarlar;

c) Matn va vizual vositalardan tashkil topgan xabarlar.

2. Matniy xabarlar.

Faqatgina matndan iborat xabarlar *“Salom”, “Assalomu alaykum”, “Bugun nechada majlis boshlanadi?”, “K64adamiz”, “Q6ngiroq qil”* (Telegram messenjeridan olingan xabarlar) va shu kabi teksturalardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Matn shaklini uzatishda ham matn tarkibida o‘ziga xos shartli qisqartmalar o‘rin olish holatlari ham uchrab turadi: *“K64adamiz”, “Q6ngiroq qil”…* Ushbu xabarlar tarkibidagi “6” – o‘zbek lotin alifbosidagi “o‘” harfini ifoda etsa, “4” belgisi “ch” harfini ifoda etishda, shuningdek, “g” tovushi “g‘” tovushining norasmiy shakli sifatida internet tarmoqlarida faol qo‘llanadi hamda ushbu xususiyatlari bilan belgilarga xos semiotizmning norasmiy shakli sifatida ma’lum.

3. Vizual vositalar.

Internet tarmoqlarida keng foydalaniladigan vizual elementlardan biri **emojilar**, asosan, ikki maqsadga xizmat qiladi (Miller, 2017; Chen va boshqalar, 2024; Kobra & Schulz, 2018):

1. *Shaxsiy hissiyotlarni ifoda etish* – bunda kishi o‘z shaxsiy holatlarini ayrim emojilar yordamida bayon qiladi: masalan, ☺, 😂, 😒, ❤ kabilar emotsional holatlarni ifoda etish yoki uzatilgan xabarga xayrixohlik ma’nosi 👍👍👍 kabi stiker, shuningdek, qaysidir vaziyatga urg‘u berish uchun !!! tinish belgisi, eslatma ma’nosida esa . (nuqta) tinish belgisidan foydalaniladi.

2. Vizual elementlarning ijtimoiy tarmoqlardagi ikkinchi xususiyati bu uning *matn o‘rniga foydalanilish* holatidir, ushbu jarayonda tarmoq foydalanuvchilari orasida “Zo‘r”, “Ajoyib”, “Yaxshi” kabi so‘zlarning o‘rniga shunchaki 👍 stikerini qo‘yish orqali ma’lumot uzatilishida o‘ziga xos osonlikka yo‘l qo‘yiladi.

Emojilarning ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanish soni va takroriyligi ham ifoda etilayotgan fikrga urg‘u berish mazmunini ham aks ettiradi, masalan, 👍 stikeri "Zo‘r" ma’nosini ifoda etsa, takroran qo‘llangan 👍 👍 👍 👍 👍 emojisi "Juda zo‘r" mazmuniga ega bo‘ladi .

Shuningdek, **GIFlar** ham ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan vizual elementlar sanalib, ular emojilarning "jonli" shakli sanaladi (Shifman, 2014). Biror-bir voqelikka nisbatan bildirilmoqchi bo‘lgan shaxsiy munosabatlarni aks ettirishda shaxs yanada jonliroq yondashuvga asoslanib, ekspressiv ifodalashni maqsad qilsa, asosan, GIFlarga murojaat qiladi, ushbu jarayonda kichik hajmli (ovozsiz) animatsion tasvirlar orqali shaxsiy munosabat ifoda etiladi.

4. Vizual vosita tarkibiy tuzilmasidan matn mavjud bo‘lgan vositalar.

Bu kabi vositalar tarkibiga ***mem***larni misol sifatida keltirish mumkin. Memlar lingvokulturologik xarakter va semaga ega bo‘lgan, mazmuniy jihatdan hazil ma’nosi ustuvor hisoblangan hamda ijtimoiy tarmoqlarda uzatilgan xabarga sharh sifatida qo‘llanuvchi vizual-matnli kombinatsiyadir (Gibbs, 2021; Stampoulidis va boshqalar, 2019; El Refaie, 2015; Dyrmo, 2023). Ular muloqot jarayonida ifoda etilajak xabarlarni tezroq shaklda uzatish imkoniyatini ta’minlab beradi.

Rasm va videolar ham vizual vositalar tarkibidagi elementlar sanalib, matnli xabarni vizualizatsiya qilishda, asosan, foydalaniladi. Odatda, ushbu elementlarning tarkibiy strukturasida ba’zan matnlar qo‘llansa, ba’zan ulardan xoli ravishdagi rasm va videolarni ham uchratish mumkin.

5. Til va vizual vositalar integratsiyasi.

Ijtimoiy tarmoqlarda, odatda, matn va vizual vositalar yonma-yon qo‘llangan o‘rinlar ham uchraydi. Vizual elementlar matn bilan birgalikda qo‘llanib, uni mazmunan va emotsional boyitishga xizmat qiladi (Baym, 2010; Wang, 2023). Qayd etish joizki, ijtimoiy tarmoqlarda matnlar bilan asosan, emojilar yonma-yon qo‘llanadi hamda ular orqali ifoda etilajak ma’noni quyidagicha tadbil etish mumkin:

1-jadval

Matn va vizual vosita yonma-yon qo‘llanishiga misollar va ularning tadbili

T/r	**Matn va vizual vosita yonma-yon qo‘llanishiga misol**	**Ushbu kontekstdagi vizual vosita**	**Vizual vosita ifoda etgan ma’no**
1	Xursandman ☺	☺	Kishining xursandchilik darajasi va samimiyligini ifodalash maqsadida qo‘llanadi
2	Ha, ko‘rdim 😂	😂	Kishi tomonidan sodir bo‘lgan voqelikka nisbatan kulgu yoki sarkazmni ifoda etish maqsadida qo‘llanadi.
3	Dahshat bo‘ldi□□□	□□□	Sodir bo‘lgan voqelikka nisbatan kulgu

			darajasining juda yuqori ekanligini ifoda etadi.
4	Rahmat 😳😳😳	😳😳😳	Tinglovchi tomonidan so‘zlovchiga nisbatan mamnuniyatini bayon qilinishida, asosan, foydalaniladi.
5	Tug‘ilgan kuning bilan! □	□	Ushbu emoji biror voqelik munosabati bilan tabriklash maqsadida qo‘llanadi.

5.1. Ma’noga aks ta’sir etish. Ta’kidlash lozimki, ijtimoiy tarmoqlarda matn va vizual elementlarning yonma-yon qo‘llanishi ifoda etilayotgan fikrga uyg‘unlik hosil qilmaydi, ayrim holatlarda vizual element matnda aks ettirilayotgan ma’noga zid ravishda (atayin shuni maqsad qilib) qo‘llanadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad matnga zidlik bergan holda xabardan ko‘zlangan asosiy talqinni o‘zgartirish sanaladi. Masalan, “Kayfiyatim zo‘r” matni yonida 😭😭😭😭 emojisini qo‘llash retsipientga o‘zgacha ta’sir qilishi hamda kutilmagan emotsional holatni namoyon etishi mumkin, sababi, uzatilayotgan xabarda so‘zlovchi holati yaxshiligi aks ettirilayotgan bo‘lsa, keltirilgan emojida ushbu holat teskari tarzda irod etilmoqda, negaki ushbu emoji so‘zlovchining juda ham xafa ekanligiga dalolat qiladi.


5.2. Xabardagi aniqlikni ta’minlash. Ijtimoiy tarmoqlarda so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga xabar uzatish jarayonida matn va vizual vositalar integratsiyasini qo‘llash xabardagi aniqlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

6. Multimodal kommunikatsiyaning pragmatik vazifalari. Multimodal kommunikatsiyada matn va vizual vositalar integratsiyasini tatbiq etish muloqotning asosiy shakli sifatida internet tarmoqlarida mashhur. Emoji, GIF hamda rasmlar orqali userning individual munosabati, shaxsiy holati va qarashlari hamda kayfiyati haqida keng ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, userlar tomonidan ulashilgan ma’lumotga keng auditoriya tomonidan munosabat bildirish imkoniyati ham bevosita vizual vositalar orqali amalga oshiriladi, xususan, voqelikka nisbatan “Like”, ya’ni “yoqdi” belgisini bosish yuborilgan ma’lumotni tasdiqlash, yoqtirish, qo‘llab-quvvatlash ma’nolarini anglatadi.

7. Shaxsiy kuzatuvlar (Personal Observations). Tadqiqotning ushbu qismi tadqiq qilish jarayonida olingan shaxsiy kuzatuv va tajribalarga asoslangan holda bayon etilgan.

7.1. Platformalardagi farqlar. Multimodal muloqotni ta’minlovchi matn va vizual vositalarning yonma-yon qo‘llanishi platformalar doirasida farqlanishlarga ega. Masalan, **Instagram**da vizualizatsiya usturvor ahamiyatga ega. Ushbu platformada rasm va video asosiy vosita sanalganligi bois matn ushbu elementlarga to‘ldiruvchi yoki izohlovchi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, instagramga joylangan xabarlarga keltirilgan izohlarda ham matnli reaksiyalardan ko‘ra emojilar yordamida aks ettirilgan reaksiyalar faolligi ko‘zga tashlanadi.


Telegram platformasida esa asosiy urg‘u matnli xabarlarga beriladi. Rasmiy muloqot doirasida (ish bilan bog‘liq guruh yoki kanallarda emojilardan foydalanish deyarli mavjud emas, norasmiy doiralarda esa ushbu holatning ko‘pligi ko‘zga tashlandi). Matn va emojilar integratsiyasi, asosan, telegram portali uchun xosligini tadqiqot davomida kuzatdim. Biroq telegram tarmog‘ida bir-birini yaxshi taniydigan shaxslar orasida matnli xabarlardan ko‘ra vizual vositalarning qo‘llanish darajasi yuqoriroq. Umuman olganda, Instagram va Telegram tarmoqlaridagi matn va vizual tasvir usturvorligini quyidagi diagrammalar asosida tadqiq etish mumkin (Ushbu diagrammadagi ma’lumot Instagram tarmog‘idagi shaxsiy kuzatishlar asosida shakllantirilgan):



1-diagramma. Instagram tarmog‘idagi matn va vizualizatsiya ustuvorligi (shaxsiy kuzatuvlarga asoslangan)

Ushbu diagrammaga ko‘ra (qarang: 4.7.1-diagramma), Instagram tarmog‘idagi men tomonidan amalga oshirilgan “follow”lardagi (24 ta kontent) asosida shakllantirilgan bo‘lib (jami 12 million foydalanuvchi), ulardagi tarmoqqa joylanayotgan kontent shakllarining asosiy qismi, ya’ni 70 foizi vizual ustuvorlikka ahamiyat berayotir. Qolgan foizlar esa matn ustuvorligiga asoslangan (ushbu ustuvorlikda matnning videokontentlar tarkibida kelishi ham hisobga olingan holda tadqiq etilgan).

Telegram platformasida ushbu matn ustuvorligi, ayrim holatlarda (asosan, norasmiy doiralarda) vizual tasvir yoki matn va vizual tasvirlar ustuvorligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Ushbu statistika ham Telegramdagi shaxsiy profilimda mavjud 13 ta guruhlar (norasmiy muloqot guruhlari – do‘stlar, oila a’zolaridan tashkil topgan guruhlarda) hamda 18 kishi bilan olib borilgan individual suhbatlar natijasiga asoslangan holda taqdim etilmoqda.



2-diagramma. Telegram tarmog‘idagi matn va vizualizatsiya ustuvorligi (shaxsiy kuzatuvlarga asoslangan)

Keltirilgan diagramma ma’lumotlariga ko‘ra (qarang: **4.7.2-diagramma**), Telegram tarmog‘idagi o‘rtacha qiymatda 450 kishilik guruh hamda 18 ta individual suhbatlarga muvofiq tarmoqda asosiy ustuvorlik matn vositasi orqali amalga oshirilmoqda (60%), shuningdek, asosan, norasmiy doiralarda vizual vositalarga urg‘u berish o‘rtacha qiymatda 40%ni tashkil etmoqda.

7.2. Ayrim vizual vositalar orasidagi farqlar borasida kuzatishlar. Emoji hissiyotlarni ifoda etishda universal vosita sanaladi. Sababi, barcha davlatlarda emotsional holatlarni aks ettirishda bir xil emojiga murojaat qilinadi. Hissiy holatlarni aynan tushuntirishda matnli yondashuvdan ko‘ra emojilarga murojaat etish samaraliroqdir.

Vizual vositalar orasida tez tarqalish xususiyati memlarga xosdir. Ular madaniy ta’sirlarga asoslanib, shaxsiy munosabatlarni ifodalashda userlar tomonidan faol ravishda foydalaniladi.

Ushbu tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar asosida ma’lum bo‘ldiki, vizual vositalar murakkab xabarlarning **affektiv tushunarliligini** (affective clarity) oshirishga xizmat qiladi. Matn yordamida ifodalangan xabarlarda hissiylik bo‘yo‘g‘i vizual vositalarga nisbatan kamroq hisoblanadi. Vizual elementlar (emojilar, stikerlar, GIFlar, rasmlar) ma’lumotni qayta ishlash uchun inson miyasida kognitiv jarayonda qisqaroq anglashuvga xizmat qiladi. Agar ijtimoiy tarmoqlardagi matn shaxsiy emotsiyalarni so‘zlar orqali tushuntirsa, vizual vositalar uni bir qarashda tushunish uchun zamin yaratadi. Masalan, xursandchilik darajalarini ifoda etishda so‘zlar yordamida tushuntirgandan ko‘ra ularni emojilar yordamida tadrijiy aks ettirish mumkin:

☺ – oddiy mamnuniyat darajasi;

😊 – o‘rta darajali xursandchilik;

😀 – yuqori darajali xursandchilik;

😂 – juda ham ko‘tarinki kayfiyat.

Yuqorida keltirilgan emojilarning ketma-ketligidan shaxsiy munosabatlarni ifodalashda xursandchilikning darajaviy holati aks etgan. Biroq matnli ifodalarda ushbu holatni so‘z yordamida aks ettirish murakkabroq jarayon hisoblanadi.

Bundan tashqari, vizual elementlar to‘g‘ridan to‘g‘ri hissiyotlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ular shaxsiy xabarlar yoki kommentariyalarga shaxsiy munosabatlarning darajaviy xususiyatlarini talqin etishda faol qo‘llanadi. Agar shunchaki matndan iborat munosabat aks ettirilsa, bu inson tafakkurida oddiy matnning kognitiv anglanishiga sabab bo‘ladi, ammo bu jarayondagi vizual elementlarning aralashuvi emotsional rezonansning uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Xabar hissiy jihatdan to‘liq anglashiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi multimodal kommunikatsiya asosiy zamonaviy aloqa shakli bo‘lib, matn hamda vizual vositalarning (emoji, memlar, GIFlar, rasmlar) o‘zaro integratsiyasiga asoslangan murakkab jarayondir. Vizual vositalarning matn bilan birga qo‘llanishi matndagi ekspressivlik, emotsionallik va tushunarlilikni oshirib qolmasdan, balki kommunikativ maqsadga ham xizmat qilib, pragmatik yuk tashiydi.

Tadqiqot asosida ko‘rib chiqilgan Telegram va Instagram tarmoqlarining o‘zbek tilidagi shakli misolida aytish mumkinki:

1. *Semiotik birliklar integratsiyasi*: Vizual vositalar matndagi alohida “bezak” emas, balki matnning lingvistik ma’nosini kuchaytiruvchi yoki o‘zgartiruvchi semiotik tizimdir.

2. *Ma’noning kuchayishi*: Vizual vositalar, xususan, emoji va memlar, matn shaklidagi xabarning kontekstual tushunilishi va shaxsning emotsional munosabatini aniq ifodalashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi shundan iboratki, o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlar diskursida multimodallik – kommunikativ xabarning tezligi va emotsional to‘liqligini ta’minlovchi, lisoniy va nolisoniy belgilarni birlashtiruvchi mustaqil tizimga aylandi; bu esa zamonaviy o‘zbek tilshunosligida multimodal diskurs tahlilini chuqur o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqot asosida olingan natija va xulosalar quyidagi chegaralar doirasida ko‘rib chiqilishi kerak. Ushbu cheklovlar tadqiqot obyektivligini ta’minlaydi:

1. Platforma qamrovi: Empirik material va tahlillar, asosan, Telegram va Instagram ijtimoiy tarmoqlarida olib borilgan kommunikatsiyalar bilan cheklangan. Shu sababli, boshqa yirik va dinamik platformalar (masalan, TikTok, Facebook yoki yangi AI-integratsiyali ilovalar) diskursining o‘ziga xos multimodal xususiyatlari qamrab olinmagan.

2. Lingvistik va madaniy cheklov: Tadqiqot faqat o‘zbek tilidagi kommunikativ maydonga qaratilgan bo‘lib, asosan, O‘zbekiston madaniy kontekstidagi foydalanuvchilarning vizual-matnli elementlarni qo‘llash amaliyotini o‘rgangan. Natijalarning boshqa til va madaniyatlarga universal tarzda tatbiq etilishi cheklangan.

3. Metodologik cheklov: Asosiy metodologiya semiotik va multimodal diskurs tahliliga asoslanadi. Tadqiqot vizual elementlarning ma'no yaratish xususiyatini tahlil qilsa-da, foydalanuvchilarning vizual xabarlarni kognitiv idrok etish jarayonlari yoki psixologik ta'sirini o'lchashga qaratilgan maxsus eksperimental tadqiqotlarni o'z ichiga olmagan.

4. Vizual tizimlar chegarasi: Tahlil asosan statik va yarim statik vizual vositalarga (emoji, mem, GIF, rasm) qaratilgan bo'lib, audio va video kabi murakkab, vaqtga bog'liq bo'lgan multimodal resurslarni chuqur tahlil qilish doiradan tashqarida qoldi.

Ushbu tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan chegaralarni hisobga olgan holda, multimodallik sohasida quyidagi ilmiy yo'nalishlar tavsiya etiladi:

1. Yangi platformalarda qiyosiy tahlil: TikTok va Threads kabi yangi va dinamik platformalardagi kommunikativ amaliyotlarni Telegram va Instagram bilan qiyoslash. Ayniqsa, sun'iy intellekt (AI) tomonidan yaratilgan kontentning multimodal diskrursdagi lingvistik va pragmatik rolini o'rganish.

2. Kengaytirilgan kognitiv tadqiqotlar: Vizual elementlarning (emoji, mem) matnga qo'shilishi foydalanuvchilarning xabarni anglash tezligi va emotsional aniqligiga qanday ta'sir qilishini o'rganish uchun kognitiv-lingvistik eksperimentlar (masalan, ko'z harakatini kuzatish (eye-tracking)) o'tkazish.

3. Madaniylararo muqoyasa: O'zbek tilidagi multimodal kommunikatsiya amaliyotini turli til va madaniyatlar (masalan, rus, ingliz yoki xitoy tillari) bilan muqoyasali tahlil qilish. Bu vizual belgilarning universal va madaniy-spesifik ma'nolarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allwood, J. (2002). A framework for studying human multimodal communication. In T. D. J. Allwood, & E. Gärdenfors (Eds.), *Multimodal communication and cognition* (pp. 19-32). John Benjamins Publishing Company. https://doi.org/10.1075/lic.36.03all

2. Bateman, J. A. (2014). *Text and Image: A Critical Introduction to the Visual-Verbal Divide*. Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203073724

3. Baym, N. K. (2010). *Personal Connections in the Digital Age*. Polity Press. https://doi.org/10.1002/9780470659918

4. Bezemer, J., & Kress, G. (2008). Multimodality, learning and communicating: The semiotics of visuals in introductory textbooks. *Discourse and Communication*.

5. Buchstaller, I., & Fabiszak, M. (2021). Editorial: Ideology and commemoration in the urban space. *Linguistics Vanguard*, *7*(s5), 20210010. https://doi.org/10.1515/lingvan-2021-0010

6. Cambridge Dictionary. (*n.d.*). Multimodal. In *Cambridge English Dictionary*. [Murojaat etilgan sana: 25.08.2025]

7. Chen, Y., Yang, X., Howman, H., & Filik, R. (2024). Individual differences in emoji comprehension: Gender, age, and culture. *PLOS ONE*, *19*(2), e0297379. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0297379

8. Dürscheid, C. (n.d.). Beyond the Alphabet – Communication with Emojis.

9. Dürscheid, C. (2021). Emojis Are Everywhere. How Emojis Conquer New Contexts. In Y. Haralambous (Ed.), *Grapholinguistics in the 21st Century. Proceedings* (pp. 501–512). Fluxus Édition (= Grapholinguistics and Its Applications 4). https://doi.org/10.36824/2020-GRAF-DUE

10. Dyrmo, T. (2023). Levels of metaphor in gesture. *Pragmatics & Cognition*, *30*(2), 330–352. https://doi.org/10.1075/pc.22026.dyr

11. El Refaie, E. (2015). Scoring a goal or an own-goal against disease?: A multilevel framework for describing metaphor coherence in health campaigns. *Metaphor and the Social World*, *5*(1), 102–123. https://doi.org/10.1075/msw.5.1.05elr

12. Forceville, C. (2020). *Visual and multimodal communication: Applying the relevance principle*. Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/oso/9780190054700.001.0001

13. Gibbs, R. W. (2021). Metaphors in the flesh: Metaphorical pantomimes in sports celebrations. *Cognitive Linguistics*, *32*(1), 67–96. https://doi.org/10.1515/cog-2020-0062

14. Higham, J., & Hebets, E. (2013). An introduction to multimodal communication. *Behavioral Ecology and Sociobiology*, *67*(10). https://doi.org/10.1007/s00265-013-1590-x

15. Kerslake, L., & Wegerif, R. (2017). The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. *Media and Communication*, *5*(4), 75. https://doi.org/10.17645/mac.v5i4.1041

16. Kobra, N. R., & Schulz, C. G. (2018). The role of emojis in online communication: A review of current research. *Journal of Computer-Mediated Communication*.

17. Kress, G. (2010). *Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication*. Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203803879

18. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal discourse: The semiotics of visual communication*. Oxford University Press. https://doi.org/10.4324/9780203138812

19. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). *Reading images: The grammar of visual design*. Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203619728

20. Lemke, J. L. (2002). Multimedia and multimodality. In J. T. T. L. J. Lemke (Ed.), *Handbook of Multimedia Computing*. John Wiley & Sons.

21. Louwerse, M., Jeuniaux, P., Hoque, E., Wu, J., & Lewis, G. (2006). *Multimodal communication in computer-mediated map task scenarios*. Procs. of the Cognitive Science Society, 1717-1722.

22. Miller, H. (2017). Emoticons and the expression of emotion in computer-mediated communication. *International Journal of Communication*.

UDK: 378:159.9:316.6

Odiljonova Aziza Abduxakimovna,
Andijon davlat universiteti "Psixologiya va pedagogika" kafedrasi dotsenti

TALABALARDA KREATIVLIK XUSUSIYATLARI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda kreativlik xususiyatlari namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari ilmiy-nazariy va amaliy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativlikning psixologik mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda shaxs rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, talabalarda kreativlikning shakllanishi va namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar – jamoaviy muhit, kommunikativ jarayonlar, motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxslararo munosabatlar tizimi tahlil qilingan. Maqolada kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik va psixologik shart-sharoitlar asoslab berilgan hamda oliy ta'lim muassasalarida samarali ta'lim muhitini tashkil etish bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ fikrlash, talaba shaxsi, ijtimoiy-psixologik omillar, motivatsiya, kommunikatsiya, jamoaviy muhit, shaxslararo munosabatlar, innovatsion yondashuv, ta'lim jarayoni.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ КРЕАТИВНЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируются социально–психологические аспекты проявления креативных качеств у студентов с теоретико–научной и практической точек зрения. В исследовании раскрываются психологическая сущность креативности, её структурные компоненты и роль в развитии личности. Также рассматриваются социально-психологические факторы, влияющие на формирование и проявление креативности у студентов, такие как групповая среда, коммуникативные процессы, мотивация, социальная поддержка и система межличностных отношений. В статье обоснованы педагогические и психологические условия, способствующие развитию креативности, а также представлены научные выводы по организации эффективной образовательной среды в высших учебных заведениях. Результаты исследования имеют важное значение для развития креативного мышления студентов и повышения их социальной активности.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, личность студента, социально-психологические факторы, мотивация, коммуникация, групповая среда, межличностные отношения, инновационный подход, образовательный процесс.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF CREATIVITY IN STUDENTS

Abstract. This article analyzes the socio–psychological aspects of the manifestation of creativity in students from both theoretical and practical perspectives. The study reveals the psychological essence of creativity, its structural components, and its role in personality development. It also examines socio–psychological factors influencing the formation and expression of creativity in students, such as group environment, communication processes, motivation, social support, and the system of interpersonal relationships. The article substantiates the pedagogical and psychological conditions that contribute to the development of creativity and presents scientific conclusions on organizing an effective educational environment in higher education institutions. The research findings are significant for developing students' creative thinking and enhancing their social activity.

Keywords: creativity, creative thinking, student personality, socio–psychological factors, motivation, communication, group environment, interpersonal relationships, innovative approach, educational process.

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ayniqsa uning kreativ salohiyatini shakllantirish va namoyon etish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va innovatsion iqtisodiyot sharoitida jamiyat kreativ fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda ijtimoiy faol shaxslarga ehtiyoj sezmoqda. Shu jihatdan, talabalarda kreativlik xususiyatlarining shakllanishi va namoyon bo'lish mexanizmlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Kreativlik nafaqat individual psixologik xususiyat, balki ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadigan murakkab fenomen sifatida qaraladi. Talabaning kreativ fikrlashi uning atrofidagi ijtimoiy-psixologik omillar – jamoaviy muhit, kommunikatsiya jarayonlari, motivatsiya darajasi, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, kreativlikni o'rganishda faqat shaxs ichki imkoniyatlari bilan cheklanib qolmasdan, balki uni shakllantiruvchi tashqi omillarni ham kompleks tarzda tahlil qilish zarur.

Talabalarda kreativlik xususiyatlarining namoyon bo'lishi muammosi psixologiya va pedagogika fanlarida keng o'rganilgan bo'lib, turli nazariy yondashuvlar asosida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik – bu shaxsning yangi, original g'oyalarni yaratish, muammolarni noodatiy yo'l bilan hal etish qobiliyati bo'lib, u kognitiv, motivatsion va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi.

Kreativlikni ilmiy o'rganishda Joy Paul Guilfordning ishlari muhim ahamiyatga ega[1]. U kreativ fikrlashni divergent tafakkur bilan bog'lab, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida originallik, moslashuvchanlik va ravonlikni ajratib ko'rsatgan. Ushbu yondashuv kreativlikni kognitiv jarayon sifatida tushunishga asos yaratadi.

Kreativlikni diagnostika qilish va empirik o‘rganishda Ellis Paul Torrance tomonidan ishlab chiqilgan testlar tizimi keng qo‘llaniladi[2]. Torrance kreativlikni muammoni sezish, gipotezalar ilgari surish va ularni tekshirish jarayoni sifatida izohlaydi, bu esa uning amaliy o‘lchash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Gumanistik psixologiya vakillari – Abraham Maslow[4] va Carl Rogers[5] kreativlikni shaxsning o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish jarayoni bilan bog‘lab tushuntiradilar. Ularning fikricha, kreativlik erkin, qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitda samarali rivojlanadi, bu esa ijtimoiy-psixologik omillarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda kreativlikning ijtimoiy jihatlari ham alohida e’tirof etilmoqda. Xususan, Mihaly Csikszentmihalyi kreativlikni tizimli yondashuv asosida tahlil qilib, uni shaxs, ijtimoiy muhit va madaniy kontekst o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasi sifatida izohlaydi[6]. Bu yondashuv kreativlikning ijtimoiy-psixologik tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, Teresa Amabile kreativlikni rivojlantirishda motivatsiya va ijtimoiy muhitning rolini asoslab, ichki motivatsiya yuqori bo‘lgan sharoitda kreativ faoliyat samaraliroq bo‘lishini ta’kidlaydi[3]. Bu esa talabalarda kreativlikni shakllantirishda ta’lim muhiti va pedagogik yondashuvlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kreativlik xususiyatlarining namoyon bo‘lishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u shaxsning ichki psixologik imkoniyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy–psixologik muhitga ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, kreativlikni rivojlantirish masalasini kompleks yondashuv asosida o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Kreativlik – bu shaxsning yangi, original va ijtimoiy ahamiyatga ega g‘oyalarni yaratish qobiliyati bo‘lib, u murakkab psixologik tuzilishga ega. U kognitiv jarayonlar, motivatsiya, emotsional holat va shaxsiy xususiyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Kreativlik faqat intellektual qobiliyat emas, balki shaxsning ichki faolligi, tashabbuskorligi va mustaqil fikrlash darajasi bilan ham belgilanadi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda motivatsiya muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ichki motivatsiya – bilim olishga qiziqish, o‘zini rivojlantirishga intilish va ijodiy faoliyatdan zavq olish – kreativ jarayonni rag‘batlantiradi. Ichki motivatsiya yuqori bo‘lgan talabalar yangi g‘oyalarni ilgari surishga, muammolarni mustaqil hal etishga va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga moyil bo‘ladi. Tashqi motivatsiya (baholash, rag‘batlantirish) ham muhim bo‘lsa-da, u ichki motivatsiya bilan uyg‘unlashgandagina samarali natija beradi.

Kreativlik tafakkur jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Divergent fikrlash, moslashuvchanlik, originallik va tasavvur kabi kognitiv komponentlar kreativ faoliyatning asosini tashkil etadi. Talabalarda ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish ularning muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishiga, yangi va noodatiy yechimlar topishiga yordam beradi. Talabaning emotsional holati uning kreativ faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy emotsiyalar – qiziqish, ilhom, qoniqish – ijodiy fikrlashni faollashtiradi, salbiy emotsiyalar esa aksincha, kreativlikni

cheklashi mumkin. Emotsional barqarorlik va psixologik qulaylik ijodiy jarayonning samarali kechishini ta'minlaydi.

Kreativlikning rivojlanishida shaxsiy xususiyatlar muhim o'rin tutadi. Mustaqillik, tashabbuskorlik, tavakkal qilishga tayyorlik, yangilikka ochiqlik kabi sifatlar kreativ faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, talabaning o'z-o'zini baholashi va o'ziga bo'lgan ishonchi ham muhim omildir. Yuqori o'ziga ishonch talabaning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga va yangi g'oyalarni ilgari surishiga yordam beradi.

Talabaning ijtimoiy muhiti – ta'lim jarayoni, jamoa, o'qituvchi bilan munosabatlar – kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Qo'llab-quvvatlovchi, ochiq va erkin muhit ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Aksincha, haddan tashqari nazorat, tanqid va bosim kreativlikni cheklaydi. Jamoaviy faoliyat va samarali kommunikatsiya esa yangi g'oyalar paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Stress darajasi ham kreativlikka ta'sir etuvchi omillardan biridir. Me'yoriy darajadagi stress ba'zan faoliyatni faollashtirishi mumkin, biroq haddan tashqari stress va psixologik bosim kreativ fikrlashni susaytiradi. Shu bois ta'lim jarayonida psixologik qulay muhitni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Talabalarda kreativlik xususiyatlarini o'rganish va rivojlantirish jarayonida turli psixodiagnostik va pedagogik metodikalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular kreativlikning darajasi hamda uning tarkibiy komponentlarini aniqlash imkonini beradi. Kreativlikni o'lchash va tahlil qilishda eng keng qo'llaniladigan metodikalardan biri E.P. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan Torrens kreativ fikrlash testlari (TTCT) hisoblanadi[2]. Ushbu metodika verbal va noverbal topshiriqlardan iborat bo'lib, u talabaning g'oyalar yaratish qobiliyatini, ya'ni ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va detallashtirish kabi ko'rsatkichlar orqali baholaydi. Mazkur test orqali talabaning yangi va noodatiy g'oyalarni ishlab chiqish darajasi, muammolarga ijodiy yondashuvi aniqlanadi.

Shuningdek, J.P. Gilford tomonidan taklif etilgan divergent tafakkur testlari ham kreativlikni o'rganishda muhim metodikalardan biri hisoblanadi[1]. Ushbu testlar bir muammoga bir nechta yechim topish vazifalariga asoslangan bo'lib, talabaning fikrlash tezligi, g'oyalar xilma–xilligi va originalligini aniqlashga xizmat qiladi. Guilfordning yondashuvi kreativlikni aynan tafakkur jarayonining maxsus turi sifatida talqin etib, uning kognitiv jihatlarini chuqur o'rganishga imkon beradi.

T.Amabil tomonidan ishlab chiqilgan komponentlar nazariyasiga asoslangan metodikalar ham kreativlikni o'rganishda keng qo'llaniladi[3]. Ushbu yondashuvga ko'ra, kreativlik uch asosiy komponent – domen bilimlari, kreativ fikrlash ko'nikmalari va ichki motivatsiya uyg'unligida shakllanadi. Shu sababli metodik tadqiqotlarda talabaning bilim darajasi, ijodiy fikrlash qobiliyati va ichki motivatsiyasi alohida o'rganiladi. Amabile yondashuvi kreativlikni faqat kognitiv jarayon emas, balki motivatsion omillar bilan chambarchas bog'liq kompleks hodisa sifatida talqin etadi.

Kreativlikni o'rganishda E.Torrens[2], J.Gilford[1] va T.Amabil[3] metodikalaridan tashqari, boshqa psixologik so'rovnomalar va kuzatuv metodlari ham qo'llaniladi. Masalan, intervyu, test-so'rovnomalar, faoliyat mahsullarini tahlil

qilish va pedagogik kuzatuv orqali talabaning ijodiy faoliyati baholanadi. Ushbu metodlar yordamida talabaning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga munosabati va yangi g‘oyalarni taklif etish darajasi o‘rganiladi.

Umuman olganda, metodikalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kreativlik xususiyatlarini o‘rganish ko‘p komponentli va kompleks yondashuvni talab etadi. Har bir metodika kreativlikning ma’lum bir jihatini yoritib beradi, ularni uyg‘un holda qo‘llash esa talabaning ijodiy salohiyatini to‘liq va aniq baholash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ushbu metodikalar asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda kreativlik metodikalari natijalari tahlili

Metodika	O‘rganilgan ko‘rsatkichlar	Yuqori daraja (%)	O‘rta daraja (%)	Past daraja (%)
E.Torrens testlari	Ravonlik, moslashuv–chanlik, originallik, detallashtirish	28% (25 talaba)	52% (47 talaba)	20% (18 talaba)
J.Guilford divergent tafakkur testi	Fikrlar soni, g‘oyalar xilma–xilligi, originallik	31% (28 talaba)	49% (44 talaba)	20% (18 talaba)
T.Amabil komponent modeli	Ichki motivatsiya, bilim darajasi, kreativ fikrlash ko‘nikmalari	26% (23 talaba)	55% (50 talaba)	19% (17 talaba)

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 90 nafar talaba orasida kreativlikning o‘rtacha darajasi ustunlik qiladi. Yuqori darajadagi kreativlik ko‘rsatkichlari nisbatan kamroq bo‘lib, bu talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga ehtiyoj mavjudligini bildiradi. Torrance[2] va Guilford[1] metodikalari natijalari talabalarning fikrlash jarayonlari asosan rivojlangan, ammo originallik komponenti yetarlicha yuqori emasligini ko‘rsatdi. Amabile modeli natijalari esa kreativlikni rivojlantirishda ichki motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligini, bu esa kreativ faoliyat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi[3].

Shu bois talabalarda kreativlikni rivojlantirish uchun ichki motivatsiyani kuchaytirish, divergent tafakkurni rivojlantirish va ijodiy faoliyat uchun qulay psixologik muhit yaratish zarur hisoblanadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari talabalarda kreativlik xususiyatlarining rivojlanish darajasi ularning psixologik omillari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida Torrance kreativ fikrlash testlari, divergent tafakkurga oid topshiriqlar hamda kuzatuv va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi[2].

Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar faoliyati tahlili ularning kreativlik darajasi turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlanishini aniqladi.

Natijalarga ko‘ra, ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalar boshqalarga nisbatan yangi g‘oyalarni tez va ko‘proq ishlab chiqishi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yondashuvni qo‘llashi kuzatildi. Bu talabalar o‘z faoliyatida mustaqillik ko‘rsatib, berilgan topshiriqlarga ijodiy yondashganlar. Aksincha, tashqi motivatsiyaga ko‘proq tayangan talabalar asosan standart va an’anaviy yechimlar bilan cheklanib qolgan.

Kognitiv jarayonlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, divergent fikrlash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar kreativlik testlarida yuqori natijalarni qayd etgan. Ular ko‘p variantli yechimlar topish, original fikrlarni ilgari surish va fikrlashda moslashuvchanlikni namoyon etgan. Divergent fikrlash darajasi past bo‘lgan talabalar esa bir xil turdagi javoblarni takrorlashga moyillik ko‘rsatgan.

Tadqiqotda emotsional holatning ham kreativlikka sezilarli ta’siri aniqlangan. Ijobiy emotsional fon – qiziqish, ishtiyoq va ijobiy kayfiyat – talabalarning ijodiy faolligini oshirgan bo‘lsa, yuqori darajadagi stress va xavotir kreativ fikrlashni susaytirgan. Emotsional barqarorlikka ega talabalar esa topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarib, ijodiy yondashuvni namoyon etgan.

Shuningdek, shaxsiy xususiyatlar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil natijalari mustaqillik, tashabbuskorlik va o‘ziga ishonch darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda kreativlik ko‘rsatkichlari ham yuqori ekanligini ko‘rsatdi. O‘ziga ishonchi past bo‘lgan talabalar esa yangi g‘oyalarni ilgari surishda ikkilanish, xatolardan qo‘rqish holatlarini ko‘rsatgan.

Ijtimoiy-psixologik muhit tahlili shuni ko‘rsatdiki, qo‘llab-quvvatlovchi, erkin va innovatsion ta’lim muhiti talabalarda kreativlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[8]. Aksincha, qat’iy nazorat va tanqidga asoslangan muhit kreativ faoliyatni cheklaydi va talabalarning faolligini pasaytiradi. Guruhiy ishlarda ishtirok etgan talabalar individual ishlarga qaraganda ko‘proq kreativ g‘oyalar ishlab chiqqanligi kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish ko‘p jihatdan motivatsiya, kognitiv jarayonlar, emotsional holat va ijtimoiy muhit kabi psixologik omillarga bog‘liqligini tasdiqladi. Olingan natijalar kreativlikni rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatib, ta’lim jarayonida psixologik va pedagogik omillarni uyg‘unlashtirish muhim ekanligini isbotladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, talabalarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish ko‘p omilli va murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u motivatsiya, kognitiv jarayonlar, emotsional holat, shaxsiy xususiyatlar hamda ijtimoiy-psixologik muhitning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan E. Torrens[2], J.Gilford[1] va T.Amabil[3] metodikalari natijalari talabalarning kreativlik darajasi asosan o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalar kreativ fikrlash, originallik va muammoga noodatiy yondashuv bo‘yicha yuqori

natijalarni qayd etgan. Shuningdek, divergent tafakkur darajasi yuqori bo‘lgan talabalar yangi g‘oyalar ishlab chiqishda faolroq ekanligi aniqlandi. Emotsional barqarorlik va ijobiy psixologik muhit kreativlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani tasdiqlandi. Aksincha, stress, past o‘ziga ishonch va tashqi bosim kreativlik darajasini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta’lim jarayonida talabalarda ichki motivatsiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Buning uchun ularni mustaqil faoliyatga jalb qilish, qiziqarli va muammoli topshiriqlar berish, ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish muhim hisoblanadi.

2. Divergent tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar (brainstorming, keys-stadi, loyihaviy faoliyat)ni keng qo‘llash tavsiya etiladi. Bu talabalarda muammolarga ko‘p variantli yondashuvni shakllantiradi.

3. Ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlovchi va erkin psixologik muhit yaratish lozim. O‘qituvchilar tomonidan ortiqcha tanqid va bosimdan saqlanish, talabalarning fikrini erkin ifodalashiga sharoit yaratish muhimdir.

4. Talabalarning o‘ziga ishonchini oshirish va ularni muvaffaqiyatga yo‘naltirish orqali kreativ faoliyatni rag‘batlantirish zarur. Ijobiy baholash va konstruktiv fikr-mulohazalar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

5. O‘quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, talabalarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bunda psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar uyg‘un holda hisobga olinishi lozim. Bu esa kelajakda ijodkor, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw–Hill, 1967. – 538 p.

2. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms–Technical Manual. – Lexington: Scholastic Testing Service, 1974. – 95 p.

3. Amabile T. M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996. – 317 p.

4. Maslow A. H. Toward a Psychology of Being. – New York: Van Nostrand Reinhold, 1968. – 240 p.

5. Rogers C. R. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.

6. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. – New York: HarperCollins, 1996. – 456 p.

7. Runco M. A. Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice. – London: Academic Press, 2014. – 512 p.

8. Sternberg R. J. The Nature of Creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 400 p.

9. Lubart T. I. Creativity Across Cultures // Sternberg R. J. (ed.) Handbook of Creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 339–350.

10. Vigotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

UDK: 378:72:004.9

Berdiyev Nurmon Ochilovich,
Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti
"Muhandislik grafikasi" kafedrasi dotsenti

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARI MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada talabalarning mustaqil grafik ishlarini tashkil etishning o'rni va ahamiyati, uning mazmuni va metodikasini takomillashtirishning dolzarb muammolari haqida fikr yuritiladi. Bo'lajak arxitektorlarning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, yangi loyihalash usullari va vizual tafakkur yondashuvlari ta'sirida grafik fanlarni o'qitish metodikasining transformatsiya jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari mazmunini qayta ko'rib chiqish zarurati asoslab beriladi. Muallif mavjud ilmiy tahlillar asosida mustaqil ishlar mazmunini modernizatsiya qilishning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganib, ularni tizimli ravishda yoritadi.

Kalit so'zlar: arxitektura, mustaqil ta'lim, grafik ta'lim, modernizatsiya, raqamli texnologiyalar, transformatsiya, vizualizatsiya, kompetensiya, konsepsiya.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ СОДЕРЖАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение организации самостоятельных графических работ студентов, а также актуальные проблемы совершенствования их содержания и методики. Анализируется процесс трансформации методики преподавания графических дисциплин под влиянием широкого внедрения цифровых технологий, новых методов проектирования и подходов визуального мышления в профессиональной деятельности будущих архитекторов. Также обосновывается необходимость пересмотра содержания самостоятельной работы студентов. На основе существующих научных исследований автор изучает теоретико-правовые основы модернизации содержания самостоятельных работ и системно их освещает.

Ключевые слова: архитектура, самостоятельное обучение, графическое обучение, модернизация, цифровые технологии, трансформация, визуализация, компетенция, концепция.

THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR MODERNIZING THE CONTENT OF STUDENTS' INDEPENDENT WORK

Abstract. The article discusses the role and significance of organizing students' independent graphic work, as well as the current challenges in improving

its content and methodology. It analyzes the transformation process of teaching methods in graphic disciplines under the influence of the widespread implementation of digital technologies, new design approaches, and visual thinking paradigms in the professional activities of future architects. The necessity of revising the content of students' independent work is also substantiated. Based on existing scientific studies, the author examines the theoretical and legal foundations for modernizing the content of independent work and presents them in a systematic manner.

Keywords: architecture, independent learning, graphic learning, modernization, digital technologies, transformation, visualization, competence, concept.

Grafik tayyorgarlik arxitektura ta'limining ajralmas qismi bo'lib, bo'lajak arxitektorlarda fazoviy fikrlash, kompozitsion ko'rish qobiliyatlarini, shuningdek, estetik didni rivojlantirilishini ta'minlaydi. Bu borada talabalarning mustaqil grafik ishlari va ularni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ish ta'limni tashkil etishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. U talabalarga zarur ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlab topish, auditoriya mashg'ulotlarida o'quv materialini ijodiy tarzda anglash va chuqur tushunish imkonini beradi hamda talabalarning kognitiv faoliyatining turli ko'rinishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning bilan birga, talabalarning o'quv vaqtini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qilish, hamda o'quv faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, "Mustaqil ta'lim-o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat". Bu ta'lim berish shakli professor-o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida tashkil qilinadigan va uning topshiriqlari hamda ko'rsatmalari asosida o'quv vazifalarini bajarish va amalga oshirish ko'zda tutiladigan talimning faol metodi hisoblanadi.

Biroq, oliy ta'limning arxitektura yo'nalishlarida talabalarning mustaqil badiiy-grafik ishlarining tashkil qilinishi bilan bog'liq hozirgi holat zamonaviy talablarga to'liq javob bera olmaydi. Buning asosiy sabablari:

- mustaqil grafik ishlar asosan, reproduktiv topshiriqlarga yo'naltirilgan bo'lib, raqamli vositalarning imkoniyatlarini hisobga olmaydi;
- ta'lim oluvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, ularning qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining qobiliyatlarini to'liq namoyon qilishga har doim ham yordam beravermaydi;
- tavsiya qilinayotgan o'quv materiallari va mavzularning ayrimlari ma'nan eskirgan, zamonaviy arxitekturaviy muhit va ishlab chiqarish amaliyoti bilan kam bog'liqlikka ega;
- mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan mavzularni modernizatsiyalash masalalarining nazariy va amaliy jihatlari puxta ishlab chiqilmagan;

- mustaqil ishlarning tashkil qilinishi va bajarilishini nazorat qilishning eng optimal metodlari to‘liq ishlab chiqilmagan.

Bu esa mustaqil grafik ishlar mazmunini zamonaviylashtirish, ularga yanada dolzarb, kasbiy yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi topshiriqlarni kiritish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu omil, birinchi navbatda, arxitektura yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga taqdim etilayotgan o‘quv materiallari mazmuni va metodikasini takomillashtirish, optimallashtirish zaruriyati mavjudligini anglatadi.

Chunki, ta’lim berishning an’anaviy metodlari va uning ayrim nazariy qismlari singari, mustaqil ta’lim jarayonlari ham yangicha yondoshuvlarni talab etadi. Ayniqsa, uning mazmunini, tashkiliy shakl va metodlarini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, modernizatsiya qilish, (inglizcha ***modern*** - zamonaviy, ilg‘or, yangilangan) shakl va metodlari, texnologiyalarini yangilash bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Mustaqil ishlarini tashkil etish va uni modernizatsiyalashning huquqiy va nazariy asoslari bu - zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning bilim olish faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etilishini, baholash va nazorat qilishni ta’minlaydigan qonun hujjatlari, me’yoriy-huquqiy aktlar va metodik ko‘rsatmalar yig‘indisidir. Ko‘zda tutilgan va amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ta’limiy maqsad va vazifalar hukumatimiz tomonidan qabul qilingan ko‘plab qaror va farmonlarda, me’yoriy hujjatlarda bayon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘plab qaror va farmonlarida oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini takomillashtirib borish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish masalasi aks ettirilgan. Jumladan, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorida “Bu jarayonga o‘tishdagi eng katta muammolar “Biz xatto oliy ta’limda ham asosan bilim berib kelamiz, yoshlarni bilim olishga va mustaqil izlanishga, axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish zarur” – deb aytib o‘tilgan.”

Shuningek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan”ligi jiddiy kamchilliklardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Kelgusidagi ustivor vazifalar qatorida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish va ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Konsepsiyada “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni

shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” vazifasi belgilangan. Bundan tashqari, “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish” vazifasi ham qo‘yilgan.

Chunki, zamonaviy arxitektura ta’limi tizimi arxitektorning kasbiy faoliyatidagi o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, yangi loyihalash usullari va vizual fikrlash yondashuvlari tufayli transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda talabalarda ham texnik, ham ijodiy ko‘nikmalar, loyihaviy fikrlash qobiliyati, shuningdek, grafik kommunikatsiya vositalarini egallashni o‘z ichiga olgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli qarorida: “2020/2021-o‘quv yilidan boshlab respublika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etilsin”, - deb belgilab qo‘yilgan edi.

Ma’lumki, kredit-modul tizimi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini ECTS (yevropa kredit tizimi) talablariga mos ravishda tashkil etishni belgilaydi. Mahalliy va xalqaro manbalar bu tizimning nazariy va amaliy asoslarini tasdiqlaydi.

Bu tizimda o‘qitish jarayonlarida har bir fan bo‘yicha yuklama soatlarining 40-50% gacha qismi talabalarning mustaqil ishlariga to‘g‘ri keladi.

Shu ma’noda arxitektura ta’limida amaldagi ta’lim mazmuni tarkibiga kiruvchi mustaqil ishlar mazmunini belgilashda yangicha yondoshuvlar bo‘lajak arxitektorlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, didaktik imkoniyatlarini aniqlashga oid maxsus tadqiqot o‘tkazish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqot doirasida amaldagi Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturi talablari asosida bo‘lajak arxitektorlarda tasviriy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning arxitekturaviy loyihalarning badiiy-tasviriy yechimlarini tasviriy vositalarda mustaqil hal etish malakalarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini takomillashtirish o‘zining ilmiy-metodik yechimini kutayotgan dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

ПРОФОРИЕНТАЦИЯ ШКОЛЬНИКОВ: ТЕНДЕНЦИИ ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ БУДУЩЕЕ ПРОФЕССИЙ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы профориентации школьников в условиях современного VUCA мир, а также тенденции, определяющие будущее профессий. Рассматриваются структурные изменения на рынке труда, включая глобализацию, рост экологических требований, автоматизацию и влияние цифровой трансформации на содержание профессий. Предлагаются научно-практические подходы, направленные на формирование стратегического мышления и компетенций, соответствующих профессиям будущего в процессе профориентации учащихся.

Ключевые слова: VUCA мир, профориентация, рынок труда, будущее профессий, тенденции, глобализация, экономическая конкуренция, автоматизация, экологические требования.

CAREER GUIDANCE FOR SCHOOL STUDENTS: TRENDS SHAPING THE FUTURE OF PROFESSIONS

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical foundations of career guidance for school students in the context of the modern VUCA world, as well as the key trends shaping the future of professions. It examines structural changes in the labor market, including globalization, the growing environmental requirements, automation, and the impact of digital transformation on the content of professions. The study proposes scientific and practical approaches aimed at developing strategic thinking and forming competencies aligned with future professions in the process of career guidance for students.

Keywords: VUCA world, career guidance, labor market, future of professions, trends, globalization, economic competition, automation, environmental requirements.

Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug‘i, bilmagani muammo.
Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bugun biz yashayotgan VUCA dunyosi, zamonaviy globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda lokal va xalqaro mehnat bozorida yuz berayotgan strukturaviy o‘zgarishlar ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalasi nafaqat pedagogik muammo, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning strategik omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining sifati bilan belgilanayotgan bir sharoitda, maktab bitiruvchilarining erta va ongli kasb tanlashi ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim mezoniga aylanmoqda.

Hozirgi davrda mehnat bozori an’anaviy kasblar bilan bir qatorda mutlaqo yangi, ko‘p funksiyali va adaptiv kompetensiyalarni talab qiluvchi kasblar bilan boyib bormoqda. Sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, ekologik muvozanat va xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi kabi omillar kasblarning mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu esa o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonini faqat mavjud kasblar bilan tanishtirish darajasida emas, balki ularning kelajakdagi transformatsiyasini anglatish, kritik va kreativ fikrlashni shakllantirish va strategik tanlov qilishga o‘rgatish zaruratini yuzaga keltiradi.

Uchinchi Renessansni qurishga intilayotgan Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar doirasida o‘quvchilarni kasbga

yo‘naltirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ta’limning uzluksizligi, amaliyotga yo‘naltirilganligi va mehnat bozori bilan integratsiyasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud kasbga yo‘naltirish tizimi ko‘pincha an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmoqda, bu esa tez o‘zgarayotgan VUCA dunyosida yetarli samaradorlikni ta’minlamaydi.

Kasbga yo‘naltirishdan asosiy maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu jarayon shaxsning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko‘maklashadi.

Respublikamizda ta’lim islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida mavjud bo‘lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, xususan ulkan ummon bo‘lgan kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning kasb- hunarni ongli ravishda va to‘g‘ri tanlashiga ko‘maklashish masalasi ta’lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, kasbga yo‘naltirish jarayoni shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash bilan bir qatorda, tashqi omillar — mehnat bozori ehtiyojlari, texnologik rivojlanish tendensiyalari va global iqtisodiy jarayonlarni ham hisobga olishi lozim. Shu jihatdan, kasbga yo‘naltirishni kompleks tizim sifatida ko‘rib chiqish, unda pedagogik, psixologik va iqtisodiy yondashuvlarni integratsiya qilish ilmiy jihatdan asoslangan yechimlarni talab etadi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari ta’lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir. Maktabgacha, umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari, jamoa tashkilotlari hamda ota-onalarning o‘zaro hamkorligi bu jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bunday hamkorlik o‘sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o‘z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkonini yaratadi.

Demak, maktabdagi har bir xodim kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirishini bilishi lozim. Chunki, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirishda nafaqat maktab amaliyotchi psixologi, balki butun maktab jamoasi mas’uldir.

Biroq, yana shuni ham e’tiborga olish lozimki, maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda nafaqat kasbning istiqboli va jamiyat hayotidagi o‘rni, shuningdek, kasbning kelajagi va uni belgilaydigan tendensiyalarni bilish, tushunish, strategik fikr yuritish zarur.

Yuqoridagilardan kelib-chiqib, ushbu maqolada maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish jarayoni zamonaviy global tendensiyalar kontekstida tahlil qilingan va kasblarning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda yoritilgan. Bu

esa o‘quvchilarning nafaqat bugungi kun talablariga moslashishini, balki kelajakdagi noaniqlik sharoitida ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bugun kasbning kelajagi belgilashda quyidagi tendensiyalar farqlanadi:

- Globallashuv;
- Iqtisodiyotda raqobatning o‘sishi;
- Mijoz ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganlik;
- Tarmoqlarda xodimlar vazifalarining o‘zgarishi, loyihalarda ishlashga o‘tish;
- Avtomatlashtirish;
- Dasturlashtiriladigan qurilmalardan intensiv foydalanish;
- Ekologik talablarning o‘sishi va boshqalar.

Quyida har bir tendensiyaga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Globallashuv



Jahon iqtisodiyoti muqarrar ravishda yanada integraцiyalashishga va mintaqaviy iqtisodiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirishga intilmoqda. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunda ma’lum bir murakkab mahsulotni ishlab chiqqan mamlakatni aniqlab bo‘lmaydi. Agar Yaponiyada avtomobil yoki kompyuter ishlab chiqarilgan bo‘lsa, unda uning tarkibiy qismlari dunyoning o‘nlab mamlakatlari tomonidan etkazib beriladi va ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom ashyo qirqqa yaqin mamlakatda tayyorlanadi.

Multfilm kabi ijodiy mahsulotni olsak ham, u allaqachon Amerikada ixtiro qilingan, Rossiyada chizilgan va Xitoyda uch o‘lchovli animaцiya yordamida yaratilgan bo‘lib chiqadi. Shuning uchun kelajakdagi xodimlar ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli muhitda ishlashlari kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, xodimlarning ma’lum bir qismi nafaqat o‘z korxonasining masalalarini, balki ularga mahsulot etkazib beruvchi va iste’molchilarini ham tushunishlari kerak bo‘ladi.

Iqtisodiyotda raqobatning o‘sishi



Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida tobora ortib borayotgan raqobatni vujudga keltiradi. Bu shuni anglatadiki, yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratishga qodir va iste’molchi ehtiyojlariga tezda moslasha oladigan kompaniyalar eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Ularning orasidagi raqobat bozorida o‘yin qoidalari doimiy ravishda o‘zgarib turishiga olib keladi. Mavjudlarini o‘rnini bosadigan va hatto butun bozorlarni egallay oladigan yangi mahsulotlar paydo bo‘lmoqda (avtomobillar transporti ot-ulovlarni, mobil telefonlar peyjerlarni o‘rnini egallagandek).

Mijoz ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganlik



Yuqori raqobat xodimdan iste'molchiga aynan nima kerakligini yaxshiroq tushunishni talab qiladi, ya'ni mijozga yo'naltirilgan bo'lishni o'rgatadi.

Tarmoqlarda xodimlar vazifalarining o'zgarishi, loyihalarda ishlashga o'tish



Iqtisodiyotda doimiy ravishda ro'y berayotgan o'zgarishlar tufayli butun umr bir xil narsani qilishingiz mumkin bo'lgan ish joylari soni kamayib bormoqda (masalan, buxgalter yoki sotuvchining ishi) va ish turli xil loyihalar to'plami sifatida tashkil etiladigan joylar tobora ko'payib bormoqda. Shu sababli, nafaqat loyiha jamoalarida ishlash, balki loyihalarni o'zingiz tashkil qilish qobiliyati kelajakning aksariyat xodimlari uchun juda muhimdir. Va nihoyat, "o'zgarish davrida" ko'plab xodimlar mavhumlik sharoitida ishlashga tayyor bo'lishlari kerak. Demak, ular tezda qaror qabul qilishlari, o'zgaruvchan ish sharoitlariga javob berishlari, resurslarni taqsimlashlari va qayta taqsimlashlari, o'zgaruvchan ish vazifalar oqimlarida o'z vaqtlarini boshqarishlari lozim.

Avtomatlashtirish



Eng muhim o'zgarishlardan biri bu avtomatlashtirish texnologiyalarining keng tatbiq etilishidir. XVIII asrdan boshlab mashinalar insonlarning og'ir qo'l mehnatini, XX asr o'rtalaridan esa kompyuterlar kalkulyatorlarni o'rinini bosa boshladi. Ammo so'nggi o'n yillikda bu jarayon jadallashdi - birinchidan, ommaviy ishlatiladigan kompyuterlar haqiqatan ham kuchli bo'lib qoldi va endi ilgari faqat odam qila oladigan ishlarni bajarishga qodir (masalan, olomon ichida jinoyatchilarni aniqlash, tomografik tasvirdagi saraton o'simtasini tanib olish), ikkinchidan, sanoat va maishiy robotlar bizning ko'zimiz oldida arzonlasha boshlagani uchun. Shuningdek, tobora ko'proq kasblar guruhlarda hamkorlikdagi faoliyat bilan bog'liq bo'lmoqda – insonlar mexanizmlar bilan kamroq va boshqa odamlar bilan ko'proq ishlaydi. Shuning uchun muhim ko'nikmalardan biri – shaxslar va jamoalar bilan ishlashni tashkil etish mahorati bo'ladi.

Dasturlashtiriladigan qurilmalardan intensiv foydalanish



Avtomatlashtirish bilan to'yingan dunyoda kompyuterlar va robotlar raqobatchilarga emas, balki bizning yordamchilarimizga aylanishi lozim. Shuning uchun inson tanlagan vazifalar uchun robotlar va sun'iy intellekt tizimlarini sozlay olish kerak bo'ladi. Kompyuter savodxonligi, biz hozir tushunganimizdek – Internet-brauzerdan foydalanish, elektron pochta xabarini yuborish yoki matn muharririda matn yozish qobiliyati – ish uchun

zarur, ammo umuman yetarli bo‘lmagan ko‘nikmaga aylanadi. Kelajak dunyosi deyarli har bir xodim hech bo‘lmaganda eng oddiy dasturlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishini talab qiladi.

Ekologik talablarning o‘sishi



Dunyoda allaqachon keng tarqalgan yana bir muhim tendensiya – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning ekologik toza bo‘lishiga bo‘lgan talablarning o‘sib borishi. Atrof-muhitni ekologik tozaligi nafaqat toza suv yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan foydalanishni, balki ishlatiladigan har qanday tabiiy resurslar (masalan, energiya, suv yoki tabiiy xom ashyolarni sarfini kamaytirish)ga tejamkor munosabatni, ishlab chiqarish natijasida paydo bo‘lgan chiqindilar miqdorini kamaytirishni (shu jumladan chiqindilarni qayta ishlash, biologik parchalanadigan materiallardan foydalanish va boshqalar) anglatadi. Ya’ni biz hammamiz tabiiy resurslar cheksiz emasligini tushunamiz va barchamiz o‘zimiz yashaydigan joy – bizning uyimiz, shahrimiz, mamlakatimiz yoki umumiy sayyoramiz uchun javobgar bo‘lishimiz kerak. Shu sababli, “ekologik mas’uliyatli hatti – harakatlar» ko‘nikmalari har qanday xodimning standart tayyorgarligiga kiritilishi, va, hatto ular boshlang‘ich maktabdan o‘quvchilarga singdirilishi lozim.

Demak, biz sanab o‘tgan tendenцiyalar iqtisodiyotning turli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida bir vaqtda yuz beradigan o‘zgarishlarni tavsiflaydi. Ushbu tendenцiyalar turli soha mutaxassislaridan muhim bo‘lgan yangi kasbiy ko‘nikmalarni talab qiladi. Bunday ko‘nikmalarni o‘zlashtirish xodimga o‘z sohasidagi kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga, shuningdek, ularning dolzarbligini saqlagan holda tarmoqlar o‘rtasida almashinish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Radjiyev, N.Mamanazarova, F.Karimov, N.Ziyodulloyev. Istiqbolga ega bo‘lgan haqiqiy kasblar: umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022 y. – 143 bet.

2. B.Saidov, A.Radjiyev, F.Karimov, N.Mamanazarova, N.Ziyodulloyev. KASBGA YO‘NALTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR (umumta’lim maktablari pedagog va psixologlari uchun uslubiy qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022. – 142 bet.

3. N.K.Mamanazarova, J.B.Saitmurodov, N.M.Ziyodulloyev – “Xalqaro mehnat bozori” nomli Umumta’lim maktablari pedagog va psixologlari uchun Uslubiy qo‘llanma –T.: Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, ”Max Pristil” 2023. 103 bet.

4. http://profnavigator.uz

UDK 159.923:004.738.5

Xoshimov Nodirjon Ergash o'g'li,
mustaqil tadqiqotchi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTERNETGA TOBELIKNING SABAB, OQIBATLARI VA PROFILAKTIKASI

Annotasiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlarda internetga tobelikning psixologik sabablari, uning salbiy oqibatlari hamda profilaktika choralari tahlil qilingan. Virtual addiksiyaning shakllanishidagi ijtimoiy-psixologik omillar, shaxs qadriyatlari va o'zini anglash darajasining o'rni yoritilgan. Shuningdek, talabalarda internetga nisbatan adekvat munosabat va barqarorlikni shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Internetdan me'yoriy foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari virtual tobelikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: internetga tobelik, virtual addiksiya, globallashuv, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik omillar, barqarorlik, qadriyatlar, profilaktika, axborot texnologiyalari.

ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРОФИЛАКТИКА ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические причины интернет-зависимости у молодежи в условиях глобализации, а также ее негативные последствия и меры профилактики. Освещается роль социально-психологических факторов, ценностных ориентаций личности и уровня самосознания в формировании виртуальной аддикции. Рассматриваются вопросы формирования устойчивости и адекватного поведения в виртуальной среде у студентов. Предложены рекомендации по развитию навыков рационального использования интернета. Полученные результаты имеют важное значение для профилактики интернет-зависимости.

Ключевые слова: интернет-зависимость, виртуальная аддикция, глобализация, психология молодежи, социально-психологические факторы, устойчивость, ценности, профилактика, информационные технологии.

CAUSES, CONSEQUENCES, AND PREVENTION OF INTERNET ADDICTION IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Abstract. This article examines the psychological causes of internet addiction among youth in the context of globalization, as well as its negative consequences and prevention strategies. The role of socio-psychological factors, personal values, and self-awareness in the development of virtual addiction is highlighted. The study also explores the formation of resilience and adequate behavior toward the virtual

environment among students. Practical recommendations for the rational use of the Internet are proposed. The findings are significant for preventing internet addiction.

Keywords: internet addiction, virtual addiction, globalization, youth psychology, socio-psychological factors, resilience, values, prevention, information technologies

Jahonda hech bir sohada ilg‘or axborot texnologiyalari hamda internet tarmog‘isiz yuksak taraqqiyotni tasavvur yetish qiyin. Internet xizmatlari bo‘yicha jahonda yetakchi hisoblanuvchi «Cloudflare. com», «Alexa.com» kompaniyalari tomonidan 2022-yilda o‘tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko‘ra bir oy mobaynida 4,95 milliard foydalanuvchi, ya’ni dunyo aholisining 62,5 foizi internetga faol tarzda murojaat etishlari ma’lum bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkichlarning 17-18 foiz ulushi o‘smir yoshlarga to‘g‘ri keladi. Osiyo davlatlari bo‘yicha o‘smirlar o‘rtasida eng yuqori virtual tobelik ko‘rsatkichi Tayvan (19.8 foiz), Janubiy Korea (13.8 foiz), Xitoy (13.7 foiz) mamlakatlariga to‘g‘ri kelar ekan.

Yoshlarda globallashuv sharoitida internetga tobelikning salbiy oqibatlarini oldini olish, ularda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlikni shakllantirish, virtual tobelikka sabab bo‘luvchi psixologik detirminantlarni aniqlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda internet tobelik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, talaba-o‘quvchilarda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlik shakllanishining psixologik o‘ziga xosligini o‘rganish, ularda virtual olamga nisbatan adekvat xulq-atvorni shakllantirish bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlik namoyon bo‘lishidagi ijtimoiy-psixologik muammolar, talabalarda barqarorlik sifatlarining shakllanganlik holati, ushbu jarayonga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning o‘rnini aniqlash, shaxs o‘ziga munosabati va qadriyatlari darajasiga ko‘ra barqarorlikning tarkib topishi, ota-ona hamda yoshlarning informasion texnologiyalar, internet tarmog‘iga nisbatan munosabatlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish ijtimoiy psixologiyadagi dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda internet, informasion texnologiyalarga tobelik va uni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar, zararli odatlarning shaxs psixologiyasiga ta’siri masalalari o‘zbek olimlaridan Y.Y.A’zamova, S.Arifxanova, A.D.Axmedov, Sh.R.Barotov, M.R.Bahrillaeva, E.A.Do‘sanov, N.M.Dolimova, H.H.Jabborov, D.Muhiddinova, I.I.Raximova, D.A.Sobirova, S.Sharapova, B.S.Shukurov, S.B.Raximmirzaeva, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari olimlaridan L.R.Azizova, Y.I.Alekseeva, L.N.Babinina, Y.P.Belinskaya, V.A. Yemelin, A.Y.Jichkina, G.N. Julina, N.V.Koritnikova, V.A.Loskutova, T.V. Popova, M.I.Rozenova, G.U.Soldatova, A.A. Shapovalenko A.G. Tulegenova va boshqalarning ishlarida yoshlar hayotida kompyuterning roli, internetga tobe yoshlarga xos xususiyatlar, addiktiv xulq profilaktikasi, internetga tobe shaxslar va ularning psixologik salomatligi, internetdan foydalanish motivlari, internetga tobelikning ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omillari, virtual muloqot kabi masalalar tadqiq etilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan K.Yang, A.Goldberg, J.Grohol, D.Greenfield, M.Griffiths, R.Davis, D.Suss, K.Montage, J.Morehen-Martin, K.Rodgers, K.Surrat, T.Troer, G.Ferraro, A.Hull, S.Cheng, N.A.Shapira va J.Shaffer boshqalar tomonidan internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi omillar, internetga qaramlikni aniqlash, internetga tobelik va uning profilaktikasi, psixokorreksiyasiga doir psixologik tadqiqotlar olib borilgan.

Yuqoridagi nazariy va ilmiy manbalar mazmuni shuni ko‘rsatmoqdaki, internet, informasion texnologiyalarga tobelik muammosining tahlili bo‘yicha birmuncha salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligiga qaramay, internet tobelik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, talaba-o‘quvchilarda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlik shakllanishining psixologik o‘ziga xosligi ilmiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan.

Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etish asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida tadqiqot olib borildi.

Tadqiqotda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlikni shakllantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash; talabalarda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlikning shakllanganlik darajasini o‘rganish; talabalarda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish; talabalarda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlikni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalar sifatida belgilab olindi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahri, Buxoro, Surxondaryo viloyatlaridagi nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining 355 nafar talabalari jalb etildi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida kuzatish, eksperiment, suhbat-intervyu, ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma, shaxsni o‘rganishga kompleks yondashuv usullaridan foydalanildi. Shuningdek, Kimberli Yangning «Internetga munosabatni o‘rganish” (V.A. Burova tomonidan moslashtirilgan) so‘rovnomasi, U.D.Qodirov va N.Xoshimovlar muallifligidagi «Virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlik shakllanishi omillari” so‘rovnomasi, A. Jichkina va Ye.A.Shepilina tomonidan ishlab chiqilgan shaxsning internetga subektiv munosabatini aniqlashga qaratilgan «Tugallanmagan jumlalar” metodikasi, shaxsning subektiv–lokal nazorat darajasini aniqlash testi (Stolin — Panteleevlar metodikasi), Shvarsning qadriyatlar yo‘nalishi metodikasi hamda yempirik materiallarni qayta ishlash va ularning statistik ahamiyatlilik darajasini aniqlash maqsadida matematik-statistika usullari (Styudentning t-mezoni, Pirsonning korrelyasiya koeffisientini hisoblash usullari) qo‘llandi.

Addiksiya (inglizcha «addiction» – moyillik, odatlanish) – bu odamning salbiy jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy oqibatlarga qaramay, ma’lum harakatlarni takrorlashga bo‘lgan majburiy ehtiyojidir [4]. Bugungi kunda kimyoviy va nokimyoviy qaramlik turlarini, ularning shakllanish mexanizmlarini, tashxis qo‘yish usullarini, rivojlanish bosqichlarini, oldini olish, davolash va reabilitatsiya qilish metodlarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish addiktologiya deb ataladi [3]. Addiktiv xulq-atvor — bu deviant (me’yordan og‘ishgan) xatti-harakat shakllaridan biri

bo‘lib, real hayotdan qochishga intilish orqali ruhiy holatni o‘zgartirishga qaratiladi. Uning mohiyati — psixik holatni o‘zgartirishga urinishdir: bu ba’zan modda qabul qilish, ba’zan esa muayyan predmetlar yoki faoliyat turlari orqali sodir bo‘ladi [3].

Chet el adabiyotida internet-addiksiya fenomeni «internet–addiction” atamasi bilan ifodalanadi, bu atama ingliz tilidagi «dependense» (qaramlik) so‘zidan farqli o‘laroq, «mustaqillik yo‘qligi», «bo‘ysunuvchanlik» ma’nosini anglatmaydi (S.-H. Chen, M. Griffiths, D.J. Kuss, K. Young, Y. Zhang va boshqalar). Rus tadqiqotchilari (A.Yu. Egorov, V.L. Malygin, V.D. Mendelevich, T.V. Panteleeva, M.G. Chukhrova va boshqalar) esa «internet-addiksiya” va «internet-qaramlik” atamalarini sinonim sifatida qabul qiladilar [5].

Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, media tahlil, axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligiga oid muammolarni tadqiq etish bilan shug‘ullanadigan Global Digital portalining 2023-yilgi hisobotida bir qator ahamiyatga molik ma’lumot va xulosalar keltirilgan. Jumladan, dunyo aholisi 2023-yilga kelib 8 milliard nafardan oshdi. 2023-yilning boshida 5,44 milliard odam mobil qurilmaga ega bo‘lib, bu umumiy aholining 68% ni tashkil etdi. Jahonning 64,4% aholisida internetdan foydalanish imkoni bor, bir yil orasida bu ko‘rsatkich 1,9%na oshgan. 2023-yilga kelib 4,76 milliard inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi, bu taxminan yer yuzining 60% aholisini tashkil etadi. Internet-auditoriyaning ko‘payishida o‘sish sur’atlari ko‘zga tashlandi. 2023-yilga kelib, bu ko‘rsatkich garchi pastroq bo‘lsa-da, yiliga 98 million insonni tashkil etdi. Taxminlar 2024-yil boshiga qadar dunyo aholisining 2/3 qismi internet tarmog‘iga ulanishini ko‘rsatmoqda [6]. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda O‘zbekistonda 22 milliondan ortiq kishi internetdan, ularning 19 million nafardan ziyodi mobil internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Aniqlanishicha, mamlakatimizda eng urfga kirgan ijtimoiy tarmoq **Telegram va YouTubedir** [1].

Tahlillarga ko‘ra, 2022-yili internet tarmog‘ida o‘tkaziladigan vaqt 2021-yilga nisbatan 5%ga kamaygan. Fikrimizcha, bu pandemiya talablarining yumshagani va dunyo aholisining oflayn ijtimoiy munosabatlarga ko‘proq kirishgani bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Vaqtini internetda o‘tkazish bo‘yicha Filippin davlati fuqarolari dunyoda peshqadam hisoblanadilar (kuniga 9 soatdan oshadi), O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2 soatdan ko‘proqni tashkil etmoqda.

Turli addiksiya turlarining (kimyoviy va nokimyoviy) shakllanishida asosiy psixologik mexanizmlarni tahlil qilganda, birinchi navbatda hissiy daraja ajratib ko‘rsatiladi, chunki aynan shu bosqichda addiksiyaning shakllanishi boshlanadi. Addiktiv faoliyat davomida odam yengil tortish, erkinlik, eyforiya, qoniqish, xotirjamlik, xavotir pasayishi kabi holatlarni boshidan kechiradi. Odam tabiatan psixologik qulaylik va zavq izlaydi. Oddiy sharoitlarda bu holatlar turli yo‘llar bilan erishiladi: maqsadlarga erishish, yaqinlar bilan ijobiy munosabatlar, sport, ijodkorlik yoki sevimli mashg‘ulotlar orqali [3].

A.O. Buxanovskiy, N.V. Dmitriyeva, V.D. Mendelevich, Ts.P. Korolenko fikriga ko‘ra, addiksiya shakllanayotgan holatlarda xulq-strategiyalar tanlovi keskin kamayadi, odam qulaylik va zavq olishning bitta usuliga mahkam yopishib oladi,

qolganlari esa chetga suriladi. Addiktiv agentga qaramlikning asosiy omili — istalgan vaqtda, minimal kuch sarflab, psixik holatni o‘zgartirish imkoniyati bo‘lib, bu addiksiya boshlanishida odamda boshqaruv tuyg‘usini hosil qiladi. Bu holat xayoliy erkinlik, o‘ziga yetarlilik, mustaqillik illyuziyasini paydo qiladi. Natijada yangi addiktiv shaxs shakllanadi, u avvalgi qadriyatlardan farqli bo‘lgan motivatsiya, qiziqishlar va yo‘nalishga ega bo‘ladi [2].

“Addiktiv buzilishlar” atamasini ilk bor rossiyalik zamonaviy addiktologiya asoschilaridan biri — professor Ts.P. Korolenko 1970-yillarning boshlarida kiritgan. Unga ko‘ra, addiktiv jarayonlarning rivojlanishiga shaxsda “kuchsiz super-ego” sabab bo‘ladi — bu frustratsiyani yengishga to‘sqinlik qiladi, irodaviy funksiyalar shakllanishiga halal beradi. Yana bir sabab — ongli ravishda tushunilmagan psixologik noqulayliklar. Korolenko «autodestruktiv draiv” atamasini kiritadi, bu — odamning psixik holatini boshqa holatga almashtirish emas, balki butunlay «yo‘qolish”, hayotdan chiqib ketish, hech narsa sezmaslik istagini anglatadi [4].

2001-yilda Ts.P. Korolenko ilk bor nokimyoviy (xulq-atvoriy) addiksiya turlarini tasniflaydi. Bu yerda qaramlik obyekti modda emas, balki muayyan istak yoki xulq-harakat bo‘ladi [3].

Talabalarda virtual addiksiyaning shakillanish sabablari va uning darajasini aniqlashda Kimberli Yangning «Interentga munosabatni o‘rganish” (V.A. Burova tomonidan moslashtirilgan) metodikasidan foydalanildi. Tadqiqot natijasida 355 nafar sinaluvchining internetga tobelik ko‘rsatkichi uchta darajada farqlandi. O‘tkazilgan tadqiqotda Kimberli Yangning «Interentga munosabatni o‘rganish” (V.A. Burova tomonidan moslashtirilgan) metodikasi yordamida talabalar o‘rtasida virtual addiksiya darajasi va unga qaramlik belgilarini aniqlash hamda uning o‘quv faoliyati va psixologik holatiga ta’sirini baholash maqsadida qo‘llanildi.

Tadqiqot jarayonida talabalar orasida virtual addiksiya darajasi va internetdan foydalanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida Kimberli Yangning «Internetga munosabatni o‘rganish” (V.A. Burova tomonidan moslashtirilgan) metodikasi qo‘llanildi. Mazkur metodika internetdan foydalanish intensivligi, undan foydalanishni nazorat qilish darajasi, ijtimoiy va akademik faoliyatga ta’siri hamda psixologik bog‘liqlik kabi ko‘rsatkichlarni baholashga qaratilgan. Metodika 40 ta banddan iborat bo‘lib, Likert tipidagi baholash shkalasi asosida o‘tkazildi. Tadqiqotda metodikaning adaptatsiyalangan varianti qo‘llanilib, ichki ishonchlilik ko‘rsatkichi (Cronbach α) qoniqarli darajada ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotda jami **n = 355 nafar talaba** ishtirok etdi. Ular orasida **tadqiqot guruhi (TG) – 198 nafar**, **nazorat guruhi (NG) – 157 nafar** talabalar qatnashdi. IAT metodikasi natijalari respondentlarning internetga qaramlik darajasini aniqlash maqsadida **quyi, o‘rta va yuqori** toifalarga ajratildi.

1-jadval


Kimberli Yangning «Interentga munosabatni o‘rganish” (V.A. Burova tomonidan moslashtirilgan) metodikasi bo‘yicha internetga qaramlik darajasi (n = 355)

Daraja	TG (n=198)	%	NG (n=157)	%	Jami

Quyi	48	24,2	34	21,7	82
O‘rta	128	64,6	100	63,7	228
Yuqori	22	11,2	23	14,6	45

Olingan natijalarga ko‘ra, talabalar orasida internetdan foydalanish darajasi asosan o‘rta ko‘rsatkichlar doirasida jamlangan. Xususan, respondentlarning 228 nafari (64,2%) o‘rta darajadagi internetdan foydalanish toifasiga kiradi. Bu holat talabalarda internetdan foydalanish faol va intensiv bo‘lsa-da, ko‘pchilikda u hali to‘liq addiktiv xulq-atvor shakliga o‘tmaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, **45 nafar talabada (12,7%) yuqori darajadagi internet addiksiyasi** aniqlangan. Bu toifa vakillarida internetdan foydalanish ustidan nazoratning pasayishi, vaqtni rejalashtirishdagi qiyinchiliklar, real ijtimoiy muloqotning kamayishi hamda akademik faoliyatga salbiy ta’sir kuzatilishi mumkin.

Quyi darajadagi foydalanish esa **82 nafar talabada (23,1%)** aniqlangan bo‘lib, bu toifadagi talabalar internetdan asosan ma’lumot izlash yoki kommunikativ maqsadlarda foydalanadi va unda psixologik qaramlik belgilarining sezilarli darajada namoyon bo‘lishi kuzatilmaydi (1-rasm).



1-rasm. Kimberli Yangning «Interentga munosabatni o‘rganish” (V.A.Burova tomonidan moslashtirilgan) metodikasi bo‘yicha internetga qaramlik darajasi

Tadqiqot guruhi va nazorat guruhi kesimida natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala guruhda ham o‘rta darajadagi internetdan foydalanish ustunlik qiladi. Biroq nazorat guruhida yuqori darajadagi addiksiya ulushi biroz yuqoriroq ekani kuzatiladi. Bu holat psixologik trening dasturi o‘tkazilgan tadqiqot guruhida virtual muhitga nisbatan ongli munosabatning nisbatan shakllanganini ko‘rsatishi mumkin.

Kimberly Young metodikasi orqali olingan natijalar anketa so‘rovnomasi natijalari bilan solishtirilganda muayyan psixologik bog‘liqlik kuzatiladi. Anketa so‘rovnomasi sinaluvchilarda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda

ijobiy kechinma, maqsadning anglanganligi, ijtimoiy faollik va ta'limga qiziqish kabi ko'rsatkichlar tahlil qilingan.

Anketa natijalariga ko'ra, ko'plab sinaluvchilarda ushbu omillar **quyi yoki o'rta darajada** namoyon bo'lgani aniqlangan. Bu holat metodikaning natijalarida aniqlangan **o'rta darajadagi internetga qaramlik ko'rsatkichlari bilan muayyan darajada mos keladi**. Ya'ni, shaxsning ijtimoiy faolligi, ta'limga qiziqishi yoki emotsional barqarorligi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, internet muhitiga nisbatan qiziqishning ortishi yoki undan kompensator vosita sifatida foydalanish ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin.

Masalan, anketa so'rovnomasida ijtimoiy faollik va ijobiy kechinmalar darajasining ko'pchilik sinaluvchilarda quyi yoki o'rta darajada ekani aniqlangan. Bu esa talabalar real ijtimoiy muhitda yetarli darajada faol bo'lmagan holatlarda virtual muhitga ko'proq murojaat qilish ehtimolini oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, **ta'limga qiziqish darajasining o'rta ko'rsatkichlarda bo'lishi** ham talabalarning bo'sh vaqtini internet muhitida o'tkazish tendensiyasini kuchaytirishi mumkin.

Kimberli Yangning «Interentga munosabatni o'rganish" (V.A.Burova tomonidan moslashtirilgan) metodikasi metodikasi talabalar orasida internetga qaramlik darajasini aniqlash imkonini bersa, anketa so'rovnomasi esa ushbu jarayonni yuzaga keltiruvchi **ijtimoiy-psixologik omillarni** aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur natijalar asosida virtual addiksiyaga qarshi psixokorreksion trening dasturini ishlab chiqish va uni ta'lim muassasalarida amaliyotga joriy etish ilmiy jihatdan asoslanganligi tasdiqlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

tadqiqot jarayonida o'rganilayotgan hodisani nazariy tahlil qilish natijalari asosida "Virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlik shakllanishi omillari" nomli mualliflik so'rovnomasi ishlab chiqildi;

talabalarda virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlik hamda ularni rivojlantirish usullarini takomillashtirish orqali virtual addiksiyaga sabab bo'luvchi psixologik omillar va virtual addiksiyaga nisbatan barqarorlikni shakllantirishda yuzaga keladigan o'zgarishlar aniqlandi;

nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida yuzaga keladigan internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi omillar va uni bartaraf yetish usullarini takomillashtirish bo'yicha psixodiagnostik tadqiqot natijalari hamda psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan va faoliyatda qo'llash uchun tavsiya etildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar orasida internetdan foydalanish darajasi asosan o'rta ko'rsatkichlar doirasida namoyon bo'ladi. Biroq ijtimoiy faollik, maqsadning anglanganligi, ijobiy emotsional holat va ta'limga qiziqish darajasining pastligi internet muhitidan kompensator vosita sifatida foydalanish ehtimolini oshirishi mumkin. Shu sababli virtual addiksiyaning oldini olishda nafaqat internetdan foydalanish darajasini nazorat qilish, balki talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ta'lim motivatsiyasini kuchaytirish va psixologik barqarorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. O‘zbekistonda AKT rivojlanishi bo‘yicha statistik hisobot. – // Xabar.uz. – 2023. – URL: https://xabar.uz.

2. Войскунский А.Е. Актуальные проблемы зависимости от Интернета // Психологический журнал. – 2004. – Т. 25. – No 1. – С. 90–100.

3. Юрьева Л.Н., Больбот Т.Ю. Компьютерная зависимость: формирование, диагностика, коррекция и профилактика. – Днепропетровск: Пороги, 2006.

4. Griffiths M.D. Biopsixososial kontekstda giyohvandlikning "komponentlar" modeli // Modda ishlatish jurnali. – 2005. – 10-jild. – No 4. – 191–197-betlar.

5. Goldberg I. Internetga qaramlik buzilishi // CyberPsychology and Behavior. – 1996.

6. Kemp S. Digital 2023: Global Umumiy Hisobot // DataReportal. – 2023. – Quyidagi manzilda mavjud: https://datareportal.com

UDK:37.02:37.091.3

Mengliqulova Maftuna Abdullayevna,
Termiz davlat pedagogika instituti
"Pedagogika" kafedrasi tayanch doktoranti

YANGI MILLIY TA'LIM DASTURINI JORIY ETISHDA METODIK VA DIDAKTIK TA'MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yangi milliy ta'lim dasturini joriy etish jarayonida metodik va didaktik ta'minotni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, raqamli didaktik vositalar hamda yangi avlod darsliklarining ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Maqolada milliy ta'lim dasturining metodik asoslarini kuchaytirish orqali ta'lim sifati va pedagogik samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy ta'lim dasturi, didaktika, metodik ta'minot, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika, raqamli ta'lim, interfaol metodlar, yangi avlod darsliklari, pedagogik texnologiya.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОГО И ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИ ВНЕДРЕНИИ НОВОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ

Аннотация. В данной статье анализируются научно-педагогические основы совершенствования методического и дидактического обеспечения в процессе внедрения новой национальной образовательной программы в Узбекистане. Также освещается влияние современных педагогических технологий, компетентностного подхода, интерактивных методов, цифровых дидактических средств и учебников нового поколения на эффективность образовательного процесса. В статье разработаны научные предложения по повышению качества образования и педагогической эффективности посредством усиления методических основ национальной образовательной программы.

Ключевые слова: национальная образовательная программа, дидактика, методическое обеспечение, компетентностный подход, инновационная педагогика, цифровое образование, интерактивные методы, учебники нового поколения, педагогическая технология.

ISSUES OF IMPROVING METHODOLOGICAL AND DIDACTIC SUPPORT IN THE IMPLEMENTATION OF THE NEW NATIONAL EDUCATIONAL PROGRAM

Abstract. This article analyzes the scientific and pedagogical foundations for improving methodological and didactic support in the process of implementing the new national educational program in Uzbekistan. It also highlights the impact of modern pedagogical technologies, a competency-based approach, interactive methods, digital didactic tools, and new-generation textbooks on the effectiveness of the educational process. The article develops scientific proposals aimed at improving the quality of education and pedagogical efficiency through strengthening the methodological foundations of the national educational program.

Keywords: national educational program, didactics, methodological support, competency-based approach, innovative pedagogy, digital education, interactive methods, new-generation textbooks, pedagogical technology.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat taraqqiyotining strategik omiliga aylandi. O'zbekistonda ham ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, yangi milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ta'lim islohotlari natijasida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi o'quv dasturlari, zamonaviy darsliklar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilga kelib umumiy o'rta ta'lim maktablarining 80 foizdan ortig'ida milliy o'quv dasturining elementlari bosqichma-bosqich joriy etilgan. Shu bilan birga, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, didaktik vositalar sifati va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasida muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa metodik va didaktik ta'minotni takomillashtirishni ilmiy jihatdan tadqiq etishni talab qiladi.

Milliy o'quv dasturi ta'limning mazmuni, metodologiyasi va baholash tizimini yangicha asosda tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim me'yoriy hujjat hisoblanadi. Jahonda taraqqiyotni ta'minlovchi sohalarni rivojlantirish, ularning barqaror o'sib borish dinamikasini ta'minlashda tizimli tahlildan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasi ham mamlakatni rivojlanish tendensiyalarini belgilab beruvchi yo'nalishlardan biri bo'lganligi bois, ta'limni tubdan modernizatsiya qilish, o'qitish metodikasini zamonaviy ta'lim sharoitlari talablariga mos ravishda yangilash, pedagog mutaxassislarni tayyorlashga asoslangan oliy ta'lim tizimini ta'limning barcha bosqichlari bilan o'zaro integrativ yondashuv asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashda tizimli tahlilning nazariy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va pedagogik jarayonning yaxlit tizim sifatidagi innovatsion imkoniyatlarini kengaytirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimiz pedagogik jarayonlarni tizimli tahlil qilish, ta'lim istiqbollarini belgilashning konseptual asoslari M.Tojiyev, Z.Muxammadov, R.Samarov, T.Alimardonov, S.Jo'rayev, G.Gregoriy, S.Turg'unov, B.Xodjayev, A.Choriyev, Z.Saliyeva, D.Yunusova, M.Keldiyorova, A.Abdullayev, V.Karimova, G.G'afurova, Sh.Turdiyev, N.Muslimov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Didaktik ta'minot ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy

shakllarining yagona tizimini anglatadi. Metodik ta'minot esa pedagogning o'quv jarayonini samarali tashkil etishiga xizmat qiluvchi uslubiy vositalar majmuasidir.

Pedagog olimlar O.Roziqov, B.Adizov, M.Maxmudova didaktikani "ta'limning nazariy va amaliy asoslarini o'rganuvchi fan" sifatida talqin etadi. Zamonaviy pedagogik qarashlarga ko'ra, metodik ta'minot quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

o'quv dasturi;
darslik va metodik qo'llanmalar;
elektron ta'lim resurslari;
baholash mezonlari;
interfaol metodlar;
raqamli texnologiyalar.[2]

A.V. Usova ilmiy konsepsiyasida fanlararo integratsiya va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish didaktik samaradorlikning asosiy omili sifatida izohlanadi.[4] O. Markova esa metodik tizimning asosiy tarkibiy qismlariga maqsad, mazmun, texnologiya va pedagogik vositalarni kiritadi hamda raqamli texnologiyalar metodik tizim samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi.[5] Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, V.P. Bespalko, J. Dewey, B. Blum, N. Muslimov, Sh. Qurbonov kabi olimlarning ilmiy qarashlarida kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Amerikalik pedagog J. Dewey ta'limning amaliy faoliyat bilan uyg'unligini asoslab bergan bo'lsa, B. Blum o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan taksonomiyani ishlab chiqqan. Ushbu ilmiy qarashlar bugungi kunda O'zbekistonda joriy etilayotgan milliy o'quv dasturlarida ham o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan N. Muslimov zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalarini chuqur tahlil qilgan. Olimning fikricha, innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Shuningdek, Sh. Qurbonov va boshqa tadqiqotchilar xalq ta'limi tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish hamda o'qituvchi kompetentligini rivojlantirish masalalarini ilmiy asoslab bergan. Ta'lim eksperti Komil Jalilov fikriga ko'ra, milliy o'quv dasturining asosiy maqsadi o'quvchilarda faqat nazariy bilim emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Olimning ta'kidlashicha, zamonaviy ta'lim tizimi yodlashga asoslangan usullardan voz kechib, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

Komil Jalilov milliy o'quv dasturlarini ishlab chiqishda xalqaro baholash mezonlari, xususan PISA va TIMSS tadqiqotlari natijalariga tayangan holda ta'lim sifatini oshirish zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, ta'lim tizimida o'quvchining iste'dodi va individual qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.[3]

Mazkur ilmiy yondashuvlar "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur" mazmuni bilan uyg'un bo'lib, ta'lim tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134-son Farmoni xalq ta'limi tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan muhim strategik hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, yangi avlod darsliklarini yaratish hamda o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.[1]

Mazkur qarorning qabul qilinishi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida inson kapitaliga qaratilgan e'tiborning amaliy ifodasi sifatida baholanadi. Chunki bugungi kunda jamiyatning innovatsion rivojlanishi ta'lim sifatiga, zamonaviy metodlarning qo'llanishiga va malakali pedagog kadrlar faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri Milliy o'quv dasturining amaliyotga joriy etilishidir. Avvalgi ta'lim tizimida o'quvchilar ko'proq nazariy bilimlarni yodlashga yo'naltirilgan bo'lsa, yangi dastur kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqildi. Yangi dastur quyidagi imkoniyatlarni yaratdi:

o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
amaliy bilimlarni shakllantirish;
kreativ va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
fanlararo integratsiyani kuchaytirish;
xalqaro baholash dasturlariga moslashish.

Shuningdek, yangi avlod darsliklari va multimedia resurslarining yaratilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Yangi milliy ta'lim dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lib, o'quvchining mustaqil fikrlashi, kreativligi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazkur tadqiqotda pedagogik hodisalarni o'rganishning nazariy va empirik metodlaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, yangi milliy ta'lim dasturining amaliyotga joriy etilish holatini o'rganish maqsadida pedagoglarning metodik faoliyati va ta'lim jarayonida foydalanilayotgan didaktik vositalar bo'yicha mavjud monitoring materiallari tahlil qilindi.

Milliy ta'lim dasturini amaliyotga joriy etish jarayonida quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

o'qituvchilarning metodik kompetensiyasi yetarli emasligi;
ayrim hududlarda raqamli didaktik vositalarning kamligi;
interfaol metodlardan foydalanish darajasining pastligi;
baholash tizimining bir xil emasligi;
metodik qo'llanmalarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil yakunlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlari asosida Respublika ta'lim markazi monitoring ma'lumotlari natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning qariyb 42 foizi yangi

dastur asosida kompetensiyaviy dars tashkil etishda qiyinchilikka duch kelgan. Bu esa metodik xizmat tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Metodik qo‘llanmalar va blended learning texnologiyalari ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Yangi avlod darsliklari va milliy dastur o‘quvchilarda kommunikativlik, kollaboratsiya hamda kreativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Hozirgi ta’lim tizimida quyidagi didaktik vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Elektron ta’lim platformalari

Raqamli platformalar o‘quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

2. Interfaol metodlar

“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Case-study”, “Debat”, “STEAM” texnologiyalari o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatib berilgan.

3. Kompetensiyaviy baholash

An’anaviy test tizimidan kompetensiyani aniqlovchi topshiriqlarga o‘tish o‘quvchining amaliy tayyorgarligini baholash imkonini beradi.

4. Multimedia vositalari

Animatsiyalar, virtual laboratoriyalar va video darslar murakkab mavzularni oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, metodik ta’minot sifati ta’lim samaradorligining asosiy mezoni hisoblanadi. Ushbu davlatlarda:

o‘qituvchilar muntazam metodik treninglardan o‘tadi;

elektron didaktik resurslar keng qo‘llaniladi;

baholash kompetensiyaga asoslanadi;

darsliklar muntazam yangilanadi.

O‘zbekistonda ham milliy modelni xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, STEAM va blended learning texnologiyalarini joriy etish samarali natija bermoqda. Tadqiqot natijasida yangi milliy ta’lim dasturini joriy etish sharoitida metodik va didaktik ta’minotni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlandi. Metodik xizmat tizimini raqamlashtirish, kompetensiyaviy baholash mezonlarini takomillashtirish hamda elektron didaktik resurslardan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, milliy ta’lim modelini xalqaro baholash dasturlari talablari bilan integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari asoslab berildi. Shu o‘rinda Singapur ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilib, har bir pedagog yil davomida kamida 100 soat malaka oshirish kurslarida ishtirok etadi. Finlyandiyada esa o‘quv dasturlarining moslashuvchanligi hamda formatif baholash tizimi ta’lim sifatini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Janubiy Koreyada raqamli ta’lim resurslari va sun’iy

intellekt asosidagi o‘quv platformalaridan keng foydalanish natijasida ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshgan.

Mazkur tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, yangi avlod darsliklari asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning mustaqil ishlash faolligi 30–35 foizga oshgan. Shuningdek, PISA va TIMSS talablariga mos topshiriqlarning joriy etilishi o‘quvchilarning analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirmoqda. Yangi avlod darsliklari va milliy dastur o‘quvchilarda kommunikativlik, kollaboratsiya hamda kreativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Xalqaro baholash taqqoslashlarida yutuqlarni yaxshilash bo‘yicha milliy kun tartibini hisobga olgan holda (masalan, PISA /TIMSS va boshqalar), yutuqlar va taraqqiyot darajasi sezilarli darajada yaxshilanishi muhimdir. Taklif etilayotgan MO‘D standartlari akademik ko‘rsatkichlarni barcha fan sohalari bo‘yicha avvalgi standartlarga qaraganda ancha yuqori darajada ushlab turadi va dunyoning yetakchi ta'lim tizimlariga mos keladi. MO‘D yuqori ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlagan Singapur kontekstiga katta e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijalari yangi milliy ta’lim dasturini samarali joriy etishda metodik va didaktik ta’minot hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi. Kompetensiyaviy yondashuv, interfaol ta’lim texnologiyalari, raqamli didaktik vositalar hamda takomillashtirilgan baholash tizimi o‘quvchilarning funksional savodxonligi va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagoglarning metodik kompetentligini muntazam rivojlantirish, elektron ta’lim resurslarini kengaytirish, xalqaro baholash dasturlari talablariga mos topshiriqlar bazasini yaratish hamda metodik xizmat faoliyatini modernizatsiya qilish zarur. Ushbu chora-tadbirlar milliy ta’lim dasturining samarali joriy etilishi va ta’lim sifatining xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.qilib aytganda yangi milliy ta’lim dasturini muvaffaqiyatli joriy etish metodik va didaktik ta’minotning sifatiga bevosita bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, elektron didaktik vositalar va kompetensiyaviy baholash tizimi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini muntazam oshirish;
raqamli didaktik platformalarni keng joriy etish;
yangi avlod metodik qo‘llanmalarini ishlab chiqish;
xalqaro baholash mezonlariga mos topshiriqlar bazasini yaratish;
metodik xizmat tizimini modernizatsiya qilish.

Mazkur chora-tadbirlar milliy ta’lim dasturining samarali joriy etilishi hamda ta’lim sifatining xalqaro darajaga chiqishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.
2. Adizov, B., Roziqov, O., & Maxmudova, M. (1997). Didaktika. Toshkent: Fan.
3. Jalilov, K. (2021). Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

4. Usova, A. V. (2018). Theory and practice of concept formation in physics education. Moscow: Pedagogika.

5. Markova, O. (2018). Methodical system and learning objectives of mathematical informatics in technical universities. Information Technologies and Learning Tools, 64(2), 45–56.

6. Jamalova, K. S. (2023). 1-2-sinflarda milliy o‘quv dasturi asosida tuzilgan yangi avlod darsliklari asosida darslarni tashkil etish. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 120–126.

7. Olimova, M. S. (2023). Zamonaviy ta’limda interaktiv metodlardan foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 383–386.

8. Shodiyeva, M. J. (2023). Milliy dastur va yangi avlod darsliklari asosida o‘quvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, 3(7), 55–63.

9. To‘raqulov, A. R., & Esanova, M. A. (2023). Milliy o‘quv dasturi va xalqaro baholash dasturi: yangi darsliklarni ishlab chiqishda ilg‘or xorijiy tajribaning ahamiyati. International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory, 1(2), 45–51.

10. Tursunov, A. Y. (2026). Milliy tarbiya asoslari fanini o‘qitishning didaktik imkoniyatlari. Fergana Methodical School, 1(1), 25–31.

11. Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi. (2025). Metodik qo‘llanmalar to‘plami.

UDK: 159.91:612.82:378.14

Boydavlatov Azamat Ahamdali o'g'li,
Namangan davlat pedagogika instituti "Kreativ pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

NEYROPLASTIKLIK VA UNING BO'LAJAK MUTAXASSISLAR O'ZLASHTIRISH DARAJASINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada neyroplastiklik tushunchasi va uning oliy ta'lim tizimidagi bo'lajak mutaxassislar o'zlashtirish darajasiga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada neyroplastiklikning biologik mexanizmlari, kognitiv jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi shuningdek, ta'lim jarayonida miya plastikligi prinsiplarini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalarida neyroplastiklikga asoslangan integrativ namunaviy o'qitish modeli taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: neyroplastiklik, sinaptik aloqalar, miya, nevrologiya, plastiklik, neyronlar, o'zlashtirish darajasi, kognitiv rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv.

НЕЙРОПЛАСТИЧНОСТЬ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ УРОВНЯ ОСВОЕНИЯ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация. В данной статье проанализировано понятие нейропластичности и её влияние на уровень усвоения знаний будущими специалистами в системе высшего образования. В работе рассмотрены биологические механизмы нейропластичности, её взаимосвязь с когнитивными процессами, а также теоретические и практические аспекты применения принципов пластичности мозга в образовательном процессе. По результатам исследования представлена интегративная модель обучения, основанная на принципах нейропластичности.

Ключевые слова: нейропластичность, синаптические связи, мозг, неврология, пластичность, нейроны, уровень усвоения, когнитивное развитие, компетентностный подход.

NEUROPLASTICITY AND ITS IMPACT ON DEVELOPING THE MASTERY LEVEL OF FUTURE SPECIALISTS

Abstract. This article analyzes the concept of neuroplasticity and its impact on the level of knowledge acquisition of future specialists in the higher education system. The paper examines the biological mechanisms of neuroplasticity, its interrelation with cognitive processes, as well as the theoretical and practical aspects of applying the principles of brain plasticity in the educational process. Based on the research findings, an integrative model of instruction grounded in neuroplasticity principles is presented.

Keywords: neuroplasticity, synaptic connections, brain, neurology, plasticity, neurons, level of mastery, cognitive development, competency-based approach.

Ta'lim jarayonida talabalar individual o'rganish qobiliyatlari va miya funksiyalarini hisobga olish pedagogik samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda sohada olib borilayotgan izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, neyroplastiklik tushunchasi, ya'ni miya nerv tizimining tajriba va o'rganish natijasida moslashish qobiliyatini faollashtirish, ta'lim jarayonini yanada optimallashtirish imkoniyatlarini beradi. Neyroplastiklikni hisobga olgan pedagogik yondashuvlar talabalar o'rganish jarayonidagi faollikni oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi va individual o'quv strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu tadqiqotimiz orqali neyroplastiklik tushunchasi haqida batafsil ma'lumot berishni maqsad qildikki, bu ham bo'lsa shiddat ila o'zgarayotgan ta'lim muhitida o'quvchilar o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir etish yo'llarining yangi innovatsion yechimlarini ishlab chiqishga bo'lgan harakatimizning tarkibiy qismi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi neyroplastiklik tushunchasini keng masshtabda yoritib berish hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash. Neyroplastiklikning nazariy asoslarini tahlil qilish va neyronlar o'rtasidagi sinaptik aloqalarni faollashtirish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etish orqali ta'lim jarayonida samaradorlik ko'rsatkichini oshirishga erishish masalalarini tadqiqotimiz maqsadini amalga oshirish uchun asosiy vazifalar sifatida belgilab oldik.

Mazkur empirik ma'lumotlar pedagoglar uchun dars jarayonida o'quvchilar miya imkoniyatlariga mos bo'lgan konstruktiv faoliyatni tashkil etishida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Neyroplastiklik kontseptsiyasi psixologik tadqiqotlarda ancha avval yuzaga kelgan bo'lsada, uning tadqiqoti nevrologiya va pedagogika fanlarida ham markaziy o'ringa ega. Dastlab, Amerikalik faylasuf va psixolog Uilyam Jeyms o'zining 1890-yillarda yozilgan "*Principles of Psychology*" (Psixologiya tamoyillari) asarida neyroplastiklik nazariyasini birinchi bo'lib ilgari surgan. U inson miyasi doimiy funksional o'zgarishlarga qodir ekanligini taklif qilgan [1]. Polshalik neyrofiziolog olim Jerj Konorski 1948-yilda neyroplastiklik atamasini birinchi bo'lib ilmiy ta'riflab, neyronlar strukturasining faol neyron tarmoqlariga yaqinlashganda o'zaro bog'lanishi va qayta tashkil etilishi mumkinligini ko'rsatgan. Bu nazariya sinaptik o'zgarishlar hamda o'rganish mexanizmlarini tushuntirishda muhim rol o'ynagan [2]. Kanadalik psixolog Donald Hebb esa miyada sinaptik plastiklikka asoslangan o'rganish prinsipini ilgari surgan. "Hebb qoidasi" (The Hebb rule)ni, shuningdek, pre-post moslik qoidasi deb ataladigan prinsipni ishlab chiqdi. Bu qoida shuni bildiradiki, bir neyronning biokimyoviy jarayonlaridagi o'zgarishlar, bir vaqtning o'zida faollashgan qo'shni sinapslarni ham stimulyatsiya qilishi mumkin; bu esa sinaptik plastiklikning asosiy tamoyilidir [3]. Paul Bakh-i-Rita neyroplastiklikni klinik amaliyotda qo'llagan birinchi ilmiy tadqiqotchi bo'lib, sensor almashtirish (sensory substitution) orqali miyaning adaptatsiyasini tasdiqlagan. U yaratilgan qurilma yordamida vestibulyar tizim shikastlangan bemorlarda muvozanatni

tiklashni ko‘rsatdi, shuningdek, ko‘rlik holatida boshqa sezgi vositalaridan foydalangan holda vizual ma’lumotni qayta ishlash mumkinligini namoyish etdi [5]. Daniyaning Alborg Universiteti neyrofanlar bo‘yicha olimi P.Gazerani neyroplastiklik bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishida miya neyroplastikligini molekulyar, struktural va funksional darajalarda qayta tashkil etish orqali o‘rganadi va adaptiv hamda maladaptiv jarayonlarni tahlil qiladi. Shuningdek, zamonaviy terapiya yondashuvlari va neyrotexnologiyalar (BCI, neuromodulyatsiya) bilan bog‘liq klinik imkoniyatlarni ko‘rib chiqadi [6]. Germaniyada joylashgan kognitiv neyroilmlar shug‘ullanuvchi “The Max Planck Institute for Human Cognitive and Brain Sciences” instituti direktori Arno Vilringer o‘z tadqiqotlarida neyroplastiklik va neyrokognitiv jarayonlarni neuroimaging usullari bilan o‘rganishni amalga oshirgan. Shuningdek, u funksional MRI, EEG va boshqa neyroximiyaviy metodlar orqali miya plastisiteti va bosh miya faoliyatini o‘zaro bog‘lashni tadqiq etadi [7]. O‘rta Osiyolik olimlardan S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog‘iston milliy tibbiyot universiteti professori K.Tajibayeva ham o‘z tadqiqot ishida neyroplastiklikni mohiyati, mexanizmlari, o‘rganish va moslashuvdagi roli haqida qisqacha to‘xtalib o‘tgan [8].

Adabiyotlar tahlili natijasida xulosa qilish mumkinki, tadqiqotchilar o‘z izlanishlarida neyroplastiklikning molekulyar, tizimli va funksional mexanizmlarini bir nechta asosiy jihatlar orqali tavsiflab bergan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ongli mashq, jismoniy faollik va ijtimoiy-interaktiv faoliyatlar neyron tarmoqlarini mustahkamlash va yangi bog‘lanishlar hosil qilish orqali miya funksiyasini yaxshilaydi. Shu bilan neyroplastiklik nafaqat shikastlanishdan tiklanishga yordam beradi, balki insonning kognitiv, emosional va ijtimoiy salohiyatini kengaytirishga imkon yaratadi.

Keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etilayotgan ushbu tadqiqot ishi davomida mavzuga oid adabiyotlar, bir qator xorij olimlarning ilmiy maqolalarini nazariy tahlili, umumlashtirish, qiyosiy-pedagogik tahlil kabi ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Foydalanilgan metodlar va yondashuv kombinatsiyasi maqolaga ilmiy asos va aniqlik beradi, shuningdek, ishning nazariy va amaliy ahamiyatini batafsil tahlil qilish imkonini yaratadi.

Neyroplastiklik tushunchasini anglashdan avval **“plastiklik”** atamasining mazmunini aniqlab olish zarur. Plastiklik — bu har qanday tuzilmaning tashqi ta’sirlar ta’sirida o‘zgarishga qodir bo‘lishi bilan birga, bir vaqtning o‘zida darhol deformatsiyaga uchramaslik uchun yetarli darajada barqaror bo‘lish xususiyatidir [9]. Shuningdek, inson miyasidagi nerv to‘qimalari juda yuqori darajadagi plastiklik salohiyatiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy neyropsixologiya nuqtai nazaridan miya statik organ emas, balki doimiy ravishda o‘zgaruvchan dinamik tuzilmadir. Neyroplastiklik yoki miya plastiklik — bu asab tizimining ichki yoki tashqi stimullarga javoban o‘z tuzilmasini, funksiyalarini yoki neyronlararo bog‘lanishlarini qayta tashkil etish orqali o‘z faoliyatini o‘zgartirish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Oddiyroq qilib aytganda, miya strukturasining yangi tajriba va ma’lumotlarni qabul qilishga moslashish qobiliyatidir. Bu jarayonda neyronlar o‘rtasidagi sinaptik aloqalar kuchayib boradi, yangi tarmoq va aloqalar shakllanadi.

Neyronlarning asosiy xususiyatlaridan biri sinaptik uzatishning kuchi va samaradorligini faoliyatga bog‘liq bo‘lgan turli mexanizmlar orqali o‘zgartira olish qobiliyatidir; bu jarayon odatda **sinaptik plastiklik** deb ataladi [10]. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar miya rivojlanishi va xulq-atvor asosan genetik asosga tayangan holda, shuningdek, turli tajribalar va ularning rivojlanayotgan miyaga ta’siri orqali shakllanishini ko‘rsatmoqda [11]. Hatto prenatal, ya’ni tug‘ilishdan oldingi davrda yuz beradigan omillar ham neyronlararo bog‘lanishlarning modifikatsiyasiga ta’sir etishi mumkin.

Miyada axborot neyronlardan neyronlarga **sinapslar** deb ataluvchi maxsus bog‘lanishlar orqali uzatiladi. Ikki neyron orasidagi sinaps presinaptik va postsinaptik uchlardan tashkil topgan bo‘lib, ular orasida **sinaptik bo‘shliq** joylashgan. Neyronlar axborotni hujayra tanasida boshlanib, akson bo‘ylab tarqaladigan **harakat potensiali** deb ataluvchi elektr impuls shaklida uzatadi. **Sinaps** (yun. Synapsis – ulashish, tutashish) – nerv hujayralari (neyronlar)ning o‘zaro va ijrochi organlari hujayralari bilan tutashgan joyidir. Sinaps signallarni impulslarga aylantiradi va uzatadi. Sinapslar yordamida neyronlar bir-biri bilan bog‘lanadi. Natijada nerv sistemasining aktivligi va bosh miyaning integrativ faoliyati kuchayadi. S.N.Kostromina neyronlar orasidagi sinaptik aloqalarni mustahkamlovchi jismoniy faoliyat, ichki va tashqi ogohlantirishlar zarurligiga e’tibor qaratadi [12].

Strukturaviy neyroplastiklik miyaning anatomik o‘zgarishlarini (masalan, kulrang modda zichligining ortishi) anglatsa, funksional neyroplastiklik shikastlangan yoki yuklama tushayotgan sohalar vazifasini boshqa neyron guruhlari o‘z zimmasiga olishini anglatadi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasi bilimlarni mexanik yodlashdan, kompetensiyalarni shakllantirishga o‘tishni talab qilmoqda. Har bir kompetensiya kompleks neyron tarmoqlarining integratsiyasini talab qiladi. Masalan, muammoli vaziyatlarni yechish uchun quyidagilar kerak:


- Prefrontal korteks – rejalashtirish va qaror qabul qilish
- Temporal va parietal kortekslar – bilimlarni integratsiya qilish
- Limbik tizim – hissiy baholash va motivatsiyaga javobgar
- Motor korteks – harakatlarni amalga oshirish

Kompetensiyaviy yondashuv neyroplastiklik uchun ideal sharoit yaratadi, chunki u bilimlarni turli kontekstlarda qo‘llashni va bir nechta kognitiv tizimlarning sinergik faoliyatini talab etadi.

Bo‘lajak mutaxasisslar o‘zlashtirishining pedagogik-psixologik xususiyatlariga e’tibor qaratarkanmiz, dastlab o‘zlashtirish tushunchasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Pedagogika fanida o‘zlashtirish – bu bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shaxs tomonidan idrok etish, anglash, esda saqlash va amalda qo‘llashning tizimli murakkab jarayonidir. Ilk bor B.S.Bloom tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik Lorin Anderson va hamkasblari tomonidan qayta ko‘rib chiqilgan taksonomiyada o‘zlashtirish darajalarini ierarxik tizimga solib beradi:[13]

Bu bosqichlar o‘quvchining oddiy reproduktiv bilimdan toki murakkab ijodiy tafakkurgacha bo‘lgan kognitiv rivojlanishni ifodalaydi. Bloom taksonomiyasi bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi kognitiv faoliyatni ko‘rsatadi. Neyrodidaktik jihatdan bu jarayon shuni tasdiqlaydiki, har bir yuqori bosqich pastki bosqich asosida shakllanadi. Takroriy va faol o‘qitish neyron aloqalarni mustahkamlaydi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar neyroplastik jarayonlarni faollashtiradi. Shunday qilib, Bloom ierarxiyasi — bu faqat o‘zlashtirish darajalarini algoritmik pedagogik modeli emas, balki miya faoliyatining bosqichma-bosqich murakkablashuvini aks ettiruvchi neyropsixologik model sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, jismoniy yoki aqliy faoliyatda o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni rivojlantirish va takrorlash orqali sinaptik aloqalarni mustahkamlash mumkin. Bizning fikrimizga ko‘ra, takrorlash neyronlar orasidagi sinaps uzatishni tezlashtirib beradi. Bu esa yangi bilimlar va ko‘nikmalarni egallashni osonlashtiradi. Trening va takrorlashda funksional (sinaptik) plastiklik asosida sinapslar mustahkamlanadi.

Ta’lim jarayonini miya plastiklik mexanizmlariga tayangan holda tashkil etish orqali biz bilimlarni o‘zlashtirish, mustahkamlash va ijodiy qo‘llash jarayonlarini neyrofiziologik qonuniyatlar asosida loyihalashga erishishimiz mumkin. Bo‘lajak mutaxassislar uchun quyidagi konseptual modelni taklif etamiz:



Neyroplastiklikka asoslangan o‘qitish modeli — bu ta’lim jarayonini biologik asosga ega tizim sifatida tashkil etishdir. Unda o‘qitish jarayoni oddiy axborot uzatish emas, balki neyron tarmoqlarni shakllantirish va mustahkamlash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Shu sababli mazkur turdagi modellarni yanada mukammal tarzda ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish bo‘lajak mutaxassislarning o‘zlashtirish darajasini rivojlantirishda samarali innovatsion yondashuv sifatida alohida o‘ringa ega hisoblanadi.

Ko‘plab tadqiqotlar turli omillar tufayli miyada yuzaga keladigan struktural yoki funksional o‘zgarishlarni ochib berdi. Biroq, o‘quv jarayonida bo‘lajak Neyroplastiklik kontseptsiyasi ta’lim nazariyasi va amaliyotida paradigmal

o‘zgarishni anglatadi. Miyaning o‘zgaruvchan tabiati va o‘rganish jarayonining neyrofiziologik mexanizmlarini tushunish pedagoglarni ilmiy asoslangan, samarali yondashuvlarni ishlab chiqishlariga turtki hisoblanadi.

Bo‘lajak mutaxassislarning o‘zlashtirish darajasini oshirish – bu nafaqat pedagogik texnologiyalar masalasi, balki miya plastikligini faollashtiruvchi, talabalarning ichki motivatsiyasini rag‘batlantiruvchi va metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi kompleks tizim yaratishni talab qiladi. Ushbu maqolada taqdim etilgan integrativ model shunday yondashuvga kichik bir namuna sifatida xizmat qilishi mumkin.

Neyrologiya, psixologiya va pedagogikaning sinergiyasi yangi imkoniyatlarni ochadi – har bir talabaning unikal kognitiv potensialini maksimal darajada ro‘yobga chiqaradigan, moslashuvchan va ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlaydigan ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish uchun asosiy o‘zak sanaladi. Tadqiqot natijalari shuni asoslaydiki, o‘quv jarayonini neyroplastiklik qonuniyatlariga tayangan holda tashkil etish bo‘lajak mutaxassislarning bilimni chuqur, barqaror va tizimli o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, faol o‘qitish metodlari, muammoli vaziyatlar, refleksiya, interval takrorlash va amaliy qo‘llash jarayonlari sinaptik mustahkamlanishni kuchaytiradi hamda uzoq muddatli xotira shakllanishini ta’minlaydi. Umuman olganda, neyroplastiklikka tayangan holda loyihalashtirilgan ta’lim jarayoni:

- o‘zlashtirish darajasining barqarorligini oshiradi;
- bilimlarning uzoq muddatli saqlanishini ta’minlaydi;
- tanqidiy va kreativ tafakkurni rivojlantiradi;
- kasbiy moslashuvchanlik va mustaqil fikrlashni kuchaytiradi.

Shu bois, oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini neyrodidaktik tamoyillar asosida qayta ko‘rib chiqish, o‘qituvchilarning neyropsixologik kompetentligini oshirish va ta’lim metodlarini neyroplastiklik mexanizmlariga moslashtirish bizning nazarimizda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. James, W. (1890). *The Principles of Psychology*. Holt and Company.
2. Konorski, J. (1948). *Conditioned Reflexes and Neuron Organization*. Cambridge University Press
3. Demarin, V., & Morović, S. (2014). Neuroplasticity. *Periodicum biologorum*, *116*(2), 209-211.
4. Hawkins SL. William James and the “Theatre” of Consciousness. InBrain, Mind and Consciousness in the History of Neuroscience 2014 (pp. 185-206). Springer, Dordrecht
5. Bach-y-Rita, P., Collins, C. C., Saunders, F. A., White, B., & Scadden, L. (1969). Vision substitution by tactile image projection. *Nature*.
6. Gazerani, P. (2025). *The neuroplastic brain: Current breakthroughs and emerging frontiers*. *Brain Research*, 1858, Article 149643. https://doi.org/10.1016/j.brainres.2025.149643

7. Tardif, C. L., Gauthier, C. J., Steele, C. J., Bazin, P. L., Schäfer, A., Schaefer, A., ... & Villringer, A. (2016). Advanced MRI techniques to improve our understanding of experience-induced neuroplasticity. *Neuroimage*, *131*, 55-72.

8. Tazhibayeva K. Neuroplasticity: The brain's remarkable ability to adapt. Integr Neuro Res 2025;8(1):180

9. Mateos-Aparicio P, Rodríguez-Moreno A. The impact of the study of brain plasticity. Frontiers in Cellular Neuroscience. 2019;13:66. Available from: https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fncel.2019.00066/full (last accessed 24.11.2019)

10. Kolb, B., et al. (2013). "Brain plasticity in the developing brain." Prog Brain Res 207: 35-64.

11. Кострома, С.Н. *Введение в нейродидактику. СПб.: С.-Петерб. ун-т, 2019.182 с.*

12. FIELD, N. A. A. N. NEYRODIDAKTIKA YANGI SOHA SIFATIDA.

13. Boydavlatov A. A. "Neyrodidaktika yangi soha sifatida". "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiyuslubiy jurnali, 1-son (2025) ISSN:2992-9008; UDK:37 (139-144)

UDK: 373.5.016:94:159.955

Bolliyev To‘ychibek Ro‘ziqul o‘g‘li,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi o‘qituvchisi

TARIX FANI DARSLARIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada umumta'lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida tarix fanini o‘qitish jarayonida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari tizimli ravishda yoritilgan. Tadqiqotda tanqidiy fikrlashning falsafiy-psixologik va pedagogik mohiyati, uning tarkibiy qismlari, tarix ta'limidagi o‘rni hamda ushbu ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metodlar, vositalar va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan. John Dewey [1], Matthew Lipman [3], Richard Paul [4] va boshqa yetakchi olimlarning nazariyalariga tayanib, tarixiy materiallar asosida o‘quvchilarning analitik, sintez, baholash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini takomillashtirishning samarali yo‘llari asoslangan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, tarix ta'limi, yuqori sinf o‘quvchilari, pedagogik asoslar, kognitiv ko‘nikmalar, tarixiy tafakkur, reflektiv fikrlash, manba tahlili.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТАРШЕКЛАССНИКОВ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

Аннотация. В данной научной статье систематически рассматриваются педагогические основы формирования и развития навыков критического мышления в процессе преподавания истории старшеклассникам средних школ. В исследовании анализируется философская, психологическая и педагогическая сущность критического мышления, его компоненты, его роль в историческом образовании, а также методы, инструменты и педагогические условия, способствующие развитию этих навыков. На основе теорий Джона Дьюи [1], Мэтью Липмана [3], Ричарда Пола [4] и других ведущих ученых представлены эффективные способы совершенствования аналитических, синтетических, оценочных и умозаключительных навыков учащихся на основе исторических материалов.

Ключевые слова: критическое мышление, историческое образование, старшеклассники, педагогические основы, когнитивные навыки, историческое мышление, рефлексивное мышление, анализ источников.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS IN HIGH SCHOOL STUDENTS IN HISTORY LESSONS

Abstract. This research article systematically examines the pedagogical foundations for developing critical thinking skills in the teaching of history to senior secondary school students. The study examines the philosophical, psychological, and pedagogical essence of critical thinking, its components, its role in history education, as well as the methods, tools, and pedagogical conditions that facilitate the development of these skills. Drawing on the theories of John Dewey [1], Matthew Lipman [3], Richard Paul [4], and other leading scholars, it presents effective ways to improve students' analytical, synthetic, evaluative, and inferential skills using historical materials.

Keywords: critical thinking, historical education, high school students, pedagogical foundations, cognitive skills, historical thinking, reflective thinking, source analysis.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida asosiy e'tibor bilimlarni oddiygina o'zlashtirishdan emas, balki o'quvchilarda mustaqil va asosli fikrlash, axborotni tanqidiy qayta ishlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Ayniqsa, axborot oqimi keskin ortgan va turli manipulyatsiyalar keng tarqalgan bugungi globallashuv davrida yosh avlodni tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylangan.

Tanqidiy fikrlashning pedagogik nazariyasiga asos solgan amerikalik faylasuf va pedagog John Dewey (1933) [1] o'zining "Qanday fikrlaymiz" asarida reflektiv fikrlash tushunchasini ilgari surgan. Uning fikricha, haqiqiy ta'lim jarayoni o'quvchini passiv bilim qabul qiluvchidan faol va tanqidiy fikrlovchi subyektga aylantirishi kerak [1]. Keyingi tadqiqotlarda Facione (1990) [2] tanqidiy fikrlashni "maqsadli, o'z-o'zini boshqaradigan hukm chiqarish jarayoni" deb ta'riflab, uning oltita asosiy komponentini – tahlil, baholash, xulosa chiqarish, izohlash, o'z-o'zini nazorat qilish va tushuntirishni ajratgan [2].

Tarix fani esa o'zining tabiatiga ko'ra o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda keng imkoniyatlarga ega. Tarixiy voqealar, jarayonlar va shaxslarni o'rganish bir qarashli yondashuvni emas, balki ko'p qirrali tahlil, manbalarni qiyoslash, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va turli nuqtai nazarlarni baholashni talab qiladi. Lipman (2003) [3] ta'kidlaganidek, "tarixni o'qitish orqali o'quvchilar o'tmishdagi qarorlarning murakkabligini, muqobil imkoniyatlarni va har bir qarorning o'z davri sharoitlari bilan bog'liqligini tushunishga o'rganadilar" [3].

Ushbu maqolaning maqsadi – tarix fanini o'qitish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini nazariy jihatdan asoslash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlarini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tanqidiy fikrlash (ingl. *critical thinking*) – bu axborotni faol, tizimli va maqsadli qayta ishlash jarayoni bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- ma’lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish;
- dalillarni baholash va ularning ishonchliligini tekshirish;
- muqobil nuqtai nazarlarni aniqlash va solishtirish;
- mantiqiy xulosalar chiqarish;
- o‘z pozitsiyasini asosli dalillar bilan himoya qilish [4].

Paul va Elder (2006) [4] tomonidan ishlab chiqilgan “tanqidiy fikrlashning intellektual standartlari” tizimiga ko‘ra, har qanday fikrlash jarayoni aniqlik, to‘g‘rilik, dolzarblik, chuqurlik, keng qamrovlilik, mantiqiylik va ahamiyatlilik kabi mezonlar asosida baholanishi kerak [4]. Ushbu standartlar tarix ta’limida, ayniqsa, tarixiy manbalarni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogikada tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari odatda yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Benjamin Bloom taksonomiyasining (1956) eng yuqori pog‘onalari – tahlil, sintez va baholash aynan tanqidiy fikrlashning asosiy elementlariga mos keladi. O‘quvchilar tarixiy materialni o‘zlashtirish jarayonida faktlarni eslab qolish va tushunishdan asta-sekin tahlil qilish, solishtirish, baholash va ijodiy qayta ishlash darajalariga ko‘tariladilar [6].

L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi va tanqidiy fikrlash.

Lev Vygotskiyning (1982) [7] madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, yuqori psixik funksiyalar (shu jumladan, tanqidiy fikrlash) ijtimoiy o‘zaro ta’sir va madaniy vositalar (til, belgilar, matnlar) yordamida shakllanadi [7]. “Proksimal rivojlanish zonasi” tushunchasi o‘quvchilarning mustaqil ravishda hal qila olmaydigan, biroq o‘qituvchi yoki tengdoshlar yordami bilan uddalay oladigan masalalarni o‘z ichiga oladi. Tarix darslarida murakkab tarixiy manbalarni tahlil qilish yoki bahsli masalalarni muhokama qilish aynan shu zona doirasida amalga oshirilishi mumkin [7]. Vygotskiy nazariyasiga tayangan holda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati (guruhli muhokamalar, “adolatli sud” o‘yinlari) alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarix fanining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi imkoniyatlari quyidagi jihatlardan iborat:

1. Tarixiy manbalar bilan ishlash. Turli xarakterdagi (yozma, moddiy, og‘zaki, vizual) manbalarni tahlil qilish, ularning kelib chiqishi, muallifining maqsadi, yaratilgan davr sharoiti, ishonchliligi va xolisligini baholash. Facione (1990) [2] ta’kidlaganidek, “baholash ko‘nikmasi tanqidiy fikrlashning markaziy elementidir” [2]. O‘quvchi bir xil tarixiy voqea haqidagi ikki xil manbani taqqoslab, ulardan qaysi biri ishonchliroq ekanini asoslashi kerak.

2. Ko‘p qirrali yondashuv. Bir tarixiy hodisani turli nuqtai nazarlardan – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, geosiyosiy – ko‘rib chiqish. Paul va Elder (2006) [4] bu yondashuvni “intelektual qoblilik” deb ataydilar – ya’ni o‘z nuqtai nazaridan tashqariga chiqib, boshqa fikrlarni ham tushunish va baholay olish qobiliyati [4].

3. Sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash. Tarixiy jarayonlarning zanjirsimon, ko‘pincha ko‘p omilli bog‘lanishlarini tushunish. Dewey (1933) [1] reflektiv fikrlashning eng muhim belgilaridan biri aynan sabab-natija munosabatlarini tizimli ravishda aniqlash deb hisoblagan [1].

4. Qiyosiy tahlil. Turli davrlar, mintaqalar, sivilizatsiyalar va tarixiy shaxslar faoliyatini solishtirish. Qiyoslash orqali o‘quvchilar umumiy va xususiy xususiyatlarni, takrorlanuvchi qonuniyatlar va noyob hodisalarni farqlay oladilar.

5. Bahsli masalalarni muhokama qilish. Turli tarixshunoslik maktablari, konseptsiyalari va metodologik yondashuvlarini o‘rganish. Lipman (2003) [3] “falsafiy hikoya” (philosophical novel) metodini taklif qilib, o‘quvchilarni turli qarashlarga ega tarixiy shaxslar o‘rtasidagi dialogga jalb etishni tavsiya qiladi [3].

Zamonaviy ta’lim amaliyotida tarix darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik metodlar eng samarali hisoblanadi:

1. “Klaster” (g‘oyalar to‘plami) metodi - o‘quvchilar markaziy tushuncha yoki masala atrofida bog‘liq tushuncha, fakt va fikrlarni grafik shaklda joylashtiradilar. Masalan, “Fransuz inqilobining sabablari” mavzusida o‘quvchilar iqtisodiy (soliq tizimi inqirozi), ijtimoiy (tabaqalar ziddiyati), siyosiy (mutlaq monarxiyaning zaifligi) va g‘oyaviy (ma’rifatparvarlik g‘oyalari) omillarni mustaqil ravishda aniqlaydilar. Qo‘ysinov (2018) [5] ta’kidlaganidek, “klaster metodi o‘quvchilarda murakkab hodisalarni turli jihatlardan ko‘rish va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi” [5].

2. “Baliq skeleti” (Fishbone) metodi - muammoni tizimli tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. O‘quvchilar muammo (bosh), sabablar (yuqori suyaklar), faktlar yoki dalillar (pastki suyaklar) va umumiy xulosa (dum)ni aniqlaydilar. Tarix darsida misol: muammo – “Birinchi jahon urushining kelib chiqishi”; sabablar – “harbiy bloklarning shakllanishi”, “millatchilikning kuchayishi”, “mustamlakalar uchun kurash”; faktlar – “Saragyevo suiqasdi”, “mobilizatsiya rejalari”; xulosa – “urush ko‘p omilli sabablarga ko‘ra yuz bergan”.

3. “Olti shlyapa” metodi (E. de Bono). - olti xil fikrlash uslubini o‘z ichiga oladi. Tarix darsida, masalan, “Yaponiya va Germaniyaning Ikkinchi jahon urushidagi harbiy harakatlari” mavzusini muhokama qilishda:

- oq shlyapa – faktlar (sanalar, sonlar, hujjatlar);
- qizil shlyapa – his-tuyg‘ular (urush qurbonlarining taqdiri);
- qora shlyapa – tanqidiy baholash (agressiv siyosatning salbiy oqibatlari);
- sariq shlyapa – ijobiy tomonlar (texnologik yutuqlar, kasbiy tajriba);
- yashil shlyapa – ijodiy yechimlar (agar urushning oldi olinganida nima bo‘lar edi);
- ko‘k shlyapa – jarayonni boshqarish (xulosalarni umumlashtirish) [4].

4. “SINKVEYN” (sinkwine) metodi - o‘quvchilar besh qatordan iborat she’riy shaklda tarixiy tushuncha yoki shaxsga o‘z munosabatini ifodalaydi. Qoida: 1-qator – bir so‘z (mavzu nomi), 2-qator – ikkita sifat, 3-qator – uchta fe’l, 4-qator – to‘rt so‘zli ibora (munosabat), 5-qator – bir so‘zli sinonim. Masalan, “Amir Temur” mavzusida: “Sarkarda, jasur, dono, birlashtirdi, himoya qildi, qurdirdi, ‘U buyuk saltanat bunyod etdi’, bunyodkor” [6].

5. Bahs va munozaralar (debat) - tarixiy masalalarni guruhlarda muhokama qilish, "adolatli sud" o'yinlari (tarixiy shaxsni "sud qilish"), "Davra suhbati" texnologiyasi. Lipman (2003) [3] "hamjamiyat sifatida tadqiqot" (community of inquiry) modelini taklif qilib, bunda o'quvchilar birgalikda tarixiy muammolarni muhokama qiladilar, bir-birlarining fikrlarini asosli tanqid qiladilar va yangi sintezga keladilar [3].

6. Loyiha va tadqiqot ishlari - o'quvchilarning mustaqil ravishda tarixiy manbalarni o'rganishi, gipotezalar ilgari surishi, tadqiqot metodlarini qo'llashi va xulosalar chiqarishi. Ro'ziyeva (2020) [6] o'z tadqiqotida tarix darslarida mini-tadqiqot loyihalarining (masalan, "Mening yashash joyim tarixi", "Bir hujjat tarixi") o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ijobiy ta'sirini empirik asosda isbotlagan [6].

Tarix darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning bosqichlari (reflektiv model).

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha xalqaro pedagogikada keng qo'llaniladigan model – bu "Qiyinlashtirish – Ma'noni anglash – Mulohaza" (Challenge – Comprehension – Reflection) modelidir. Ushbu model Dewey (1933) [1] reflektiv fikrlash bosqichlariga (1) noaniqlik hissi, 2) muammoni aniqlash, 3) faraziy yechim, 4) mantiqiy tahlil, 5) sinov) asoslangan bo'lib, tarix darslariga moslashtirilgan [1]. (1-jadval)

Bosqich	Mazmuni	Tarix darsidagi faoliyat turlari
I. Qiyinlashtirish (challenge)	Mavjud bilimlarni faollashtirish, qiziqish uyg'otish, qarama-qarshiliklar yaratish	"Bilaman / Bilishni xohlayman / Bilib oldim" jadvali (K-W-L), muammoli savollar (masalan, "Agar Kolumb Amerikani kashf qilmaganida nima bo'lar edi?"), kutilmagan faktlar, vizual provokatsiyalar
II. Ma'noni anglash (comprehension)	Yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, tahlil qilish, manbalar bilan ishlash	Interaktiv ma'ruza, tarixiy hujjatlar bilan ishlash (savol berish, chetiga belgilar qo'yish – "INSERT" texnikasi), tayanch konspekt tuzish, juftlikda o'qish
III. Mulohaza (reflection)	O'zlashtirilgan materialni qayta ishlash, shaxsiy pozitsiyani	SINKVEYN, bahs-munozara, esse yozish, "Bir daqiqalik esse", guruhli loyiha himoyasi, "Bilimlar xaritasi" tuzish

Bosqich	Mazmuni	Tarix darsidagi faoliyat turlari
	shakllantirish, baholash	

Mazkur bosqichli yondashuv o‘quvchilarning dastlabki qarashlaridan voz kechib, yangi ma’lumotlar ta’sirida o‘z fikrlarini qayta qurish imkonini beradi. Paul va Elder (2006) [4] bu jarayonni “intelektual kamtarlik” va “o‘z fikrini o‘zgartirishga tayyorlik” bilan bog‘laydilar [4].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli an’anaviy “bilim beruvchi” (transmitter)dan “fasilitator” va “mediator”ga o‘zgaradi. Qo‘ysinov (2018) [5] bu jarayonda o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talablarni quyidagicha ifodalaydi [5]:

- muammoli vaziyatlar yaratish – o‘quvchilarning mavjud bilimlari yetarli bo‘lmagan yoki ular ziddiyatli bo‘lgan vaziyatlarni loyihalash;
- ochiq turdagi savollar berish – “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish mumkin bo‘lmagan, tafakkurni faollashtiruvchi savollar (masalan, “Sizningcha, Ikkinchi jahon urushining Yaponiya uchun muqobil yo‘li bormidi?”);
- o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini rag‘batlantirish – har qanday asosli fikrni, hatto u o‘qituvchining qarashiga to‘g‘ri kelmasa ham, hurmat qilish;
- xatolarni tanqid qilmasdan, ularni tahlil qilishga yo‘naltirish – “Sizning fikringiz qiziq, keling, uni qanday dalillar bilan asoslash mumkin?”;
- turli nuqtai nazarlarga hurmatni shakllantirish – tarixdagi “yovuz” va “yaxshi” qahramonlarga biryoqlama baho berishdan qochish, tarixiy kontekstni hisobga olish.

Lipman (2003) [3] “ta’limda falsafiy amaliyot” (Philosophical Practice in Education) konsepsiyasida o‘qituvchini “dialogni yo‘naltiruvchi” sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, o‘qituvchi tayyor javoblarni emas, balki savollarni va fikrlash usullarini o‘rgatishi kerak [3].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning diagnostikasi va monitoring.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini baholash uchun maxsus mezonlar va vositalar ishlab chiqilgan. Xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan testlar qatoriga Watson-Glaser Critical Thinking Appraisal (WGCTA), Cornell Critical Thinking Test va California Critical Thinking Skills Test (CCTST) kiradi. Facione (1990) [2] ushbu testlarning asosiy komponentlari – tahlil, baholash, xulosa chiqarish, induktiv va deduktiv fikrlash – tarix fanining o‘quv dasturlari bilan uyg‘unligini ta’kidlaydi [2].

Mahalliy sharoitda Ro‘ziyeva (2020) [6] tomonidan ishlab chiqilgan “Tarix darslarida tanqidiy fikrlashni baholash rubrikasi” quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi [6] (2-jadval):

Ko‘rsatkich	Past daraja (1 ball)	O‘rta daraja (2 ball)	Yuqori daraja (3 ball)
Tarixiy manbani tahlil qilish	Manba mazmunini takrorlaydi	Manbaning asosiy g‘oyasini ajratadi	Manbaning muallif pozitsiyasi, ishonchliligi va cheklovlarini tahlil qiladi
Sabab-oqibat bog‘lanishi	Bitta sabab va natijani nomlaydi	Bir necha sabab va natijalarni sanaydi	Sabablar ierarxiyasini va uzoq muddatli natijalarni asoslavdi
Muqobil qarashlarni baholash	Faqat o‘z qarashini ifodalaydi	Boshqa qarash mavjudligini tan oladi	Boshqa qarashlarni asosli ravishda taqqoslaydi va tanqid qiladi
Xulosa chiqarish	Xulosa bermaydi yoki takrorlaydi	Oddiy xulosa chiqaradi	Dalillar asosida umumlashtirilgan va original xulosa chiqaradi

Tarix fanini o‘qitish jarayonida yuqori sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish quyidagi pedagogik asoslarga tayanadi:

1. Nazariy asoslar: Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari (tahlil, sintez, baholash, xulosa chiqarish) Dewey [1], Facione [2], Lipman [3], Paul va Elder [4] kabi olimlarning ishlarida atroflicha yoritilgan bo‘lib, tarix fanining o‘ziga xos mazmuni orqali samarali shakllanadi. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi [7] esa bu jarayonda ijtimoiy o‘zaro ta’sir va madaniy vositalarning rolini tushuntirib beradi [7].

2. Metodik asoslar: Interfaol metodlar (“Klaster”, “Fishbone”, “Olti shlyapa”, “SINKVEYN”, bahs-munozaralar, loyiha texnologiyalari) tarixiy materialni chuqur o‘zlashtirish va tanqidiy qayta ishlash imkonini beradi [5][6]. Ushbu metodlar o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirib, ularni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

3. Bosqichli yondashuv: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bosqichma-bosqich (qiyinlashtirish – ma’noni anglash – mulohaza) amalga oshirilishi lozim [1]. Har bir bosqichda o‘quvchilarning fikrlash faoliyati sifati va chuqurligi oshib boradi.

4. O‘qituvchi roli: O‘qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasi, ochiq turdagi savollar qo‘yish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini qo‘llab-quvvatlash va xatolarni

tahlil qilishga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega [3][5]. O‘qituvchi o‘zi ham tanqidiy fikrlashning namunasi bo‘lishi kerak.

5. Amaliy ahamiyat: Tarixiy tafakkurni shakllantirish o‘quvchilarda o‘tmishni xolis baholash, bugungi kundagi hodisalarni chuqur tushunish va kelajakni ilmiy asosda prognoz qilish qobiliyatini rivojlantiradi [6]. Bu esa demokratik jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqaro tarbiyalashning muhim shartidir.

Amaliy tavsiyalar

1. Har bir darsda ochiq turdagi muammoli savollardan muntazam foydalanish (“Nima deb o‘ylaysiz?”, “Qanday xulosa chiqarish mumkin?”, “Agar … bo‘lganda nima yuz bergan bo‘lar edi?”). Bu savollar o‘quvchilarning Dewey ta’riflagan “reflektiv qiyinchilik” holatiga tushishiga olib keladi.
2. Tarixiy manbalarni sinflarga ajratib (xronika, xotira, rasmiy hujjat, harbiy hisobot, shaxsiy maktublar) va ularni qiyosiy tahlil qilishni o‘rgatish. Har bir manbaning muallif maqsadi, yaratilgan vaqti va ishonchlilik darajasi haqida savollar berish.
3. Guruhli ish shakllarida o‘quvchilarning bir-birining fikrini asosli ravishda tanqid qilish madaniyatini shakllantirish. Lipmanning “hamjamiyat sifatida tadqiqot” modelidan foydalanish.
4. Tarixiy shaxslar va voqealarga “sud” o‘yinlarini tashkil etish. Masalan, “Amir Temurning sud jarayoni” – o‘quvchilar ayblov va himoya tomonlariga bo‘linib, tarixiy manbalar asosida dalillar keltiradilar.
5. O‘quvchilarning mustaqil tadqiqot ishlari (mini-loyihalar, taqdimotlar, esse, tarixiy xarita tuzish) natijalarini muntazam rag‘batlantirish va ularni rubrika asosida baholash.
6. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, chunki o‘qituvchining o‘zi tanqidiy fikrlashga ega bo‘lmasa, uni o‘quvchilarda shakllantira olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey, J. (1933). *How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process*. Boston: D.C. Heath and Company.
2. Facione, P. A. (1990). *Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction*. The California Academic Press. (ERIC Document Reproduction Service No. ED 315 423)
3. Lipman, M. (2003). *Thinking in Education* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
4. Paul, R., & Elder, L. (2006). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life* (2nd ed.). Upper Saddle River, NJ: Foundation for Critical Thinking Press.
5. Qo‘ysinov, O. A. (2018). *Ta’limda tanqidiy fikrlash texnologiyalari*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
6. Ro‘ziyeva, D. T. (2020). Tarix darslarida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari. *Pedagogika ilmiy-nazariy jurnali*, №4, 45-52.

UDK: 37.091.3:378.046.4

Ergasheva Guzalxon Ergashaliyevna,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz kasbiy rivolantirish (malaka oshirish) kurslarida tinglovchilar faolligini oshiruvchi uslublarni qo‘llash masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, unda o‘quv mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha aniq misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz kasbiy rivolantirish, malaka oshirish, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim oluvchi, ishtirokchi, faollik, uslub, texnologiya, pedagogik texnologiya, metod, interfaol metod, natija, o‘quv mashg‘uloti, aqliy hujum, assesment.

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ В ПРОЦЕССЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В статье широко освещаются вопросы применения методов, повышающих активность слушателей на курсах непрерывного профессионального развития (повышения квалификации). Также приведены конкретные примеры использования интерактивных методов в учебных занятиях.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, повышение квалификации, учитель, ученик, обучающийся, участник, активность, метод, технология, педагогическая технология, интерактивный метод, результат, учебное занятие, мозговой штурм, assessment.

APPLICATION OF METHODS THAT INCREASE STUDENT ACTIVITY IN CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT (SKILLS DEVELOPMENT) COURSES

Abstract. The article extensively discusses the use of methods that increase student engagement in continuing professional development (CPD) courses. It also provides specific examples of the use of interactive methods in training sessions.

Keywords: continuous professional development, professional development, teacher, student, learner, participant, activity, style, technology, pedagogical technology, method, interactive method, result, training session, brainstorming, assessment.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti,

iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi hamda mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik ta'lim sifatiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, o'quvchilarning chuqur va mustahkam bilim olishini ta'minlash dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'z fani bo'yicha puxta nazariy bilimga ega, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal o'zlashtirgan, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga samarali tatbiq eta oladigan pedagoglarning o'rni beqiyosdir.

Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, kommunikativ kompetensiyalari va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan pedagoglardan interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, media vositalari va ta'limning innovatsion shakllaridan samarali foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, dars jarayonida "Aqliy hujum", "Case-study", "Debat", "Cluster", "Assessment", "Insert", "SWOT-tahlil" kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish hamda o'zlashtirish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, pedagogik faoliyat doimiy ravishda yangilanib borishni talab qiladigan murakkab kasbiy jarayon hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va yangi pedagogik yondashuvlarning paydo bo'lishi o'qituvchilardan o'z ustida muntazam ishlashni, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib borishni taqozo etadi. Shu sababli pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bu jarayonda uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarining ahamiyati nihoyatda katta. Mazkur kurslar pedagoglarning nazariy bilimlarini yangilash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim platforma vazifasini bajaradi. Ayniqsa, malaka oshirish jarayonida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish tinglovchilarning kasbiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi pedagoglarning pedagogik mahoratini takomillashtirish bilan bir qatorda, ularni zamonaviy ta'lim muhitiga moslashishiga, o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishiga hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llay oladigan, raqamli kompetensiyalarga ega va kreativ fikrlovchi pedagoglar safi kengayib boradi.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish bugungi ta'lim siyosatining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim sifati bevosita pedagogning kasbiy tayyorgarligi, uning zamonaviy metodlarni egallashi va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq eta olish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ushbu sohada tub islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy asos sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur qarorga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari uchun besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari tizimi joriy etildi. Bu yangilik pedagog kadrlarning malakasini tizimli, bosqichma-bosqich va uzluksiz oshirish imkonini beradi. Malaka oshirish kurslarining asosiy yo'nalishi sifatida pedagoglarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularning metodik saviyasini oshirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish belgilangan. Shu bilan birga, malaka oshirish kurslari oralig'ida pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, ochiq darslar, seminar-treninglar, ustoz-shogird tizimi hamda mustaqil kasbiy rivojlanish shakllari orqali ularning uzluksiz rivojlanishi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"da uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining asosiy maqsadi aniq belgilab berilgan. Unga ko'ra, pedagog va mutaxassis xodimlarning egallab turgan lavozimi, mutaxassisligi hamda o'qitayotgan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahoratini uzluksiz ravishda rivojlantirish, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari hamda interaktiv o'qitish usullariga oid bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu esa ta'lim tizimining sifatini oshirish va zamonaviy talablar darajasiga moslashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, J.G'. Yo'ldoshev, N.A. Muslimov, M.A. Yuldashev, A.A. Ismailov, X.J. Daminov kabi yetakchi olimlar tomonidan pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, zamonaviy o'qitish metodikalarini joriy etish hamda kasbiy rivojlanish jarayonlarini takomillashtirishga doir o'quv qo'llanmalar va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu olimlarning ilmiy izlanishlari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga hamda o'qitish sifatini oshirishga sezilarli hissa qo'shdi. Natijada uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi nafaqat pedagoglarning individual kasbiy o'sishini ta'minlovchi mexanizm, balki butun ta'lim tizimi samaradorligini oshiruvchi strategik vosita sifatida shakllanmoqda.

Uzluksiz kasbiy rivolantirish (malaka oshirish) kurslarida tinglovchilar faolligini oshiruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalari va o'qitishning interfaol

metodlaridan foydalanish ko‘zlangan natijaga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interfaol metodlarni qo‘llash natijasida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikma va malakalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Shu sababli quyida biz uzluksiz kasbiy rivolantirish (malaka oshirish) kurslarida tinglovchilar faolligini oshirishga xizmat qiluvchi ayrim interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha o‘z tavsiyalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Jumladan, informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivolantirish (malaka oshirish) kurslarida “I va AT fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” moduli bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlarini boshlashda “Aqliy hujum” metodini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu metodni qo‘llashda o‘qituvchi dastlab muammoni aniqlaydi va ishtirokchilarga “Ta’lim texnologiyasi nima?” degan savol bilan murojaat qiladi. Bu muammo yechimi to‘g‘risida barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o‘zga kishi g‘oyalariga “hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. Demak, “Aqliy hujum” yo‘li bilan qisqa minutlarda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslini olganda g‘oyalar sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo‘ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta’sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, “Aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi;
- barcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mag‘zi (farazlari) qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi;
- “hujum”ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutilishi kerak.

“Aqliy hujum” ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o‘z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko‘ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

Ishtirokchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishda esa “Assesment” metodini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mazkur texnika orqali ishtirokchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar,

muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Masalan yuqoridagi mavzu bo‘yicha ishtirokchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishda quyidagi shakldagi “Assesment”lardan foydalanish mumkin (har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ballik tizimda baholanadi):

TEST	**MUAMMOLI TOPSHIRIQ**
Ta’limning quyidagi shakllari mavjud, bu: A. Passiv va faol shakllari. B. Passiv va interfaol shakllar. C. Passiv, faol va interfaol shakllar. D. An’anaviy va interfaol shakllar.	Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda asosan qaysi ta’lim metodlari (an’anaviy yoki noan’anaviy)dan foydalangan ma’qul. Nima uchun izohlang.
SIMPTOM	**AMALIY KO‘NIKMA**
Ta’lim texnologiyalari – bu ...	Zamonaviy ta’lim texnologiyalari sirasiga kiruvchi texnologiyalarga misol keltiring. Bitta texnologiyaning mohiyatini fizika darsi misolida bayon qiling.

TEST	**MUAMMOLI TOPSHIRIQ**
Ta’limning zamonaviy metodlari sirasiga kiruvchi metod turini aniqlang. A. Ma’ruza. B. Suhbat. C. Kichik guruhlarda ishlash. D. Hikoya.	O‘quvchilar bilim samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o‘rnini qanday baholaysiz?
SIMPTOM	**AMALIY KO‘NIKMA**
Ta’lim texnologiyadarining asosiy belgisi – bu ...	O‘qitishning hamkorlikda ishlash modellariga misol keltiring. 1. 3. 2. 4. va bitta metodika mohiyatini o‘z mutaxassisligingiz misolida yoritib bering.

“Assesment” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida ishtirokchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon kilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim oluvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar tizimi bugungi zamonaviy pedagogikada keng ko‘lamli va ko‘p qirrali xususiyatga ega bo‘lib, ular

ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunday metodlar nafaqat o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va faol o'qitish usullari o'quvchini dars jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shu bilan birga, har bir metodning samaradorligi uning to'g'ri tanlanishi, dars mavzusining mazmuni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan didaktik maqsadlar bilan uyg'unligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli o'qituvchi har bir mashg'ulotni loyihalash jarayonida metod tanlashga jiddiy yondashishi, uning pedagogik maqsadga muvofiqligini ilmiy asosda belgilashi lozim.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida birgina an'anaviy yoki faqat interfaol metodlardan foydalanish yetarli emasligi, balki ularni uyg'unlashtirish va integratsiyalashgan holda qo'llash zarurligi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa dars jarayonida individual va guruhli ish shakllarini, muammoli ta'lim elementlarini, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli texnologiyalarni birgalikda qo'llash orqali yanada yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, to'g'ri tanlangan va ilmiy asosda qo'llanilgan pedagogik metodlar ta'lim jarayonining qiziqarli, samarali va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning chuqur bilim olishiga, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga hamda ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2024-yil 21-iyun, PQ-231-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2024-yil 20-dekabr, 867-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i. – Toshkent, 2024-yil 16-dekabr, 402-son.
4. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari fizika va astronomiya fani o'qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o'quv dasturi. – T: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, 2024-yil.
5. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar / – T.: "Ofset print", 2013.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / – T.:"Sano standart" nashriyoti, 2015.

7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik bo'yicha o'quv-uslubiy majmua / – T.: TDPU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi, 2016.

8. N.Sayidahmedov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'zMU qoshidagi OPI, 2003.

UDK 37.02:004.9

Yetmisheva Dilorom G'ulomovna,
Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi
"Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari"
kafedrasi katta o'qituvchisi

TEXNOLOGIYA FANIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya fanida raqamli texnologiyalarning o'rni va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri yoritilgan. Raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimida yuz berayotgan transformatsion o'zgarishlar, xususan texnologiya fanining mazmuni va o'qitish metodlarining yangilanishi tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishi bilan birga, mustaqil fikrlash, tizimli tahlil va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish an'anaviy yondashuvlarni to'ldirishi, biroq ularni to'liq almashtirmasligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, texnologiya fani, ta'lim tizimi, raqamlashtirish, onlayn ta'lim, transformatsiya, interaktiv metodlar, o'qituvchi, o'quvchi.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «ТЕХНОЛОГИЯ»

Аннотация. В статье рассматривается роль цифровых технологий в преподавании предмета «Технология» и их влияние на образовательный процесс. Анализируются трансформационные изменения в системе образования в условиях цифровизации, включая обновление содержания и методов преподавания технологических дисциплин. Обосновывается, что цифровые технологии повышают эффективность обучения и способствуют развитию самостоятельного мышления, системного анализа и навыков решения проблемных задач. Подчеркивается, что использование цифровых средств дополняет традиционные подходы, но не заменяет их полностью.

Ключевые слова: цифровые технологии, предмет технология, система образования, цифровизация, онлайн-обучение, трансформация, интерактивные методы, учитель, ученик.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SUBJECT "TECHNOLOGY"

Abstract. This article examines the role of digital technologies in the teaching of Technology as a subject and their impact on the educational process. It analyzes transformational changes in education under conditions of digitalization, particularly

the renewal of content and teaching methods in technology education. It is substantiated that digital technologies enhance learning efficiency and contribute to the development of independent thinking, system analysis, and problem-solving skills. It is emphasized that digital tools complement traditional approaches but do not fully replace them.

Keywords: digital technologies, technology education, education system, digitalization, online learning, transformation, interactive methods, teacher, student.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta'limga ta'sirini boshlang'ich mraqamli texnologiyaabdan tortib universitetlar va kasb-hunar ta'limi tizimlarigacha bo'lgan barcha darajalarga ta'sir qiluvchi global jarayon sifatida ko'rish mumkin. Masalan, platformalar millionlab talabalarga yetakchi universitetlardan kurslarda qatnashish imkonini beradi va rivojlanayotgan mamlakatlarda onlayn ta'lim o'qituvchilar va o'quv materiallari yetishmasligini bartaraf etish vositasiga aylandi. Bu misollar texnologiya endi shunchaki ta'limni qo'llab-quvvatlamasligini, balki uning tuzilishi va mazmunini o'zgartirayotganini ko'rsatadi [1].

Ta'lim muhiti tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT va raqamli texnologiya) yordamchi vosita bo'lishdan to'xtadi va ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, o'rganishda moslashuvchanlik, individualizatsiya va raqamli texnologiyaivlikni ta'minlash, formulali usullardan voz kechish va ta'lim amaliyotini zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga yaqinlashtirish uchun asosga aylandi [2].

An'anaviy o'rganish yondashuvlarini zamonaviy raqamli formatlar bilan taqqoslaganda, muhim farqlar paydo bo'ladi. Ilgari ta'lim jarayoni ma'ruzalar va konspektlar atrofida bo'lib, talabalar passiv tinglovchilar sifatida harakat qilishgan bo'lsa, bugungi kunda asosiy e'tibor mustaqil bilimlarni kashf etish, amaliy mashg'ulotlar va raqamli texnologiyaiv muloqotga o'tdi. Onlayn kurslar o'z sur'atida o'rganish imkoniyatini beradi, bulutli xizmatlar esa loyihalar bo'yicha real vaqt rejimida hamkorlik qilish imkonini beradi, bu esa o'rganishni yanada moslashuvchan va amaliyotga yo'naltirilgan qiladi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asta-sekin bilimlarning bir tomonlama uzatilishini ko'p o'lchovli va dinamik jarayon bilan almashtirmoqda [3].

Zamonaviy raqamli texnologiya bilimlarni passiv ravishda egallashdan o'quv jarayonida faol ishtirok etishga o'tish uchun sharoit yaratadi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari talabalarga iqtisodiy jarayonlarni simulyatsiya qilish, laboratoriya tajribalarini o'tkazish yoki tarixiy davrlarga "sayohat qilish" imkonini beradi. Bunday tajribalar nafaqat motivatsiyani oshiradi, balki tanqidiy fikrlashni, axborotni qayta ishlash qobiliyatini va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi [4].

Ta'limda sun'iy intellektning rivojlanishi shaxsiylashtirilgan o'rganish yo'llarini yaratishga olib kelmoqda. Algoritmlar o'quvchilarning taraqqiyotini tahlil qiladi va ularning bilim darajasi va o'rganish uslubiga mos keladigan materiallarni tanlaydi. Bu o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Biroq, hatto eng murakkab algoritmlar ham o‘qituvchilarni to‘liq o‘rnini bosa olmaydi. Sun'iy intellekt shaxsiylashtirilgan topshiriqlarni taklif qilishi va o‘rganish sur'atini boshqarishi mumkin bo‘lsada, o‘qituvchilar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi [5].

Moodle, raqamli kutubxonalar va ixtisoslashtirilgan modellashtirish dasturlaridan foydalanish faqat o‘qituvchilar ta’lim muhitining ustozlari va moderatorlari sifatida harakat qilishga tayyor bo‘lgandagina samarali bo‘ladi. Natijada, o‘qituvchilarni tayyorlash va doimiy kasbiy rivojlanish ta’limning muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyasi uchun markaziy o‘rini egallamoqda [5].

Raqamli texnologiyadan faol foydalanish yangi xavflarni keltirib chiqaradi: shaxsiy ma’lumotlarning oqib ketishi, kiberhujumlar va ta’lim ma’lumotlarini manipulyatsiya qilish. Shuning uchun, texnologik o‘zgarishlar bilan bir qatorda, o‘quvchilar va o‘qituvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish juda muhimdir. Asosiy sohalarga kiberxavfsizlik asoslarini o‘qitish, axborotni tanqidiy idrok etish va raqamli iz uchun javobgarlik kiradi [6].

Ta’limni raqamlashtirish (Digitalization of Education) jadvali

Bosqich	Asosiy yo‘nalishlar	Amaliyotlar va vositalar	Kutilayotgan natijalar
1.Tayyorgarlik	Infratuzilma: Mraqamli texnologiyaablarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash, kompyuter sinflarini yangilash.	Wi-Fi zonalari, smart-doskalar o‘rnatish, kompyuter parkini yangilash.	O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun bir xil raqamli kirish nuqtasi (access point).
2. Platforma Tanlash	Raqamli o‘qitish platformalari: LMS (O‘quv Management Tizimi) va CMS (Kontent Management Tizimi) tanlash.	Moodle, Google Classroom, SChooX kabi platformalarni joriy qilish.	Markazlashtirilgan o‘quv materiallari va vazifalar bazasi.
3. Kadrlar Tayyorlash	Raqamli Pedagogik Ko‘nikmalar: O‘qituvchilar ni raqamli vositalardan foydalanishga o‘rgatish.	Treninglar, workshoplar, sun'iy intellekt vositalari bilan ishlash.	O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish.
4. O‘quv jarayoni	Aralash va masofaviy o‘qitish: raqamli texnologiyaiv darslar va loyihalar.	VR/AR texnologiyalari, mobil ilovalar, onlayn-testlar, loyiha-asosidagi o‘qitish.	O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlikni rivojlantirish.
5. Monitoring (Doimiy)	Baholash va Analitika: O‘quv jarayonini	Raqamli baholash tizimlari, o‘quvchilar	Ta’lim sifatini oshirish, individual

	kuzatish, natijalarni tahlil qilish.	progressini kuzatish (analytics).	ehtiyojlarni aniqlash.

Kelajakdagi ta'lim jarayoni tobora moslashuvchanlik va individualizatsiya tamoyillari asosida quriladi: yuzma-yuz va masofaviy ta'limni birlashtirgan gibrid modellar odatiy holga aylanib bormoqda, raqamli kutubxonalar va onlayn platformalar global akademik resurslarga kirishni kengaytirmoqda va hamkorlikdagi texnologiyalar ta'lim loyihalarini global tadqiqot tashabbuslariga aylantirmoqda [6].

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu o'qitish usullarini joriy etish ta'lim muassasalarining tayyorgarlik darajasiga qarab turli xil natijalar beradi. Rivojlangan raqamli infratuzilmaga ega universitetlar yangi sharoitlarga tezda moslashadi va ushbu modellarning yuqori samaradorligini namoyish etadi. Shu bilan birga, texnik yordamga yoki tegishli professor-o'qituvchilar malakasiga ega bo'lmagan tashkilotlarda gibrid o'qitish rasmiyatchilikka aylanadi va o'zining afzalliklarini yo'qotadi. Bu raqamli amaliyotlarning muvaffaqiyati nafaqat texnologiyalarning o'ziga, balki ularning ta'lim tizimiga integratsiyalashuv sifatiga ham bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv zarurligini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi: ta'limning raqamli transformatsiyasi o'quv dasturlarini yangilash, infratuzilmani rivojlantirish, o'qituvchilarni o'qitish va axborot muhitini himoya qilishni o'z ichiga olishi kerak. Shundagina raqamli texnologiya nafaqat zamonaviy aksessuar, balki sifatli ta'limning kuchli harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim muhitini tubdan o'zgartirmoqda. Ular talabalar va o'qituvchilar uchun yangi ufqlarni ochadi, o'qishni yanada qulay, raqamli texnologiyani samarali qiladi. Biroq, raqamli texnologiyaning muvaffaqiyatli integratsiyasi keng qamrovli yondashuvni talab qiladi: raqamli tafovutni bartaraf etish, o'qituvchilarni tayyorlashga investitsiya kiritish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va inklyuziv strategiyalarni ishlab chiqish. Kelajak ta'limi texnologiya va pedagogikaning sintezidir, bu yerda raqamli vositalar o'z-o'zidan maqsad emas, balki har tomonlama rivojlangan shaxslarni rivojlantirish vositasidir [7]. Mavjud tendentsiyalarni tahlil qilib, ta'limning raqamli transformatsiyasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va biznesning faol ishtiroki bilan birga olib boriladigan mamlakatlarda talabalarning yuqori darajadagi ishtiroki va bitiruvchilarning sifati yaxshilanishi kuzatilayotganini ta'kidlash mumkin. Texnologiyalarni joriy etish parchalanib ketgan yoki yuzaki bo'lgan joylarda ta'sir minimal: talabalar hech qanday sezilarli imtiyozlarga ega bo'lmaydilar va o'qituvchilar yetarli yordamsiz qo'shimcha ish yuklamalariga duch kelishadi. Bu ta'limni raqamli modernizatsiya qilish uchun strategik rejalashtirish zarurligini ta'kidlaydi, joriy etilgan vositalar soniga emas, balki ularning o'quv natijalariga haqiqiy ta'siriga ustuvor ahamiyat beradi [7].

Raqamli texnologiyalarni o'qitish–bu raqamli qurulmalarning muammolarni hal qilishda ma'lumotlarni saralash, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatini taqdim etuvchi raqamli ta'limelementi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar o'qitish

texnologiyasining asosiy maqsadi mavjud ma'lumotlar asosida o'rganish va prognozlashga yordam beruvchi algoritimik modellarni yaratishdir [8]. Bu kabi modellar raqamli ta'limtexnologiyasiga muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va jarayonni oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, Raqamli texnologiyalarni o'qitish sun'iy neyron tarmoqlari va chuqur o'rganish texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Neyron tarmoqlari bog'langan tugunlar yordamida biologik miyani modellashtirishda qo'llaniladi. Bu modellar raqamli texnologiyani o'qitish elementining muammolarni aniqlash va yechish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiladi [8].

Raqamli texnologiyani o'qitish texnologiyasi quyidagi 3 ta yo'nalish asosida rivojlanmoqda:

1. Nazorat ostida o'rganish
2. Nazoratsiz o'rganish
3. Kuchaytirilgan o'rganish

Raqamli texnologiyani o'qitish elementi katta ma'lumotlar va statistik algoritmlarga tayanadi.Ushbu elementni ma'lumotlardan bilim olish san'ati sifatida ham e'tirof etish mumkin. Ayniqsa, ikki asr avval yaratilgan chiziqli regressiya va Bayes statistikasi kabi usullar bugungi kunda ham raqamli texnologiyani o'qitishning asosiy usullari qatoriga kiradi. Bugungi kunda CHatGPT va boshqa ko'plab katta til modellari sun'iy intellektning raqamli texnologiyani o'qitish elementi asosida yanada rivojlanib bormoqda [9].

Chuqur o'rganish – bu jarayonlarni sun'iy neyron tarmoqlari asosida o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan raqamli texnologiyani o'qitishning rivojlangan sohasidir. Raqamli texnologiyani o'qitishning bir qismi sifatida rivojlanayotgan chuqur o'rganish texnologiyasi Big Data, raqamli texnologiyani qayta ishlash, nutqni aniqlash, biometrik xaritalash, tarmoq xavfsizlik, o'zini o'zi boshqaradigan raqamli texnologiyalar va virtual yordamchilarni yaratishda qo'llanilmoqda. Chuqur o'rganish murakkab tarmoqlanuvchi algoritmlardan foydalangan holda jarayonni aniqlash yoki muammoga yechim taqdim etish imkoniyatiga ega. Sun'iy neyron tarmoqlari asosida ishlovchi chuqur o'rganish elementi yashirin Markov modeli va Boltzman raqamli texnologiyalari modeli kabi ma'lumotlarni sifatli tahlil qilish imkoniyatini beruvchi usullardan foydalanadi [9].

Sun'iy neyron tarmoqlari inson miyasiga o'xshash qatlamli tuzilishga ega bo'lgan o'zaro bog'langan tugunlar yoki neyronlardan foydalanadi [6]. Sun'iy intellektning ushbu elementi aqlliy tizimlarga ma'lumotlarni inson miya faoliyatiga taqlid qiluvchi model yordamida qayta ishlashga o'rgatadi. Chuqur o'rganish elementi Google qidiruv tizimi, Google tarjimon dasturi, virtual asistentlar va boshqa ko'plab amaliy dasturlarni rivojlantirishda qo'llanilmoqda [9].

Raqamli texnologiyani qayta ishlash – yaratilayotgan raqamli texnologiyalarga inson tilini tushunish va javob berish qobiliyatini taqdim etuvchi raqamli ta'limelementlaridan biridir. Raqamli texnologiyani qayta ishlash yozuv matni, audio yoki inson ovozini to'gridan-to'g'ri qabul qilgan holda uni anglashi va unga mos ma'lum munosabatni bildirishi mumkin. Raqamli texnologiyani qayta ishlash texnologiyalaridan ijtimoiy tarmoqlarda ovozli ma'lumtolarni filtrlash (Twitter va

Facebook), aqlliy tarjimon dasturlari (Google translate, Yandex translate va boshqalar), virtual yordamchilar (Siri, Alexa, Google Assistant va boshqalar) va boshqa ko‘plab dastur va xizmatlar ko‘rinishida kundalik hayotda qo‘llanilmoqda.

Robototexnika – bu sun’iy intellektning insonlar kabi ko‘rinishga ega bo‘lgan robotlarni yaratish tarmog‘i hisoblanadi. Robotlarning konstruksiyasi yani uning qisimlarini harakatga keltirish va ularga ma’lum bir vazifalarni yuklash raqamli ta’limorqali amalga oshiriladi. Biroq robot qismlarini harakat va faoliyat uchun mos holda ishlab chiqish zarur. Bu maxsus fizik jismlarni talab etadi. Sun’iy intellektning robototexnika elementi kelajakda nafaqat inson kabi fikrlaydigan balki u kabi haraklanuvchi mukammal sun’iy insonlarni yaratishga xizmat qilishi mumkin. Bugun robotlar ofitsiant, tikuvchi, oshpaz, uchuvchi yoki yaqin do‘st vazifalarini bajarishmoqda [9].

Noaniq mantiq – bu aniq bilim yoki ko‘rsatma bo‘lmagan vaqtda inson kabi mulohaza yuritib ma’lum bir masalalarni hal etishga qaratilgan raqamli ta’limelementi hisoblanadi. Noaniq mantiqning ishlash prinsipi cheklangan bilimga asoslangan holda ma’lum bir vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan. Noaniq mantiq turli sohalarda qarorlarni qabul qilishni o‘z ichiga olgan murakkab muammolarni hal qilishda qo‘llaniladi. Shuningdek, avtomat uzatmalar qutisi, avtotransport muhitini boshqarish va boshqalarda qo‘llaniladi. Bu element bevosita mashinani o‘qitish texnologiyasida cheklangan ma’lumotlarga asoslanib qaror qabul qilishda yordam beradi [9].

Noaniq mantiq ba’zi adabiyotlarda “loyqa mantiq” yoki “noaniq mantiq” deb yurutilganini ko‘rish mumkin. Noaniq mantiq umumiy o‘rta ta’lim mraqamli texnologiyaabi yuqori sinf informatika darsligida berilgan mantiq asoslariga oid kontentdan faqrli ravishda “rost” yoki “yolg‘on” natija bilan cheklanmaydi. Bu yaratilayotgan raqamli ta’limtexnologiyalarining muammolarni hal etishda aniqroq yechimlarni taqdim etishiga olib keladi. Noaniq mantiq elementi chuqur o‘rganish va raqamli texnologiyani qayta ishlash kabi elementlar bilan birga gibrid ko‘rinishda Twitter platformasida insonlarning hissiyot tahlilini aniqlashda qo‘llaniladi [10].

Bu sun’iy intellektning bir yoki bir nechta elementining o‘zaro kombinatsiyasi natijasida ishlovchi ko‘plab misollardan biridir.

Ekspert tizimi – sun’iy intellektga asoslangan holda ma’lum bir soha mutaxassisining qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan kompyuter tizimi hisoblanadi. Ekspert tizimlar murakkab masalalarni hal qilishda if-then (agar-u holda) mantiqiy belgilaridan foydalanadi va katta ma’lumotlar bazasida o‘z bilimlarini boyitib boradi. Ekspert tizimlari asosan katta hajmdagi axborotlarni boshqarish, tibbiyot muassasalarida davolash jarayonlarini tahlillash, pul-kredit munosabatlarini tartibga solish, virusni aniqlash va boshqalarda qo‘llanilib kelinmoqda. Samarador ekspert tizimlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- CaDet saratonni dastlabki bosqichlarida aniqlashda qo‘llaniluvchi ekspert tizim.
- DENDRAL texnologiyasi kimyoviy moddaning spektrografik ma’lumotlaridan foydalangan holda tuzilishini aniqlash uchun mo‘ljallangan ekspert tizimi.

Kompyuter ko‘rishi – raqamli tasvirlar va videolardagi ma’lum bir turdagi ob’ektlarni (odamlar, buyumlar, qurilmalar yoki qushlar) semantik aniqlash va tahlil qilish jarayonidir.

Kompyuter ko‘rishi bo‘yicha ikki xil yondashuv ko‘proq qo‘llaniladi.

1) biologik nuqtai nazaridan, kompyuter ko‘rishi inson ko‘rish tizimining modelini yaratishga qaratilgan yondashuv bo‘lsa keyingisi.

2) muhandislik nuqtai nazaridan, kompyuter ko‘rishi atrofni kuzatishdagi (ko‘rish, turli ob’ekt, voqea yoki hodisalarni tushunish) vizual tizim yoki texnologiya bajarishi mumkin bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi avtonom tizimlarni yaratishga doir yondashuvdir. Bu yondashuvlar bir-biri bilan o‘zaro aloqador.

Inson ko‘rish tizimining xususiyatlari ko‘pincha kompyuter ko‘rish tizimlarini loyihalashtirishda muhandislarga real na’muna bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek,

kompyuter ko‘rishi algoritmlari mraqamli texnologiyaab o‘quvchilariga insonning ko‘rish tizimining qanday ishlashi va uning kompyuterdagi na’munasi haqida yaxshiroq tushuncha berishi mumkin [10].

Sun’iy intellektning kompyuter ko‘rishi elementi ob’ektni aniqlash, yuzni tanib olish, harakat va holatni baholash kabi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan.

Sun’iy intellektning yuqoridagi elementlari aniq vazifanlarni avtomatlashgan holatda bajaradi va inson aqliy faoliyatining ma’lum unsurlarini o‘zida namoyon etadi. Yuqoridagi 2-rasmda raqamli ta’lim elementlarining o‘zaro bog‘liqligi berilgan bo‘lib ushbu munosabatlar optimal holatda bo‘lishi umumiy raqamli ta’lim texnologiyasini taqdim etishi mumkin. Ushbu bog‘liqlik orqali o‘quvchilar raqamli ta’lim elementlarining o‘zaro aloqasini vizual tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi [10].

Bugungi kunda texnologiya faqat multimedia doskalari yoki onlayn platformalar bilan cheklanib qolmaydi. U masofaviy ta’lim, bulutli xizmatlar, moslashuvchan o‘qitish tizimlari va sun'iy intellektni birlashtirgan butun ta’lim ekotizimlarini yaratmoqda. Xalqaro tahlil markazlarining fikriga ko‘ra, bunday innovatsiyalar talabalarning faolligini oshiradi, umrbod ta’lim olish uchun sharoit yaratadi va ayniqsa, zaif guruhlar uchun bilimga teng huquqli kirishni ta’minlaydi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalligi shundaki, u ijtimoiy va geografik to‘siqlarni kamaytirish qobiliyatiga ega. Onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar yetakchi universitetlarning kurslariga, chekka hududlarda joylashgan maktab aholisi uchun kirish imkonini beradi.

Biroq, yangi muammo paydo bo‘lmoqda: "raqamli tengsizlik": ishonchli internetga yoki zamonaviy qurilmalarga ega bo‘lmagan o‘quvchilar o‘zlarini noqulay ahvolga tushib qolish xavfi ostida. Bu hukumat va ta’lim muassasalaridan resurslardan teng foydalanishni ta’minlash uchun kompleks choralar ko‘rishni talab qiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli infratuzilma yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Singapur yoki Estoniya) raqamli texnologiya imkoniyatlarni tenglashtirishning haqiqiy vositasiga aylangan, resurslari cheklangan mamlakatlarda esa texnologiya ko‘pincha ijtimoiy tafovutlarni kuchaytiradi.

Shunday qilib, raqamlashtirish tizimning tayyorlik darajasiga qarab ta'limdagi tengsizlikni ham chuqurlashtirishi, ham kamaytirishi mumkin. Bu kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi: innovatsiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, har bir ijtimoiy guruh texnologiyadan to'liq foydalanishi uchun jihozlardan foydalanish imkoniyatini, raqamli savodxonlikni va pedagogik usullarni rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda mazkur maqola raqamli ta'lim (RT) vositalarining ta'lim jarayonidagi afzalliklarini yoritishga qaratilgan bo'lib, (RT) texnologiyalarining ta'lim sifatini oshirishdagi rolini ta'kidlaydi. Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayoni moslashtiriladi, individual yondashuv asosida o'quvchilarni rivojlantirish imkoniyati kengayadi. O'quv materiallarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish va moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratish orqali o'quvchilarning rivojlanishidagi har bir o'zgarish monitoring qilinishi mumkin. Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini raqamli texnologiyaiv qilishga, o'quvchilarning e'tiborini jalb etishga, ularning faolligini va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilg'or texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda va pedagoglarning faoliyatini soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ular o'qituvchilarga o'quv jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi, shuningdek, individual va kollektiv yondashuv orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamli ta'limtexnologiyalari ta'lim sohasidagi yangi imkoniyatlarni yaratib, ta'limning samaradorligini va sifatini sezilarli darajada yaxshilashga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акимова О.Б., Щербин М.Д. Цифровая трансформация образования: своевременность учебно-познавательной самостоятельности обучающихся // Инновационные проекты и программы в образовании. 2018. №1. С. 27-34.
2. Козлова Н.Ш. Актуальность обеспечения информационной безопасности в банковской системе// Актуальные проблемы технических наук: сборник статей Международной научно-практической конференции. Уфа, 2015. С. 105-108.
3. Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2018. Вып. 4. С. 80-85.
4. Козлова Н.Ш. Актуальные вопросы кадрового обеспечения ITспециалистов в период цифровой трансформации // Цифровая экономика: новая реальность: сборник статей по итогам Международной научно-практической видеоконференции, посвященной 25-летию вуза. Майкоп, 2018. С. 45-48.
5. Козлова Н.Ш. Современные технологии в сетевой безопасности // Цифровая экономика: новая реальность: сборник статей по итогам Международной научно-практической видеоконференции, посвященной 25-летию вуза. Майкоп, 2018. С. 93-97.

6. Каракозов С.Д., Уваров А.Ю. Успешная информатизация – трансформация учебного процесса в цифровой образовательной среде//Проблемы современного образования. 2016. №2. С. 7-19.

7. Axrorjon, Y. L. (2023). Mraqamli texnologiyaabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy

texnologiylardan foydalanib samarali mashg'ulot o'tishning avfzaliklari. qo'qon universiteti xabarnomasi, 149-150.

8. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001Yo'ldashev, A.

(2022). Ta'limda suniy intellektning imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 3(11), 726-729.

9. Daminova, R. (2018). O'quvchilarda nutqiy rivojlanish va o'qish savodxonligi.

УДК С.428. 1174.

Спаналиева Гулнур Турсимбетовна,
Педагогика магистрі, аға оқытушы
Шанжарова А.А.,
студент
М.Х. Дулати атындағы Тараз университеті, Тараз қ. Қазақстан

БАЛАЛАРҒА КІТАП ОҚЫТУ АРҚЫЛЫ ОҚУ МӘДЕНИЕТІН ҚАЛЫПТАСТЫРУ

Түйін. Мақалада балаларға кітап оқыту арқылы оқу мәдениетін қалыптастыру мәселесі қарастырылады. Мақалада оқушылардың кітап оқуға деген қызығушылығын арттыру, олардың танымдық қабілеттерін дамыту үшін ата-ана мен мектеп арасындағы ынтымақтастықтың маңыздылығы көрсетіледі.

Кілт сөздер: оқу мәдениеті, кітап оқу, қызығушылықты ояту, оқушылардың тіл байлығын арттыру.

ФОРМИРОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ЧЕРЕЗ ЧТЕНИЕ КНИГ

Аннотация. В статье рассматривается вопрос формирования культуры чтения посредством обучения детей чтению. В статье подчеркивается важность сотрудничества между родителями и школами для повышения интереса учащихся к чтению и развития их познавательных способностей.

Ключевые слова: культура чтения, чтение, пробуждение интереса, развитие языковых навыков учащихся.

FORMATION OF READING CULTURE IN CHILDREN THROUGH READING BOOKS

Abstract. This article examines the development of a reading culture through teaching children to read. It emphasizes the importance of collaboration between parents and schools to increase students' interest in reading and develop their cognitive abilities.

Keywords: reading culture, reading, sparking interest, developing students' language skills.

Қазіргі кезеңде ақпараттық технологиялар мен мультимедиялық құралдардың кеңінен таралуы балалардың кітапқа деген қызығушылығын төмендеткені рас. Дегенмен, кітап оқу – мәдениеттің бір бөлшегі, адамның рухани және интеллектуалды дамуына әсер ететін маңызды құрал. Балаларға кітап оқыту арқылы оқу мәдениетін қалыптастыру – бұл тек білім беру

процесінің бір бөлігі ғана емес, сонымен бірге оларды рухани дамытып, қоғамның толыққанды мүшесі болуға тәрбиелеу жолы. Кітап оқу мәдениетінің маңызы мектеп жасындағы балаларға әсіресе айқын көрінеді, себебі дәл осы кезеңде олардың ой-өрісі, шығармашылық қабілеттері мен дүниетанымдары қалыптасады.

Кітап оқу тек білім алудың көзі ғана емес, балалардың тіл байлығын арттырып, олардың эмоционалдық және әлеуметтік тұрғыда дамуына ықпал етеді. Сонымен қатар, кітап оқу баланың логикалық ойлауын жетілдіріп, сыни тұрғыдан ойлау қабілетін дамытады [1,27 б.].

Оқу мәдениеті – бұл тек қана кітаптарды оқу емес, сонымен қатар оларды дұрыс таңдай білу, мәтіндермен жұмыс істей алу, олардың мазмұнын түсіну және талдау қабілеті. Оқу мәдениеті баланың жеке тұлғасын қалыптастырудың маңызды құрамдас бөлігі болып табылады. Осы тұрғыда оқу мәдениетінің негіздеріне келесі компоненттер жатады:

Қызығушылықты дамыту: Балаларда кітапқа деген қызығушылықты арттыру оқу мәдениетінің негізін қалаушы факторлардың бірі. Егер бала кітапқа қызығатын болса, ол оны оқуға уақыт бөледі және кітап оқу оның өмірінің бір бөлшегіне айналады. Бұл қызығушылықты тудыру үшін мұғалімдер мен ата-аналар қызықты және танымдық кітаптарды ұсынуы керек.

Кітапты талдау қабілеті: Оқу мәдениетінің маңызды элементтерінің бірі – мәтінді түсіну және талдау. Балаларға кітап оқытумен қатар, олардың кітаптан алған мәліметтерін дұрыс қорытындылау, сұрақтар қою, өз пікірін білдіру қабілеттерін дамыту керек. Мұндай дағдылар сыни ойлау қабілеттерін де қалыптастырады.

Тіл байлығын арттыру: Кітап оқу – баланың тілін дамытудың тиімді әдісі. Әсіресе әдеби шығармалар баланың сөздік қорын кеңейтіп, сөйлеу дағдыларын жетілдіреді. Кітап арқылы баланың ойлау қабілеті де жақсарады, себебі олар әр түрлі мәтіндерді оқи отырып, сөздердің мағынасына терең бойлайды. [2]

Балаларға кітап оқуды үйрету – бұл оңай процесс емес, өйткені әр баланың қызығушылығы әр түрлі. Сондықтан балаларды кітап оқуға ынталандыру үшін әр түрлі әдіс-тәсілдерді қолдану қажет. Олардың ішінде мынадай әдістер кеңінен қолданылуы мүмкін:

Кітап таңдау еркіндігін беру: Балаларға кітап таңдауда еркіндік беру олардың оқуға деген қызығушылығын арттырады. Кітапханаға барғанда немесе үйде балалар өздері қалаған жанрдағы кітаптарды таңдай алады. Бұл әдіс балалардың оқу процесіне белсенді қатысуын қамтамасыз етеді.

Оқуға қызықты жағдай жасау: Балалардың кітапқа деген қызығушылығын арттыру үшін түрлі оқырман клубтарын ұйымдастыру, шығармашылық байқаулар өткізу, кітаптың мазмұнынан спектакльдер көрсету сияқты әдістер өте тиімді. Бұл оқушыларды кітаппен тереңірек таныстыруға мүмкіндік береді.

Техникалық құралдарды қолдану: Қазіргі таңда балалардың көпшілігі цифрлық технологияларға қызығады. Электрондық кітаптар, аудиокітаптар, интерактивті оқу қосымшалары арқылы балаларға оқуға деген қызығушылықты арттыруға болады. Мұндай құралдар балалардың оқу мәдениетін дамытуда жаңа тәсілдер ұсынады.

Отбасылық оқулар ұйымдастыру: Балаларды кітап оқуға баулу үшін ата-аналардың да белсенді болуы қажет. Отбасылық оқулар, балаларға бірге кітап оқу, кітапты талқылау – бұл оқуға деген сүйіспеншілікті қалыптастырудың тағы бір тәсілі. Әкелер мен аналардың кітап оқуына баланың қызығушылығы артып, олар да кітап оқуды әдетке айналдырады.

Кітап оқу тек қана интеллектуалдық дамуды емес, сонымен қатар баланың әлеуметтік және эмоционалдық дамуында маңызды рөл атқарады. Кітаптар балаларға әр түрлі әлемдерді, мәдениеттерді, кейіпкерлерді таныстыру арқылы олардың адамгершілік қасиеттерін қалыптастыруға ықпал етеді. Әрбір оқыған кітап баланың ой-өрісін кеңейтіп, оның қоғамдағы орны мен рөлін түсінуге көмектеседі.

Эмпатияның дамуы: Кітаптар балаларды түрлі кейіпкерлердің өмірі мен сезімдерін сезінуге, олардың орнына өздерін қойып көруге үйретеді. Бұл эмпатияны дамытудың негізгі тәсілдерінің бірі болып табылады. Әдеби шығармалар арқылы балалар әр түрлі тұлғалардың қиыншылықтарын, қуаныштары мен қайғыларын түсініп, өздерінің эмоциялық әлемдерін кеңейтеді. Мысалы, қиын жағдайларды бастан кешкен кейіпкерлердің өмірімен танысу арқылы бала қиындықтарға төзімділік, қайсарлық сияқты қасиеттерді бойына сіңіреді[2,25 б.].

Әлеуметтік дағдылардың қалыптасуы: Кітаптар балаларға қоғамдағы өзара қарым-қатынастарды, тәртіпті, этикалық нормаларды түсінуге мүмкіндік береді. Әр түрлі әдеби шығармалар баланың тұлға ретінде қалыптасуында маңызды орын алады. Олар балаларға достық, адалдық, қайырымдылық, өзара көмек көрсету сияқты әлеуметтік құндылықтарды үйретеді. Мысалы, «Құстарға арналған ән» сияқты шығармаларда балалар бір-біріне көмек көрсету, қиын сәтте бірге болу керек екендігін түсінеді.

Эмоционалды тұрақтылық: Кітап оқу арқылы балалар түрлі эмоциялық жағдайларды қабылдай білуге үйренеді. Әсіресе, қиял-ғажайып, ертегі жанрындағы кітаптар балалардың эмоциялық әлемін байытып, оларға шығармашылық қабілеттерін дамытудың тиімді жолын ұсынады. Мысалы, ертегілерде орын алатын көптеген оқиғалар баланың эмоцияларын қозғап, оларды жаманнан жақсыны ажыратуға, ашу-ыза мен қуанышты теңдестіруге үйретеді.

Қиял мен шығармашылықтың дамуы: Кітап оқыған кезде балалардың қиялы ұшқырланып, шығармашылық қабілеттері артады. Кітаптар балаға әлемді әртүрлі көзқараспен көруге мүмкіндік береді. Әсіресе фантастика, ертегілер, шытырман оқиғалар балаларды жаңа дүниелерді ойлап табуға, оларды жүзеге асыруға ынталандырады. Бұл шығармашылық ойлау дағдыларын дамытып, болашақта баланың жан-жақты дамуына үлес қосады.

Өзіндік сенімділік: Әдеби шығармалардағы кейіпкерлердің қиындықтарды жеңіп, мақсаттарына жетуі баланың өзіндік сенімділігін арттырады. Балалар өздеріне ұнаған кейіпкерлердің әрекеттерінен үлгі алып, өздерінің де өмірде кездескен қиындықтарды жеңуге деген сенімін нығайтады. Оқудың осы аспектісі баланың өмірге деген оң көзқарасын қалыптастырып, оларды психологиялық тұрғыдан күшейтеді [3,71 б.].

Балаларға кітап оқытуды мектеп бағдарламасына тиімді түрде енгізу – оқу мәдениетін қалыптастырудың маңызды әдісі. Мектептің басты мақсаты – оқушыларды тек қана белгілі бір пәндермен таныстыру емес, сонымен қатар оларды мәдениетке, рухани құндылықтарға тәрбиелеу. Осы тұрғыда кітап оқу мәдениетін мектеп бағдарламасына интеграциялау өте маңызды. Бұл оқушылардың оқу дағдыларын жетілдіріп, оларға әр түрлі жанрларда жазылған кітаптарды ұсыну арқылы оларды танымдық белсенділікке баулиды.

Әдебиет пәні арқылы оқу мәдениетін қалыптастыру: Әдебиет пәні оқушылардың кітап оқу дағдыларын дамытуда үлкен рөл атқарады. Мұғалімдер балаларға шығармашылық бағыттағы жұмыстарды орындау арқылы кітапқа деген қызығушылықты арттыруы қажет. Классикалық әдебиет туындылары мен заманауи шығармалар арасында теңгерім орнату арқылы баланың әдеби талғамын дамытуға болады. Мысалы, оларды «Әлем әдебиеті», «Қазақ әдебиеті» сияқты пәндер арқылы түрлі жанрлармен таныстыру, әдеби шығармаларға талдау жасау, өз пікірлерін білдіру, сахналық қойылымдар қою сияқты тәсілдер оқушылардың танымын кеңейтеді.

Mann-Whitney U-testi natijalariga ko‘ra, 16 ta terminal qadriyatdan 15 tasi bo‘yicha Nukus va Shumanay o‘smirlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmagan ($p > 0,05$). Bu ikkala guruh o‘smirlarining hayotiy maqsadlari va intilishlari asosan o‘xshash ekanligidan dalolat beradi. Faqat “O‘ziga ishonch” (T13)

qadriyati bo‘yicha tendensiya darajasida farq kuzatilib, Nukus o‘smirlarida bu ko‘rsatkich biroz yuqori (3,8 ball) ekanligi aniqlangan.

1-jadval

Nukus va Shumanay o‘smirlarining yetakchi terminal qadriyatlari ko‘rsatkichlari

№	Terminal qadriyatlar	Nukus (M)	Shumanay (M)	Farq	p-qiymati
T3	Sog‘liq	4,4	4,4	0,0	0,984
T11	Baxtli oilaviy hayot	4,4	4,4	0,0	0,920
T4	Qiziqarli ish	4,3	4,3	0,0	0,726
T6	Muhabbat	4,2	4,3	-0,1	0,215
T2	Hayotiy hikmat (donolik)	4,2	4,2	0,0	0,920
T12	Ijodkorlik	4,2	4,2	0,0	0,741

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, terminal qadriyatlar ierarxiyasida “sog‘liq” hamda “oila” (4,4 ball) yetakchi o‘rinlarni egallagan. Mazkur ko‘rsatkich o‘smirlar ongida jismoniy salomatlik va oilaviy barqarorlik shaxsiy kamolotning poydevori sifatida shakllanganidan dalolat beradi.

Respondentlar tomonidan “qiziqarli ish” qadriyatining yuqori baholanishi (4,3 ball) o‘smirlik davridagi o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyoji bilan bog‘liq. Bu ko‘rsatkich o‘smirlar kelajakdagi kasbiy faoliyatini nafaqat moddiy ta’minot manbai, balki shaxsiy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish maydoni sifatida ham idrok etishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari umuminsoniy qadriyatlarning (muhabbat, donolik, ijodkorlik) hududiy differensiatsiyaga ega emasligini aniqladi. Bu o‘smirlik davrida ma'naviy-axloqiy yo‘nalganlikning barqarorligini va ijtimoiy muhitning ushbu fundamental qadriyatlarga nisbatan neytralligini ko‘rsatadi.

Instrumental qadriyatlar tahlili natijalari esa shuni ko‘rsatdiki, ularda 16 ta sifatdan 5 tasi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik ahamiyatli farqlar mavjud ekanligini va bu farqlar shahar va qishloq ijtimoiy muhitining o‘ziga xos talablari bilan izohlanadi.

2-jadval

Nukus va Shumanay o‘smirlari o‘rtasida statistik farq aniqlangan instrumental qadriyatlar

№	Instrumental qadriyatlar	Nukus (M)	Shumanay (M)	Farq	p-qiymati
I1	Aniqlik (o‘z fikriga ega bo‘lish)	3,9	3,1	+0,8	0,000
I3	Talabchanlik	4,4	4,1	+0,3	0,002
I6	Qat’iyatlilik	4,3	4,0	+0,3	0,008
I12	Jasorat	4,1	4,4	-0,3	0,007
I15	Ijodkorlik	4,0	3,5	+0,5	0,003

Olingan natijalarning psixologik interpretatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, “aniqlik va mustaqil fikrga ega bo‘lish” (I1) ko‘rsatkichi Nukus o‘smirlarida sezilarli darajada ustunlik qiladi (+0,8). Bu holat urbanizatsiyalashgan muhitning o‘ziga xos xususiyatlari — jadal axborot almashinuvi, ijtimoiy mobillik va zamonaviy ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan individual loyihalarning keng joriy etilishi bilan izohlanadi. Bunday muhit o‘smirlarda axborotni tanqidiy qayta ishlash va o‘z nuqtayi nazarini shakllantirish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi.

Faol tashabbuskorlikka yo‘naltirilgan sifatlar (talabchanlik, qat’iyatlilik va ijodkorlik) tahlili shuni ko‘rsatadiki, shahar muhiti o‘smirlari ushbu instrumental qadriyatlarni yuqori ijtimoiy statusga erishish vositasi sifatida baholaydilar. Mazkur holat shahar sharoitidagi yuqori raqobatbardoshlik darajasi, muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning ko‘pligi hamda ijtimoiy muhitning shaxsdan faollik va kreativlikni talab qilishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “jasorat” (I12) instrumental qadriyati Shumanay tumani o‘smirlarida (4,4 ball) statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ko‘rsatkichga ega. Bu holat qishloq ijtimoiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari — kundalik hayotdagi tabiiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni mustaqil yengish zaruriyati hamda o‘smirlarda o‘z imkoniyatlariga tayanish ehtiyojining kuchliligi bilan izohlanadi.

Kamtarlik (I7) instrumental qadriyatining har ikki guruhda ham eng quyi ko‘rsatkichni (3,2 ball) egallaganligi o‘smirlik davrining o‘ziga xos sub’ektiv xususiyatlari bilan izohlanadi. Bu holat mazkur yosh bosqichida ijtimoiy e’tirofga bo‘lgan ehtiyojning ortishi va 'men' konsepsiyasining faol namoyon bo‘lish tendensiyasi kamtarlik kabi an’anaviy sifatlarni ikkinchi darajaga tushirib qo‘yishidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan qadriyatlar ierarxiyasi va ularning hududiy tafovutlari quyidagi yo‘nalishlarda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi:

- hududiy yondashuvni joriy etish, psixologik treninglar va korreksion dasturlarni ishlab chiqishda o‘smirning yashash muhiti xususiyatlarini hisobga olish lozim. Shumanay o‘smirlari bilan ishlashda ulardagi mavjud “jasorat” sifatini kognitiv kreativlik va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan uyg‘unlashtirish, Nukus o‘smirlarida esa yuqori “talabchanlik” sifatini “keng qalb” (tolerantlik) va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalari bilan muvozanatlash tavsiya etiladi. Har ikki guruhda “kamtarlik” sifatining pastligi o‘smirlik davriga xos bo‘lsa-da, bu holat kelgusida shaxslararo munosabatlarda qiyinchilik tug‘dirmasligi uchun treninglarda altruistik motivlarni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur;

- kasbga yo‘naltirish ishlari bo‘yicha, o‘smirlarda “qiziqarli ish” qadriyati juda yuqori (4,3 ball) ekanligi ularning kasb tanlashda nafaqat daromadga, balki shaxsiy qoniqish va ijodkorlikka intilishini ko‘rsatadi. Shu sababli, kasbga yo‘naltirish ishlarini o‘smirning individual-psixologik xususiyatlari va ijodiy salohiyatini ochishga qaratilgan amaliy loyihalar orqali tashkil etish lozim. Bunnan boshqada, shahar o‘smirlaridagi qat’iyatlilik va talabchanlik sifatlarini zamonaviy “Soft Skills”

ko‘nikmalari bilan boyitish orqali ularning tadbirkorlik va boshqaruv sohasidagi salohiyatini oshirish mumkin;

- ota-onalar va oila muhitini sog‘lomlashtirish bo‘yicha, “Baxtli oilaviy hayot” (4,4 ball) o‘smirlar uchun eng muhim maqsad ekanligi, oiladagi ijobiy muhit o‘smir shaxsini shakllantirishda eng kuchli tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qilishini anglatadi. Ota-onalar farzandlarining shaxsiy avtonomiyasini ,ayniqsa Nukus o‘smirlaridagi mustaqil fikrlash intilishini qo‘llab-quvvatlashlari zarur. Yana shuni nazarda tutush zarur, “sog‘liq” qadriyatining ustuvorligi o‘smirlar o‘z salomatligiga ongli munosabatda ekanligidan dalolat beradi. Bu resursdan sport va sog‘lom ovqatlanish madaniyatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishda foydalanish tavsiya etiladi.

Pedagogik jamoalar va ta’lim tizimi uchun Nukus o‘smirlarida “aniqlik” va “ijodkorlik” sifatlarining yuqoriligi ta’lim jarayonida ko‘proq erkinlik va loyihalarga asoslangan o‘qitish metodlariga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shumanay tumanida bo‘lsa, o‘smirlaridagi “jasorat” va “qat’iyatlilik” kabi sifatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ularni hududiy rivojlanish loyihalariga jalb etish va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha maxsus dasturlarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son. – Toshkent: Adolat. – 112 b. 2022.
2. G‘oziyev, E. G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent: Universitet. – 544 b. 2010.
3. Karimova, V. M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent: O‘qituvchi. – 160 b. 1994.
4. Леонтьев, Д. А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. Москва: Смысл. – 487 с. 2003.
5. Maslow, A. H. Motivation and Personality. New York: Harper & Row. – 231–239 b. 1954.
6. Rokeach, M. The Nature of Human Values. New York: Free Press. – 438 b. 1973.
7. Shoumarov, G‘. B. Oila psixologiyasi: darslik. Toshkent: Sharq. – 296 b. 2010.
8. Юсупов, И. М. Психология эмпатии (Теоретические и прикладные аспекты): Дисс. док. психол. наук. – Санкт-Петербург. – 252 с. 1991.

UDK: 37.015.3:159.928

Sayfullayeva Mashxura,
Abdusalomova Charos,
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistrantlari

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O 'SMIRLAR IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'smir yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. O'smirlik davrining o'ziga xos inqirozlari, shaxsiy refleksiya va mustaqillikka bo'lgan intilish sharoitida ijodiy faollikning namoyon bo'lish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'smirlar kreativligini shakllantirishda maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit, tengdoshlar guruhining ta'siri hamda pedagogik muloqot uslublarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, ijodiy qobiliyatlar, kreativlik, ijtimoiy-psixologik muhit, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, umumta'lim maktabi, mikromuhit.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются социально-психологические особенности развития творческих способностей учащихся подросткового возраста в общеобразовательных школах. Анализируются механизмы проявления творческой активности в условиях специфических кризисов подросткового периода, личностной рефлексии и стремления к независимости. Также в статье научно обосновывается значение социально-психологического климата в школе, влияния группы сверстников и стилей педагогического общения в формировании креативности подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, творческие способности, креативность, социально-психологический климат, мотивация, личностное развитие, общеобразовательная школа, микросреда.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING ADOLESCENTS' CREATIVE ABILITIES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Annotation. This article highlights the socio-psychological characteristics of developing creative abilities among adolescent students in general secondary

schools. The mechanisms of creative activity manifestation are analyzed within the context of specific developmental crises of adolescence, personal reflection, and the aspiration for independence. The study also scientifically substantiates the importance of the socio-psychological environment of the school, the influence of peer groups, and pedagogical communication styles in shaping adolescents' creativity.

Keywords: adolescence, creative abilities, creativity, socio-psychological environment, motivation, personal development, general secondary school, microenvironment.

Zamonaviy jamiyatning shiddatli rivojlanishi, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim tizimi oldiga nafaqat bilimli, balki mustaqil, nostandart fikrlaydigan va muammolarga ijodiy yondasha oladigan shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini (kreativligini) shakllantirish davlat ta’lim standartlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, har qanday sohadagi innovatsiyalar va ijtimoiy yuksalish negizida insonning ijodiy salohiyati yotadi. Ushbu jarayonda, ayniqsa, o‘smirlik davridagi o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish alohida ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davri inson ontogenezidagi eng murakkab va serqirra bosqichlardan biri bo‘lib, u biologik o‘sish bilan birga shaxsiyatning ijtimoiy transformatsiyasini ham qamrab oladi. Bu davrda yetakchi faoliyat turi o‘qishdan tengdoshlar bilan motivatsion-shaxsiy muloqotga almashadi, bolada “kattalik hissi”, o‘z-o‘zini anglash (refleksiya) va mustaqillikka intilish kuchayadi. O‘smir hayotidagi bunday psixologik o‘zgarishlar uning ijodiy qobiliyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan, u atrofdagi voqelikka shaxsiy, o‘ziga xos munosabat bildirishga intilsa, ikkinchi tomondan, ichki nizolar, maktab muhitidagi konformizm (ko‘pchilikka ko‘r-ko‘rona bo‘ysunish) va negativizm uning kreativligini bloklab qo‘yishi mumkin[1]. Shu sababli, o‘smirlar ijodkorligini faqat individual intellektual jarayon emas, balki ijtimoiy-psixologik tizim sifatida o‘rganish zarurati tug‘iladi.

Umumta’lim maktablaridagi ijtimoiy-psixologik muhit – sinf jamoasidagi munosabatlar, tengdoshlar guruhining qadriyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot uslubi o‘smir ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishida yoki so‘nishida hal qiluvchi determinant (belgilovchi omil) hisoblanadi. Ko‘p hollarda maktab amaliyotida o‘quvchilarning akademik o‘zlashtirishi (baholari) birinchi oringa qo‘yilib, ularning nostandart g‘oyalari, divergent (turli yo‘nalishdagi) fikrlashi e’tibordan chetda qoladi. Bu esa o‘smirda o‘z ijodiy mahsulotini namoyish qilishdan qo‘rqish, “omadsizlik fobiya”si va ijodiy passivlikni keltirib chiqaradi[2]. Binobarin, o‘smirlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini ijtimoiy-psixologik kontekstda tadqiq etish bugungi kun psixologiya fani va ta’lim amaliyoti uchun o‘ta dolzarbdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – umumta’lim maktablari sharoitida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, mikromuhit xususiyatlari va maktab ijtimoiy iqlimining

qonuniyatlarini tizimli tahlil qilish hamda ularning kreativ salohiyatini faollashtirish bo‘yicha ilmiy-konseptual asoslarni ishlab chiqishdan iborat.

Umumta’lim maktablarida o‘smirlar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ushbu tadqiqot konseptual-nazariy va qiyosiy-tahliliy metodologiya asosida olib borildi. O‘smirlik davridagi kreativlik muammosi nafaqat individual-psixologik (intellekt, divergent fikrlash), balki keng ijtimoiy-psixologik determinatsiyaga (maktab iqlimi, tengdoshlar bosimi, oilaviy va pedagogik muloqot) ega bo‘lganligi sababli, tadqiqotda tizimli-faoliyatli va sotsiomadaniy yondashuvlar yetakchi o‘rin tutdi.

Tadqiqotning metodologik apparati bevosita empirik o‘lchovlarsiz ham muammoning ichki qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi quyidagi ilmiy-nazariy usullar majmuasidan tashkil topdi:

O‘smir shaxsining ijodiy qobiliyatlarini maktab mikromuhiti (sinf jamoasi, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari tizimi) bilan uzviy bog‘liqlikda, dinamik guruh jarayonlarining mahsuli sifatida tadqiq etish uchun qo‘llanildi.

Jahon va mahalliy psixologiya maktablarida (jumladan, ijodkorlik sotsiologiyasi, kreativlikning ijtimoiy-psixologik modellari bo‘yicha) mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlarni qiyoslash, o‘smirlik davridagi “kreativ inqiroz” va ijtimoiy konformizm o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash maqsadida ishlatildi.

Umumta’lim maktablarida o‘smirlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi bo‘yicha olib borilgan ilmiy-nazariy va konseptual tahlillar ushbu jarayonning sof individual fenomen emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik determinatsiyaga ega bo‘lgan tizimli reallik ekanligini ko‘rsatdi. Olingan nazariy natijalarga ko‘ra, o‘smirlik davridagi kreativlik va ijodiy salohiyat bolaning intellektual ko‘rsatkichlaridan ko‘ra, uning atrofidagi ijtimoiy mikromuhit, xususan, maktabdagi psixologik iqlim, tengdoshlar guruhidagi ooperativ aloqalar va pedagogik muloqot uslubiga ko‘proq bog‘liqdir. O‘smir yoshidagi o‘quvchilar hayotida “kattalik hissi” va o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyoji yuqori bo‘lgani bois, ularning ijodiy faolligi har doim ham an’anaviy ta’lim qoliplariga mos kelavermaydi[3]. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, maktab ijtimoiy muhitida keng tarqalgan konformizm va o‘quvchilarni faqat standart test mezonlari yoki akademik baholar orqali baholash tizimi o‘smirlarda “omadsizlik fobiyasi”ni keltirib chiqaradi va ularning divergent (nostandart) fikrlash mexanizmlarini to‘sib qo‘yadi.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaraganda, o‘smirlarning ijodiy qobiliyatlari shakllanishida sinf jamoasidagi sotsiometrik maqom va refleksiya jarayoni hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Guruhda o‘z g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanishini his qilgan, emotsional xavfsiz muhitda bo‘lgan o‘smirlarda ijodiy tavakkalchilikka tayyorlik va kreativ tashabbuskorlik darajasi keskin yuqori bo‘lishi ilmiy manbalarda asoslangan. Aksincha, o‘qituvchining avtoritar boshqaruv uslubi, qat’iy intizomiy bosim va tengdoshlar tomonidan masxara qilinish xavfi o‘smir shaxsida kreativ ijodkorlikni butunlay bloklaydi va uni passiv ijrochi pozitsiyasiga tushiradi. Demak, maktab muhitida o‘smirlar kreativligini rivojlantirishning bosh mezoni – dars jarayonida xatolarga nisbatan bag‘rikenglik (tolerantlik) madaniyatini

shakllantirish, o‘quvchi o‘zining noodatiy g‘oyalarini qo‘rqmasdan ifoda eta oladigan interaktiv va sotsial-psixologik jihatdan qulay disskursiv maydon yaratishdan iboratdir.

Umumta’lim maktablarida o‘smirlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga doir ilmiy-nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik shaxs strukturasi va sotsial mikromuhit o‘rtasidagi dinamik muvozanat mahsulidir. Psixologiyada uzoq vaqt davomida kreativlik faqat intellektual salohiyat (IQ) ko‘rsatkichlariga bog‘liq individual xususiyat sifatida talqin qilingan bo‘lsa-da, zamonaviy sotsial-psixologik tadqiqotlar uning maktab ijtimoiy muhiti bilan qanchalik uzviy bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatmoqda[4]. Xususan, o‘smirlik davridagi “kreativ inqiroz” ko‘p hollarda bolaning asab tizimi yoki intellektining pasayishi bilan emas, balki maktab va tengdoshlar guruhidagi ijtimoiy munosabatlarning keskinlashishi, bolaning jamoaga moslashish (konformizm) ehtiyojining ortishi bilan bog‘liqdir.

Ushbu muammoning sotsial-psixologik determinatsiyasini muhokama qilar ekanmiz, ta’lim muhitidagi yetakchi omil – pedagogik muloqot uslubiga alohida to‘xtalish lozim. Maktab amaliyotida keng kuzatiladigan avtoritar yoki qat’iy yo‘riqnomalarga asoslangan o‘qitish tizimi o‘smirlarda divergent (ko‘p variantli) fikrlashni bo‘g‘ib qo‘yadi. Zero, ijodkorlik tabiati har doim ma’lum ma’noda tavakkalchilikni va xato qilish huquqini talab qiladi. Agar maktab iqlimida faqat “to‘g‘ri va noto‘g‘ri” degan qat’iy mezonlar ustun bo‘lsa, o‘smir o‘zining noodatiy g‘oyalarini bildirishdan qo‘rqib qoladi[5]. Buning natijasida shaxsda ijodiy passivlik va sotsial fobiya shakllanadi. Aksincha, hamkorlik va demokratik muloqotga asoslangan interaktiv muhit bolada o‘z ijodiy mahsulotini taqdim etishga nisbatan ichki motivatsiyani uyg‘otadi.

Ikkinchi muhim jihat – bu o‘smirning tengdoshlar guruhidagi sotsiometrik maqomidir. O‘smirlik yoshida o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy refleksiya refleksiya guruhiy me’yorlar prizmasi orqali o‘tadi. Agar sinfdagi ijtimoiy-psixologik iqlim nosog‘lom bo‘lsa va har qanday noodatiylik jamoa tomonidan masxara qilinsa, o‘smir o‘z kreativligini yashirishga, ko‘pchilik kabi o‘ylashga va harakat qilishga majbur bo‘ladi. Shu sababli, maktablarda o‘smirlar ijodkorligini faollashtirish uchun faqatgina to‘garaklar ochish yetarli emas; eng avvalo, maktab jamoasida individual farqlarni qo‘llab-quvvatlovchi, xatolarga nisbatan tolerant (bag‘rikeng) bo‘lgan va o‘quvchilarning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlaydigan ekologik-psixologik muhitni modellashtirish zarur.

Umumta’lim maktablarida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini ijtimoiy-psixologik kontekstda o‘rganish natijasida quyidagi konseptual xulosalarga kelindi:

Birinchidan, o‘smirlik davrida namoyon bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlar va divergent fikrlash jarayoni faqatgina tug‘ma iste’dod yoki intellektual salohiyat (IQ) bilan belgilanmaydi. Mazkur jarayon o‘quvchini o‘rab turgan ijtimoiy mikromuhit — oila, maktab, sinf jamoasi, tengdoshlar guruhi va pedagogik munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadigan dinamik psixologik hodisadir. O‘smirlik davri psixologik jihatdan murakkab va ziddiyatli bosqich bo‘lib, bu

davrda shaxs mustaqil fikrlashga, o‘z “Men”ini namoyon etishga hamda jamiyatdagi o‘rnini anglashga intiladi. Shu nuqtai nazardan, ijodiy faoliyat o‘smir uchun nafaqat intellektual mashg‘ulot, balki o‘z-o‘zini tasdiqlash, ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va “kattalik hissi”ni ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirda ijodiy tafakkurning rivojlanishi uning erkin fikrlashi, muammolarga noodatiy yondashuvi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda yangi g‘oyalarni ilgari surishiga bevosita bog‘liqdir. Bunday sifatlarning shakllanishida psixologik xavfsizlik muhiti, shaxsga nisbatan hurmat, uning fikrini qadrlash va rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksincha, doimiy tanqid, bosim va nazoratga asoslangan muhit o‘smirning ichki imkoniyatlarini cheklab, unda passivlik, o‘ziga ishonchsizlik va konformizmni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, umumta’lim maktablaridagi ijtimoiy-psixologik iqlim o‘smir kreativligini rivojlantiruvchi yoki aksincha uni susaytiruvchi asosiy determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Maktabdagi pedagogik munosabatlarning xarakteri, o‘qituvchining kommunikativ uslubi, sinfdagi emotsional muhit va baholash tizimi o‘quvchining ijodiy faolligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, qat’iy standartlashtirilgan ta’lim tizimi, faqat yagona “to‘g‘ri javob”ni talab qiluvchi yondashuv, avtoritar pedagogik muloqot hamda muntazam ravishda xatolarga urg‘u berish o‘smirlarda psixologik zo‘riqish va xavotirni kuchaytiradi.

Natijada o‘quvchilarda ijtimoiy fobiya, omadsizlikdan qo‘rqish, tashabbus ko‘rsatishdan qochish kabi holatlar yuzaga keladi. Bunday psixologik holat esa kreativ fikrlashning eng muhim komponentlari hisoblangan erkinlik, tavakkalchilik va eksperiment qilish ehtiyojini susaytiradi. O‘smir o‘z g‘oyasi kulgiga qolishidan yoki tanqid qilinishidan qo‘rqib, noodatiy fikrlarni bildirishdan tiyila boshlaydi. Bu esa ijodiy potensialning to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

Shu bilan birga, demokratik va hamkorlikka asoslangan pedagogik muhit o‘smir shaxsining ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy muloqot, fikrlar xilma-xilligiga tolerant munosabat, xatoni tabiiy rivojlanish bosqichi sifatida qabul qilish hamda o‘quvchini mustaqil izlanishga yo‘naltirish kreativ faollikni rag‘batlantiradi. Ayniqsa, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, guruhiy ishlanmalar va interaktiv metodlardan foydalanish o‘smirlarda divergent fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tengdoshlar guruhi ham o‘smir ijodiy qobiliyatlarining shakllanishida muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lgan sinf jamoasida o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda etishga, yangi g‘oyalarni ilgari surishga va ijodiy tashabbus ko‘rsatishga moyil bo‘ladi. Aksincha, konfliktli yoki befarq ijtimoiy muhit o‘smirning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning ichki imkoniyatlarini cheklaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Shu sababli umumta’lim maktablarida ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhit yaratish, o‘quvchilarning psixologik xavfsizligini

ta'minlash, demokratik muloqot tamoyillarini kuchaytirish hamda kreativ faoliyatni rag'batlantiruvchi innovatsion metodlarni keng joriy etish dolzarb pedagogik-psixologik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Amabile, T. M. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity / T. M. Amabile. – Boulder : Westview Press, 1996. – 336 p.

2.Выготский, Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте : психол. Очерк : книга для учителя / Л. С. Выготский. – 3-е изд. – Москва : Просвещение, 1991. – 93 с.

3.Каримова, В. М. Ижтимоий психология : олий ўқув юртлари учун дарслик / В. М. Каримова. – Тошкент : Янги аср авлоди, 2012. – 172 б.

4.Guilford, J. P. Way beyond the IQ: Guide to improving intelligence and creativity / J. P. Guilford. – Buffalo : Creative Education Foundation, 1977. – 192 p.

UDK: 37.378

Kurbanov Jonibek Yo'ldoshevich,
Termiz tumani 16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

O'QUVCHILAR MEDIA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mediatafakkurini rivojlantirishning pedagogik zarurati tahlil qilingan. Tadqiqotda B. Shermuhammadov va D.S. Sobirov kabi olimlarning qarashlariga tayanib, elektron ta'lim resurslari, multimedia texnologiyalari va raqamli platformalarning o'quv jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, axborot xavfsizligi, etika va plagiat muammolari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar bayon etilgan. Maqola o'quvchilarda axborotni saralash, tahlil qilish va raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: mediatafakkur, raqamli ta'lim, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, elektron resurslar, axborot etikasi, kiberxavfsizlik, innovatsion texnologiyalar, multimedia.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕДИА-МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье анализируется педагогическая необходимость развития медиа-мышления у учащихся в современной системе образования. Исследование, основанное на взглядах таких ученых, как Б. Шермухаммадов и Д.С. Собиров, подчеркивает роль электронных образовательных ресурсов, мультимедийных технологий и цифровых платформ в образовательном процессе. Также описываются проблемы информационной безопасности, этики и плагиата, а также систематические меры по их устранению. В статье содержатся рекомендации по развитию у учащихся навыков сортировки, анализа информации и безопасной работы в цифровой среде.

Ключевые слова: Медиа-мышление, цифровое образование, информационная безопасность, критическое мышление, электронные ресурсы, информационная этика, кибербезопасность, инновационные технологии, мультимедиа.

PEDAGOGICAL PROBLEMS OF DEVELOPING STUDENTS' MEDIA THINKING

Annotation. This article analyzes the pedagogical need to develop students' media thinking in the modern education system. The study, based on the views of scientists such as B. Shermuhammadov and D.S. Sobirov, highlights the role of electronic educational resources, multimedia technologies and digital platforms in the educational process. It also describes the problems of information security, ethics and plagiarism, as well as systematic measures to eliminate them. The article contains recommendations for developing students' skills in sorting, analyzing information and safely operating in a digital environment.

Keywords: Media thinking, digital education, information security, critical thinking, electronic resources, information ethics, cybersecurity, innovative technologies, multimedia.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mediatafakkurini shakllantirish bugungi kunda nafaqat didaktik vazifa, balki raqamli jamiyat sharoitida yashash va faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan hayotiy kompetensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global axborot oqimining tezlashuvi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning kengayishi natijasida har bir o‘quvchi doimiy axborot ta’siri ostida qolmoqda. Bu esa ulardan nafaqat ma’lumotni qabul qilishni, balki uni tahlil qilish, solishtirish, ishonchliligini baholash hamda maqsadli filtrlay olish ko‘nikmalarini talab etadi. Shu jihatdan mediatafakkur o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va axborot madaniyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik omilga aylanmoqda.

Maktab davridan boshlab o‘quvchilarda axborotni to‘g‘ri qabul qilish va uni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ular turli axborot manbalarini taqqoslash, feyk yangiliklarni aniqlash, reklama va manipulyativ kontentni farqlash hamda raqamli muhitda xavfsiz harakatlanish malakalarini egallaydilar. Natijada o‘quvchilar nafaqat bilim oluvchi, balki axborot oqimini boshqara oladigan faol subyektga aylanadi. Bu esa ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirib, raqamli jamiyatda ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida mediatafakkurni rivojlantirish masalasi ham muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Umumta’lim fan dasturlariga media savodxonlik elementlarining kiritilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Shuningdek, pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy media resurslardan samarali foydalanish va o‘quvchilarda mediatafakkurni shakllantirish metodikalarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar mediatafakkurni rivojlantirishni faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, balki shaxsning intellektual, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishining ajralmas qismi sifatida ko‘radi. Chunki axborotning haddan tashqari ko‘pligi sharoitida to‘g‘ri qaror qabul qilish, asosli xulosa chiqarish va mustaqil

fikrlash qobiliyati har bir o‘quvchi uchun eng muhim kompetensiyalardan biriga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mediatafakkuri rivojlangan o‘quvchilarni tarbiyalash jamiyatning axborot xavfsizligini ta’minlash, turli manipulyatsion axborot oqimlariga qarshi turish hamda raqamli muhitda barqaror va ongli avlodni shakllantirishning muhim pedagogik kafolati hisoblanadi. Natijada mediatafakkur nafaqat ta’lim jarayonining tarkibiy qismi, balki zamonaviy jamiyat barqarorligini ta’minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Media tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-metodik va xavfsizlik jihatlari. O‘quvchilarda media tafakkurini shakllantirish — axborotni tanqidiy tahlil qilish, undan samarali va axloqiy foydalanish hamda raqamli muhitda mas’uliyatli ishtirok etish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon yosh avlodning zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun fundamental asosdir.

Professor S.Xodjaniyozovning tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, media tafakkurini rivojlantirishda axborot-resurs markazlarining pedagogik imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi. Takomillashtirilgan mexanizm doirasida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ustuvor etib belgilangan: Axborotni tizimli izlash va saralash; Olingan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish; Media mahsulotlariga nisbatan mustaqil mulohaza yurita olish [3].

B. Shermuhammadov tahlillariga tayangan holda, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida mediatafakkurni shakllantirish — bu shunchaki texnik mahorat emas, balki zamonaviy pedagogikaning poydevoridir. Mediata’lim va mediamadaniyat o‘quvchilarga nafaqat cheksiz axborot oqimidan to‘g‘ri manbalarni saralab olishni o‘rgatadi, balki ularda har bir ma’lumotga nisbatan sog‘lom shubha va tahliliy yondashuvni, ya’ni haqiqiy mediatafakkurni tarbiyalaydi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan o‘quvchi — bu jamiyatning axborot xurujlariga qarshi tura oladigan, mas’uliyatli va ongli fuqarosidir. Shu sababli, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish ko‘nikmasini tizimli rivojlantirish nafaqat shaxs kamoloti, balki mamlakat taraqqiyoti va milliy axborot xavfsizligini ta’minlashning eng muhim strategik omili bo‘lib xizmat qiladi [1].

Bugungi kunda axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida axborotga kirish imkoniyatlari kengaymoqda va insonlar oldida katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu sababli, talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot madaniyati nafaqat texnologik bilimlarni egallash, balki axborotni tahlil qilish, saralash, undan samarali foydalanish va axborot xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi

D.S.Sobirovning tadqiqotlariga tayangan holda aytish mumkinki, o‘quvchilarning mediatafakkuri va axborot madaniyatini yuksaltirishda ta’limni raqamlashtirish asosiy drayver hisoblanadi [2].

Elektron kutubxonalar, multimediya resurslari va virtual laboratoriyalar kabi innovatsion vositalar o‘quvchi uchun nafaqat bilim manbai, balki axborotni tahlil qilish va vizuallashtirish maydonidir. Bu jarayonda shunchaki ma’lumot olish emas,

balki raqamli platformalarda xavfsiz va samarali ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, ya’ni mediatafakkurni amaliyotga joriy etish muhim o‘rin tutadi. Maxsus treninglar va seminarlar orqali o‘quvchilarda raqamli xavfsizlik va axborot etikasi bo‘yicha ko‘nikmalar tizimli rivojlantirilishi, ularni axborot makonida nafaqat iste’molchi, balki mas’uliyatli va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta’lim muhitining tarkibiy qismlari

Texnologiya turi	Mediatafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni
Elektron kutubxonalar	Manbalarning ishonchliligini solishtirish va qiyosiy tahlil qilishni o‘rgatadi.
Multimediya resurslari	Axborotni vizual va audio shaklda idrok etish, uning ta’sir kuchini anglashga yordam beradi.
Raqamli platformalar	Jamoada ishlash va raqamli etikaga (netiket) rioya qilish madaniyatini shakllantiradi.
Virtual laboratoriyalar	Tajriba va faktlarga asoslangan xulosalar chiqarish orqali mantiqiy tafakkurni o‘stiradi.

Ushbu vositalarning uyg‘unlashuvi o‘quvchining axborot oqimidagi “shovqin”larni chetlab o‘tib, faqat foydali va xolis ma’lumotlarni saralab olish qobiliyatini — ya’ni uning mediatafakkurini yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va tajribalar shuni isbotlaydiki, o‘quvchilarda mediatafakkur hamda axborot madaniyatini yuksaltirish zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlovchi hal qiluvchi omildir. Raqamli muhitga muvaffaqiyatli moslashgan o‘quvchi nafaqat texnologiyalardan kundalik foydalanishni o‘zlashtiradi, balki ulardan ilmiy izlanish va ma’lumotlarni saralashda strategik qurol sifatida foydalanishni o‘rganadi. Bu jarayonda mediatafakkur o‘quvchiga cheksiz axborot ummonidan eng zarur va ishonchli dalillarni ajratib olishga, raqamli platformalar imkoniyatlarini o‘z intellektual salohiyatini oshirishga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Binobarin, axborot madaniyati rivojlangan yoshlar ilmiy-tadqiqot ishlarida raqamli vositalarni oqilona qo‘llash orqali murakkab vazifalarni tezkor va samarali hal etish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Bugungi raqamli asrda media tafakkuri nafaqat bilim, balki xavfsizlik vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt yordamida yaratiladigan dipfeyk (deepfake) texnologiyalari, kiberjinoyatchilik va murakkab dezinformatsion oqimlar sharoitida aholi, xususan, yoshlarning mediatafakkurini oshirish eng samarali yechimdir.

Media tafakkurining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda dezinformatsiya oqimining keskin kuchayishi zamonaviy jamiyatda chuqur va keng qamrovli tizimli muammolarni yuzaga keltirishi bir qator ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Raqamli axborot muhitining globallashuvi sharoitida axborotning tez tarqalishi, uning manbasini tekshirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda foydalanuvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi yetarli bo‘lmasligi ushbu jarayonlarni yanada murakkablashtirmoqda. Natijada jamiyatda axborotga nisbatan sog‘lom yondashuvning zaiflashuvi kuzatiladi.

Bunday holatlarning eng muhim oqibatlaridan biri — ishonch inqirozining chuqurlashishidir. Ya’ni, aholi orasida an’anaviy ommaviy axborot vositalari, davlat

institutlari hamda ilmiy manbalarga nisbatan shubha va ishonchsizlikning ortishi ijtimoiy kommunikatsiya tizimini zaiflashtiradi. Bu esa jamiyatning axborot maydonida "haqiqat" va "subyektiv fikr" o'rtasidagi chegaraning xiralashishiga olib keladi.

Ikkinchi muhim oqibat sifatida ijtimoiy beqarorlik kuchayadi. Dezinformatsiya va manipulyativ axborotlar turli ijtimoiy guruhlar, avlodlar hamda qarashlar o'rtasida keskin ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Natijada jamiyatning qutblanishi (polarizatsiya) kuchayib, konstruktiv muloqot o'rnini emotsional va qarama-qarshi fikrlar egallaydi. Bu holat ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi tizimli muammo esa qaror qabul qilishdagi xatoliklar bilan bog'liq bo'lib, u jamiyatning turli muhim sohalariga bevosita ta'sir etadi. Jumladan, siyosat, sog'liqni saqlash, ekologiya va ta'lim kabi strategik yo'nalishlarda noto'g'ri yoki tekshirilmagan axborotga asoslangan qarorlar qabul qilinishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat individual darajada, balki davlat va jamiyat miqyosida ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, media tafakkurini rivojlantirish va axborot savodxonligini oshirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning mediatafakkuri va axborot madaniyatini yuksaltirish bugungi raqamli transformatsiya sharoitida ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, bilimlarni samarali o'zlashtirishi hamda kelajak kasbiy faoliyatida raqobatbardosh bo'lishining eng muhim shartlaridan biridir. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli platformalarning kengayishi va ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi o'quvchilardan nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki yuqori darajadagi axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham talab etmoqda.

Zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish, har bir ma'lumotni turli manbalar asosida tekshirish, axborotning ishonchliligini baholash hamda manipulyativ va feyk kontentni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning raqamli muhitdagi xavfsizligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn muloqot madaniyatini to'g'ri yo'lga qo'yish ularni zamonaviy axborot jamiyatining mas'uliyatli a'zosi sifatida shakllantiradi. Bu esa nafaqat individual rivojlanishga, balki umumiy jamiyat axborot xavfsizligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, ta'lim tizimida faqatgina texnik va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'quvchilarda axborotni tahlil qilish, saralash, tanqidiy baholash va undan maqsadli foydalanish madaniyatini tizimli ravishda rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, tahlil qila oladigan va asosli qaror qabul qiladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Natijada mediatafakkuri rivojlangan yosh avlod axborot xurujlariga nisbatan barqaror immunitetga ega bo‘ladi, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga ongli yondashadi hamda ijtimoiy taraqqiyotga faol hissa qo‘shadigan yetuk va mas’uliyatli fuqarolar sifatida kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shermuhammadov B. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining mediasavodxonligini rivojlantirish zarurati va uning pedagogik tizimi. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 164 b.
2. Sobirov D.S. Ta’lim jarayonida elektron resurslar va multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. — Samarqand: Ilm-ziyo, 2023. – 150 b.
3. Xodjaniyozov S. Axborot-resurs markazlarining pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish metodikasi. — Urganch: UrDU ilmiy tadqiqotlar to‘plami, 2021. – B. 143-150.
4. G‘aniyeva M.A. Pedagogikada mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish nazariyasi. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2022. – 180 b.

UDK 159.922.8:37.015.3

Ahmedova Ruxshona Shodi qizi,
Termiz davlat universiteti
psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

IJTIMOIY MUNOSABATLARGA KIRISHAYOTGAN O'SMIRLARNING IRODAVIY SIFATLARINI DIAGNOSTIKA QILISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy munosabatlar tizimiga faol kirib borayotgan o'smirlarning irodaviy sifatlari, ularning shakllanish omillari hamda ta'lim jarayoni bilan o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida o'smirlarning irodaviy sifatlarini aniqlash va baholash maqsadida M.V. Chumakov metodikasidan foydalaniladi hamda empirik tahlil ishlari amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari asosida o'smirlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: iroda, irodaviy sifatlar, intizomlilik, mustaqillik, qat'iyatlilik, ijtimoiy muhit, o'smirlik.

ДИАГНОСТИКА ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ ПОДРОСТКОВ, ВСТУПАЮЩИХ В СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

Аннотация. В данной статье с научной и практической точки зрения анализируются волевые качества подростков, активно вступающих в систему социальных отношений, факторы их формирования и неразрывная связь с образовательным процессом. Для выявления и оценки волевых качеств подростков в процессе исследования используется методика М.В. Чумакова, проводится эмпирический анализ. На основе результатов исследования разработаны рекомендации и практические предложения по развитию волевых качеств подростков.

Ключевые слова: воля, волевые качества, дисциплина, самостоятельность, целеустремленность, социальная среда, подростковый возраст.

DIAGNOSIS OF VOLITIONAL QUALITIES OF ADOLESCENTS ENTERING SOCIAL RELATIONS

Abstract. This article analyzes the volitional qualities of adolescents who are actively entering the system of social relations, their factors of formation and their inextricable connection with the educational process from a scientific and practical point of view. In order to identify and assess the volitional qualities of adolescents, the M.V. Chumakov methodology is used in the research process and empirical

analysis is carried out. Based on the results of the research, recommendations and practical suggestions are developed to develop the volitional qualities of adolescents.

Keywords: will, volitional qualities, discipline, independence, determination, social environment, adolescence.

Bugungi kunda shaxs psixologiyasi sohasida insonning ichki kuch-qudratini tashkil etuvchi psixik jarayonlar va sifatlar, jumladan iroda masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Iroda insonning ongli faoliyatini, ijtimoiy muhitga moslashuvini, maqsad sari intilishini va shaxs sifatida shakllanishini belgilovchi muhim psixologik tushunchalar hisoblanadi. Shuning uchun ushbu tushunchani chuqur o‘rganish, ularning mohiyatini anglash zamonaviy psixologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘smirlarda iroda ijtimoiy hayotda, o‘qish va mehnat faoliyatida, muloqot va munosabatlarga kirishish jarayonida namoyon bo‘ladi. Irodaviy sifatlar o‘smirning jamiyatdagi o‘rnini, uning mas’uliyat darajasini, qat’iyatliligi va mustahkam harakatlanishini aks ettiradi. Ayniqsa, hozirgi axborot tezkor almashayotgan va tez o‘zgaruvchan sharoitda yashayotgan yosh avlod vakillari uchun irodaviy sifatarning ijobiy jihatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘smirlik davrida asosiy faoliyat ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda ular kasb-hunarga yo‘naltiriladi, o‘z maqsadlari tomon ildam harakat qilishadi. Shu bois, qo‘yilgan maqsadlarga yetish uchun irodaviy sifatlarning yetarli daradaja shakllanganligi o‘smirlik davrida muhim ahamiyatga ega. Irodaviy sifatlar juda yaxshi shaklangan bo‘lsa maqsadga yetish tezroq amalga oshadi.

Iroda - bu kishining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishidir.

Psixologiya tarixida iroda ustida ko‘plab olimlar tadqiqotlar o‘tkazgan. Mashhur rus psixologi L.S.Vigotskiy iroda faoliyatini insonning ijtimoiy tajriba orqali o‘zlashtirgan va ongli nazorat qilinadigan harakatlar tizimi sifatida ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, iroda jamiyatda o‘rgatiladigan, ijtimoiy me’yorlarga asoslangan xatti-harakatlar orqali shakllanadi.

O‘smirlik davrida ichki erkinlikning o‘sishida, o‘z-o‘zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o‘smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig‘i bo‘lib hisoblanadi.

K. Kornilov (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, irodaviy sifatlar insonning o‘z maqsadiga erishishda duch keladigan qiyinchiliklarni sezilarli darajada yengib o‘tish qobiliyatidan iboratligi aniqanadi. Shunday qilib, muallif chidamlilik va o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilik, mustaqillik va intizom kabi irodaviy fazilatlarga ishora qiladi. B.N.Smirnovning fikriga ko‘ra, irodaviy fazilatlar ixtiyoriy tartibga solish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu to‘siqlarni yengib o‘tishda maxsus sharoitlarda namoyon bo‘ladi.

K.S.Nikolayevna o‘smir o‘quvchilarda irodasini rivojlantirish jarayoniga ma’naviy va axloqiy sharoitlar sezilarli darajada ta’sir qiladi deb ta’kidlaydi. Bu esa motivlar yo‘qligida, ularning yetarli emasligi va nomuvofiqligida maqsadlarni tanlashni aniqlashga yordam beradi. Ma’naviy va axloqiy ko‘rsatmalar tanlov oldida noto‘g‘ri harakat yo‘nalishidan qochishga yordam beradigan yagona ko‘rsatma bo‘la oladi. O‘smir o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishi, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishi uchun irodaviy sifatlar shakllangan bo‘lishi zarur.

Yuqoridagiga o‘xshagan irodaviy sifatlar boshqa olimlar tomonidan ham o‘rganib chiqilgan. Masalan: P.M.Yakobson irodaning muhim sifatlari sifatida mustaqillik, qat’iylik, tirishqoqlik o‘zini uddalashni ko‘rsatadi. Insonda namoyon bo‘ladigan irodaviy sifatlar sarasiga A.I.Shcherbakov quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, qat’iyatlilik, chidamlilik va o‘zini uddalashlik, botirlik va jasoratlilik.

Sh.E.Gennadevna o‘smirlarning irodaviy fazilatlari faollik darajalari nisbatlarini tahlil qilib, o‘smirlik ixtiyoriy faollikning namoyon bo‘lishida eng beqaror va o‘zgaruvchan davr ekanligi, tashabbuskorlik, mustaqillik va qat’iyatlilik kabi sifatlar o‘zgarishlarga ko‘proq moyilligini ta’kidlab o‘tadi. Tashabbuskorlik, mustaqillik va qat’iyatlilikning ixtiyoriy fazilatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu fazilatlarning faolligi o‘smirlarning yoshga bog‘liq xususiyatlari hisoblanadi. 15-16 yoshdan keyin ixtiyoriy xatti-harakatlarda asosiy ixtiyoriy fazilatlarning optimal faollik darajalari namoyon bo‘ladi.

O‘smirlarning ixtiyoriy faolligi ularning ixtiyoriy xatti-harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanib o‘rganildi. Bu fazilatlar tashabbuskorlik, mustaqillik, qat’iyatlilik, matonat, jasorat, ehtiyotkorlik va boshqalarni o‘z ichiga oldi.

M.V.Chumakov o‘z asarlarida o‘quvchining shaxsiyatini belgilovchi irodaviy sifatlarning ikkita qutbiga ya’ni, biri ijobiy, ikkinchisi salbiyga ishora qiladi: mas’uliyat/mas’uliyatsizlik, tashabbuskorlik/tashabbuskorlikning yo‘qligi, qat’iyatlilik/qarorsizlik, mustaqillik/qaramlik, chidamlilik/qat’iylik, qat’iyatlilik/beqarorlik, energiya/kuchsizlik, diqqat/e’tborsizlik. Muallif, xususan, faoliyatda, ijtimoiy o‘zaro ta’sirda va boshqalarda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va to‘siqlarni yengib o‘tish uchun hissiy va ixtiyoriy sohalar o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan o‘zaro ta’sir bo‘lgan hissiy-ixtiyoriy tartibga solishni muhokama qiladi.

O‘smirlarda qaysi irodaviy sifatlar ustunroq ekanligini bilish maqsadida tadqiqot o‘kazildi. Tadqiqot uchun 40 nafar o‘smir tanlab olindi. Sinaluvchilardan M.V.Chumakovning “shaxsning irodaviy sifatlarini aniqlash metodikasi olindi va emperik jihatdan tahlil qilindi.


1-jadval

M.V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatlarini aniqlash metodikasining jins va o‘rtacha qiymat natijalari tahlili

	Soni	foiz	O‘rtacha qiymat
Qizlar	19	47,5%	11,73
O‘g‘il bolalar	21	52,5%	11,95
Jami	40	100%	11,85

Tadqiqotimizda olingan metodika natijasi shuni ko‘rsatadiki, qizlar – 19 nafar (47,5%) O‘g‘il bolalar – 21 nafar (52,5%) Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, tanlanmada jinslar deyarli teng taqsimlangan, ya’ni natijalarni taqqoslash uchun yetarlicha muvozanat mavjud. O‘g‘il bolalar ulushi biroz yuqoriroq bo‘lsa-da, farq katta emas.Irodaviy sifatlar bo‘yicha o‘rtacha natijalar,qizlar: 11,73 ,o‘g‘il bolalar: 11,95 umumiy o‘rtacha: 11,85 bu yerda ko‘rinib turibdiki o‘g‘il bolalarda o‘rtacha ko‘rsatkich qizlarga nisbatan biroz yuqoriroq.

Tadqiqotimizning keyingi boshqichida respondentlarimiz shaxsning irodaviy sifatlari bo‘yicha natijalar tahlil qilingan.



1-rasm. M.V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatlarini aniqlash metodikasining natijalar tahlili

Shaxsda irodaviy sifatlarni o‘rganish metodikasi o‘smirlarda irodaviy sifatlarni o‘rganishga qaratilgan. Irodaviy sifatlar inson hayoti davomida o‘z maqsadlariga erishish va hayot yo‘lini tog‘ri tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Metodika 40 nafar o‘smirda sinovdan o‘tkazildi. Ulardan 19 nafar qiz bolalar 47,5 % , 21 nafar o‘g‘il bolalar 52,5 % ni tashkil etadi. Sinaluvchilar blankada javoblarini qayt etishdi. Qayt etilgan natijalar orqali o‘smirlarning 9 ta irodaviy sifatlari tahlil qilindi. 19 nafar o‘smirda (47,5%) sobitqadamlik shklalasi bo‘yicha yuqori natija qayd etildi. Sobitqadamlik- o‘z maqsadilaridan og‘ishmaslik, kishining sabotlilik darajasini namoyon etadi. Bu irodaviy sifat o‘smirlik davrida muhim hisoblanadi, chunki bu davrda ular o‘z maqdalariga erishish, kasb –hunar egallash maqsadida bo‘ladi. Sobitqadadamlik sifati juda yaxshi rivojlangan bo‘lsa o‘smirlarda ta’lim jarayoni yaxshi darajada amalga oshadi. Sinaluvchilarning 7 nafarida (17,5%) matonatlilik shkalasi yuqori ekanligi aniqlandi. Matonatlilik- insonning ruhiy mustahkamligi, qiyinchiliklarga dosh bera olish qobiliyati va irodasining kuchlilik darajasi. Sinaluvchilarning 7 nafarida (17,5%) g‘ayratlilik shkalasi yuqori deb baholandi. G‘ayratlilik- bu insonning ichki kuchi, qat’iyat va shijoat bilan harakat qilishi, qiyinchiliklardan qo‘rqmasdan oldinga intilishidir. Sinaluvchilarning 2 nafarida (5%) mas’uliyatlilik shkalasi yuqori ekanligi aniqlandi. Mas’uliyatlilik- bu insonning o‘z vazifalari, qaror va harakatlari uchun javobgarlikni his qilish va uni bajarishga mas’uliyat bilan yondashish xususiyatidir. Sinaluvchilarning 5 nafarida (12,5%) sobitqadamlilik va matonatlilik shkalasi bir xil natijada qayd etildi. Qiz bolalarda shaxsning irodaviy sifatlarini o‘rganish bo‘yicha

olingan o‘rtacha qiymat 11,73 , o‘g‘il bolalarda esa 11,95 ni tashkil etdi. Umumiy o‘rtacha qiymati 11,85 ni tashkil etadi. Bu foizlar sinaluvchilarning yuqori chiqqan sifatlari bo‘yicha tahlil qilindi.

O‘smirlarni empirik tahlil qilish natijalari ularning irodaviy sifatlari, xususan mas’uliyat, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, mustaqillik, sobitqadamlik va matonat kabi psixologik xususiyatlari qay darajada shakllanganligini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqot davomida o‘smirlarning kundalik faoliyati, ta’lim jarayonidagi ishtiroki, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotdagi xatti-harakatlari tahlil qilinib, ularning irodaviy sifatlari amaliy jihatdan baholandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy munosabatlarga faol kirishayotgan o‘smirlarda irodaviy sifatlar ma’lum darajada shakllangan bo‘lib, ayniqsa sobitqadamlik va matonatlilik sifatlari ustunlik qilishi kuzatildi. Mazkur sifatlar o‘smirlarning oldiga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishda qat’iylik bilan harakat qilishi, qiyinchilik va to‘siqlarga duch kelganda o‘z faoliyatini davom ettira olishi hamda ruhiy barqarorlikni saqlab qolishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘g‘il bolalarda sobitqadamlik va matonatlilik sifatlari qizlarga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ldi. Bu holat, avvalo, jamiyat tomonidan o‘g‘il bolalarga nisbatan qo‘yiladigan ijtimoiy talablar bilan izohlanadi. Ya’ni o‘g‘il bolalardan ko‘proq mustaqillik, jismoniy va ruhiy bardoshlilik, muammoli vaziyatlarda tezkor va qat’iy qaror qabul qilish talab etiladi. Shu sababli ular turli murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqara olish, boshlangan ishni oxiriga yetkazish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga ko‘proq intiladi. Bu esa ularda matonat va sobitqadamlik sifatlarining nisbatan kuchliroq rivojlanishiga zamin yaratadi.

Qiz bolalarda esa mas’uliyatlilik, tartiblilik va hissiy sezgirlik ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi kuzatildi. Ular ko‘proq muloqotga moyilligi, ijtimoiy munosabatlarda ehtiyotkorligi hamda vaziyatni chuqurroq his qilishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, qizlarda ham qat’iyatlilik va mustaqillik sifatlari shakllanib borayotgani, ayniqsa ta’lim jarayonida faollik ko‘rsatishi orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iborat bo‘ldiki, irodaviy sifatlarning rivojlanishi o‘smirning oilaviy muhiti, ta’lim muassasasidagi psixologik atmosfera, tengdoshlar bilan munosabati hamda pedagoglarning qo‘llab-quvvatlovchi yondashuviga bevosita bog‘liqdir. Oila a’zolari tomonidan mustaqil fikrlashga undash, o‘smirning fikriga hurmat bilan qarash hamda unga ma’lum darajada erkinlik berilishi irodaviy sifatlarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ta’lim muassasasida o‘quvchilarga mustaqil qaror qabul qilish, tashabbus ko‘rsatish va mas’uliyatli vazifalarni bajarish imkoniyatining yaratilishi ham ularning irodaviy rivojlanishini jadallashtiradi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, irodaviy sifatlar o‘smirlarning nafaqat shaxsiy kamolotida, balki ularning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvida ham muhim o‘rin tutadi. Chunki irodaviy jihatdan rivojlangan o‘smir o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya oladi, unga erishish yo‘lida qiyinchiliklardan cho‘chimaydi hamda o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarishga intiladi. Shu bois o‘smirlarning

irodaviy sifatlarini erta aniqlash, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakda ularning ijtimoiy faolligi, mustaqil hayotga tayyorgarligi va shaxs sifatida muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Quyidagi usullar qo‘llash orqali o‘smirlarda irodaviy sifatlar yanda yaxshiroq rivojlanadi.

1. Ta’lim jarayonida o‘smirlarning barcha irodaviy sifatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik treninglar tashkil etish lozim.

2. O‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan o‘smirlarning irodaviy sifatlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish tizimini kuchaytirish zarur.

3. Dars jarayoniga muammoli vaziyatlar va mustaqil qaror qabul qilishga undovchi topshiriqlarni ko‘proq kiritish tavsiya etiladi.

4. Sport va jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish – jismoniy faoliyat iroda bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa qat’iyatlilik, sabr-toqat, intiluvchanlik kabi sifatlarni kuchaytiradi.

5. Ijtimoiy faoliyat (to‘garaklar, loyihalar, jamoaviy ishlar) orqali ularning matonat va sobitqadamligini amaliy jihatdan mustahkamlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ильин Е.П. “Психология воли”. [Psychology of Will]. Sant Petersburg: Piter. 2009.

2. Ширяева, Эльвира Геннадьевна “Волевая активность в подростковом возрасте, ее развитие и коррекция” 2003.

3.”Духовно-нравственные условия волевого развития подростка в учебной деятельности” Карасева, Светлана Николаевна 2005.

4. Oxana Paladi, Tatiana Lungu. “Particularities of pupils’ volitional qualities based on gender and background” 2025.

5. Chumakov M.V. “Psixologiya: Shaxs va uning rivojlanishi” Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti. Tashkent 1995.

6. Gysen L.V. “Iroda va motivatsiya” Moskva 2006.

UDK 81'25:821.512.133-32

Nosirjonov Muhammadamin Sunnatjon o'g'li,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
3-kurs talabasi

SAID AHMADNING "ALLA" HIKOYASINING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Said Ahmadning "Alla" ("تهويدة") hikoyasi tarjimasi va badiiy tahlili masalalari ilmiy-nazariy tahlil etiladi. Asarda inson ruhiyati, vijdon azobi, kechikkan pushaymon, yo'qotilgan baxt va onalik sog'inchi kabi murakkab psixologik holatlar badiiy vositalar orqali yoritilgan. Tadqiqot davomida arab tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik-semantik, sintaktik, stilistik hamda lingvomadaniy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, hikoyadagi psixologizm, ichki monolog, metaforik qatlam, poetik tasvir va simvolik obrazlarning estetik vazifasi ochib berilgan. Maqolada badiiy tarjima jarayonining faqat til almashtirish emas, balki muallif ruhiy-estetik dunyosini qayta yaratish san'ati ekanligi ilmiy dalillar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy tarjima, psixologizm, stilistika, metafora, simvolizm, ichki monolog, nasr, tarjimashunoslik, lingvopoetika, badiiy matn, interpretatsiya, poetik obraz, lingvomadaniyat, semantik transformatsiya.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗА САИДА АХМАДА «АЛЛА»

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический анализ вопросов перевода и художественного анализа рассказа Саида Ахмада «Колыбельная» («Alla» / «تهويدة»). В произведении посредством художественных средств освещаются такие сложные психологические состояния, как человеческая психика, муки совести, запоздалое раскаяние, утраченное счастье и тоска по материнству. В ходе исследования анализируются лексико-семантические, синтаксические, стилистические и лингвокультурные проблемы, возникающие в процессе перевода с арабского на узбекский язык. Также раскрывается эстетическая функция психологизма, внутреннего монолога, метафорического пласта, поэтического изображения и символических образов в рассказе. В статье на основе научных фактов обосновывается, что процесс художественного перевода является не просто сменой языка, а искусством воссоздания духовно-эстетического мира автора.

Ключевые слова: перевод, художественный перевод, психологизм, стилистика, метафора, символизм, внутренний монолог, проза, переводоведение, лингвопоэтика, художественный текст, интерпретация, поэтический образ, лингвокультура, семантическая трансформация.

SEMANTIC ANALYSIS OF SAID AHMAD'S STORY "ALLA"

Abstract. This article provides a scientific-theoretical analysis of the issues concerning the translation and literary analysis of Said Ahmad's story "Alla" ("Lullaby" / "تهويدة"). The work illuminates complex psychological states such as the human psyche, pangs of conscience, belated regret, lost happiness, and the longing of motherhood through literary devices. During the research, the lexical-semantic, syntactic, stylistic, and linguo-cultural problems that arise in the process of translation from Arabic into Uzbek are analyzed. Furthermore, the aesthetic function of psychologism, inner monologue, the metaphorical layer, poetic depiction, and symbolic images in the story are revealed. The article provides scientific evidence to substantiate that the process of literary translation is not merely a language substitution, but the art of recreating the author's spiritual and aesthetic world.

Keywords: translation, literary translation, psychologism, stylistics, metaphor, symbolism, inner monologue, prose, translation studies, linguopoetics, literary text, interpretation, poetic image, linguoculture, semantic transformation.

XX asr o‘zbek nasrining taraqqiyotida Said Ahmad alohida o‘rin egallaydi. Adib o‘z ijodida inson qalbi va ruhiyatidagi murakkab jarayonlarni badiiy jihatdan chuqur tasvirlashga intilgan. Yozuvchining hikoya va qissalarida insonning ichki dunyosi, ma’naviy iztiroblari, vijdon azobi hamda ruhiy kechinmalari hayotiy va ta’sirchan usulda aks ettiriladi. “Alla” (“تهويدة”) hikoyasi ham yozuvchining ana shunday yuksak psixologik mahoratini namoyon etuvchi asarlaridan biridir.

Mazkur hikoya inson hayotidagi kechikkan pushaymon, armon va yo‘qotilgan imkoniyatlar fojeasini ochib beradi. Asar markazida O‘zoda obrazi turadi. Muallif uning ichki iztiroblarini bahor manzaralari, gullar, deraza, shamol va alla singari poetik ramzlar orqali yoritadi. Hikoyada tashqi voqealardan ko‘ra ruhiy dinamika ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli asar o‘zbek psixologik nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida baholanadi.

Badiiy asarni tarjima qilish esa murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, psixologik asarlarni tarjima qilishda tarjimondan nafaqat til bilimlari, balki estetik did, madaniy tafakkur va muallif uslubini his qilish qobiliyati talab etiladi. “Alla” hikoyasining arab tilidagi variantini o‘zbek tiliga o‘girish yoki aksincha tarjima qilish davomida lingvistik, stilistik va madaniy muammolar yuzaga keladi. Tarjimonda matnning poetik ruhi, emotsional yuklamasi va obrazlilik darajasini saqlab qolish mas’uliyati paydo bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi - hikoyaning tarjima xususiyatlarini, psixologik qatlamlarini, poetik tasvir vositalarini hamda simvolik obrazlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Badiiy tarjimaning nazariy asoslari: Badiiy tarjima tushunchasi va uning mohiyati.Badiiy tarjima – bu bir tildagi san’at asarini boshqa til vositasida qayta yaratish jarayonidir.Oddiy axborot tarjimasidan farqli ravishda badiiy tarjima matinning:

-estetik qiymatini

-emotsional ta’sirini

-uslubiy xususiyatlarini
-milliy koloritini saqlash talab qiladi.

Tarjimon muallifning individual uslubini his qilishi va uni yangi til vositalari orqali qayta yaratishi kerak. Shu sababli tarjima jarayoni ijodiy interpretatsiya xarakteriga ega.Umberto Eco tarjimani "bir madaniyatni boshqa madaniyatga ko'chirish san'ati" deb baholaydi. Haqiqatan ham, tarjima jarayonida faqat so'z emas, balki mentalitet, tarixiy muhit va badiiy tafakkur ham ko'chadi.

"Alla" hikoyasi tarjimasida ayniqsa psixologik tasvirlarning nozik jihatlarini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki asardagi asosiy dramatizm qahramon qalbidagi ichki kurash bilan bog'liq.

Tarjimada leksik-semantik muammolar: Arab tilidagi ayrim birliklar o'zbek tilida aynan bir xil semantik qatlamga ega emas. Shu sababli tarjimon ko'pincha kontekstual sinonimlardan foydalanishga majbur bo'ladi. Masalan: "نسيم الربيع يفوح"

Mazkur iborada "يفوح" fe'li: esmoq, taralmoq, muattar hid yoymoq kabi ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.Uni oddiy "esmoqda" deb tarjima qilish badiiy ta'sirni pasaytiradi. Shu bois: "Bahorning muattar nafasi taralardi" kabi variant estetik jihatdan kuchliroq hisoblanadi.

Bu yerda tarjimon:
-semantik adekvatlikni;
-poetik ohangni;
-emotsional ta'sirni;

Sintaktik transformatsiyalar: Arab tilidagi nominal gaplar o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'girilganda tabiiylik buzilishi mumkin. O'zbek tilida fe'l markazli gaplar ustuvorligi sababli sintaktik transformatsiya zarur bo'ladi. Masalan: "كان هذا الشارع بأشجاره وجداوله شاهدًا على أسعد أيامها" So'zma-so'z tarjima grammatik og'irlik tug'diradi. Shuning uchun: "Bu ko'cha daraxtlari va ariqlari bilan uning eng baxtli kunlariga guvoh edi." arzidagi variant mantiqiy va stilistik jihatdan muvaffaqiyatliroq sanaladi.

Tarjimada quyidagi transformatsiyalar ko'p uchraydi:
-inversiya;
-qo'shimcha ma'no kiritish;
-qisqartirish;
-grammatik almashtirish;
-sintaktik moslashtirish.

Lingvomadaniy birliklar tarjimasi: Badiiy matnda milliy-madaniy realiyalar muhim o'rin tutadi. Tarjimon ularni boshqa madaniyat vakiliga tushunarli qilib yetkazishi kerak. Masalan: "نبيذ مارسالا" "Marsala vinosi" italyan madaniyatiga oid realiya hisoblanadi. Uni shunchaki "vino" deb berish asarning madaniy fonini kambag'allashtiradi.Shu bois tarjimada:

-transliteratsiya;
-izohli tarjima;

-adaptatsiya
usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.Bu holat tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasi naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Asarda psixologizm va ruhiy tahlil: Psixologizmning badiiy vazifasi: Psixologizm - qahramon ruhiy olamini chuqur badiiy tasvirlash usulidir. “Alla” hikoyasida aynan psixologik tasvir markaziy o‘rinda turadi. Muallif qahramon qalbidagi:

-iztirob;
-armon;
-qo‘rquv;
-vijdon azobi;
-yolg‘izlik holatlarini tabiat tasvirlari bilan uyg‘un holda ochib beradi. Bahor tasviri tashqi fon bo‘lsa-da, aslida qahramon ruhiyatining metaforik aksidir. Asardagi ruhiy dramatizm voqealardan ko‘ra kuchliroq ta’sir uyg‘otadi.

Ichki monolog usuli: Ichki monolog hikoyaning eng muhim poetik vositalaridan biridir. Qahramon o‘z-o‘zi bilan suhbatlashadi, o‘tmishdagi qarorlarini xayolan qayta boshdan kechiradi. Masalan: “جريمة… جريمة…” takrori oddiy so‘z emas, balki ruhiy portlash ifodasidir. Tarjimada bu takrorni saqlab qolish zarur: “Jinoyat… jinoyat…” Bu usul kitobxonni qahramon qalbiga yanada yaqinlashtiradi.

Badiiy tarvir vositalari: Metafora va tashbehlar, Asarda metafora va tashbehlar muhim badiiy vosita sifatida qo‘llangan. Muallif oddiy tabiat tasvirlari orqali chuqur falsafiy ma’no yaratadi. Masalan: “Asal gullari oltin tangalardek to‘kilmoqda.” Ushbu o‘xshatishda:

-**gullar** -+ o‘tkinchi baxtni;
-**oltin tangalar** - qadrli imkoniyatlarni;
-**to‘kilish** - yo‘qotish va umr o‘tkinchiligini ifodalaydi. Muallif poetik tasvir yordamida tabiat manzarasini inson ruhiyati bilan bog‘laydi. Natijada tasvir nafaqat estetik, balki falsafiy mazmun ham kasb etadi. Bu esa asarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Tarjimada badiiy adekvatlik maslasi: Badiiy adekvatlik tarjimashunoslikning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, tarjimaning asl matnga mazmunan va badiiy jihatdan mos kelishini anglatadi. Tarjima jarayonida asarning nafaqat mazmuni, balki uning uslubi, emotsional ta’siri va estetik ruhi ham saqlanishi muhimdir. Shu sababli tarjima:

-mazmuniy;
-uslubiy;
-emotsional;
-estetik jihatdan original asarga yaqin bo‘lishi kerak.

“Alla” hikoyasini tarjima qilishda tarjimon muallifning individual uslubini chuqur his qilishi zarur. Chunki asarda psixologik tasvir, ichki kechinmalar va ramziy ifodalar muhim o‘rin egallaydi. Tarjima davomida qahramon ruhiyati va matndagi hissiy yuk to‘liq saqlanmasa, asarning ta’sirchanligi pasayadi.Bundan tashqari, milliy koloritni saqlash ham muhimdir. Hikoyadagi milliy ruh, urf-odatlar,

ona allasi bilan bog‘liq ma’naviy tasvirlar boshqa tilga o‘girilganda ham tabiiy va tushunarli ifodalanishi kerak. Dialoglarning sun’iy emas, jonli va tabiiy chiqishi esa tarjimaning badiiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Agar ushbu jihatlar e’tibordan chetda qolsa, asarning estetik qimmati va o‘quvchiga bo‘lgan hissiy ta’siri sezilarli darajada susayadi.

Said Ahmadning “Alla” (“تۆ مەیدە”) hikoyasi o‘zbek psixologik nasrining yuksak namunalaridan biri sifatida alohida ilmiy-badiiy ahamiyatga ega. Asarda inson qalbidagi armon, kechikkan pushaymon, sog‘inch, yolg‘izlik, ruhiy iztirob va vijdon azobi kabi murakkab psixologik holatlar chuqur badiiy tasvirlar orqali mahorat bilan ochib berilgan. Muallif inson ruhiyatidagi eng nozik kechinmalarni oddiy voqealar tasviri orqali emas, balki ichki monolog, poetik tafakkur va ramziy obrazlar vositasida ifodalashga erishadi. Shu sababli hikoya o‘quvchini nafaqat voqealar rivoji bilan, balki qahramon ruhiy olamining murakkab qatlamlari bilan ham chuqur mushohadaga chorlaydi.

Asarda insonning o‘tmish bilan bog‘liq ruhiy kechinmalari markaziy o‘rin egallaydi. Qahramon qalbidagi kechikkan pushaymon va yo‘qotilgan baxt hissi voqealar davomida asta-sekin ochilib boradi. Muallif ruhiy dramatizmni tashqi harakatdan ko‘ra ichki ruhiy oqim orqali tasvirlaydi. Bu esa hikoyaning psixologik ta’sir kuchini yanada oshiradi. Qahramonning ichki kechinmalari, o‘tmishga qaytish istagi, yo‘qotilgan insoniy iliqlikni sog‘inish kabi holatlar o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, ona mehriga bo‘lgan ehtiyoj va ruhiy taskin izlash motivlari hikoyaning falsafiy-estetik mazmunini boyitadi.

Hikoya tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur asarni tarjima qilish oddiy til almashtirish jarayoni emas, balki murakkab ijodiy-estetik faoliyat hisoblanadi. Tarjimon faqat matn mazmunini boshqa tilga ko‘chirish bilan cheklanib qolmasligi, balki muallifning individual uslubi, hissiy ohangi, poetik tafakkuri va estetik dunyosini ham qayta yarata olishi zarur. Chunki badiiy tarjimada voqealarning tashqi mazmunidan tashqari, asarning ichki ruhiy energiyasi, emotsional ta’siri va lingvopoetik xususiyatlari ham muhim o‘rin tutadi. Aynan shu jihatlar tarjimaning badiiy adekvatligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Tarjima jarayonida psixologik tasvirlarning tabiiyligi va ta’sirchanligini saqlab qolish tarjimon oldidagi eng murakkab vazifalardan biridir. Chunki Said Ahmad uslubida so‘zlarning semantik nozikligi, obrazlarning ramziy ma’nosi va ichki ruhiy ohang ustuvor ahamiyat kasb etadi. Agar tarjimada ushbu nozik qatlamlar yetarli darajada aks ettirilmasa, asarning emotsional kuchi pasayib, muallif yaratgan ruhiy atmosfera yo‘qolishi mumkin. Shu bois tarjimon asarning nafaqat leksik va grammatik tuzilishini, balki uning psixologik-estetik mohiyatini ham chuqur his qilishi lozim.

Asardagi bahor, gullar, shamol, deraza va alla kabi obrazlar oddiy tasvir vositasi emas, balki inson ruhiyatining murakkab va ko‘p qatlamli holatlarini ifodalovchi falsafiy timsollar sifatida namoyon bo‘ladi. Bahor obrazi hayotning yangilanishi va o‘tkinchiligi bilan bog‘liq ma’nolarni anglatsa, shamol inson qalbidagi bezovtalik va ichki iztiroblarning poetik ifodasiga aylanadi. Deraza obrazi esa tashqi va ichki dunyo o‘rtasidagi ramziy chegara sifatida talqin qilinadi. Eng

muhim timsol esa "alla" obrazidir. Alla hikoyada mehr, ona qalbi, ruhiy taskin, bolalik xotiralari va yo'qotilgan baxtning ramziy ifodasi sifatida markaziy o'rin egallaydi. Ushbu obraz orqali muallif inson qalbidagi eng nozik va samimiy tuyg'ularni badiiy-falsafiy yo'sinda yoritadi.

Shuningdek, hikoyada metafora, tashbeh, psixologizm, ichki monolog va poetik tafsilotlarning uyg'un qo'llanishi asarning lingvopoetik qiymatini yanada oshiradi. Ichki monologlar orqali qahramonning ong oqimi, ruhiy iztiroblari va yashirin kechinmalari ochib beriladi. Metaforik tasvirlar esa matnning emotsional-estetik ta'sirini kuchaytirib, oddiy voqealarni chuqur falsafiy mazmun bilan boyitadi. Muallifning poetik uslubi hikoyaga lirizm va ruhiy mushohada ohangini olib kiradi.

Mazkur hikoya tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Chunki unda badiiy tarjimada adekvatlik, muallif uslubini saqlash, milliy koloritni qayta yaratish, psixologik tasvirlarni boshqa til vositalari orqali ifodalash kabi murakkab nazariy va amaliy masalalar mujassamdir. Ayniqsa, arab tiliga tarjima jarayonida lingvomadaniy birliklar, poetik obrazlar va semantik transformatsiyalar bilan bog'liq muammolar yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa hikoyani lingvopoetika, stilistika, qiyosiy adabiyotshunoslik va badiiy tarjima nazariyasi uchun dolzarb tadqiqot obyektiga aylantiradi.

Umuman olganda, Said Ahmadning "Alla" hikoyasi inson ruhiyatini chuqur tahlil qiluvchi, poetik va falsafiy qatlamlarga boy bo'lgan yuksak badiiy asardir. Asarda ilgari surilgan sog'inch, mehr, vijdon, insoniy armon va ruhiy poklanish kabi g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu sababli ushbu hikoya nafaqat o'zbek nasrining nodir namunasi, balki badiiy tarjima, psixologik nasr va lingvopoetik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy-estetik manba sifatida alohida qadriyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
2. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. G'afurov I. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2012.
4. Said Ahmad. "Ufq" (hikoyalar va qissalar to'plami). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.
5. Komilov, N. Badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

UDK 81'373.7(510)

Karimova Barno Salimjon qizi,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti 2-kurs talabasi

XITOY TILSHUNOSLARINING "AFORIZM" ATAMASIGA BERGAN TA'RIFLARI

Anotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi zamon adabiy xitoy tilida mavjud bo'lgan aforizmik birliklarni tavsiflash muammosi haqida so'z yurutiladi. Ushbu muommoni hal etishdagi ba'zi variantlarni batafsil ko'rib chiqilgan va nazariy tahlil qilingan.Taklif etilayotgan ma'lumotlarning maqsadi xitoy aforizmik birliklarini tavsiflash masalasi haqidagi munozarali tomonlari va ba'zi toksonomik yondashuvlarning assosizligini asoslash, balki xitoy tili aforizmik birliklari guruhlarining ishlab (tuzib) chiqish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: (格言)geyan, aforizmik birlik, xitoy tilshunosligi, frazeologiya, turg'un so'z birikmalari, (俗语)suyu, toksonomiya.

ПРЕДСТАВЛЕНИЯ КИТАЙСКИХ ЛИНГВИСТОВ О ТЕРМИНЕ «АФОРИЗМ»

Аннотация. В статье рассматривается проблема описания афористических единиц в современном литературном китайском языке. Подробно анализируются и теоретически обосновываются некоторые подходы к решению данной проблемы. Цель статьи — критически рассмотреть спорные вопросы, связанные с описанием китайских афористических единиц, показать недостатки некоторых таксономических подходов и предложить классификацию данных единиц.

Ключевые слова: geyan (格言), афористическая единица, китайское языкознание, фразеология, устойчивые словосочетания, suyu (俗语), таксономия.

DEFINITIONS OF THE TERM "APHORISM" IN CHINESE LINGUISTICS

Abstract. This article examines the problem of describing aphoristic units in modern literary Chinese. Several approaches to addressing this issue are analyzed in detail and theoretically evaluated. The aim of the study is to critically examine controversial issues in the description of Chinese aphoristic units, demonstrate the limitations of certain taxonomic approaches, and propose a classification of these units.

Key words: geyan (格言), aphoristic unit, Chinese linguistics, phraseology, fixed expressions, suyu (俗语), taxonomy.

Hozirgi davrda xitoy tilshunosligida bir qator xitoy aforizmik birliklari tavsifi mavjud, biroq ular ma'lum bir kamchiliklarga ega bo'lganligi uchun ular tayanadigan asoslar amorflik (shaklsizlik) mezonlar hisoblanadi. Shunga qaramasdan, ko'pgina taksonomik yondashuvlarning biri ustunlik qilib xitoy tilshunosligida ajratilgan va bu filologiyaga tegishli ko'pgina nufuzli darsliklarda hamda tilga tegishli asosiy ensiklopedik nashrlarda o'z aksini topgan. Ehtimol, bu, 60-70-yillardan boshlab to shu kunga qadar vaqt davomida xitoyshunoslikda mazkur taksonomik yondashuvni o'zlashtirish (hech qanday o'zgarishlarsiz) va ommabop bo'lishiga ta'sir etgan.

Aksariyat hollarda "aforizm" va "aforizmik birlik" tushunchasini (uni keng ko'lamda tushinish ma'nosida) belgilash uchun zamonaviy xitoy tilshunoslari "格言" *geyan* atamasini qo'llaydilar, bu so'zning atama komponenti tarjimasi *ge* ni "*o'rganmoq*" yoki "*tadqiq qilmoq*" deb talqin etish mumkin, *yan* esa "nutq" "til" ma'nosini beradi. Xitoy tilshunosligi uchun "aforizm" tushunchasi an'anaviy tushuncha hisoblanmaydi, lekin xitoy tilshunosligi doirasida yarim asrdan ko'p vaqt davomida mavjud. Chamasi, "aforizm" tushunchasi xitoy tilshunoslarini ko'pgina masalalarda Yevropa tilshunoslik an'analariga faol murojaat etishni boshlaganlarida rus yoki ingliz tillaridan o'zlashtirilgan bo'lsa kerak. "格言" *geyan* xitoy atamasi uch ma'noga ega:

1frezeologiya xitoy tilishunosligi bo'limi belgilash - nutqning turg'un bo'laklarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lim sifatida;
2. yig'ma atama – mazkur tilning aforizmik birliklari tarkibi/jamg'armasi sifatida;
3. aforizmik birlik (keng ko'lamdagi ma'no) sifatida. Uchinchi ma'nodagi "格言" *geyan* xitoy atamasiga aforizmik birlik, so'z birikmalari bilan birga tilning folklor darajasini tashkil etuvchi aforizmik birlik jumlalarini (ya'ni ba'zi xitoy tadqiqotchilari ekvivalent atama sifatida ko'pincha xalq og'zaki ijodiyotining aforistik janrlari maqol, matal, aforizm, topishmoqlarga yana bir yig'ma atama – "俗语" *suyu* ni) qo'llaydilar. Unda ***su*** *mashhur, hamma qabul qilgan, ayrim (tarmoqlanish, tarqalish)* ma'nolarini, ***yu*** – *nutq* ma'nosini beradi.

Umuman olganda, xitoy tilshunoslarining leksikologiya bo'yicha ishlarida "geyan" atamasini aniqlash ko'p uchramaydi, agar uchrasa ham, odatda, yuzaki xarakterga ega. Aforizm haqida yozuvchi, mualliflar faqat umumiy ta'kidlashlar bilan cheklanib, bir tomondan, mazkur masalani yetarli o'rganilmaganligini ta'kidlashsa, ikkinchi tomondan, hozirgi davrda aforizmning nazariy asosi yosh xitoy tilshunosligining endi shakllanayotgan sohasi ekanligi, xitoy tadqiqotchilari hali格言 "geyan" atamasini yirik ishlarda muvaffaqiyatli shakllantirishlariga ertaligi, turli xitoy mualliflarining ishlarida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar mazkur mavzuni yoritish uchun kamlik qilishi haqidagi fikrlarni bildiryaptilar. Xitoy tadqiqotchilari bu atamani qanday aniqlaydilar?

Masalan, tilshunos Yun Sheng (云生) 1959 yilda geyanlarga quyidagi definisiya (tushuncha mazmunini aniq mantiqiy belgilab berish)ni taklif qilgan: "geyan – bu ma'lum bir tildagi turg'un so'z birikmalarining mavjud yig'indisi", "geyan" larga u turg'un so'z birikmalari va turg'un jumlalarni kiritgan. Boshqa xitoy olimi Zhan Yun yan o'zining "Leksikologiyaga kirish" deb nomlanuvchi monografiyasida "shuyu" atamasining mazmun mohiyatini shunday belgilaydi: "Tilda yana shunday ba'zi o'ziga xos so'z birikmalari va jumlalari mavjudki, ular o'z vazifasiga ko'ra so'zlar, biroq ular nutq jarayonida tuzilmaydi, balki ular tilda tayyor shaklda mavjud va ularga biriktirilgan ma'lum bir ma'no kasb etadilar. Bunday shakldagi turg'un so'z birikmalari yoki jumlalar (ko'proq so'z birikmalari) 格言*geyan* deb ataladi.

"Zamonaviy xitoy tili leksikologiya asoslari" kitobi mualliflari Wu Zhankun va Wan Xinlar shunday yozadilar: "格言geyan – bu so'z birikmasi yoki qisqa jumla bo'lib, o'z ichki tarkibiga ko'ra murakkab so'zlar hisoblanadi, ma'no so'zlarga nisbatan ularda katta ifodani beradi, biroq qo'llash ko'lami va tashqi shakllarining turg'unligi jihatidan so'zlar bilan o'xshash; sintaktik jihatdan ham ular so'zlar bilan hamohang".

"Zamonaviy xitoy tili leksikologiyasi" (1985-yilda nashr etilgan) kitobi muallifi Fu Huai-qing (符淮清) til tizimida aforizmik birlik ("geyan")ning o'rnini aniqlashga va ularni tilning leksik darajasiga bog'lashga uringan: "Leksika o'ziga nafaqat so'zlarni olgan, balki ba'zi alohida nutq– "*yu*" larni, ya'ni chengyu, yanyu, suyu, xiehouyularni ham olgan. Ular so'z birikmalari yoki jumla tizimiga ega bo'lib, ularning tarkibiy komponentlari va tuzilish modeli uzoq nutq amaliyoti natijasida yuzaga kelgan, ularning ma'nosi ko'pincha bir butunlikni tashkil etadi. Ular tilning turg'un konstruksiyasini namoyon etadi". Fu Huai-qing aforizmik birliklarni alohida "guanyongyu"lar guruhiga ajratmaydi (bu va boshqa aforizmik birlik guruhlarini biz quyida ko'rib chiqamiz), shu bilan birga uch so'zdan tashkil topgan, "an'anaviy qarashlarda "guanyongyu"lar guruhi yadrosini tashkil etgan, asosan zamonaviy til leksik-grammatik normalari bo'yicha tuzilgan idiomatik FB lar haqidagi masalani chetlab o'tadi. Lekin shunga qaramay, u jumla tarkibida idiomatik aforizmik birliklarni belgilash uchun "*suyu*" (俗语 *suyu* aynan — *mashhur, hamma qabul qilgan ibora)*atamasini ishlatadi va uning fikriga ko'ra, ular pand — nasihat xususiyatiga ega emas, ya'ni maqollar (yanyu) hisoblanmaydi. Lekin u folklor nuqtai nazaridan bu birliklarni matal xarakteriga ega ekanligini ta'kidlab, bir qancha misollar keltiradi:

敬酒不吃吃罚酒 *jing jiu bu chi chi fa jiu* — yaxshi nasihat yoki ko'ndirishlarga quloq solmagan inson uni majburlash yoki jazolashdan keyingina bu narsaga ko'nadi, ya'ni ko'ngilsizlikni tilab oluvchi inson haqida so'z borayapti (bu ibora aynan "vino ichishni taklif qilsang, ichmaydi, lekin jarima vinoni ichishdan bosh tortmaydi", deb tarjima qilinadi);

这山望着那山高 *zhe shan wangzhe na shan gao* – o'z ishidan norozi, beqaror xarakterga ega va o'z xohishlari chegarasini bilmaydigan inson haqida (bu

ibora aynan "bir tog'da turib, ikkinchi tog'ni baland deb o'ylaydi", deb tarjima qilinadi).

"Geyan" - 格言atamasining turli ta'riflari haqidagi masalaga qaytamiz. "Zamonaviy xitoy tili lug'ati"da, "geyan" atamasining shunday ta'rifi keltiriladi: "Turg'un so'z birikmalari bir butunlikda qo'llaniladi, ularning tarkibiy komponentlarini o'zgartirish mumkin emas, bundan tashqari, ularni so'z tuzilishi nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin emas. "Cihai" lug'atida "geyan" so'zi yanada qisqa berilgan: "Mazkur tilning turg'un so'z birikmalari yoki jumlalari. Qo'llanilganda, odatda ular tarkibi o'zgartirilmaydi. Ularga chengyu, yanyu, guanyongyu va boshqalar ham kiradi.

"Geyan"- 格言atamasi tushunchasiga asosiy yondoshuv shulardan iboratdir. Agar keltirilgan ta'riflar amaliyotda qo'llanilsa, ularni qoniqarsiz ekanligini ko'rish mumkin, boshqacha qilib aytganda, ularda "geyan"- 格言(aforizmik birlik) ni aforizm bo'lmagan tilning boshqa birliklaridan chegaralovchi asosiy va ishonarli mezonlar yetishmaydi. Bunday tushunchalar ba'zi xitoy tilshunoslari, jumladan, Xu Guoqing (徐国庆) da uchraydi, masalan uning ta'kidlashicha, "geyan"- 格言(ya'ni aforizmik birlik)larni yuqorida keltirilgan ta'riflari, eng mashhur va nufuzli xitoy izohli lug'atlaridagi ma'lumotlar tugallanmagan (chala) va xato fikrlarga olib keladi. Chunki bu ma'lumot va fikrlarda "geyan"- 格言(ya'ni aforizmik birlik) larning umumiy belgilari (tarkibining turg'unligi, so'z birikmasi yoki jumla modeliga modelini to'g'ri kelishi va h.k.) sanab o'tilgan va ularning o'ziga xos maxsus belgilari haqida umuman hech narsa deyilmagan. U o'z fikrini tasdiqlar ekan, "geyan" larning aksariyat qismi turg'un so'z birikmalariga kirishini ma'qullaydi, biroq, u "geyan" (buyerda aforizmik birlik-so'z birikmalari)larning katta qismi faqat turg'un so'z birikmalari turlaridan biri ekanligiga urg'u berib, ularni boshqalar kabi frazeologizmlar deb hisoblamaydi, ular eng yuqori darajadagi kategoriyalarni tashkil etib, bir butun so'z birikmalarining barcha turlarini o'ziga oladi. Bunday holatga u nutqda tayyor shaklda kelgan (xuddi aforizmik birlik) va uning tarkibiy komponentlarini almashtirish yoki tarkibiy tuzilishini o'zgartirish mumkin bo'lmagan rasmiy jihatidan turg'un so'z birikmalaridan misollar keltiradi, masalan:

一 丘 之 貉yī qiū zhī háo –*bir tepalikdagi shoqollar*;

下马看花 xiàmǎ kān huā – *gulni ko'rish uchun otdan tushish(ya'ni xalq bilan yurish);*

情义无价qíng yì wújià –*do'stlikni bahosi yo'q*

Xu Guo-qingning yozishicha, "geyan" (ya'ni aforizmik birliklar) ma'nosining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi va ular tarkibiy komponentlar ma'nosidan chiqib ketmaydi (yuqorida keltirilgan misollardagi ot va atamalar kabi), balki, ikki rejali (双层性shuangcengxing) xususiyatga, yoxud, uyg'unlashgan (融合性ronghexing) xislatga ega, deb aytadi. Lekin bu fikrlariga qo'shilmay bo'lmaydi, chunki ancha oldin akademik V.V.Vinogradov frazeologik birliklarni frazeologik uyg'unliklar deb atagan. Shunday qilib, hozirgi davrda xitoy tilshunosligida aforistika mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanish jarayoni ketayapti, deyish mumkin. Ehtimol, oxiroqibat hozirgaga qadar bo'lgan munosabatlarga qaramasdan, ko'pgina

xitoy tadqiqotchilari tomonidan qabul qilingan格言学 *geyanxue* (*"xue"* – ta'limot ma'nosida) nomli atama o'zining haqiqiy o'rnini egallasa ajab emas.

Shuni ta'kidlash joizki, bundan yarim asr muqaddam Z.I.Baranovning aytishicha, xitoy tilshunosligida aforistika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida umuman ajratilmagan va hatto, mazkur ilmiy fanni nomlash uchun atama ham yo'q bo'lgan. XX asrning 50-60-yillarida aforistika bo'yicha xitoy tadqiqotchilarining ishlarida "chengyu atamasi paydo bo'lib, muallif yondashuviga qarab turli ma'nolar berilgan. "Chengyu" atamasi asosan quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

1. Turli to'rt so'zdan tashkil topgan "tayyor" (cheng) "iboralar" (yu)ni belgilash, ya'ni aforizmik birliklar-idiomalar va aforizmik birliklar ko'zda tutilgan jumlalar (maqol,ibora va h.k.), ya'ni bu atama aforistikani "keng ko'lamdagi ma'nosi"ni bildiradi (bunday nuqtai nazarni, xususan, He Ai-ren (何靄 人) 1957-yilda ma'qullagan);

2. Aforistikani "tor ma'noda" belgilash uchun, ya'ni unda ob'ekt faqat aforizmik birliklar -idiomalar hisoblanadi (Zhang Shi-lu (张世禄), 1957-1959-yillar shu nuqtai nazarni yoqlagan) Xuddi shu davrda boshqa xitoy tilshunoslari keng ma'nodagi aforistikaga yangi (格言) "geyan" — atamasi taklifi bilan chiqdilar. Bunga 1959-1960-yillardagi Yun Sheng (云 生) (uning "shuyu" definitsiyasi yuqorida keltirildi) va Tang Song-bo (唐松波) larning ishlari shaxodatlikberadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, xitoy aforistikasini hozirgi o'rganilish davri natijasida "geyan" atamasi sekin-asta umuman turli aforizmik birliklarning qabul qilingan umumiy yig'ma nomini tashkil etib, "chengyu" atamasi esa, asosan aforizmik birlik doirasining qabul qilingan umumiy tavsif paradigmasini bir guruhi nomi sifatida ishlatilmoqda.

Hozirgi kunda xitoy aforistikasi shakllanish jarayonining o'tish bosqichida ekanligi kuzatiladi. Ushbu yo'nalishning rivojlanishida eng muhim muammolardan biri — uzoq vaqt davomida ilmiy adabiyotlarda, lug'atlarda va nufuzli nashrlarda keng qo'llanib kelgan "geyan" (格言) atamasining nazariy jihatdan yetarli darajada asoslanmaganligidir. Ushbu atama ko'pincha umumiy ma'noda "hikmatli so'z", "ibratli ibora" yoki "aforizm" sifatida talqin qilinib, uning lingvistik mohiyati va struktural xususiyatlari to'liq ochib berilmagan. Natijada xitoy aforizmik birliklarini tasniflashda turlicha, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan yondashuvlar shakllangan.

Ko'plab an'anaviy xitoy tilshunoslari aforizmik birliklarni faqat "turg'un so'z birikmalari" doirasida ko'rib chiqish bilan cheklanib qolgan. Bu esa aforizmlarni frazeologiyaning boshqa birliklaridan — idiomalar (成语), maqollar (俗语), qanotli iboralar va barqaror nutq qoliplaridan ilmiy jihatdan aniq ajratib ko'rsatish imkonini bermagan. Natijada aforizmning lingvistik maqomi noaniq bo'lib qolgan hamda uning semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Biroq zamonaviy xitoy tilshunosligida bu masalaga yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Xususan, Xu Guoqing kabi tadqiqotchilar aforizmik birliklarni faqat ularning "turg'unligi" asosida emas, balki ularning ichki semantik-struktural

xususiyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, aforizmlarning asosiy lingvistik xususiyatlaridan biri ularning “ikki rejali” (双层性) tabiatga ega ekanligidir. Ya’ni, aforizm bir vaqtning o‘zida ham konkret lingvistik shaklga, ham chuqur falsafiy-mazmuniy qatlamga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, “uyg‘unlashganlik” (融合性) xususiyati ham muhim bo‘lib, u aforizmning til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.

Shu asosda xitoy aforistikasi endilikda oddiy tavsifiy yondashuvdan bosqichma-bosqich nazariy va tizimli tahlil bosqichiga o‘tmoqda. Bu jarayon aforizmik birliklarni nafaqat til birliklari sifatida, balki madaniy-kognitiv hodisa sifatida ham o‘rganishni talab etadi. Aforizmning mazmuniy qatlamlari, uning pragmatik vazifalari hamda nutqdagi kommunikativ funksiyalari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida chuqur tadqiq etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xitoy tilshunosligida aforizmlarni mustaqil ilmiy yo‘nalish — “geyanxue” (格言学) sifatida shakllantirish jarayoni faol davom etmoqda. Bu yo‘nalish Yevropa lingvistik an’analarining yutuqlarini o‘zlashtirish bilan birga, xitoy tilining o‘ziga xos frazeologik va madaniy xususiyatlarini integratsiya qilishga intilmoqda. Natijada yaqin kelajakda aforizmik birliklarning yanada aniq, tizimli va ilmiy asoslangan taksonomiyasini yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa nafaqat xitoy tilshunosligi, balki umumiy paremiologiya va qiyosiy frazeologiya rivojiga ham muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ветров П.П. Фразеология современного китайского языка. Синтаксис и стилистика. – М.: Московская книга, 2007. – С. 11.
2. “Zamonaviy xitoy tili leksikologiya asoslari” Wu Zhankun va Wan Xinlar
3. Иванов Е.Е. Лингвистика афоризма. Хрестоматия. Минск: Вышэйшая школа, 2018.
4. Zamonaviy xitoy tili lug‘ati, 1172 bet
5. Иванов Е.Е. Аспекты эмпирической квалификации афоризма // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2019. Т. 10. no 2.